MAKROIQTISODIYOT

330.1/071
M-19

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MAKROIQTISODIYOT

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

TDIU
kutubxonasi
h/v 206235

Toshkent
«IQTISOD-MOLIYA»
2018

330.1(07)
M-19

330.101.54ї

UO'K: 330(075.8)
KBK: 65.01ya73

Taqrizchilar: *TDIU dots.* **I.Yoqubov;**

TMI prof. **F.Karimov**

M10 Makroiqtisodiyot: O'quv qo'llanma / E.I.Ergashev, N.S.Kasimova, U.K.Muxtorova, G.X.Nazarova, M.E.Jabbarov; – T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. – 352 b.

Ushbu o'quv qo'llanmani yaratishdan maqsad, bakalavriat yo'nalishlarida ta'lim oluvchi talabalarda mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil etish, uni dinamikasini qiyosiy taqqoslash hamda davlatning makroiqtisodiy siyosati va strategiyasini to'g'ri asoslay olish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat.

O'quv qo'llanmada asosiy e'tibor makroiqtisodiyotning asosiy masalalariga va ularning amaliyotda qo'llanilishiga qaratilgan. Unda mamlakat makroiqtisodiy siyosatining hozirgi sharoitdagi xususiyatlariga alohida ahamiyat berilgan.

O'quv qo'llanma Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari bakalavrlari va o'qituvchilari, shuningdek makroiqtisodiyot bilan barcha qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

UO'K: 330(075.8)
KBK: 65.01ya73

ISBN 978-9943-13-771-4

© Mualliflar jamoasi, 2018
© "IQTISOD-MOLIYA", 2018

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotini yaxlit bir tizim sifatida tahlil qilish, uni rivojlantirish omillaridan samarali foydalanish, inflyatsiya darajasini pasaytirish, global iqtisodiyotga integratsiyalashuv sharoitida milliy iqtisodiyotni mutanosib va yuqori sur'atlarda rivojlanishini ta'minlash, milliy valyutamizning xarid qobiliyatini mustahkamlash, eksport salohiyatini yuksaltirish, to'lov balansi barqarorligini ta'minlash yo'llarini o'rganish makroiqtisodiyot fanining predmetiga kiradigan masalalardir.

Talabalarga mazkur fan xususiyatlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahnamoligida mamlakatda amalga oshirilishi ko'zda tutuilgan hamda izchil davom ettirilayotgan "Harakatlar strategiyasi" bilan bog'liq materiallar, qoidalar va xulosalarni puxta o'zlashtirishlari, kelgusi faoliyatlarida samarali foydalanishlari hamda ijodiy yondashishlarini ta'minlash fanni o'rganish oldida turgan asosiy vazifalaridan biridir.

"Makroiqtisodiyot" fanini o'qitishning maqsadi bakalavriat yo'nalishlarida ta'lim oluvchi talabalarda mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil etish va uni dinamikasini qiyosiy taqqoslash hamda davlatning makroiqtisodiy siyosati va strategiyasini to'g'ri asoslay olish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat.

Fanning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma talabalarga makroiqtisodiyotdan turli mavzular va ularga oid masalalarni hal etish uchun ko'nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir.

Mazkur o'quv qo'llanmadan barcha qiziquvchilar: talabalar, dars olib boruvchi professor-o'qituvchilar foydalanishlari mumkin.

I-BOB. "MAKROIQTISODIYOT" FANIGA KIRISH

1.1. "Makroiqtisodiyot" fanining shakllanishi tarix, predmeti va obyekti

Makroiqtisodiyot ham mikroiqtisodiyot kabi iqtisodiy nazariyaning bir bo'limini ifoda etadi. Grek tilidan tarjima qilganda "makro" so'zi "katta"degan ma'noni anglatadi (mos ravishda "mikro" – "kichik"), "iqtisodiyot" so'zi esa – "xo'jalik yuritish" ma'nosini anglatadi. Shunday qilib, makroiqtisodiyot – bu iqtisodiyotdagi umumiy xatti-harakatlarni yoki uning yirik jamlanmalarini (agregatlarini) o'rganuvchi fandir, bunda iqtisodiyot murakkab yirik yagona pog'onaviy tashkil etilgan tizim sifatida, iqtisodiy jarayonlar va voqeliklar hamda ularning ko'rsatkichlarining yig'indisi sifatida qaraladi.

Birinchi bor "makroiqtisodiyot" atamasini taniqli norveg olimi iqtisodchi matematik, ekonometrikaning asoschilaridan biri, Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan Ragnar Frish (Ragnar Frisch) o'zining 1933 yildagi maqolasida qo'llagan. Biroq mazmunan zamonaviy makroiqtisodiy nazariya Kembridj maktabi vakili taniqli ingliz iqtisodchisi lord Djon Meynard Keyns (John Maynard Keyns)ning fundamental mehnatlaridan boshlangan. 1936 yilda Keyns makroiqtisodiy tahlil asoslarini qo'ygan "Bandlik, foiz va pullarning umumiy nazariyasi" nomli kitobi chiqdi. Keyns ishining ahamiyati shunchalik buyuk ediki, natijada iqtisodiy adabiyotlarda shu vaqtgacha an'anaviy ravishda yagona mavjud bo'lgan iqtisodiy voqeliklarni klassik yondashuv asosida o'rganuvchi, ya'ni mikroiqtisodiy tahlil (klassik modelga) qarshi turuvchi "Keynscha inqilob" atamasi va keynscha makroiqtisodiy model yoki keynscha yondashuv yuzaga keldi.

Makroiqtisodiyot atamasi kundalik foydalanishga nisbatan yaqindagina kiritilgan bo'lsada makroiqtisodiy tahlil elementlari iqtisodiyot fani bilan deyarli birga paydo bo'ldi. Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishini yaxlit bir jarayon sifatida tadqiq qilish, unga turli elementlarining o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siri xos

bo'lgan tizim sifatida yondashish dastlab F.Kene asarlarida uchraydi. Fransiya qiroli Lyudovik XV saroyi vrachi F.Kene 1758 yilda, milliy mahsulot ishlab chiqarish jarayoni pul oqimlarining doiraviy aylanishi sifatida tasvirlangan "Kene jadvali" ni tuzishda ilk bor makroiqtisodiy tahlil elementlarini qo'lladi.

Makroiqtisodiy tahlilning tamal toshlari, shuningdek, J.B.Sey, L.Valras, V.Pareto va boshqa olimlar tomonidan XIX asrdanoq qo'yilgan edi deb ta'kidlash mumkin. Keyinchalik, V.Leontev esa o'zining tarmoqlararo balansi bilan makroiqtisodiyotni iqtisodiy nazariyaning alohida bo'limi sifatida ajralib chiqishi uchun mustahkam asos yaratishdi. J.M. Keyns esa o'zining "Ish bilan bandlilik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" (1936 yil) asari bilan bu jarayonni mantiqiy yakuniga yetkazdi. Shu sababli ham J.M. Keyns makroiqtisodiyot fanining asoschisi sifatida tan olinadi.

Shunday qilib, makroiqtisodiyot o'z predmeti va tadqiqot usullariga ko'ra mustaqil fan sifatida XX asrning o'rtalariga kelib shakllanib bo'ldi.

Makroiqtisodiyot umumiy iqtisodiy nazariyaning bo'limi hisoblanib, unda milliy xo'jalik darajasida iqtisodiyotning fundamental muammolari tadqiq qilinadi.

Makroiqtisodiy nazariyaning ikki ko'rinishi o'zaro farqlanadi:

a) pozitiv makroiqtisodiyot;

b) normativ makroiqtisoiyot.

Pozitiv makroiqtisodiyot real iqtisodiy hodisalarni va ularning aloqadorliklarini o'rganadi.

Normativ makroiqtisodiyot esa qaysi sharoitlar yoki jihatlar maqbul yoki no-maqbul ekanligini belgilaydi, harakatning aniq yo'nalishlarini taklif etadi.

Shu joyda iqtisodiy nazariyaning ikki mustaqil bo'limi sifatida makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot fanlarining predmetlarini o'zaro farqlab olishimiz zarur.

Mikroiqtisodiyot predmeti bo'lib "belgilangan" iqtisodiy shart-sharoitlarda uy xo'jaliklari va firmalar darajasida iqtisodiy qaror qabul qilish mexanizmi hisoblanadi. Mikroiqtisodiy tahlil obyekti bo'lib alohida tovarlar bozorlari,

resurslar bozorlari, ulardagi talab va taklif hisoblansa, makroiqtisodiyotda milliy iqtisodiyot darajasida mehnat, pul, tovarlar va xizmatlar bozorlarining o'zaro munosabatlari va o'zaro ta'sirini tahlil qilinadi.

Mikroiqtisodiyotda "belgilangan" deb qabul qilingan, ya'ni mikroiqtisodiy tadqiqot predmeti hisoblanmaydigan ko'pgina ko'rsatkichlar, jumladan iste'molchilarning daromadlari, jamg'armalari, foiz stavkasining dinamikasini va buni belgilovchi omillarni makroitisodiyot tadqiq qiladi.

Makroiqtisodiyot yalpi ishlab chiqarishining barqaror o'sishini, resurslarning to'liq bandligini, inflyatsiyaning past sur'atlarini va to'lov balansining muvozanatini ta'minlash nuqtai nazaridan mamlakat iqtisodiyotini bir butun holda tadqiq qiladi va uni makroiqtisodiy tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini o'rganadi.

Keltirilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki makroiqtisodiyot predmetida o'zaro bog'liq uch jihatni ajratib ko'rsatish mumkin. Bular:

1) milliy iqtisodiyot;

2) davlat tomonidan iqtisodiy siyosatni yuritish va iqtisodiyotni tartibga solish;

3) jahon xo'jaligi doirasida milliy iqtisodiyotni boshqa mamlakatlar iqtisodiyoti bilan o'zaro munosabatlari masalasi.

1-jadvalda keltirilgan iqtisodiy nazariyaning ikki qismida ko'riladigan masalalar ro'yxati mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot fanlari predmetlarini yaxshiroq farqlab olishga yordam beradi.

Bu subyektlar orasida davlatning roli bahsli masala hisoblanib kelmoqda. Keynschilar bozor tizimi mexanizmlarining iqtisodiyotni barqaror o'sishini ta'minlashga doim ham qodir emas va davlatning iqtisodiyotga aralashuvi zarur deb hisoblashishsa, iqtisodiy nazariyaning an'anaviy maktabi namoyondalari bunday aralashishga qarshi fikrlar bildirishadi.

1-jadval

Iqtisodiy nazariyaning asosiy masalalari va tarkibi[1]

Iqtisodiy nazariyaning masalalari	Iqtisodiy nazariyaning bo'limlari
Mikroiqtisodiyot	
Iste'molchilar bozordagi talab hajmi va tarkibini qanday belgilaydilar?	Iste'molchi talabi nazariyasi
Ishlab chiqaruvchilar mahsulot ishlab chiqarish hajmi va usullarini qanday aniqlashadi?	Mahsulot ishlab chiqarish va taklif etish nazariyasi
Bozor bahosi qanday tashkil topadi?	Tarmoq va umumiy iqtisodiy muvozanat nazariyasi
Milliy daromad qanday taqsimlanadi?	
Davlat ishlab chiqarish omillarini tarmoqlararo taqsimlash va milliy daromadni individlararo taqsimlashda ishtirok etishi kerakmi?	Ishlab chiqarish omillar bahosini shakllantirish nazariyasi Ijtimoiy farovonlik nazariyasi
Makroiqtisodiyot	
Milliy daromad miqdorini nima belgilab beradi?	Statik makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi
Pul nima va uning roli qanday?	Pul nazariyasi
Baholar darajasi nima va uning dinamikasini qaysi omillar belgilab beradi?	Inflyatsiya nazariyasi
Bandlik darajasini nima belgilab beradi?	Ish bilan bandlilik nazariyasi.
Iqtisodiy konyunktura o'zgarishlarini qaysi omillar belgilab beradi?	Iqtisodiy davrlar nazariyasi Iqtisodiy o'sish nazariyasi
Barqaror iqtisodiy o'sishning shartlari qanday?	To'lov balansi va valyuta kursi nazariyasi
Mamlakatning iqtisodiy konyunkturasiga tashqi dunyo qanday ta'sir ko'rsatadi?	Davlatning barqarorlashtirish siyosati nazariyasi
Davlat barqaror iqtisodiy o'sishga erishishni qanday ta'minlashi mumkin?	

Bugungi kunga kelib ko'pchilik mamlakatlarda davlatning iqtisodiyotdagi roli sezilarli darajada katta ekanligini hisobga olsak, davlatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasini belgilash, bozor mexanizmlariga putur yetkazmagan holda iqtisodiyotni tartibga solishi muhim ekanligiga iqror bo'lamiz. Davlat

[1] Тарасевич Л.С., Гребников П.И., Лусский А.И. Макроэкономика: Учебник. – М.: Высшее образование, 2006. 14 с.

makroiqtisodiyotning boshqa subyektlari xatti-harakatini belgilovchi omillarni hisobga olgan holda, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash maqsadida, o'z tasarrufda mavjud bo'lgan vositalar orqali ularni yo'naltirib turadi. Bu vositalar esa fiskal (byudjet-soliq) va monetar (pul-kredit) siyosatdir. Xulosa qilib aytganda makroiqtisodiyot fani alohida mamlakatda iqtisodiy siyosatning va jahon xo'jalik aloqalarini tashkil etishning nazariy asosi hisoblanadi.

1.2. Makroiqtisodiyot fanining tadqiqot usullari

Makroiqtisodiyot fanining tadqiqot usullariga ilmiy mavhumlashish, analiz va sintez, deduktsiya, induksiya, statistik kuzatuv, iqtisodiy matematik modellashtirish usullari kiradi.

Juda murakkab tizim hisoblangan milliy iqtisodiyotni tadqiq qilish o'ziga xos usullardan foydalanishni talab etadi. Son-sanoqsiz faktlarni, minglab ko'rsatkichlarni alohida-alohida o'rganib chiqish va ular borasida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish o'ta qiyin vazifadir. Shu sababli ham makroiqtisodiyot fanida agregat kattaliklardan foydalanishga asoslangan tadqiqot usullaridan foydalaniladi.

Agregatlash, ya'ni bir qancha iqtisodiy ko'rsatkichlar va kategoriyalarni yagona makroiqtisodiy ko'rsatkich yoki kategoriyaga umumlashtirish orqali milliy iqtisodiyotdagi makroiqtisodiy jarayonlarni tadqiq qilish imkoniyati yuzaga keladi. Agregat ko'rsatkichlar yordamida minglab alohida bozorlarni mamlakatning yagona bozori sifatida ko'rib chiqish mumkin bo'ladi. Makroiqtisodiy tahlil jarayonida alohida tovarlar va xizmatlarning bahosi, ularga bo'lgan talab va ularni taklif etish hajmlari ko'rsatkichlari emas, balki agregat ko'rsatkichlar hisoblangan baholarning o'rtacha darajasi, yalpi talab va yalpi taklif ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Davlat obligatsiyalari bo'ycha foiz stavkalari, Markaziy bankning hisob stavkasi, tijorat banklarining kreditlar uchun belgilagan foiz stavkalari kabi kapital uchun to'lov stavkalari umumlashtirilib ularning o'rtacha miqdori bozor

foiz stavkasi deb yuritiladi va makroiqtisodiy tahlil jarayonida bu agregat ko'rsatkichdan foydalaniladi.

Makroiqtisodiy tahlilda asosiy tadqiqot usuli makroiqtisodiy jarayonlarni agregat ko'rsatkichlardan foydalangan holda iqtisodiy matematik modellashtirishdir.

Makroiqtisodiy modellar iqtisodiy ko'rsatkichlar va jarayonlar o'rtasidagi miqdoriy, sabab - oqibat bog'lanishlarini matematik formula, grafik va chizmalar ko'rinishida ifodalaydi.

Bunga yalpi talab-yalpi taklif (AD-AS) modelini, Keyns xochini, Fillips egri chizig'ini, IS-LM modelini, iqtisodiy o'sishning Domar, Xarrod va Solou modellarini keltirish mumkin. Bu modellarni bir vaqtning o'zida ham grafik ko'rinishda, ham algebraik formula ko'rinishida tasvirlash mumkin. Algebraik formulalar kabi makroiqtisodiy modellar ham ikki, uch yoki bundan ko'p o'zgaruvchili bo'lishi mumkin.

AD-AS modelida yalpi talab va yalpi taklif hajmlarining baholarning umumiy darajasi dinamikasi ta'sirida o'zgarishi va makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmi o'rganilsa, Fillips egri chizig'i yordamida ishsizlik va inflyatsiya ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik tadqiq qilinadi.

Yuqorida sanab o'tilgan modellar barcha mamlakatlar iqtisodiyotini tahlil qilishda qo'llanaveradi. Ammo ularda keltirilgan empirik koeffitsientlar, turli iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligi xususiyati bir mamlakatda ikkinchisidan farq qilishi mumkin. Har qanday makroiqtisodiy modelda, u qanchalik sodda yoki murakkab bo'lmasin, ma'lum darajada mavhumlikka yo'l qo'yiladi. Masalan, makroiqtisodiy tahlil davomida milliy iqtisodiyot ba'zan yopiq iqtisodiy tizim, ya'ni tashqi iqtisodiy aloqalari mavjud bo'lmagan "yopiq iqtisodiyot" deb qaraladi. Amalda esa barcha mamlakatlar tashqi dunyo bilan iqtisodiy aloqalarga ega, ya'ni "ochiq iqtisodiyot"ga ega. Hech bir model iqtisodiy hodisa va jarayonlar o'rtasidagi bog'liqliklarni to'la-to'kis qamrab olmaydi. Shunga qaramasdan makroiqtisodiy modellardan foydalanish eng muhim iqtisodiy qonuniyatlarni aniqlash, qabul qilinadigan turli iqtisodiy qarorlarning olinishi mumkin bo'lgan ko'p variantli natijalarini oldindan aniqlab olish, makroiqtisodiy siyosatning turli yo'nalishlarini muvofiqlashtirish imkonini beradi.

1.3. "Resurslar- tovarlar va xizmatlar" hamda "daromadlar –xarajatlar"ning doiraviy oqimi modeli

Har qanday iqtisodiy tizimda tovarlar va xizmatlarni takror ishlab chiqarish umumiy jarayonini resurslar, tovar va xizmatlar, daromadlar hamda xarajatlarning **doiraviy oqimi modeli** ko'rinishida tasavvur qilish mumkin. Bu sodda model makroiqtisodiy tahlil asosini tashkil etadi. Faqat xususiy mulkka tayangan (ya'ni davlat ishtiroki mavjud bo'lmagan) yopiq iqtisodiyotda bunday doiraviy oqim firmalar va uy xo'jaliklari o'rtasida amalga oshiriladi (1.1-chizma).

Uy xo'jaliklari ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan barcha iqtisodiy resurslarni resurslar bozoriga yetkazib beradilar, korxonalar esa bu resurslarni sotib olib turli xil mahsulotlarga, xizmatlarga aylantiradilar, so'ngra esa ularni tayyor mahsulotlar va xizmatlar bozoriga yetkazib beradilar. Ayni paytda "resurslar - tovarlar va xizmatlar" oqimiga qarama qarshi yo'nalishda "daromadlar - xarajatlar"ning ham doiraviy oqimi amalga oshiriladi. Ya'ni, uy xo'jaliklari o'zlari etkazib bergan iqtisodiy resurslar evaziga daromad oladi hamda ularni tovarlar va xizmatlar iste'mol qilish uchun sarflaydilar yoki aksincha korxonalar resurslar uchun sarf-xarajatlar qiladilar hamda tayyor mahsulotlarni sotish evaziga daromad oladilar.



1.1-chizma. **Sof bozor iqtisodiyoti sharoiti "resurslar - mahsulotlar" va "daromadlar – xarajatlar"ning doiraviy aylanishi modeli**

Resurslar hamda tovarlar va xizmatlar oqimi jami taklifni, daromadlar va xarajatlar oqimi jami talabni ko'rsatadi. Davlat ishtiroki mavjud bo'lmagan yopiq iqtisodiyotda yalpi talab va yalpi taklifning o'zaro teng bo'lishi firmalarnining yalpi sotuvi, yoki yalpi ishlab chiqarishi hajmi uy xo'jaliklarining yalpi daromadlari, yoki yalpi daromadlariga teng bo'lishi shaklida namoyon bo'ladi.

Bu ko'rsatkichlar o'rtasidagi tenglikning buzilishi ishlab chiqarishning pasayishi, inflyatsiya va ishsizlik darajalarining ko'tarilib ketishiga sabab bo'ladi. Davlat aralashuvi mavjud bo'lgan iqtisodiyotda bu model ancha murakkab ko'rinish oladi.



1.2-chizma. **"Resurslar-tovarlar va xizmatlar" hamda "daromadlar – xarajatlar"ning davlat aralashuvi mavjud iqtisodiyotdagi doiraviy aylanishi modeli**

Bunday iqtisodiyotda resurslar - tovarlar va xizmatlar, daromadlar-xarajatlarning uzluksiz harakati ham bozor mexanizmlari orqali, ham davlat aralashuvi bilan ta'minlanadi. Bunda hukumat ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning harakatini bevosita boshqarmaydi, balki resurslar va tovarlar bozorlarida qatnashish orqali ularning iqtisodiy faoliyatiga qulay sharoitlar yaratadi. Davlat korxonalar va uy xo'jaliklarini soliqqa tortish bilan birga korxonalarga subsidiyalar berish, aholiga transfert to'lash orqali ularning ishlab chiqarish imkoniyatlari va xaridga qodir talablariga ta'sir etadi. Ayni paytda davlat resurslar bozoridan hamda tovarlar va xizmatlar bozorida sotib oluvchi sifatida ishtirok etadi. Davlat o'z ishtiroki bilan firmalarning ishlab chiqarish hajmlari va uy xo'jaliklarining tovarlar va xizmatlar xarid qilish miqdorlari to'g'risidagi qarorlari o'zaro mos kelmagan hollarda ro'y beradigan iqtisodiy tebranishlarni

1.3. "Resurslar- tovarlar va xizmatlar" hamda "daromadlar –xarajatlar"ning doiraviy oqimi modeli

Har qanday iqtisodiy tizimda tovarlar va xizmatlarni takror ishlab chiqarish umumiy jarayonini resurslar, tovar va xizmatlar, daromadlar hamda xarajatlarning **doiraviy oqimi modeli** ko'rinishida tasavvur qilish mumkin. Bu sodda model makroiqtisodiy tahlil asosini tashkil etadi. Faqat xususiy mulkka tayangan (ya'ni davlat ishtiroki mavjud bo'lmagan) yopiq iqtisodiyotda bunday doiraviy oqim firmalar va uy xo'jaliklari o'rtasida amalga oshiriladi (1.1-chizma).

Uy xo'jaliklari ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan barcha iqtisodiy resurslarni resurslar bozoriga yetkazib beradilar, korxonalar esa bu resurslarni sotib olib turli xil mahsulotlarga, xizmatlarga aylantiradilar, so'ngra esa ularni tayyor mahsulotlar va xizmatlar bozoriga yetkazib beradilar. Ayni paytda "resurslar - tovarlar va xizmatlar" oqimiga qarama qarshi yo'nalishda "daromadlar - xarajatlar"ning ham doiraviy oqimi amalga oshiriladi. Ya'ni, uy xo'jaliklari o'zlari etkazib bergan iqtisodiy resurslar evaziga daromad oladi hamda ularni tovarlar va xizmatlar iste'mol qilish uchun sarflaydilar yoki aksincha korxonalar resurslar uchun sarf-xarajatlar qiladilar hamda tayyor mahsulotlarni sotish evaziga daromad oladilar.



1.1-chizma. **Sof bozor iqtisodiyoti sharoiti "resurslar - mahsulotlar" va "daromadlar – xarajatlar"ning doiraviy aylanishi modeli**

Resurslar hamda tovarlar va xizmatlar oqimi jami taklifni, daromadlar va xarajatlar oqimi jami talabni ko'rsatadi. Davlat ishtiroki mavjud bo'lmagan yopiq iqtisodiyotda yalpi talab va yalpi taklifning o'zaro teng bo'lishi firmalarnining yalpi sotuvi, yoki yalpi ishlab chiqarishi hajmi uy xo'jaliklarining yalpi daromadlari, yoki yalpi daromadlariga teng bo'lishi shaklida namoyon bo'ladi.

Bu ko'rsatkichlar o'rtasidagi tenglikning buzilishi ishlab chiqarishning pasayishi, inflyatsiya va ishsizlik darajalarining ko'tarilib ketishiga sabab bo'ladi. Davlat aralashuvi mavjud bo'lgan iqtisodiyotda bu model ancha murakkab ko'rinish oladi.



1.2-chizma. **"Resurslar-tovarlar va xizmatlar" hamda "daromadlar – xarajatlar"ning davlat aralashuvi mavjud iqtisodiyotdagi doiraviy aylanishi modeli**

Bunday iqtisodiyotda resurslar - tovarlar va xizmatlar, daromadlar-xarajatlarning uzluksiz harakati ham bozor mexanizmlari orqali, ham davlat aralashuvi bilan ta'minlanadi. Bunda hukumat ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning harakatini bevosita boshqarmaydi, balki resurslar va tovarlar bozorlarida qatnashish orqali ularning iqtisodiy faoliyatiga qulay sharoitlar yaratadi. Davlat korxonalar va uy xo'jaliklarini soliqqa tortish bilan birga korxonalarga subsidiyalar berish, aholiga transfert to'lash orqali ularning ishlab chiqarish imkoniyatlari va xaridga qodir talablariga ta'sir etadi. Ayni paytda davlat resurslar bozoridan hamda tovarlar va xizmatlar bozorida sotib oluvchi sifatida ishtirok etadi. Davlat o'z ishtiroki bilan firmalarning ishlab chiqarish hajmlari va uy xo'jaliklarining tovarlar va xizmatlar xarid qilish miqdorlari to'g'risidagi qarorlari o'zaro mos kelmagan hollarda ro'y beradigan iqtisodiy tebranishlarni

tartibga solib turadi. Ochiq iqtisodiyot sharoitida doiraviy oqimlar modeli yanada murakkablashadi. Endi unda to'rtinchi makroiqtisodiy subyekt – tashqi dunyo ham paydo bo'ladi. Chet el investitsiyalarinig kiritilishi va xorijga investitsiya qilish, eksport va import operatsiyalari shu jumladan moliyaviy bozor orqali jamg'armalarning investitsiyalarga oqib o'tishi va moliyaviy mablag'larning qayta taqsimlanishini e'tiborga olsak ko'rib o'tilgan model mukammal emasligiga iqror bo'lamiz. Ammo shu ko'rinishda ham bu model makroiqtisodiy jarayonlarni yaxlit holda tasavvur qilishga imkon beradi. Doiraviy oqimlar modelidan chiqariladigan xulosa shuki, davlat, firmalar, uy xo'jaliklari va tashqi dunyoning yalpi xarajatlari yalpi ishlab chiqarish hajmiga teng bo'lishi resurslar, tovarlar va xizmatlar oqimlari (ya'ni real oqim) bilan daromadlar va xarajatlar oqimlari (ya'ni pul oqimlari) o'zaro teng bo'lishining asosiy shartidir. Yalpi xarajatlar hajmining oshishi ishlab chiqarish hajmlari va ish bilan bandlilik darajasining o'sishiga olib keladi . Bu esa o'z navbatida yalpi daromadlarning oshishiga sabab bo'ladi. Kattaroq hajmdagi yalpi daromadlar unga mos hajmdagi yalpi xarajatlarni belgilab beradi. Sabab oqibat bog'lanishlari o'rin almashishi tufayli doiraviy oqimlar modeli doiraviy aylanish ko'rinishini oladi. Iqtisodiyot barqaror rivojlanib borishi uchun yalpi xarajatlar to'xtovsiz o'sib borishi shart. Bu vazifa byudjet-soliq siyosati vositalari bo'lgan soliqlarni hamda davlat xarajatlarini o'zgartirish hamda pul-kredit siyosati vositalari yordamida mul massasini o'zgartirish orqali bajariladi.

Nazorat savollari

1. Makroiqtisodiyot fani predmetining o'ziga xos xususiyati nimada va u mikroiqtisodiyot predmetidan nimasi bilan farq qiladi?
2. Pozitiv va normativ makroiqtisodiyot tushunchalariga izoh bering.
3. Makroiqtisodiyot subyektlari orasida davlatning roli qanday?
4. Agregat ko'rsatkichlar deganda nimani tushunasiz? Makroiqtisodiy tahlilda agregat ko'rsatkichlardan foydalanish zaruriyati nima uchun yuzaga keladi?
5. Makroiqtisodiy modellarning mohiyatiga izoh bering.
6. Zaxiralarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar va oqimlarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar o'rtasida qanday bog'liqliklar mavjud?
7. "Resurslar- tovarlar va xizmatlar" hamda"daromadlar –xarajatlar"ning doiraviy oqimi modelidagi qarama-qarshi omillarga izoh bering.
8. Doiraviy oqimlar modelini doiraviy aylanish tusini olishining shartlari qanday?

II-BOB. MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR

2.1. Milliy iqtisodiyotni tahlil qilishda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar

Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishini tahlil qilish, milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi muammolarni aniqlash hamda uni yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqarish uchun bir qator iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Alohida firmalar faoliyatiga baho berishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlardan farqli tarzda bu ko'rsatkichlar milliy iqtisodiyotning barcha subyektlari faoliyatiga umumiy baho berish, makroiqtisodiy tahlil o'tkazish, mamlakat iqtisodiyotining jahon xo'jaligida raqobatga bardoshliligi darajasini aniqlash imkonini beradi.

Bu ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

- Yalpi ichki mahsulot (YaIM), Sof ichki mahsulot (SIM), Milliy daromad (MD), Shaxsiy daromad (ShD), Shaxsiy tasarrufdagi daromad (ShTD), Iste'mol (C), Jamg'arish (S) ko'rsatkichlarining hajmi va o'sish sur'atlari;
- iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi;
- mamlakat eksporti va importi hajmi, tarkibi, YaIMdagi ulushi va o'sish suratlari;
- resurslardan foydalanishning samaradorligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar (Mehnat unumdorligi, Fond qaytimi);
- davlat byudjeti taqchilligi, deflyator, iste'mol baholari indeksi, inflyatsiyaning o'sish sur'atlari;
- ishsizlik darajasi va ishsizlar soni, aholining ish bilan bandlik darajasi;
- aholining moddiy ne'matlar va xizmatlar iste'moli hajmi, ularning jamg'armalari, ish haqining quyi miqdori va boshqalar.

Davlat byudjeti taqchilligi va inflyatsiya surati kabi ko'rsatkichlar umumiy makroiqtisodiy vaziyatga baho berishda qo'llanilsa, YaIM, SIM, MD, ShD, ShTD,

S, S ko'rsatkichlari milliy ishlab chiqarishning parametrlarini va dinamikasini tahlil etishda foydalaniladi.

Bu ko'rsatkichlar iqtisodiyotning barcha subyektlari faoliyatlari natijasi sifatida aniqlanib, ularni hisoblashning asosini Milliy hisobchilik tizimi (MHT) tashkil etadi. MHT mamlakat buxgalteriyasi vazifasini o'tagani holda uning standartlaridan kelib chiqqan holda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash, mamlakatlararo taqqoslovlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Mamlakat iqtisodiyotining haqiqiy holatini o'rganish, unga tizimli baho berish uchun yuqorida sanab o'tilgan barcha ko'rsakichlardan foydalanish zarur, aks holda bir tomonlama yondashuvga yo'l qo'yilishi mumkin.

2.2. Yalpi ichki mahsulot tushunchasi va uni hisoblashning asosiy shartlari

Makroiqtisodiy statistika va tahlilda uzoq davr mobaynida yalpi milliy mahsulot va yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlaridan baravar foydalanib kelindi. Har ikkala agregat ko'rsatkich ham mamlakatdagi iqtisodiy faollik darajasini xarakterlasada kapital va ishchi kuchi migratsiyasi mavjudligi sababli ular o'zaro farq qilishadi.

Bugungi kunga kelib Milliy hisobchilik tizimini qo'llaydigan deyarli barcha davlatlarda yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich sifatida tan olindi.

Ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda YalMga ishlab chiqarilishida qo'llanilgan resurslar qaysi davlatga tegishliligidan qat'iy nazar, mamlakatning jug'rofiy hududida yaratilgan pirovard tovarlar va xizmatlarning bozor baholari yig'indisi deb ta'rif berib kelingan.

1993 yilda qabul qilingan BMT MHTning yangi talqiniga ko'ra Yalpi ichki mahsulot (YalM) tushunchasiga aniqliklar kiritildi.

Yangicha talqiniga ko'ra:

YaIM - mamlakat rezidentlari tomonidan ma'lum muddat davomida ishlab chiqarilgan pirovard tovarlar va xizmatlar bozor baholarining umumiy yig'indisidan iborat.

YaIM ning "ichki" deb atalishiga sabab uning mamlakat rezidentlari tomonidan yaratilishidir. Rezident deganda faqatgina mamlakatning yuridik va jismoniy shaxslari tushunilmaydi. Chunki mamlakat yuridik shaxsi boshqa mamlakat hududida bir yildan ortiq faoliyat yuritsa o'sha mamlakat rezidenti deb qaraladi.

"Milliy tegishliligi va fuqaroliligidan qat'iy nazar, mazkur mamlakatning iqtisodiy hududida iqtisodiy manfaat markaziga ega bo'lgan (ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadigan, yoki mamlakat hududida bir yildan ortiq yashayotgan) barcha iqtisodiy birliklar (korxonalar, uy xo'jaliklari) rezident hisoblanishadi"[2].

Elchixonalar va harbiy bazalar o'zlari tegishli bo'lgan mamlakatlarning iqtisodiy makoni bo'lib qolaveradilar. Aynan shu jihat YaIMni hisoblashda iqtisodiy va jug'rofiy hudud o'rtasidagi farq deb qaraladi.

YaIM uch xil usul bilan hioblanadi:

1) ishlab chiqarish usuli;

2) xarajatlar usuli;

3) daromadlar usuli.

Har uchala usul bilan hisoblangan YaIM ko'rsatkichi hajmi statistik xatolar istisno etilganda o'zaro teng bo'lishi lozim. Shu bilan birga har uchala usul bilan YaIM ko'rsatkichni hisoblashda o'ziga xos talablarga amal qilinishi talab etiladi.

2.3. YaIMni ishlab chiqarish usulida aniqlash

Ishlab chiqarish usulida hisoblangan YaIM yakuniy tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishning turli bosqichlarida qo'shilgan qiymatlar yig'indisi sifatida

[2] Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика:Учебник. Дело и сервис, 2005. 25 с.

aniqlanadi. YalMni bu usulda aniqlash statistik jihatdan qulay bo'lishi bilan birga uni hisoblashning muhim shartiga amal qilish, ya'ni bir qiymatni ikki bor hisobga olish yoki oraliq mahsulot qiymatini YalMga kiritib yuborishning oldini oladi.

Ishlab chiqarish hajmini to'g'ri hisoblash uchun joriy yilda ishlab chiqarilgan tovar va ko'rsatilgan xizmatlar qiymati bir marta hisobga olinish kerak. Ko'pgina mahsulotlar bozorga borguncha bir nechta ishlab chiqarish bosqichini o'taydi. Shu sababli YalMda ayrim mahsulotlarni ikki va undan ko'p marta hisobga olmaslik uchun, faqat pirovard mahsulotning bozor qiymati hisobga olinadi, oraliq mahsulotlar esa hisobga olinmaydi.

Yakuniy tovarlar va xizmatlar deganda ularning ishlab chiqarish, yoki ichki ayirboshlash siklidan chiqqan, yakuniy iste'mol, jamg'arish yoki eksport uchun foydalaniladigan qismi tushuniladi.

Yakuniy tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishda sarflangan oraliq tovarlar va xizmatlar bahosi YalMga qo'shilmaydi.

Qo'shilgan qiymat tovar va xizmatlarning sotish bahosi bilan ularni ishlab chiqarish uchun foydalanilgan xomashyo va materiallarni sotib olishga qilingan xarajatlar o'rtasidagi farq ko'rinishida aniqlanadi.

Ishlab chiqarish usulida aniqlangan YalM ko'rsatkichinig strukturasini va undagi siljishlarni tahlil qilish juda muhim xulosalar beradi. Alohida tarmoqlarning mamlakat iqtisodiyotida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatdagi ulushi, bu ulushning o'zgarishi bu mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi va kutilayotgan istiqboliga baho berish imkonini beradi.

2.4. YalMni xarajatlar bo'yicha hisoblash

Bu usul yakuniy foydalanish usuli deb ham yuritilib, unda YaMMni hisoblash uchun yakuniy mahsulotlarni sotib olishga qilingan barcha xarajatlar o'zaro qo'shib chiqiladi. Bu xarajatlar quyidagicha guruhlanadi:

Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari (C):

a) uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol buyumlari sotib olishga;

b) kundalik foydalaniladigan iste'mol buyumlari sotib olishga;

d) iste'mol xizmatlari to'loviga.

Yalpi ichki xususiy investitsiya xarajatlari (I):

a) asbob-uskunalar, mashinalarni yakuniy sotib olishga;

b) korxonalar, inshootlar, turar joy binolarini qurishga sarflangan;

d) tovar zaxiralari o'rtasidagi farqlar yoki zaxiralarning o'zgarishi.

Tovar va xizmatlarning davlat xaridi (G).

Bu guruh xarajatlariga mahalliy va markaziy boshqaruv hokimiyati idoralari tomonidan korxonalarning pirovard mahsulotlari va resurslari xaridi (avtomobil yo'llari va pochta muassasalari qurilishi, davlat korxonalarida to'lanadigan ish haqi) xarajatlari kiritiladi. Lekin shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bu xarajatlarga davlat transfert to'lovlari kiritilmaydi.

YaIMni xarajatlar orqali hisoblash formulasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$YaIM = C + I + G + Xp$$

Sof eksport (Xp): mamlakatning import va eksport operatsiyalari bo'yicha xarajatlar o'rtasidagi farq.

2.5. YaIMni daromadlar (taqsimot usuli) bo'yicha hisoblash

YaIMni daromadlar bo'yicha aniqlashda yakuniy mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida rezident-ishlab chiqarish birliklari tomonidan, qo'shilgan qiymatlar hisobidan, to'langan dastlabki daromadlar qo'shib chiqiladi.

YaIMni daromadlari yig'indisi ko'rinishida hisoblashda asosan quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

-sof bilvostia soliqlar (Tn) – bilvosita soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, bojxona bojlari) va subsidiyalar hajmlari o'rtasidagi farq;

- **yollanma ishchilarning ish haqlari (W)** - xususiy va davlat kompaniyalarining yollanma ishchilarga hisoblagan barcha turdagi mehnat haqi

to'lovlarining nominal miqdori plyus ish beruvchilar tomonidan ish haqi fondiga nisbatan hisoblanib to'lanadigan ijtimoiy sug'urta ajratmalari.

- Korporatsiyalarning yalpi foydasi + nokorporativ korxonalar daromadi (R).

Nokorporativ korxonalar- kichik hajmdagi, uy xo'jaliklariga tegishli korxonalar bo'lib ularda korxona foydasi va korxona egasining ish haqi elementlari o'zaro qo'shilib ketgan bo'ladi. Bu holat aralash daromad atamasini qo'llashga sabab bo'ladi.

R= Korporatsiyalarning sof foydasi (**R_1**) + nokorporativ korxonalar sof daromadlari(**R_2**) +amortizatsiya (**A**);

YaIMni daromadlar ko'rinishida yalpi qo'shilgan qiymatni ko'rsatilgan uch guruhga bo'lib topish mumkin:

$$YaIM = Tn + W + R.$$

Olingan dastlabki daromadlar qayta taqsimlanishi natijasida dividend, renta, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalardan olingan reinvestitsiya ko'rinishidagi daromadlar paydo bo'ladi.

Shuningdek, YaIMni daromadlar ko'rinishida aniqlashda, iqtisodiy nazariyada, daromadlarni quyidagi komponentlarga bo'lish ko'zda tutiladi:

-amortizatsiya (A);

- bilvostia soliqlar (T);

-yollanma ishchilarning ish haqlari (W);

- ijara haqi to'lovi va renta ko'rinishidagi daromadlar(P1);

- kapital uchun olingan foiz daromadlari (P2);

-mulkdan keladigan daromad (nokorporativ korxonalar daromadi) (R1);

-korporatsiya foydasi (R2).

Korporatsiyalar foydasi o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

a) korporatsiyasi foydasidan to'lanadigan soliqlar (R1.1);

b) hissadorlar o'rtasida taqsimlanadigan dividendlar (R1.2);

v) korporatsiyaning taqsimlanmagan foydasi (R1.3).

Keltirilgan yondashvuga ko'ra:

YaIM (Y) = A + T + W + R1 + R2 + P1 + P2.

Xarajatlar va daromadlar ko'rinishida hisoblab topilgan YaIM hajmi o'zaro mos keladi. Chunki milliy iqtisodiyot doirasida bir subyekt tomonidan qilingan har qanday xarajat ikkinchi subyekt uchun daromad bo'lib tushadi.

2.6. Milliy hisobchilik tizimidagi boshqa ko'rsatkichlar va ular o'rtasidagi nisbat

Milliy hisobchilik tizimiga ko'ra milliy iqtisodiyot rivojlanishini tahlil etish uchun YaIM ko'rsatkichidan boshqa yana bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Bu ko'rsatkichlar jumlasiga Yalpi milliy daromad (YaMD) ko'rsatkichi ham kiradi. Bu ko'rsatkich MHTning oldingi ko'rinishida hisoblangan Yalpi milliy mahsulot (YaMM) ko'rsatkichi bilan mohiyatan bir xil.

YaMD - mamlakat rezidentlari tomonidan, mamlakatda va mamlakat tashqarisida, ishlab chiqarishda ishtirok etish va mulkdan olgan boshlang'ich daromadlari yig'indisidir.

YaIM va YaMD ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqni quyidagi formula ko'rinishida tasavvur etish mumkin:

YaMD = YaIM + mamlakat rezidentlari tomonidan xorijdan olingan daromadlari - norezidentlarning mamlakatdan xorijga jo'natgan daromadlari.

YaIM va YaMD ning tamoyilal farqlari shundaki ulardan birinchisi mamlakat rezidentlari tomonidan ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlar oqimini o'lchasa, ikkinchisi ular olgan boshlang'ich daromadlarni o'lchaydi.

Sof ichki mahsulot (SIM) va Sof milliy daromad (SMD) ko'rsatkichlari YaIM va YaMD ko'rsatkichlaridan amortizatsiya (iste'mol qilingan asosiy kapital) summasi miqdoriga farq qiladi.

SIM = YaIM - A

SMD = YaMD - A

Makroiqtisodiy tahlilda shuningdek MHTga kirmagan Shaxsiy daromad (ShD) ko'rsaikichi ham qo'laniladi.

ShD = SMD –[ISA (Ijtimoiy sug'urta ajratmalari) + T (bilvosita soliqlar) + (R1.1) korporatsiya foydasiga soliqlar) + R1.3 (Korporatsiya-larning taqsimlanmagan foydasi + biznesning foiz daromadlari] + transfert to'lovlari (TR) + foizlar ko'rinishida olingan shaxsiy daromad

Foizlar ko'rinishida aholi olgan daromadga davlat qarzlari bo'yicha olingan foiz daromadlari ham kiritiladi.

Shaxsiy daromaddan aholi to'laydigan daromad solig'i, mulk solig'i va ayrim nosoliq to'lovlarini ayirib tashlab shaxsiy tasarrufdagi daromad (ShTD) ko'rsatkichi topiladi.

ShTD uy xo'jaliklari tomonidan iste'mol (C) va jamg'arish (S) uchun ishlatiladi.

ShTD =C + S.

Makroiqtisodiy tahlilda uy xo'jaliklarining ShTD va Yalpi milliy tasarrufdagi daromad (YaMTD) ko'rsatkichlari o'zaro farqlanadi.

YaMTD= YaMD + Xorijdan olingan sof transfertlar

Xorijdan olingan sof transfertlar = Mamlakat tashqarisidan olingan transfertlar – Mamlakatdan tashqariga berilgan transfertlar)

Yalpi milliy tasarrufdagi daromad yakuniy iste'mol va milliy jamg'armish uchun ishlatiladi.

YaMTD= Yakuniy iste'mol +Milliy jamg'armalar.

Yakuniy iste'mol uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlaridan tashqari hukumatning iste'molga xarajatlarini ham o'z ichiga oladi.

2.7. Nominal va real YaIM

Iqtisodiyotda mavjud bo'lgan inflyatsiya jarayonlari YaIMni hisoblashni qiyinlashtiradi. Bu ko'rsatkich dinamikasi bir vaqtning o'zida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdor va baho darajalarining o'zgarishini ifodalaydi.

Bu shuni bildiradiki, YaIM miqdoriga bir vaqtning o'zida ham ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning fizik hajmi, ham baho darajasi o'zgarishi ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiyotda doimiy inflyatsiya jarayonining mavjudligi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni taqqoslama baholarda hisoblashni zarur etib qo'yadi. Chunki, inflyatsiya iqtisodiyotning real holatini buzib ko'rsatadi. Iqtisodiyotni tahlil qilish, muammolarni aniqlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qiyinlashtiradi. Bu vazifani bajarish uchun joriy baholarda hisoblangan nominal ko'rsatkichlardan emas, balki taqqoslama (bazis) baholarda hisoblangan real ko'rsatkichlardan foydalanish zarur. Ayrim yagona firmadan farqli o'laroq milliy iqtisodiyotda juda ko'p sonli tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilishi sababli ularning barchasini bir varakayiga taqqoslama baholarda hisoblash qiyin. Shu tufayli YaIM tarkibida katta ulushni tashkil etgan eng muhim tovarlar va xizmatlar bahosining o'zgarishi koeffitsienti (baholar indeksi) hisoblab topilib olingan natija butun milliy iqtisodiyot uchun tadbiq etiladi.

Baholar indeksini yoki inflyatsiya darajasini hisoblash uchun:

- deflyator (Paashe indeksi);
- iste'mol narxlari indeksi (Laspeyres indeksi);
- sanoat ishlab chiqarish baholari indekslari hisoblanishi lozim.

Deflyator ko'rsatkichi quyidagi formula bilan hisoblaganadi:

$$\text{Deflyator} = \frac{\sum Q^i_1 P^i_1}{\sum Q^i_1 P^i_0} 100,$$

Bu yerda: i – deflyatorni hisoblash uchun bozor savatiga kiritilgan tovarlar soni;

Q^i_1 – joriy yilda bozor savatiga kiritilgan i – tovar yoki xizmatlar hajmi miqdori (masalan, 2 kg shakar, 2 dona ko'ylak va h.k);

P^i_1 – joriy yilda bozor savatiga kiritilgan i — mahsulotning shu yilga bahosi;

P^i_0 – joriy yilda bozor savatiga kiritilgan i – mahsulotning bazis yildagi bahosi.

Deflyatorni hisoblash shartlari:

- odatda o'tgan yilga nisbatan hisoblanadi;
- bozor savati joriy yilda aniqlanib keyingi yillarda o'zgartirilishi mumkin;

- bozor savatiga ham iste'mol ishlab chiqarish xarakteridagi tovarlar va xizmatlar kiritiladi;

- bozor savatiga kiritilgan tovarlar va xizmatlar turlarining umumiy YaIMdagi ulushi katta qismini tashkil qilishi kerak;

- bozor savatiga kiritilgan tovarlar va xizmatlar hajmlari o'rtasidagi nisbat ularning YaIMdagi ulushlari o'rtasidagi nisbatga mos kelishi kerak.

$$\text{Real YaIM} = \frac{\text{Nominal YaIM}}{\text{Deflyator}} 100.$$

Iste'mol narxlari indeksi quyidagicha aniqlanadi:

$$INI = \frac{\sum Q^i_0 P^i_1}{\sum Q^i_0 P^i_0} 100,$$

Bu yerda: Q^i_0– bazis yilda bozor savatiga kiritilgan i – tovar va xizmatlar hajmi;

P^i_1 – i – tovarning joriy yildagi bahosi;

P^i_0 – i – tovarning bazis yildagi hajmi.

Iste'mol narxlari indeksi hisoblashning shartlari.

- bozor savati bazis yil uchun aniqlanadi va bir necha yil davomida o'zgarmaydi;

- bozor savatiga faqat iste'mol xarakteridagi tovarlar va xizmatlar kiritiladi;

- bozor savatiga kiritilgan tovarlar va xizmatlarning hajmi iste'mol xarajatlarining katta qismini tashkil etishi kerak.

INI ko'rsatkichining kamchiligi shundaki bozor savati tarkibi o'zgarmas bo'lganligi tufayli aholi iste'moli tarkibida tovarlar va xizmatlar ulushining o'zgarganligini, shuningdek tovarlar va xizmatlar sifatida ro'y bergan o'zgarishlarni hisobga olish imkonini bermaydi Shu sababli bu indeks baholar darajasini biroz oshirib ko'rsatadi.

YaIM deflyatori esa bozor savatiga joriy yida kiritilmay qolgan tovarlar baholarining oshishini hisobga olish imkonini bermasligi tufayli baholar darajasini biroz pasaytirib ko'rsatadi. Shu sababli bu ikki indeksning o'rtacha darajasini xarakterlovchi Fisher indeksi hisoblanadi:

$$If = \sqrt{Idef * INI}$$

Sanoat ishlab chiqaruvchilar baho indeksi iste'mol narxlari indeksi singari hisoblanadi. Lekin bozor savatiga sanoat mahsulotlarigina kiritilib ular ulgurji baholarda hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. Milliy iqtisodiyotni tahlil qilish uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlardan qaysilari makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblanadi?

2. Qo'shilgan qiymat, yakuniy mahsulot, oraliq mahsulot ko'rsatkichlarini tavsiflab bering.

3. Nima uchun YaIM ko'rsatkichini qayta hisoblashdan ehtiyot bo'lish zarur va bunga qanday erishiladi?

4. YaIMni xarajatlar bo'yicha hisoblashda qo'llaniladigan komponentlar tarkibini sanab o'ting.

5. O'zbekiston Respublikasida YaIMning ishlab chiqarish strukturasiga tahliliy sharh bering.

6. YaIMni taqsimot usulida aniqlashda MHTning yangi talqinida keltirilgan hamda iqtisodiy adabiiyotlarda qo'llab kelinayotgan uslublardagi farqlarni tushuntirib bering.

7. YaMD ko'rsatkichi qanday hisoblanadi va YaIM ko'rsatkichidan nimasi bilan farq qiladi?

8. ShD, ShTD, YaMTD ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik va farqlar nimada?

9. Baholar indekslarini va real YaIM ni hisoblash zaruratini asoslab bering?

III-BOB. BIZNES SIKLLAR VA IQTISODIY TEBRANISHLAR

3.1. Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning o'lchanishi

Jamiyat taraqqiyotini ifodalovchi asosiy mezonlardan *biri iqtisodiy o'sishdir*. Bu obyektiv qonuniyat bo'lib, aholi o'sishi va fan - texnika jarayonlari bilan bog'langan. U milliy iqtisodiyot rivojlanishi harakatini ko'rsatadi va shu sababli vaqtning ma'lum davrlariga (chorak, yil va undan uzoq vaqtga) makroiktisodiy ko'rsatkichlarni (YaIM, SIM, MD) taqqoslash yo'li bilan o'lchanadi.

Iqtisodiy o'sish ikki usul bilan aniqlanadi va o'lchanadi.

Birinchi usul real YaIMni o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakatning umumiqtisodiy imkoniyatlari harakatini ifodalash uchun ishlatiladi. Ikkinchi usul real YaIMni o'tgan davrga nisbatan aholi jon boshiga o'zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakat ijtimoiy rivojlanish darajasini va harakatining sifat o'zgarishlarni ifodalash uchun foydalaniladi.

Iqtisodiy o'sishning aholi jon boshiga hisoblash ko'rsatkichlari makroiqtisodiy tahlil qilish va istiqbolini belgilash, xalqaro taqqoslashda ko'proq ishlatiladi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari va qo'shimcha o'sish suratlari bir-biridan farqlanadi.

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish tarixini o'rganish, ulardan hech biri uzoq muddatda bir tekis rivojlanmaganligi, aksincha, barcha malakatlar uchun davriy rivojlanish xos ekanligini ko'rsatadi.



3.1-chizma. **Iqtisodiyotning davriy rivojlanishi**

Ishlab chiqarish, bandlilik va inflyatsiya darajasining davriy tebranishga iqtisodiy davr (sikl)lar deyiladi. Ayrim iqtisodiy davrlar boshqalaridan o'tish davrining davomiyligi va faolligi bilan farq qiladi. Shunga qaramasdan ularning barchasi bir xil bosqichlardan tashkil topadi (3.1-chizma).

Iqtisodiy davrlar to'rtta bosqichni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqich iqtisodiy rivojlanishning eng yuqori darajasiga erishilgan bosqich bo'lib, u "**cho'qqi**" deb yuritiladi. Bu iqtisodiyotda ish bilan to'liq bandlik, ishlab chiqarish to'la quvvatda ishlayotganligi, shuningdek, mahsulotlarning baho darajasining o'sish holati kuzatiladi.

Keyingi bosqich **pasayish (retsessiya)** bosqichidir. Bunda ishlab chiqarish va bandlik darajalari kamayadi, ammo bahoning o'sish darajasi pasaymaydi. Bu bosqich faol va uzoq davom etsagina bahoning o'sish darajasi sustlashishi mumkin. **Pasayishning quyi** nuqtasida ishlab chiqarish va bandlik eng quyi darajaga tushadi va turg'unlik davri boshlanadi.

Ko'tarilish bosqichida ishlab chiqarish va bandlik darajasi asta-sekin oshib, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish va to'liq bandlik darajasiga erishiladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, iqtisodiy davrlar bir xil bosqichlarga ega bo'lsada, ammo ular davomiyligi va faolligiga ko'ra o'zaro farq qilib turadi. Shuning uchun ham iqtisodchilar, bu jarayonlarni iqtisodiy davrlar deb emas, balki iqtisodiy tebranishlar deb atash to'g'ri bo'ladi deb hisoblashadi. Iqtisodiy tebranishlarning asosiy sababi sifatida iqtisodichilar uch omilni ko'rsatadi.

Birinchi guruh olimlar iqtisodiy tebranishlarning asosiy sababi texnika va texnologiyalarda ro'y beradigan o'zgarishlar deb hisoblaydilar. Ularning fikricha fan-texnika yutuqlarini qo'llash natijasida iqtisodiyotda o'sish ro'y beradi. Masalan avtomobilning yaratilishi yoqilg'i sanoati, neft qazib chiqarish, kimyo, yo'l qurilishi materiallari sanoatlarining jadal rivojlanishiga sabab bo'ldi. Yangi texnologiyalar ishlab chiqarish unumdorligini bir necha baravar oshirish, ilgari foydalanilmagan resurslarni ishga tushirish imkonini beradi. Texnik va texnologik

yangiliklar doim ham yaratilavermasligi iqtisodiyotdagi tebranishlarga sabab bo'ladi.

Olimlarning yana bir guruhi iqtisodiy bosqichlarni siyosiy va tasodifiy vaziyatlarga bog'lashadi.

Bu jarayonni monetar siyosatga bog'laydigan olimlar ham mavjud. Ya'ni, davlat qanchalik ko'p pul bosib chiqarsa, uning qadri shunchalik kamayib boradi, va aksincha, pul miqdori qanchalik kam bo'lsa, ishlab chiqarish ko'lamining pasayishi va ishsizlar sonining ortishi shunchalik tezlashadi. Xullas, iqtisodiy bosqichlarni baholashga turli xil yondashuvlar mavjud. Ammo barcha iqtisodchilar, ishlab chiqarish va bandlilik darajalarini yalpi talab va boshqacha aytganda yalpi xarajatlar miqdoriga bog'liq, degan fikrni qo'llab-quvvatlaydilar. Chunki, korxonalar o'z tovar va xizmatlarini ularga talab bo'lsagina ishlab chiqaradi. Boshqacha aytganda, talab katta bo'lmasa, korxonalarda tovar va xizmatlarni katta miqdorda ishlab chiqarish foydali emas. O'z navbatida, ishlab chiqarishda bandlilik va daromadlar darajasi ham, aynan shu sababli, past bo'ladi. Yalpi xarajatlar miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, ishlab chiqarishning o'sishi katta foyda olib keladi. Shuning uchun ishlab chiqarish, bandlilik va daromadlar darajasi ortib boradi. Iqtisodiy tebranishlar sabablarini, ularga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, iqtisodiy tebranishlar amplitudasini qisqartirish barcha hukumatlar makroiqtisodiy siyosatining muhim maqsadlaridan biridir.

3.2. Iqtisodiy davrlarning xususiyati va ko'rinishi

Iqtisodiy taraqqiyot doimiy tebranishlarga uchrab turadi - pasayish, tanglilik davrlari iqtisodiy faollik va ko'tarilish bilan almashadi. Iqtisodiy o'sishning davriylik xususiyati fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq. Shu tufayli asosiy fondlarni sakrash yuli bilan yangilanishi yuz beradi, yangi texnologik jarayonlar tatbiq etiladi, milliy daromad, iste'mol, jamgarish va investitsiyalar o'rtasida o'zaro bog'liqlik o'zgaradi. Iqtisodiy o'sish holatida ishlab

chiqarishning real hajmini vaqti-vaqti bilan bo'lib turadigan bunday kengayishi yoki qisqarishi iqtisodiy davr deb ataladi. Iqtisodiy davrlar davom etish muddatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

♦ qisqa (3-4 yil) muddatli, tovar-moddiy zaxiralarning o'zgarishi bilan asoslangan;

♦ o'rta (7-8 yil) muddatli asosiy fondlar asbob-uskunalarni almashtirishi sifatidagi o'zgarishlaridan kelib chiqadi;

♦ Kuznets davri (15-20 yil), qurilish davr nazariyasining asoschisi Amerika iqtisodchisi Saymon Kuznets nomi bilan atalgan. Bu davrlar turar joylarni va ba'zi ishlab chiqarish inshootlarni vaqti-vaqti bilan ommaviy ravishda yangilanishi bilan bog'liq bo'lgan tebranishlardir;

♦ uzun to'lqinlar (50-60 yil), infrastrukturani yangilanishi va tubdan yangi texnologik jarayonlarni kiritish bilan asoslanadi va rus tadqiqotchisi N.Kondratyev nomi bilan nomlanadi.

Iqtisodiy davrni o'rganish davlat tomonidan davriylikka qarshi qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun zarurdir.

Har bir mamlakat iqtisodiy o'sishga erishish uchun intiladi va uni davlat siyosatining asosiy maqsadi deb biladi.

Chunki iqtisodiy o'sish quyidagilarni bildiradi:

- milliy mahsulot hajmini va daromadni muttasil ko'payishini, oqibatda esa aholi farovonligini o'sishini;
- ishlab chiqarish fondlari va ishchi kuchlarini xo'jalik oborotiga yanada to'laroq jalb qilishni, ya'ni jamiyatning chegaralangan resurslaridan to'g'ri foydalanishni;
- shaxsni rivojlanishiga olib keluvchi yangi ehtiyojlarni va shu bilan bir vaqtda ularni qondirishning yangi imkoniyatlari paydo bo'lishi;
- dunyo bozorida davlat ishonchining o'sishi va o'rni mustahkamlanishi.

Bu esa xalqaro ayirboshlashning nisbatan ustunlik qonuniga muvofiq qo'shimcha xarajatsiz millatlar daromadini oshirishga olib keladi. Shu bilan birga iqtisodiy o'sish ayrim salbiy oqibatlarga ham ega. Ularning ichida eng ko'zga tashlanadigani atrof-muhitga ortiqcha zo'r berilishi va natijada uni ifloslanishi.

Barqaror iqtisodiy o'sish uchun sharoitlarni ta'minlash davlatning muhim vazifasi hisoblanadi. U tartibga solish tayanchlaridan foydalanib, iqtisodiy o'sishning ijobiy tomonlarini kuchaytirish va salbiy tomonlarini tekislash imkoniga ega.

3.3. Davlatning iqtisodiy o'sishga ta'sir etish imkoniyatlari

Hozirgi davrda iqtisodiy o'sishning belgilovchi asosiy omillari bo'lib fan-texnika taraqqiyoti, ishchi kuchining sifati va ishlab chiqarishni rag'batlantirish hisoblanadi. Shu sababli davlat iqtisodiy o'sishga quyidagi vositalar yordamida ta'sir etishi mumkin:

- fan va texnikaning istiqbolli yo'nalishlari rivojlanishini qo'llab - quvvatlash;
- xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlashda qatnashish;
- soliq tizimini ixcham holatda keltirishdan iborat.

So'nggi yillarda ijtimoiy va ekologik muammolarni kuchayishi bilan deyarli barcha mamlakatlarda iqtisodiy o'sish, eng avvalo aholi farovonligini ta'minlashning sharti sifatida qaralmoqda. Iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash zarurligi sababli rivojlangan mamlakatlarda amal qilgan iqtisodiy o'sishning miqdoriy nazariyasi o'z o'rnini iqtisodiy o'sishning sifat nazariyasiga bo'shatib berdi. Keyingi yillardan boshlab jahonda muhim rivojlanish g'oyasi tobora kengayib, tarqalib bormoqda. Uning asosiy tavsifi kelajak avlodlar ehtiyojini, ya'ni ekologiya jihatdan cheklashlar va aholining kambag'al qatlamlari ehtiyojlarini hisobga olishdir.

Deyarli barcha mamlakatlarda davlat siyosati iqtisodiy o'sishning quyidagi muammolarni hal etishga yo'naltirilgan:

- iste'mol darajasi yuqori bo'lgan iqtisodiyotning barqaror holatini ta'minlashga qaratilgan omonat jamg'arish me'yorlarini tanlash;
- aholi o'sishini tartibga solish;
- fan-texnika taraqqiyotining ekologiya jihatdan xavfsiz yutuqlarini joriy etish va mehnat unumdorligini oshirish.

Iqtisodiy o'sishning ijtimoiy yunaltirilganligi kuchayib borishi bilan iqtisodiy nazariya va amaliyotda xalq farovonligi tushunchasi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy tarakkiyotining eng muhim mezonlari sifatida yanada aniqlanmoqda va kengaytirilmoqda.

Agarda, ilgarilari uni moddiy ta'minlanganligining miqdoriy ko'rsatkichlarini (aholi jon boshiga to'g'ri keladigan milliy mahsulot va daromad, oziq-ovqat mahsulotlari, asosiy noishlab chiqarish tovarlari, xizmatlar, turar-joy va boshqalar iste'moli) aks ettirgan bo'lsa, hozirda birinchi o'ringa o'rtacha umr ko'rish darajasi, o'lim darajasi, shu jumladan bolalar o'limi, ishsizlik darajasi, daromadlar tengsizligi, ta'lim darajasi, atrof-muhitning ahvoli va boshqa shu kabi ko'rsatkichlar qo'yilmoqda. Ya'ni iqtisodiy o'sish shaxsning rivojlanib borishi uchun sharoit yaratib berishi lozim.

3.4. Iqtisodiyotning siklik rivojlanishi

Iqtisod bir maromda rivojlanmaydi, unga notekis taraqqiyot xam xos. Tarixda har doim iqtisodiy o'sish o'rniga turg'unlik va hatto tushkunlik kelgan, so'ngra yana iqtisodiy o'sish bo'lgan. Iqtisoddagi shunday tebranma harakat ma'lum davrlarda takrorlanib turgan. Iqtisodiy dinamikadagi ko'tarilish va pasayish hodisalarini o'z ichiga oluvchi, iqtisodning tebranib turishi bilan xarakterlanuvchi davr *iqtisodiy o'sish sikli* deyiladi. Iqtisodiy nazariyalarda sikllar har xil talqin etilgan. Ba'zi manbalarda siklli rivojlanish fakat kapitalizm

belgisi deb qaralgan, sikl inqirozdan inqirozgacha bo'lgan davr sifatida baholangan, unda krizis, turg'unlik, jonlanish va yuksalish fazalari mavjudligi qayd etilgan. Bu nazariyada krizis siklning boshlang'ich nuqtasi deb olingan. Mazkur nazariya XIX asrdagi siklli rivojlanishga xos hodisalarni umumlashtirgan, ammo sikllarning umumiy hodisa ekanligini e'tibordan qochirgan. Hozirgi zamon nazariyalarida iqtisodiy sikllarning mavjudligi tan olinadi, sikl iqtisodiy o'sishga xos tebranma harakat deb talqin etiladi, ammo uning sabablari har xil izohlanadi.

Sikllar azaldan mavjud, ular iqtisodiyotning hamma turlariga xos bo'lgan, ammo iqtisoddagi tebranma harakat turli davrda va turli shaklda namoyon bo'lgan, Qadimgi Dunyo va O'rta asrlar iqtisodiyotidagi tebranma harakat asrlar davomida yuz bergan, chunki iqtisodiy o'sish omillari kuchsiz bo'lganidan ulardagi sifat o'zgarishi sekin borgan va bu omillar iqtisodiyotga faol ta'sir eta olmagan. Iqtisodiyot qoloq bo'lganidan, uni rivojlantirish uchun investitsiya etishmagan, buning ustiga investitsiyalar yangi texnologiyani joriy etish bilan bog'liq bo'lmagan, chunki uning o'zi asrlar davomida kamdan-kam o'zgargan. Kishilar tabiiy kuchlardan (masalan, shamol, suv kuchi) foydalanishni o'rganishlari uchun ko'p asrlar kerak bo'lgan. Taraqqiyot sust borganidan sikl o'ta uzun bo'lgan. Iqtisodiyotning ko'tarilishi va pasayishi sekin-asta bo'ladigan kashfiyotlar, tabiiy ofatlar va urushlar bilan bog'liq bo'lib kelgan. O'rta asrlardagi iqtisodiy jonlanishlar elkanli kemaning kashf yetilishi va savdo yo'llarining ochilishi, Amerika qit'asining ochilishi kabi voqealar bilan izohlangan.

Iqtisodiy taraqqiyot sust joyda siklli rivojlanish aniq namoyon bo'lmaydi. Zamonaviy ishlab chiqarishga o'tish munosabati bilan iqtisodiy o'sishning intensiv usullari harakatga kelgach, iqtisodiyotdagi tebranma harakat ochiq-oydin namoyon bo'ladi va tez-tez takrorlanib turadi. Yangi texnologiyalar paydo bo'lgandan so'ng siklli rivojlanish qonuniy hodisaga aylanadi. Ayniqsa, bu hozirgi innovatsion texnika asri zamonida kuchayadi. Qoloq va rivojlangan jamiyatdagi iqtisodiy tebranishlar sababi aynan bir xil emas. Qoloqlik davrida bu ko'pincha tabiiy omillar va falokatlar natijasi bo'lgan, chunki iqtisodiy faoliyatga tasodiflar kuchli ta'sir ko'rsata olgan. Iqtisodiy quvvati kuchli jamiyatda ishlab chiqarish tabiiy va boshqa tasodifiy hodisalar ta'sirini kuchsizlantira oladi. Shu

sababli tebranishlar iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ularni asosan ikki narsa keltirib chiqaradi. Birinchisi - fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq investitsiyalar, ikkinchisi - mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talab-extiyojning o'zgarishi. Ular birgalikda iqtisodiy o'sishga ta'sir etadi. Mahsulotga talabning ortishi yoki kamayishi ishlab chiqarishni kengaytirishni yoki qisqartirishni taqozo etadi. Bu o'z navbatida investitsiyalarni o'zgartiradi. Talab ketidan investitsiyaning ko'payishi ishlab chiqarishdagi texnika va texnologiyani yangilaydi. Ammo ishlab chiqarish haddan tashqari ko'paysa, mahsulot turib qoladi, uni ko'proq ishlab chiqarish zarurati bo'lmaydi, natijada uni qisqartirishga to'g'ri keladi. Ishlab chiqarishning texnikaviy yangilanishi vaqti-vaqti bilan bulib turadi, shu sababli iqtisodiy o'sish notekis yuz beradi. Iqtisodiy o'sish o'rniga turg'unlik yoki tushkunlik keladi, so'ng ishlab chiqarish yana o'nglanib ketadi. Texnika taraqqiyotining shiddatiga qarab texnikaviy yangilanish muddati qisqaradi. Agar XIX asrning 1-yarmida texnikaning yangilanishi, ya'ni mavjud texnikaning tuzib bulishi natijasida uning yangisi bilan almashtirilishi 12-15 yilda bo'lsa, XXI asrga kelib bu muddat 1-2 yilga tushib qoldi. Buning ustiga talab-ehtiyoj ham tez yangilanadi. Shu boisdan o'sish va pasayishdan iborat tebranma harakat sikli (davri) ham qisqaradi.

Nazorat savollari

1. Iqtisodiy o'sish deganda nimani tushunasiz?
2. Iqtisodiy o'sish qanday usullar bilan aniqlanadi?
3. Iqtisodiy davrlarning xususiyatlarini tushuntiring.
4. Iqtisodiy o'sishning ahamiyati nimada?
5. Iqtisodiy o'sishga qanday omillar ta'sir etadi?
6. Davlat iqtisodiy o'sishga qanday ta'sir etadi?
7. Iqtisodiy o'sish va aholi faravonligi o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
8. Iqtisodiy sikl deganda nimani tushunasiz? Iqtisodiy siklning qanday fazalari mavjud?

IV-BOB. ISHCHI KUCHI VA ISHSIZLIK

4.1. Mehnat bozori va undagi raqobat

Mehnat bozorida ham talab va taklif qonuni amal qiladi. Mehnat bozorida ishchi kuchini raqobat sharoitida oldi-sotdisi amalga oshiriladi. Bunda o'ziga xos muvozanat narx o'rnatiladi. Mehnat bozoridagi talab va taklif qonuni va uning mohiyatini anglashdan oldin ishchi kuchining ish bilan bandligi konsepsiyasini bilishimiz lozim.

Ish bilan bandlikning klassik nazariyasini yoritishda hozirgi mehnat bozoridagi raqobat sharoitida "talab va taklif"ning umumbashariy funksiyasidan boshlaymiz.



4.1-chizma. **Mexnat bozoridagi talab egri chizig'i**

Hozirgi raqobat sharoitida ishbilarmonlar ishchi kuchidan shunday miqdorda foydalanadilarki, bunda mehnatning yuqori mahsuli real ish haqi bilan teng bo'lishi yoki ish haqi hajmining puldagi ifodasi mehnatning yuqori mahsuli qiymatiga teng bo'lishi kerak. Agar real ish haqi hajmi oshsa, ishbilarmon ishchi kuchiga bo'lgan talabini qisqartiradi, agar real ish haqi hajmi kamaysa ishchi kuchiga bo'lgan talab ortadi. Bu yerda ishbilarmon shu yo'l bilan daromadining kamayishini muvozanatlashtiradi.

Makroko'lamdagi talab va taklif nazariyasi asosida mehnatga bo'lgan talabning egri chizig'i quyidagi ko'rinishga ega buladi *(4.1 chizma).*

4.1-chizmadan ko'rinib turibdiki, egri chiziqning salbiy tomonga og'ish tendensiyasi mavjud. Real ish haqini qisqartirish natijasida mehnatga bo'lgan talab oshmoqda va aksincha, real ish haqi oshsa, mehnatga bo'lgan talab kamayadi.

Endi mehnatning taklif funksiyasiga kelsak, bu yerda individ o'zining samarali xizmatini taklif qiladi. Individ o'z xizmatini ish haqining puldagi ifodasidan kelib chiqib emas, balki ish haqining o'lchovlaridan kelib chiqib taklif qiladi.

Iqtisodiyotning beqaror rivojlanishi oqibatida, iqtisodiy pasayish davrida ishlab chiqarish resurslari to'liq foydalanilmay qoladi.

YaIMni yaratishda qatnashadigan iqtisodiy resurslarning eng asosiylaridan biri bo'lgan mehnat resurslaridan to'liq foydalanilmaslik ishsizlikda namoyon bo'ladi.

Makroiqisodiy tahlilda mehnat resurslari emas balki ishchi kuchi kategoriyasidan ko'proq foydalaniladi.

Ishchi kuchi yoki iqtisodiy faol aholi deganda mehnatga layoqatli yoshdagi ishlayotgan va ishsiz yurgan aholining umumiy soni tushuniladi.

Mehnat bozorida boshqa resurslar bozori singari talab va taklif qonuni amal qiladi. Ishchi kuchining bahosi hisoblangan real ish haqi hajmi oshsa ishchi kuchiga bo'lgan talab qisqaradi, agar real ish haqi hajmi kamaysa ishchi kuchiga bo'lgan talab ortadi, ishchi kuchi taklifi esa kamayadi. Ishchi kuchiga bo'lgan talab miqdorining ishchi kuchi taklifi miqdoridan kam bo'lishi ishsizlikni keltirib chiqaradi.

Ishsizlar – bu, ishchi kuchining bir qismi bo'lib, ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lmagan, lekin ishlashni xohlovchi va faol ish qidirayotgan aholidir.

Ishsizlik darajasi deb ishsizlarni ishchi kuchi soniga nisbatiga (% hisobida) aytiladi va uni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

Ishsizlik darajasi =(ishsizlar soni / ishchi kuchi soni)x100

Ishsizlikning quyidagi turlari mavjud:

Friksion ishsizlik. Unga ish qidirayotgan yoki yaqin vaqtlar ichida ish bilan ta'minlanishni kutayotgan ishchi kuchi kiradi. Ishsizlikning bu turi asosan ish yoki turar joylarni o'zgartirish, o'quv yurtlarini tugatish va shuningdek, boshqa sabablardan kelib chiqadi. U doimo mavjud bo'lib, ma'lum bir darajada kerakli hisoblanadi.

Tarkibiy ishsizlik. Tarkibiy ishsizlar guruhiga ishlab chiqarish strukturasining o'zgarishi natijasida ishchi kuchiga talab tarkibining o'zgarishi

natijasida ishsiz qolganlar kiradi. Unga asosan malakalarini o'zgartirishi va oshirishi, ma'lumot olishi, yangi kasb egallashi lozim bo'lgan ishsizlar guruhlari kiradi. Friksion ishsizlik bilan tarkibiy ishsizlikning asosiy farqi shundaki, birinchisida, ma'lum malaka va tajriba mavjud bo'ladi va undan foydalanib, ish joylarini tezroq topib olishadi, ikkinchisida esa, ishchi kuchi darhol va tezroq ish joylarini topa olmaydi.

Davriy ishsizlik asosan ishlab chiqarishning pasayishi natijasida ishchi kuchiga bo'lgan talabning kamayishidan paydo bo'ladi. Davriy pasayish tovar va xizmatlarga bo'lgan yalpi talabning kamayishini, shunga muvofiq, yalpi tatalabning kamayishini, va oqibatda aholining ish bilan bandligi qisqarishi va ishsizlikning o'sishini bildiradi.

To'la ish bilan bandlik ishchi kuchining 100 foiz ish bilan ta'minlanganligini bildirmaydi. Aksincha, friktsion va strukturali ishsizlik ilojsiz hol bo'lganligini hisobga olsak, biz mutlaq to'la ish bilan bandlilikka erishib bo'lmasligini tushunamiz.

Agarda davriy ishsizlik bo'lmasa, u holda to'la ish bilan bandlilikka erishiladi. To'la ish bilan bandlik davridagi ishsizlik, **ishsizlikning tabiiy darajasi** deyiladi. Bunga ish qidiruvchilar soni bo'sh ish joylari soniga muvofiq kelsagina erishish mumkin. Ishsizlikning tabiiy darajasi friktsion va tarkibiy ishsizlik yig'indisiga teng bo'ladi.

Ishsizlikning tabiiy darajasi doimiy emas, chunki u iqtisodiy vaziyat, qonun va milliy an'analar bilan bog'liq holda o'zgarib turadi.

Ishsizlikning tabiiy darajasi mamlakatdagi oxirgi o'n yilda mavjud bo'lgan haqiqiy ishsizlik darajasi va keyingi o'n yil uchun prognoz qilib hisoblangan ishsizlik darajalarining o'rtacha miqdori sifatida belgilanadi. Umumiy holda ishchi kuchi ish bilan band va faol ish qidirib yurgan ishsizlarga bo'linadi.

4.2. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari. A.Ouken qonuni.

Barcha mavjud resurslardan to'liq foydalanish yoki ishsizlikning tabiiy darajasi holatida iqtisodiyotda yaratilishi mumkin bo'lgan mahsulot hajmini iqtisodiyotning ishlab chiqarish potensiali deb ataladi. Mamlakatning ishlab chiqarish potensiali potensial YaIM ko'rsatkichi bilan o'lchanadi.

Makroiqtisodiy beqarorlik tufayli, iqtisodiy pasayish davrida mamlakat o'z iqtisodiy potensialini to'liq ishga solmasdan, yaratilgan haqiqiy YaIM hajmi (Yh) potensial YaIM (Yp) hajmidan ortda qoladi. Ya'ni YaIMning uzilishi (Yuz) ro'y beradi.

$$Yuz = \frac{Yh - Yp}{Yp} 100.$$

Potensial YaIM deganda mamlakatdagi ishlab chiqarish resurslaridan to'liq foydalanilgan sharoitda mumkin bo'lgan ishlab chiqarish hajmi tushuniladi.

Potensial YaIMni hisoblashda mamlakatda ishsizlik mutlaqo yo'q deb emas, balki mavjud, biroq u tabiiy darajada, deb hisoblanadi.

Ishsizlik darajasining oshishi natijasida iqtisodiyot potensial YaIM hajmini ololmaydi. Shu sababli mamlakat miqyosida ishsizlikni uning tabiiy darajasida saqlash va tartibga solish iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan qanchalik yuqori bo'lsa, YaIM uzilishi shuncha ko'p bo'ladi. Shuning uchun ham potensial hajmdagi YaIM haqiqiy YaIM dan katta bo'ladi.

Ishsizlik darajasi va YaIM uzilishi o'rtasidagi miqdoriy nisbatni ingliz iqtisodchisi Artur Ouken matematik holda isbotlab bergan. Shuning uchun bu qonun, **Ouken qonuni** deyiladi. Qonunning mohiyati shundan iboratki, agar ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan bir foizga oshib ketsa, ya'ni davriy ishsizlik 1 foizni tashkil etsa milliy iqtisodiyot YaIMni ikki yarim foizga kam yaratadi. YaMMning pastroq darajasi o'z navbatida, ishlab chiqarishda qatnashuvchilar daromadlarining nisbatan kamroq bo'lishini va iqtisodiyotning kelgusi taraqqiyotini investitsiyalash imkoniyatlari qisqarishini bildiradi.

Ouken qonuni ishsizlikning turli darajalaridagi mahsulot yo'qotishlari hajmini aniqlash imkonini beradi. Hozirgi kunda β koeffitsienti deb atalgan bu koeffitsient miqdori 2 foizdan 3 foiz oralig'ida deb hisoblanadi.

Ouken qonunini formulada quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$Yuz = -2{,}5[u - u*].$$

Bu yerda: **u*** – ishsizlikning tabiiy darajasi;

u – ishsizlikning haqiqiy darajasi.

YaMM uzilishini ifodalaydigan formula bilan Ouken qonunini formulasini umumlashtirib quyidagi formulani olamiz:

$$\frac{Yh - Yp}{Yp} 100 = -\beta [u - u*].$$

Ouken qonuni izohlagan miqdoriy bog'liqlikning teskari jihatiga e'tibor qaratamiz. Iqtisodiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki YalMning 2-3 foizga o'sishi davriy ishsizlik darajasini 1 foizga qisqarishini keltirib chiqarmas ekan. Ya'ni dastlabki 1 foizlik iqtisodiy o'sish fan-texnika taraqqiyoti natijasida resurslardan foydalanish samaradorligi hisobiga erishilishi mumkin, shuningdek bu paytda aholi sonining ko'payishi ham ishsizlik soninining pasaymasligiga sabab bo'ladi. Dastlabki 2-3 foizdan yuqori bo'lgan har 2-3 foiz iqtisodiy o'sish esa davriy ishsizlikni 1 foizga qisqarishini keltirib chiqaradi. Demak 1 foizlik davriy ishsizlikni tugatish uchun yillik 4-6 foizlik iqtisodiy o'sish ta'minlanishi kerak.

4.3. O'zbekistonda mehnat bozorini tashkil etish va tartibga solish

Mehnat bozorining faoliyati quyidagi omillarga ko'p jihatdan bog'liq:

- aholi soni, yoshi va jinsining salmog'idagi o'zgarishlarga;
- ish bilan bandlikdagi tarmoq va hudud o'zgarishlariga;
- qo'shimcha ishchi kuchini ishlab chiqarishga jalb etish mezoniga;
- ishlab chiqarish hajmiga, uning o'sish sur'atiga, ishlab chiqarish strukturasiga;
- ishlab chiqarish kuchlarini hududiy joylashuviga;
- mehnat resurslarini boshqarish usuliga.

Mehnat bozoridagi vaziyat yuqoridagi omillarning ta'sirida o'zgarib turadi va shunga mos ravishda ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif hajmi aniqlanadi.

Misol uchun, mehnat bozorida ishchi kuchiga bo'lgan talab taklifdan ko'proq bo'lsa, bozorda ishchi kuchining qo'shimcha manbalaridan qo'shimcha taklif etiladi. Qo'shimcha manbalari bo'lib mehnat nafaqasi oluvchilar, talabalar, o'quvchilar hisoblanadi.

Ishga joylash idoralarining faoliyatlari kuchaytiriladi va takomillashtiriladi, boshqa hududlardan qo'shimcha, ishchi kuchining oqib kelishi rag'batlantiriladi, har bir ishsizning shaxsiy hisobi olinadi va h.k.

Agarda mehnat bozorida ishchi kuchiga bo'lgan talab taklifdan kam bo'lsa, qo'shimcha ish joylarini tashkil etish, ish smenasini ko'paytirish, ish bilan bandlikning noan'anaviy yo'llaridan foydalanish, boshqa hududlarga ortiqcha ishsizlarni jalb qilish mexanizmlaridan foydalaniladi.

Agarda ishchi kuchiga bo'lgan talab taklif bilan teng bo'lsa va muvozanat o'rnatilsa, ishlab chiqarish vositalarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, ish vaqtini yo'qotishni kamaytirish, ishchilarning malakasini oshirish, mehnatni rag'batlantirish va ish haqini samarali tashkil etish zarurati kelib chiqadi. Bu esa

ish bilan bandlikning samaradorligini oshirish bilan birga makroiqtisodiyotning o'sish sur'atlarini jadallashchtiradi.

Bozordagi talab va taklifni tartibga solish uchun iqtisodiy mexanizm modelidan foydalaniladi. U quyidagi elementlardan tashkil topadi:

- ko'p bosqichli ish tanlash, o'qitish va qayta tayyorlash tizimi;
- keng ko'lamli ish bilan bandlik markazlari. Bu markazlarda doimo bo'sh ish joylarini qidirayotgan ishsizlar hisobi olib boriladi, kadrlar zarur bo'lgan korxonalarga ishchi kuchi yetkazib berishga hamkorlik qiladi;
- alohida ijtimoiy-demografik qatlamlardagi aholining ish bilan bandligi maxsus dasturlari;
- Respublika va mahalliy mehnat bozoridagi holatni doimo prognoz qilish va o'rganish uchun ijtimoiy-iqtisodiy konsepsiyasi;
- O'zbekistonda mehnat bozoriga aholining quyidagi guruhlari kiradi;
- o'qishni bitirib birinchi marotaba ish qidirib yurgan yoshlar;
- tarmoq korxonalaridagi strukturaviy o'zgarishlar natijasida ishsiz bo'lib qolgan xodimlar. Shuningdek, davlat sektorini xususiylashtirish va boshqa mulkchilikka o'tishdan kelib chiqqan ishsizlar;
- raqobatda singan va past rentabelli, zarar ko'rib ishlayotgan korxona va tashkilotlar;
- vaqtincha ishsiz yurgan va mehnat birjalari ko'magida yangi ish joyi qidirib yurgan shaxslardan iborat.

Mehnat birjalarida ishsizlarni aniqlash, ishga joylash, qayta tayyorlash va shu kabi bir qancha masalalar hal qilinadi. Mehnat birjalari hozirgi paytda respublikamizning viloyatlari va uning tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Nazorat savollari

1. Iqtisodiy tebranishlarning sabablarini qanday izohlaysiz?

2. Ishsizlikning qanday turlari mavjud? Ishsizlik darajasi qanday aniqlanadi?

3. Ishsizlikning tabiiy darajasi, ish bilan to'liq bandlilik tushunchalariga tavsif bering.

4. Potensial YalM ko'rsatkichini izohlab bering.

5. Makrodarajada ishsizlikning iqtisodiy oqibatlarini qanday o'lchash mumkin?

6. O'zbekistonda mehnat bozorini tashkil etish yo'llari nimalardan iborat?

7. Ouken qonunini izohlang.

8. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari qanday?

V-BOB. INFLYATSIYA VA AKSILINFLYATSIYA SIYOSATI

5.1. Inflyatsiyaning mohiyati va hisoblanish usullari

Inflyatsiya - bu yalpi tovar va xizmatlarning narxini ko'payishidir. Inflyatsiya makroiqtisodiy beqarorlikni eng murakkab aspekti bo'lib uni tartibga solish iqtisodiy muammo hisoblanadi.

Inflyatsiya (lotincha inflatio - shishish, bo'rtish, taranglashish) – ma'lum davr mobaynida mamlakatda baholar o'rtacha (umumiy) darajasining barqaror o'sishi, pulning xarid qobiliyatini uzoq muddatli pasayishi. Inflyatsiya bozor iqtisodiyotining asosiy izdan chiqaruvchi omillari jumlasiga kiradi, uning sur'ati qanchalik yuqori bo'lsa, iqtisodiyotga xavfli ta'siri shunchalik katta bo'ladi. Ayniqsa bir iqtisodiy tizimdan ikkinchi bir iqtisodiy tizimga o'tayotgan mamlakatlarda inflyatsiyaning iqtisodiyotga ta'siri ancha xavfli. Chunki, bu davr narxlarning erkinlashuvi va shunga muvofiq ularning umumiy darajasi keskin oshib ketishi bilan bog'liq.

Ammo inflyatsiya davrida barcha tovarlarning baholari ham oshavermaydi: ayrimlariniki barqaror bo'lib tursa, ba'zilariniki esa tushishi mumkin.

"Inflyatsiya" atamasi ilk bor Shimoliy Amerikada 1861-1865 yillardagi Fuqarolar urushi davrida qo'llanildi. Inflyatsiyaning atamasi muomaladagi qog'oz pul massasining tovarlarning real taklifiga nisbatan haddan ziyod ko'payib ketishi holatini izohlangan. Ammo inflyatsiyaning bunday tavsifi mukammal emas va uning sabablarini ochib bermaydi. Umuman olganda inflyatsiya pul muomalasi qonunlarining buzilishi shakli sifatida makroiqtisodiy muvozanatning buzilishini, talab va taklif nomutanosibligini anglatadi.

Keynschilar maktabi namoyondalari bunday nomutanosiblikning sababi to'liq bandlik sharoitida talabning haddan ziyod bo'lishida deb bilishadi. Shu sababli ular ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi past bo'lsa byudjet taqchilligi va qo'shimcha pul chiqarish yo'li bilan xarid qobiliyatini, boshqacha aytganda yalpi talabni ko'paytirish inflyatsiyaga olib kelmaydi deb hisoblashishadi.

Neoklassik yondashuv tarafdorlari inflyatsiyaning manbai ishlab chiqarishning haddan ziyod o'sishida, ishlab chiqarish xarajatlarining ko'payishida deb bilishadi. Demak, keynschilar inflyatsiyaga talab tomonidan, neoklassiklar esa taklif tomonidan yondashishadi.

Agar iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlar massasi yalpi talabga nisbatan sekinroq o'ssa, yoki yalpi talab ko'paygani holda o'zgarmasdan tursa, bu nomutanosiblik baholar darajasining ko'tarilishi orqali bartaraf etiladi. Oqibatda

pul birligining xarid qobiliyati pasayadi va milliy iqtisodiyotning qo'shimcha pul massasiga ehtiyoji paydo bo'ladi.

Inflyatsiya nafaqat pul muomalasining izdan chiqishi, balki butun takror ishlab chiqarish mexanizmining kasali, makroiqtisodiy buzilishlar natijasidir. Baholarning o'sishi, pul birligi xarid qobiliyatining pasayishidan tashqari inflyatsiya namoyon bo'lishining quyidagi uch belgisi ham bor. Bular:

1) valyuta kururslarining o'zgarishi;
2) kredit berish shartlarining qimmatlashuv va muddatlarining qisqarishi tomon o'zgarishi;
3) kundalik ehtiyoj mollaridan iborat iste'mol savati bahosining o'sishi.

Inflyatsiya baho indekslari - deflyator va iste'mol narxlar indeksi yordamida aniqlanadi.

Baholar o'rtacha (umumiy) darajasining nisbiy o'zgarishi **inflyatsiya darajasi (baholarning o'sish sur'ati)** deb ataladi. Makroiqtisodiy modellarda inflyatsiya darajasi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$\pi = \frac{P-P-1}{P-1} x\ 100\ \%,$$

bunda: **π**– yillik inflyatsiya sur'ati;

P - joriy yilning narxlar indeksi;

P-1 - o'tgan yilning narxlar indeksi.

Inflyatsiyani miqdoran o'lchash uchun makroiqtisodiyotda "70-miqdor qoidasi" deb atalgan usuldan ham foydalaniladi. Bu usul narxlarning barqaror o'sishi sharoitida inflyatsiya darajasi necha yilda ikki baravarga oshishini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun etmishni yillik inflyatsiya darajasiga bo'lish kifoya:

$$\textbf{Baholar ikki martaga oshishi uchun ko'rsatuvchi yillar soni} = \frac{70}{\pi}$$

Misol uchun, yillik inflyatsiya darajasi 7 % ga teng bo'lsa, taxminan 10 yilda baholar ikki martaga oshadi, ya'ni, (70:7 = 10).

Real YaIM va jamg'armaning necha yildan so'ng ikki marta oshishini hisoblash zarur bo'lgan hollarda ham "70-miqdor qoidasidan" foydalaniladi.

Inflyatsiyaning O'zbekistonda 1990-1993 yillardagi holatini tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, u ichki va tashqi omillar natijasida yuzaga kelganligi va chuqur ildiz otganligini bilishimiz mumkin. Misol uchun, xalq iste'moli mahsulotlaridan sovutgichning narxi 520 martadan ham oshib ketdi, xatto

chegaralangan narxlarda sotiladigan mahsulotlarning narxi ham keskin ko'paydi. Misol uchun gushtning chegaralangan narxi 75 martadan ham oshib ketdi va xokazo. Ba'zi bir tovarlarni narxi esa 1000 marta va undan ko'p oshib ketdi. Inflyatsiyani to'xtatish esa ichki va ayniqsa, tashqi omillarni tartibga solish qiyin bo'lganligi uchun yanada mushkullashadi va uzoq davom etadi.

5.2. Inflyatsiyaning turlari. Talab va taklif inflyatsiyasi

Talab inflyatsiyasi iqtisodiyotda talab keskin oshib ketishi va uni ishlab chiqarishning real hajmi bilan qondirish mumkin bo'lmay qolgan sharoitlarda kelib chiqadi. Ya'ni, to'liq bandlikka yaqin sharoitda iqtisodiyotning ishlab chiqarish imkoniyatlari o'sib borayotgan yalpi talabni qondirolmaydi. Ortiqcha talab esa real tovarlar bahosining ko'payishiga iqtisodiy bosim beradi va talab inflyatsiyasi kelib chiqadi. Yoki, oddiy so'zlar bilan aytganda, "haddan ziyod pullar haddan kam tovarlarni ovlaydi". Talab inflyatsiyasini keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar aholining ish bilan to'liq bandligi va ish haqining oshib borishi hisoblanadi. Demak, inflyatsiya talab, taklif, ish bilan bandlik, baho, ishlab chiqarish sur'atlari kabi ko'pgina omillarga bog'liq.

Iqtisod pasayish holatida bo'lganda mamlakatda jami talab oshsa, ishlab chiqarish hajmi ko'payadi, ishsizlik kamayadi, baho darajasi esa deyarli o'zgarmaydi yoki kam miqdorda o'zgaradi. Baho o'zgarmasligining sababi shundaki katta hajmdagi bo'sh turgan mehnat va xomashyo resurlarini shu o'zgarmas bahoda ishga tushirish mumkin bo'ladi. Chunki, ishsiz yurgan kishi ish haqini oshirishni talab qilmaydi, uning uchun ishga yollanishning o'zi kifoya hamda qo'shimcha stanok sotib olishga hojat yo'q.

Bundan tashqari, baho ishchi kuchini to'la ish bilan bandligiga erishishdan oldin ham oshishi mumkin. Ya'ni, ba'zi sanoat korxonalarida bo'sh turgan resurs va zaxiralarni ishlab chiqarishga ertaroq to'liq jalb qilinadi, natijada ular talabning o'sishiga mos ishlab chiqarishga, taklifga erisha olmaydi. Talab, taklifdan ko'payib ketadi, natijada baho yana osha boshlaydi.

Taklif inflyatsiyasi bu, mamlakat iqtisodiyotida tovar va xizmatlar taklifining kamayishi natijasida tovar va xizmatlar baholarining oshishidan paydo bo'ladi. Bunday hollarda ortiqcha talab bo'lmasa ham tovarlarning baholari oshib boradi. Hatto ish bilan bandlik va YaIM ishlab chiqarish kamaygan yillari tovarlarning bahosi oshadi. Jami taklif qisqarishining asosiy sababi mahsulot birligiga sarflangan xarajatlarning o'sishi hisoblanadi. Bunda nominal ish haqi, xomashyo va yoqilg'i narxlarining oshishi natijasida ishlab chiqarish tannarxi ham oshadi.

Taklif inflyatsiyasining kelib chiqishiga, shuningdek, taklif mexanizmining buzilishi ham ta'sir qiladi. Taklif mexanizmi esa tasodifiy holda asosiy ishlab chiqarish omillari bahosining keskin ko'payishidan kelib chiqadi. Iqtisodchi olimlarning fikriga ko'ra, taklif inflyatsiyasi o'zini-o'zi cheklaydi. Ishlab chiqarishning pasayishi xarajatlarning qo'shimcha o'sishini cheklaydi, chunki ishsizlikning o'sishi nominal ish haqining asta-sekin pasayishiga olib keladi. Talab inflyatsiyasini cheklash uchun esa maxsus chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'ladi. Inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi qisqarishi bilan bir vaqtda nominal hajmining ortib borishi kabi vaziyat sodir bo'ladi. Daromadlarni ishlab chiqarish tomonidan ta'minlanmagan o'sishi aholi qo'lidagi pulning taklif qilinayotgan tovar va xizmatlardan oshiqchaligiga olib keladi. Bunday hol pul birligining xarid quvvatini pasaytiradi, bir miqdordagi pulga joriy yilda o'tgan yildagiga nisbatan aholi kamroq mahsulot sotib oladi, ya'ni, uning real daromadi kamayadi. Misol uchun, joriy yilda aholining nominal daromadlari 30 %ga ko'paygan, narxlar darajasi 50 %ga oshgan bo'lsa, unda aholining real daromadlari 20 %ga kamaygan bo'ladi. Chunki, narxlarning o'sishi aholi pul daromadlarining o'sishidan yuqori bo'lgan (30% - 50%- 20%).

Inflyatsiyaning real daromadlar darajasiga ta'siri u kutilayotgan yoki kutilmayotganiga ham bog'liq. **Kutilayotgan inflyatsiya** sharoitida daromad oluvchi inflyatsiyaning u olayotgan daromadga ta'sirini kamaytirish, ya'ni real daromadi darajasini saqlab qolish chorasini ko'radi.

Bu uchun Fisher tenglamasidan foydalanish mumkin:

$i = r + \pi_{kut}$, bu yerda i-nominal foiz stavkasi;

r- real foiz stavkasi;

π_{kut} - kutilayotgan inflyatsiya darajasi.

Inflyatsiya sur'ati 10 foizdan oshganda Fisher tenglamasi quyidagi ko'rinishni oladi:

$$r = \frac{i - \pi kut}{1 + \pi kut.}$$

Kutilmagan inflyatsiya daromadlarni debitorlar va kreditorlar o'rtasida kreditorlar foydasiga qayta taqsimlaydi. Shuningdek kutilmagan inflyatsiya daromadlarni qayd qilingan daromad oluvchilar va qayd qilinmagan daromad oluvchilar o'rtasida keyingilari foydasiga qayta taqsimlaydi. Talab va taklif inflyatsiyasini qat'iy chegaralash qiyin. Ba'zida bu ikki turdagi inflyatsiya bir-biri bilan qo'shilib ketadi. Masalan, talab inflyatsiyasi sharoitida yollanma ishchilar kutilayotgan inflyatsiya darajasini e'tiborga olib ish haqlari oshirilishini mehnat shartnomalariga kiritadilar. Bu esa mahsulot tannarxini oshirib taklif inflyatsiyasini

keltirib chiqaradi. Tovarlar taklifning kamayishini kuzatayotgan iqtisodiy agentlar pul mablag'larini tovarlarga aylantirishga shoshadilar. Bu holat talab inflyatsiyasi ko'rinishini keltirib chiqaradi. Bunday ketma-ketlik oxir-oqibat giperinflyatsiyani keltirib chiqarishi mumkin. Giperinflyatsiya boshqarib bo'lmaydigan inflyatsiya jarayoni bo'lib, ishlab chiqarish va bandlik darajalariga halokatli ta'sir ko'rsatadi. Yillik sur'ati bir necha o'n yoki yuz foizni tashkil etgan inflyatsiya pul tizimining boshlanayotgan yoki kuchayayotgan inqirozi belgisidir. Giperinflyatsiya uning halokatini, butun bozor mexanizmi falajlanishini anglatadi. Giperinflyatsiyaning rasmiy mezoni amerikalik iqtisodchi Fillipp Kegan tomonidan kiritilgan. F.Kegan giperinflyatsiyaning boshlanishi deb baholarning birinchi bor 50%dan oshgan oyni, tugallanishi deb esa, baholarning o'sishi bu sur'atdan pasaygan va shundan so'ng kamida bir yil davomida undan oshmagan oydan oldingisini hisoblash kerak deb taklif qilgan. Giperinflyatsiya sharoitida pul o'zining qiymat o'lchovi va almashinuv vositasi singari funksiyalarini bajarolmay qoladi. Normal iqtisodiy munosabatlar buziladi. Mablag'lar ishlab chiqarishga emas, balki tovar-moddiy boyliklari jamg'arishga yo'naltiriladi.

5.3. Inflyatsiya va ishsizlik o'rtasidagi bog'liklik.

Fillips egri chizig'i

Iqtisodiyot o'z rivojlanishida potensial darajaga yaqinlashgan shariotda yoki bandlilik darajasini oshirish yoxud inflyatsiya darajasini pasaytirish kabi muqobil variantlardan birini tanlashga majbur bo'linadi. Chunki qisqa muddatli davrda ishsizlik va inflyatsiya darajalari o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud. Ishsizlikni pasaytirish ish joylarini yaratish uchun qo'shimcha mablag'lar ajratilishini anglatadi. Ayni paytda bu ish haqi miqdorining oshishiga ham olib keladi. Har ikkala holat ham baholar darajasinining ko'tarilishiga olib keladi, ya'ni talab inflyatsiyasi ro'y beradi.

Ish haqi mehnat bozorida muvozanatni o'rnatuvchi vosita hisoblanadi va uning darajasini o'zgarishi ishsizlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu ikki ko'rsatkich o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ingliz iqtisodchisi A.V.Fillips tomonidan, Buyuk Britaniyaning 1862-1957 yillar ma'lumotlari asosida tadqiqot qilingan hamda grafikda *Fillips egri chizig'i* deb aks ettirilgan. Modomiki, ish haqi va narxlar o'zgarishining sur'atlari o'rtasida bir xil nisbat mavjud ekan, u holda Fillips egri chizig'i o'z mohiyatiga ko'ra inflyatsiya va ishsizlik o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi, ya'ni inflyatsiyaning o'sishi sur'atida ishsizlikning past darajasi kuzatiladi va aksincha. Muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasida

barqaror va oldindan ko'rish mumkin bo'lgan bog'liqlikni o'rnatish G'arb mamlakatlarining milliy iqtisodiyotini tartibga solish va istiqbolini belgilash imkonini berdi.

Fillips egri chizig'i ishsizlik va inflyatsiya darajalari o'rtasidagi teskari bog'lig'likni xarakterlaydi.



5.1-chizma. **Fillips egri chizig'i**

Mamlakat iqtisodiyotining xususiyatiga ko'ra, shuningdek, inflyatsiyaning qaysi turi mavjudligiga qarab Fillips egri chizig'idagi inflyatsiya va ishsizlik darajalarining kombinatsiyasi farq qilishi mumkin. Bunday tanlov kutilayotgan inflyatsiyaning sur'atiga bog'liq. Kutilayotgan inflyatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa ishsizlikning har qanday darajasida (sur'ati past bo'lgan inflyatsiya darajasiga nisbatan) haqiqiy inflyatsiya darajasi yuqori bo'ladi. Ishsizlik darajasi va inflyatsiya sur'atining maqbul miqdorlari quyidagi formula ko'rinishida tasvirlanishi mumkin:

$$\pi = \pi kut + f\left(\frac{Yh - Yp}{Yp}\right) + \varepsilon.$$

Bu yerda π - inflyatsiyaning haqiqiy darajasi; π_{kut} - inflyatsiyaning kutilayotgan darajasi;

$$f\left(\frac{Yh - Yp}{Yp}\right) + \varepsilon - \text{talab inflyatsiyasi;}$$

f - Fillips egri chizig'ining og'ish burchagini belgilovchi empirik koeffitsent;

ε - tashqi baho shoki (taklif inflyatsiyasi).

Ouken qonuniga ko'ra YaIMning uzilishi, ya'ni $(Y_h - Y_p) / Y_p$ miqdor davriy ishsizlikning o'zgarishiga bog'liqligi sababli qisqa muddatli Fillips egri chizig'ini tenglamasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$\pi = \pi_{kut} - \beta [u - u^*] + \varepsilon.$$

Keltirilgan tenglamadan ko'rinib turibdiki, haqiqiy inflyatsiya darajasi miqdori kutilayotgan nflyatsiya darajasiga hamda tashqi baho shoklari darajasi bilan to'g'ri bog'liqliqqa, davriy ishsizlik darajasi bilan esa teskari bog'liqqa ega ekan.

Hukumat Fillips egri chizig'iga asoslanib, qisqa davr uchun, iqtisodiy siyosat maqsadlaridan kelib chiqib ishsizlik va inflyatsiya darajalarining istalgan kombinatsiyasini tanlashi mumkin.

5.4. Aksilinflyatsiya siyosati

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash borasidagi chora tadbirlarning muhim qismi aksilinflyatsiya siyosatidir.

Aksilinflyatsiya siyosati - baholar umumiy darajasini barqarorlashtirish, inflyatsion keskinlikni yumshatishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy siyosat.

Aksilinflyatsiya siyosati inflyatsiyani yuzaga keltirgan sabablarni tugatishga qaratilgan faol va inflyatsiya sharoitlariga moslashishga qaratilgan passiv ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Aksilinflyatsiya siyosati o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- yalpi talabni tartibga solish;
- yalpi taklifni tartibga solish.

Keynschi iqtisodchilar birinchi yo'nalish tarafdorlari bo'lib, ular davlat buyurtmasi va arzon kredit hisobiga samarali talabni shakllantirish asosida yalpi taklif darajasini ko'tarish mumkin deb hisoblashadi. Hukumatning bu tadbirlari iqtisodiy pasayishni qisqartiradi va ishsizlikni kamaytiradi.

Ammo bunday aksilinflyatsiya siyosati davlat byudjeti taqchilligini yuzaga keltiradi va qo'shimcha pul emissiyasiga ehtiyoj tug'diradi. Keyns davlat byudjeti taqchilligini davlat tomonidan olinadigan uzoq muddatli qarzlar hisobiga qoplashni taklif etgan.

"Aksilinflyatsiya siyosatining monetaristik yo'nalishi tarafdorlari keyinchalik, keynschilarning inflyatsiyaga qarshi kurash bo'yicha takliflari doimo samara beravermagach va kamchiliklari yuzaga chiqib qolgach yuzaga keldi. Jumladan, bir

qator mamlakatlarda davlat qarzi haddan oshib ketdi. Bunday sharoitda monetaristlar radikal aksilinflyatsiya usullarini taklif etishdi. Ular yalpi talabni konfiskatsiya tipidagi pul islohoti o'tkazish hisobiga cheklash va byudjet taqchilligini ijtimoiy dasturlarini qisqartirish kamaytirishni taklif etishdi"*.

Monetaristlar inflyatsiya aynan pul bilan bog'liq hodisa bo'lganligi sababli shok terapiyasi pul massasining o'sish sur'atlarini keskin qisqartiradi va inflyatsiya sur'atlarini tushiradi deb hisoblashadi. Ammo bunda ishlab chiqarish keskin pasayishi va bandlilik qisqarishi mumkin.

Monetaristlar tomonidan taklif qilinayotgan aksilinflyatsiya siyosatining yana bir ko'rinishi - inflyatsiya sur'atlarini asta sekinlik bilan pasaytirib borish (graduallash) usulidir. Bu usulda inflyatsiya sur'atlari pul massasini ko'p marotaba, lekin oz ozdan kamaytirish orqali pul massasining o'sish sur'atini pasaytirishni ko'zda tutadi. Graduallash usuli inflyatsiyani asta sekinlik bilan pasaytira borib iqtisodiyotda chuqur pasayishni oldini olish imkonini beradi.

Graduallash usulini qo'llash pul massasi va baholar darajasining yillik o'sish sur'ati 20-30 foizdan oshmaganda muvaffaqiyatli bo'ladi, deb hisoblanadi.

Aksilinflyatsiya siyosatining monetar usullarga muqobil bo'lgan variantlaridan biri baholar va daromadlarni tartibga solish siyosatidir. Bu usul daromadlarning o'sishi va baholarning o'sishini muvofiqlashtirishni (adaptiv siyosat) ko'zda tutadi.

Daromadlar va baholarni tartibga solish siyosatini amalga oshirish hukumat tomonidan baholar (narxlar) va daromadlar darajalarini muzlatib qo'yish, pul ko'rinishidagi ish haqining o'sishini o'rtacha mehnat unumdorligining o'sishiga bog'lab qo'yish orqali amalga oshiriladi.

"Soliqlar tarkibini o'zgartirish, yalpi soliq tushumlaridagi to'g'ridan to'g'ri soliqlarning ulushini kamaytirish, bilvosita soliqlar ulushini ko'paytirish, soliq stavkalarini pasaytirish, ularning rag'batlantirish funksiyalarini kuchaytirish, davlat byudjeti xarajatlarini pasaytirish kabilar ham inflyatsiyaga qarshi kurash tadbirlari hisoblanadi"*.

Aksilinflyatsiya siyosatining u yoki bu turini tanlash inflyatsiya jarayonlarining xususiyatiga bog'liq.

Inflyatsiyaning yuqori sur'atlarini oldini olish uchun hukumat quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- samarali soliq tizimini va davlat xarajatlarining baqarorligini;
- pul massasi va milliy daromadning bir maromdagi o'sish sur'atlarini;
- "inflyatsiyani import qilish" ga yo'l qo'ymaslik.

---

* Агапова Т.А.Серегина С.Ф. Макроэкономика:Учебник.-7-е изд.перераб. и доп.-М.:Издательство "Дело и сервис", 2005. с. 214.

* Киселёва Е.А. Макроэкономика, /Экспресс курс: Учебное пособие М.:КНОРУС, 2007. 62.

Har qanday inflyatsiyaning negizida asosiy iqtisodiy muvozanatlarning buzilishi yotadi. Shu sababli inflyatsiyaga qarshi kurash — uni shunchaki bostirish emas, balki iqtisodiyotda vujudga kelgan nomutanosiblikni bartaraf etishga qaratilgan baquvvat tarkibiy siyosati-ni amalga oshirishdir. Bir qator chet mamlakatlarning inflyatsiyaga qarshi kurash tajribasi shuni ko'rsatadiki, ular inflyatsiya bilan iqtisodiyot tarkibiy tuzilishining buzilishi bir-biriga chambarchas bog'liq ekanligini anglagan holda, muomala sohasini qat'iy boshqarish va to'lovga qobiliyatli ortiqcha umumiy talabni bartaraf etish bilangina cheklanmadilar. Muayyan maqsadlarga qaratilgan yirik investitsiya dasturlarini ishlab chiqdilar va amalga oshirdilar. Bu dasturlar ana shu nomutanosiblikni tugatish va binobarin, inflyatsiyani keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etish imkonini berdi.

Keyingi yillarda jahon bozorida narxlar darajasining keskin oshib borayotganligi aksilinflyatsiya siyosatini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirdi.

Nazorat savollari

1. Inflyatsiyaning mohiyati faqatgina muomaladagi pul massasining ortiqchaligi bilan izohlanishi to'g'rimi?

2. Inflyatsiyani tushuntirib berishga keynschilarning va neoklassiklarning yondashuvlari qanday farq qiladi?

3. Inflyatsiyaning ijtimoiy – iqtisodiy oqibatlari qanday?

4. Talab inflyatsiyasi qanday sodir bo'ladi?

5. Taklif inflyatsiyasiga izoh bering?

6. Fillips egri chizig'i qaysi ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi? Bu bog'liqlik qanday tavsiflanadi?

7. Aksilinflyatsiya siyosatining mohiyatini tushuntirib bering.

8. Fillips egri chizig'i nimani anglatadi?

VI-BOB. YALPI TALAB-YALPI TAKLIF MODELI

6.1. Yalpi talab - yalpi taklif modeliga umumiy tavsif

Har qanday bozorda vaziyat talab va taklif o'rtasidagi nisbatga bog'liq bo'lib, ular hajmlarining o'zgarishi baholarning o'zgarishini keltirib chiqaradi. Baholarning o'zgarishi esa talab va taklif hajmlariga ta'sir ko'rsatadi. Bunday o'zaro bog'liqlik umumlashtirilgan holda ko'rib chiqiladigan milliy bozorga ham ta'lluqlidir.

Alohida tovarlar va xizmatlar bozoridagi bunday bog'liqlik talab va taklif modeli yordamida tadqiq qilinishini yaxshi bilamiz. Ammo makroko'lamda milliy ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi bilan birga baholar umumiy darajasining o'zgarishi o'rtasida bog'liqlikni tadqiq qilish, nima uchun milliy ishlab chiqarish hajmi ayrim davrlarda barqaror o'sishi, ba'zi davrlarda esa pasayib ketishni izohlab berish uchun bu modellardan foydalanib bo'lmaydi.

Bu vazifani bajarish uchun yalpi talab - yalpi taklif (AD-AS aggregate demand- aggregate supply) modelidan foydalanamiz.

Bu modelda yalpi taklif, baholarning umumiy darajasi kabi agregat ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

Makroiqtisodiyotda AD-AS modeli ishlab chiqarish hajmlari va baholar darajalarining tebranishlarini hamda ular o'zgarishining oqibatlarini o'rganish uchun bazaviy model bo'lib hisoblanadi. AD-AS modeli yordamida davlat iqtisodiy siyosatining turli variantlari tasvirlab berilishi mumkin.

Yalpi talab – uy xo'jaliklari, korxonalar, hukumat va chet ellik xaridorlar baholarning ma'lum darajasida iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlarning umumiy hajmiga bo'lgan talabidir.

Yoki boshqacha qilib aytganda yalpi talab iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlarni sotib olishga qilingan umumiy harajatlar yig'indisidir. Formula ko'rinishida yalpi talabni quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$AD = S + I + G + X_n.$$

Baholar darajasi va talab qilingan milliy mahsulot hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni ifoda etuvchi chiziq yalpi talab egri chizig'i deb ataladi. Buni chizma ko'rinishida tasvirlash mumkin (6.1-chizma).

6.1-chizmadan ko'rinib turibdiki, yalpi talab egri chizig'i doimo pastga yoki o'ngga suriladi.



6.1-chizma. **Yalpi talab egri chizig'i**

Bunday surilishning sababi har xil. Ma'lumki, alohida olingan tovarlar bozorida talab egri chizig'ining surilishiga asosan daromad samarasi va o'rinbosar tovarlar sabab bo'ladi. Ayrim tovarlarning bahosi pasayganda, iste'molchilarning pul daromadlari ko'proq mahsulot sotib olish imkonini beradi (daromad samarasi). Shuningdek, baho pasayganda iste'molchi ushbu tovarni ko'proq sotib oladi, chunki u boshqa tovarlarga nisbatan arzonroq bo'ladi (o'rnini bosadigan tovarlar).

Milliy bozorda AD-egri chizig'ining traektoriyasini, ya'ni uning quyiga egilganligini, avvalo pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi yordamida izohlash mumkin:

$$M \times V = Y \times P$$

Bu yerda: M – muomaladagi pul miqdori; V – pulning aylanish tezligi;

R – iqtisodiyotdagi baholar darajasi (baholar indeksi); Y – talab qilinayotgan real ishlab chiqarish hajmi.

Bu tenglamadan:

$$P = M\ V / Y \text{ va } Y = M\ V / P$$

tenglamalarni keltirib chiqaramiz. Bu tenglamalardan ko'rinadiki, baholar darajasi qancha oshsa, real YalM hajmiga talab shuncha past bo'ladi, ya'ni pul massasi (M) va uning aylanish tezligi (V) o'zgarmas bo'lsa baholar darajasi va yalpi talab o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud bo'ladi.

6.2. Yalpi talabning baho va bahodan boshqa omillari.

Baholar darajasi va va yalpi talab o'rtasidagi teskari bog'liqlikni, shuningdek quyidagi baho omillari bilan izohlanadi:

1. Foiz stavkasi samarasi.
2. Boylik samarasi yoki real kassa qoldiqlari samarasi.
3. Import xaridlar samarasi.

Foiz stavkasi samarasi shuni bildiradiki, yalpi talabning egri chiziq bo'yicha surilishi narxlar darajasi o'zgarishining foiz stavkasiga bo'lgan ta'siriga bog'liq.

Demak, tovarlarning baho darajalari oshsa, iste'molchilarga xarid qilish uchun katta miqdorda naqd pul kerak bo'ladi. Ishbilarmonlar uchun ham ish haqi va boshqa xarajatlarni to'lashga katta miqdorda pul zarur bo'ladi. Qisqacha aytganda, tovarlar bahosi darajalarining yuqoriligi pulga bo'lgan talabni oshiradi.

Pul taklifi hajmi o'zgarmagan holatda talabning oshishi foiz stavkasini ko'rsatilishiga olib keladi. Foiz stavkalari yuqori bo'lgan sharoitda ishbilarmonlarning investitsiya tovarlariga bo'lgan talabi pasayadi.

Investitsiya harajatlari yalpi talabning bir qismi bo'lganligi tufayli bu yalpi talab hajmining pasayishiga olib keladi.

$$P\uparrow \rightarrow M_D\uparrow (M_S \text{ const}) \rightarrow R\uparrow \rightarrow I\downarrow \rightarrow AD\downarrow.$$

Boylik samarasi yoki real kassa qoldiqlari samarasi shuni bildiradiki, narxlar darjasining oshishi, jamg'arilgan moliyaviy aktivlari (omonatlar, obligatsiyalar) real xarid qobiliyatini pasaytirib yuboradi. Bunday sharoitda aholi moliyaviy aktivlarning real qiymatini tiklash uchun joriy daromadidan iste'mol xarajatlar miqdorini qisqartiradi. Masalan, muayyan shaxs aktivida 10 mln so'm bo'lsa, undan hech ikkilanmasdan birorta avtomashina sotib olishi, agarda inflyatsiya ta'sirida mashina narxi 12 mln so'mga ko'tarilsa, u mashina sotib ololmasligi mumkin va yana 2 mln so'm to'plash uchun joriy davrda olgan ixtiyoridagi daromadidan ko'proq qismini jamg'aradi.

Iste'mol xarajati yalpi talabning bir qismi bo'lganligi tufayli uning kamayishi ADning pasayishiga olib keladi.

$$P\uparrow \rightarrow \begin{matrix}\text{Moliyaviy}\\ \text{aktivlarning}\downarrow\\ \text{real qiymati}\end{matrix} \rightarrow \{\ S\downarrow\ (\ S\uparrow\ \} \rightarrow AD\downarrow.$$

Import xaridlar samarasi shuni bildiradiki, biror mamlakatda tovar va xizmatlarning ichki narxlari tashqi narxlarga nisbatan oshib borsa, shu mamlakatda ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarga talab kamayadi va o'z navbatida shu

mamlakatda import mahsulotlarga bo'lgan talab oshadi. Yoki aksincha, ichki narxlarning pasayishi importning kamayishiga va eksportning oshishiga yoki YalMga talab oshishiga olib keladi. Bu esa sof eksport hajmi orqali yalpi talab hajmiga ta'sir ko'rsatadi.

$$P\uparrow \rightarrow \{ X\downarrow (M\uparrow \} \rightarrow X_n\downarrow \rightarrow AD\downarrow.$$

Yuqorida ko'rib o'tilgan omillar yalpi talabning baho omillari deb ataladi. Bundan tashqari yalpi talabning bahoga bog'liq bo'lmagan omillari ham mavjud. Bu omillardagi o'zgarishlar yalpi talabning miqdorida o'z aksini topadi va uning egri chizig'ini chapga yoki o'ngga siljitadi.

Yalpi talabning bahoga bog'liq bo'lmagan omillariga quyidagilarni kiritamiz:

- Iste'mol xarajatlaridagi o'zgarishlar:

a) iste'molchilarning real moddiy aktivlari miqdorining o'zgarishi;

b) iste'molchilar kutishi; d) iste'molchilarning qarzlari miqdorining o'zgarishi; e) iste'molchilar daromadlaridan olinadigan soliqlar miqdorining o'zgarishi.

- Investitsiya xarajatlaridagi o'zgarishlar:

a) foiz stavkasidagi o'zgarishlar; b) investitsiyalardan kutilayotgan foyda normasining o'zgarishi; b) korxonalardan olinadigan soliqlar miqdorining o'zgarishi; d) yangi texnologiyalarning ishlab chiqarishga jalb qilinishi; e)zaxiradagi quvvatlar o'zgarishi.

- Davlat xarajatlarining o'zgarishi. Masalan, harbiy xarajatlar va yangi kasalxona va boshqa muassasalar qurishga qaror qilinganda.
- Sof eksport hajmidagi o'zgarishlar.

a) boshqa mamlakatlar milliy daromadlarining o'zgarishi.

b) valyuta kurslaridagi o'zgarishlar.

Pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi yuqoridagilardan tashqari yalpi talabning narxlarga bog'liq bo'lmagan yana ikki omilini beradi. Bular: pul taklifi (M) va pulning aylanish tezligi (V) dir.

Yalpi talabning bahoga bog'liq bo'lmagan omillari ta'sirida AD egri chizig'i o'ngga yoki chapga siljiydi. Natijada ma'lum baho darajasiga mos keluvchi talab qilinayotgan yalpi ichki mahsulot hajmi o'zgaradi.

Pul taklifining, pulning aylanish tezligining oshishi, boshqa davlatlar milliy daromadining oshishi, milliy valyuta kursining ma'lum miqdorda pasayishi (bular eksportning ortishi, importning pasayishiga olib kelishi tufayli) oqibatida sof eksportning pasayishi va yalpi xarajatlar turli komponentlarining oshishi AD egri chizig'ining o'ngga siljishiga olib keladi. Bunga aksincha bo'lgan holatlarda AD egri chizig'i chapga siljiydi.

6.3. Yalpi taklif grafigi va omillari

Yalpi taklif deganda muayyan baholar darajasida ishlab chiqarilishi va taklif qilinishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlarning real hajmi tushuniladi. Yalpi taklif tushunchasi ko'pincha yalpi ichki mahsulot sinonimi sifatida qo'llaniladi. Baholarning yuqori darajasi ishlab chiqaruvchilarga qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishga rag'bat yaratadi va aksincha past baholar mahsulot ishlab chiqarish hajmini qisqarishga olib keladi. Shuning uchun ham milliy ishlab chiqarish hajmi bilan baholar darajasi o'rtasida to'g'ri aloqa mavjud. Demak, mahsulot ishlab chiqarish hajmi baholar o'sib borishi bilan o'sib, pasayishi bilan tushib boradi. Yalpi taklif (AS) egri chizig'i alohida tovar taklifi egri chizig'idan farq qilib uch qismdan, gorizontal yoki keyns kesmasi, ko'tarilib boruvchi yoki oraliq kesma hamda vertikal yoki klassik kesmadan iborat (6.2-chizma). Bunday holat yalpi taklifni tahlil qilishga klassik va keynschilarga xos yondashuv bilan izohlanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda ko'pincha oraliq kesma ham keyns kesmasiga kiritib yuboriladi.



6.2-chizma. **Yalpi taklif egri chizig'i.**

Yalpi taklifning keyns kesmasida milliy ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi uning potensial hajmidan, ya'ni to'liq bandlik sharoitida erishishi mumkin bo'lgan hajmidan kamdir. Demak bu kesma iqtisodiyot pasayish bosqichida bo'lgan va katta miqdordagi resurslardan foydalanilmagan sharoitni ko'rsatadi. Foydalanilmayotgan ushbu resurslarni esa baholar darajasiga ta'sir ko'rsatmagan

holda ishga tushirish mumkin. Bu kesmada milliy ishlab chiqarish hajmi oshishi baholar darajasi o'zgarmay qolgan sharoitda ro'y beradi.

Yalpi taklif egri chizig'ining **Keyns kesmasida** iqtisodiyotni nisbatan qisqa muddatda amal qilishini xarakterlaydi. Bu kesmada yalpi taklifni tahlil qilish quyidagi shartlarga tayanadi:

- iqtisodiyot ishlab chiqarish omillari to'liq band bo'lmagan sharoitda amal qiladi;
- baholar, nominal ish haqi qayd etilgan, bozor tebranishlaridan juda kam ta'sirlanadi;
- real miqdorlar (ishlab chiqarish, bandlilik, real ish) haqi harakatchan va bozor tebranishlaridan tez ta'sirlanadi.

Vertikal yoki klassik kesmada iqtisodiyot to'liq bandlik sharoitiga yoki ishsizlikning tabiiy darajasi sharoitiga erishgan vaziyatni ko'ramiz. Iqtisodiyot egri chiziqning bu kesmasida o'zining ishlab chiqarish potensiali darajasida bo'ladi. Bu shuni bildiradiki, baholarning har qanday oshishi ishlab chiqarish hajmining oshishiga olib kelmaydi. Chunki, iqtisodiyot to'liq quvvatda faoliyat ko'rsatayapti. To'liq bandlik sharoitida ayrim firmalar boshqa firmalarga nisbatan resurslarga yuqoriroq baholarni taklif etish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirishga harakat qiladi. Ammo, bunday holatda ayrim firmalarning resurslar va ishlab chiqarish hajmini oshirishi, boshqalari uchun yo'qotishga olib keladi. Natijada bu mahsulotlar bahosi oshishi mumkin, lekin ishlab chiqarishning real hajmi o'zgarmay qoladi.

Klassik nazariyada yalpi taklifni tahlil qilish quyidagi shartlarga tayanadi:

-ishlab chiqarish hajmi faqatgina ishlab chiqarish omillari hajmiga va texnologiyalarga bog'liq va baholar darajasiga bog'liq emas;

-ishlab chiqarish omillari va texnologiyalarida o'zgarish sekinlik bilan ro'y beradi;

-iqtisodiyot to'liq bandlik sharoitida amal qiladi, ya'ni ishlab chiqarish hajmi potensial darajaga teng;

-baholar va nominal ish haqi o'zgaruvchan, ularning o'zgarishi bozorlarda muvozanatni ta'minlab turadi.

Oraliq kesma – ishlab chiqarish real hajmining o'sishi narxlar darajasining o'sishiga mos ravishda o'sib boradi. Nima uchun? Chunki, iqtisodiyotning pasayish holatidan to'liq bandlikka o'tishi noteks va turli vaziyatlarda ro'y beradi. Masalan, ayrim tarmoqlarda resurslarning yetishmasligiga duch kelinsa, boshqa tarmoqlarda hozircha ortiqcha resurslar mavjud bo'ladi. Shuningdek, ular ishlab chiqarishni kengaytirish uchun yangi asosiy vositalar sotib olish va malakasiz mutaxassislardan foydalanishiga to'g'ri keladi. Bu esa mahsulotlar birligiga

ketadigan xarajatlarning oshishiga va natijada baholar darajasining o'sishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish hajmi ko'payishi yoki kamayishi bahoga bog'liq bo'lmagan omillar hisobiga ham ro'y berishi, bu omillar esa yalpi taklif egri chizig'ini o'ng yoki chap tomonga siljitishi mumkin. Bahoga bog'liq bo'lmagan omillarnig xususiyati shundaki, ular mahsulot birligiga ketgan xarajatlarga bevosita ta'sir qiladi va shu orqali jami taklif egri chizig'ining siljishiga sabab bo'ladi.

Bu omillarga texnologiyalardagi o'zgarishlar, ishlab chiqarish omillari miqdorining o'zgarishi, resurslar baholarining o'zgarishi, firmalarni soliqqa tortishdagi o'zgarishlar va boshqalar kiradi.

6.4. AD-AS modelida makroiqtisodiy muvozanat

AD va AS egri chiziqlarining kesishish nuqtasi ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi va baholarning muvozanatli darajasini belgilaydi. Baholarning muvozanatli darajasi deganda baholarning shunday darajasi tushuniladiki, unda jami talab va taklif bir-biriga mos kelishi yoki teng bo'lishi kerak. Modlelda makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmini dastlab oraliq kesmada ko'rib chiqamiz (6.3-chizma). Dastlab muvozanat e nuqtasida o'rnatilgan. Baholarning muvozanatli darajasi va yalpi ishlab chiqarish hajmining muvozanatli hajmlari mos ravishda Pe va Ye lar bilan belgilangan. Nima uchun Pe narxlarning muvozanatli darajasini va Ye esa yalpi ishlab chiqarishning muvozanatli hajmiini bildirishini ko'rsatishimiz uchun baholarning muvozanatli darajasi Pe emas, balki P1 deb hisoblaymiz.



6.3-chizma. **Yalpi taklif egri chizig'ining oraliq kesmasidagi muvozanat**

Baholar darajasi P1 bo'lgan vaziyatda ishlab chiqaruvchilar yalpi ishlab chiqarish hajmini Y 1 miqdoridan oshirmaydi.

Iste'molchilar baholar darajasi P1 bo'lganda mahsulotlarni Y 2 darajada sotib olishga tayyor turadi. AD>AS bo'lganligi tufayli iste'molchilar o'rtasidagi raqobat baholar darajasini Pe gacha suradi. Baholar darajasining P1 dan Pe gacha ko'tarilishi ishlab chiqarish hajmini Y_1 dan Ye gacha oshirishga va iste'molchilar talabini Y_2 dan Ye gacha kamayishga olib keladi. Natijada AD va AS egri chiziqlari e nuqtada kesishadi. Demak, aynan Re baho baholarning muvozanatli darajasi va e muvozanat nuqtasidir.

6.4-chizmada yalpi talab egri chizig'i yalpi taklif egri chizig'i bilan keyns kesmasi kesishadigan vaziyat tasvirlangan. Bunday vaziyatda makroiqtisodiy muvozanat nuqtasi baholar darajasi bir xil turganda ham o'zgaradi. Buni tushunish uchun avvalo yalpi ishlab chiqarishning muvazanatli hajmini Ye va muvozanatli baholar darajasini Pe bilan belgilaymiz.

Muvozanatli ishlab chiqarish hajmi aynan Ye ekanligini isbotlash uchun bu hajmni Y_1 deb hisoblaymiz. U holda AD<AS, oqibatida sotilmay qolgan tovarlar va xizmatlar hajmining ortishi ishlab chiqarishni Ye darajaga pasaytirilishiga olib keladi.



6.4-chizma. **Yalpi taklif egri chizig'ining keyns kesmasidagi muvozanati**

Muvozanatli ishlab chiqarish hajmini Y_2 deb hisoblasak, aksincha, AS<AD, oqibatda korxonalarda tovar zaxiralari kamayib ularni ishlab chiqarishni Ye darajaga oshirishga undaydi. Shunday qilib aynan yalpi taklif va yalpi talab egri chiziqlarining kesishish nuqtasigina AD-AS modelda movozanat nuqtasi deyiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, yalpi taklif egri chizig'ining keyns kesmasida yalpi talabning o'zgarishi ishlab chiqarish hajmining oshishi yoki kamayishiga olib keladi, baholar darajasi esa o'zgarmaydi.



6.5-chizma. **Yalpi taklif o'zgarishining AD-AS modelidagi muvozanatga ta'siri.**

Yalpi talab egri chizig'ini AS egri chizig'ining vertikal kesmasida o'zgarsa bu ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatmaydi va faqat baholar darajasi o'zgaradi, xolos. Ya'ni, bu kesmada talabning oshishi talab inflyatsiyasini keltirib chiqaradi. Yalpi taklifning bu kesmasida talabning har qanday o'zgarishi faqat baholar darajasi o'zgarishga olib keladi. Ishlab chiqarish hajmi esa to'liq bandlik sharoitida o'zgarmay qoladi.

Oraliq va vertikal kesmalarda baholar o'sib borishi bilan kuzatilgan yalpi talabning ko'payishi talab inflyatsiyasi mavjudligini ko'rsatadi.

Yalpi taklif o'zgarishining baholarning va ishlab chiqarishning muvozanatli darajalariga ta'sirini 6.5-chizma misolida ko'rib chiqamiz. Bahodan boshqa omillar ta'sirida yalpi taklifning AS_1dan AS_2ga siljishi natijasida ishlab chiqarish hajmi Y_1 dan Y_2 gacha kamayadi, baholar darajasi esa R_1 dan R_2 gacha ko'tariladi, ya'ni stagflyatsiya ro'y beradi.

Boshqa bir vaziyatda, masalan, narxlarga bog'liq bo'lmagan omillardan birortasi o'zgarib, yalpi taklifning o'zgarishiga olib kelsin. Ya'ni, erning bahosi pasaysa, korxonalardan olinadigan soliqlar kamaysa va natijasida mahsulot birligiga ketgan sarf-xarajatlar qisqarsa, unda yalpi taklif egri chizig'i AS_1dan AS_3 holatga siljiydi. Bunda narxlar muvozanat darajasi P_1 dan P_3 ga qadar pasayadi va ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi Y_1 dan Y_3 qadar oshadi, ya'ni, iqtisodiy o'sish holati ro'y beradi.

Yalpi taklif va yalpi talab o'rtasidagi muvozanatning buzilishi makroiqtisodiy beqarorlikni keltirib chiqaradi. Jumladan "jahon moliyaviy inqirozining yuzaga kelishida asosiy sabab – moliyaviy resurslar bilan real ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi hisoblanishini ta'kidlash lozim. Pul muomalasi qonunlaridan ma'lumki, iqtisodiyot sog'lom va barqaror amal qilishi

uchun muomalaga chiqarilayotgan pul massasi bilan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish real hajmi o'rtasida muayyan nisbatga amal qilinishi lozim. Biroq, milliy iqtisodiyotlarning baynalminallashuvi va globallashuv jarayonlari pul muomalasining amal qilishiga ham o'z ta'sirini o'tkazib, dastlab ayrim mamlakatlar, masalan AQShda, keyinchalik ko'plab mamlakatlarda mazkur qonunga rioya qilishning zaiflashuviga, keyin esa uni umuman e'tiborga olmaslikka qadar olib keldi"[3].

Natijada muomaladagi pul massasi (yalpi talab) tovarlar va xizmatlar hajmi o'rtasida muvozanat buzildi, va moliyaviy inqiroz iqtisodiy inqirozga aylandi.

Shu sababli ham makroiqtisodiy siyosatning asosiy vazifalaridan biri makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashdan iboratdir. Bunda yalpi talab va yalpi taklifning dinamik muvozanatiga erishish uchun yalpi talabni rag'batlantirish yoki cheklash siyosati, shuningdek yalpi taklifni rag'batlantirish siyosati qo'llaniladi.

Yalpi talabni rag'batlantirish siyosatining ko'rinishlariga daromadlarni o'stirish, soliqlarni kamaytirish, bank kreditlarini arzonlashtirish, narxlarni cheklash tadbirlari kirsa, yalpi taklifni rag'batlantirish siyosatida investitsiyalarni rag'batlantirish, ishlab chiqaruvchilarga soliq yukini pasaytirish, eksportchilarni qo'llab quvvatlash va hokazo choralar kiradi.

Nazarot savollari

1. Yalpi talabga va uning komponentlariga ta'rif bering.

2. Yalpi talab egri chizig'i quyiga egilgan traektoriyaga ega bo'lishi sababi nimada?

3. Yalpi talabning boshqa omillariga va ularning AD egri chizig'iga ta'siriga izoh bering.

4. Yalpi taklif egri chizig'i shakli qaysi sabablarga ko'ra murakkab ko'rinishga ega?

5. AD-AS modelidagi makroiqtisodiy muvozanat holatini va uning shartlarini tushuntiring.

6. Oraliq kesma nimani anglatadi?

7. Yalpi talab o'zgarishi modeldagi muvozanat holatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

8. Yalpi taklif o'zgarishi modeldagi muvozanat holatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

---

[3] Б.Ю.Ходиев, А.Ш.Бекмуродов, У.В.Ғофуров, Б.К.Тухлиев. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг «Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари» номли асарини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисодиёт, 2009. , 14- б.

VII-BOB. ISTE'MOL VA JAMG'ARISH

7.1. Iste'mol va jamg'arish, ularning grafiklari va funksiyalari

Iste'mol bozorini bozor kon'yunkturasi talablari asosida to'ldirish O'zbekiston makroiqtisodiyotining dolzarb masalalaridan biridir. Ma'lumki, O'zbekistonda iste'mol qilinadigan tayyor mahsulotlarning katta qismi sobiq ittifoqdosh respublikalardan hamda chet ellardan olinar edi. Mustaqillikka erishilgandan so'ng, ulardan tayyor mahsulotlar olish mushkullasha boshladi. Qolaversa, tovar ayirboshlash ham jahon narxlarida, jahon standartlariga moslashtirib borilmoqda. Bu hol bozor iqtisodiyoti ta'limotining makrokulamdagi iste'mol funksiyasini o'rganishimizni taqozo qiladi. Iste'mol funksiyasining mohiyatini bilishimiz iste'mol bozorini boshqarishimizda asos bo'ladi.

Iste'mol bozori - aholi iste'moli uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlarni ayirboshlash makonidir. Iste'mol bozori turli-tuman savdo shaxobchalarini: davlat, iste'mol savdosi, dehqon bozori va chayqov bozorini o'z ichiga oladi.

Iste'mol bozorida xaridorlar faqat fuqarolardan iborat bo'lmaydi. Xaridorlar tarkibiga aholiga bepul xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlar (kasalxona, bolalar bog'chasi, qariyalar uyi va boshqalar) ham kiradi. Ular ham keng iste'mol buyumlarining iste'molchilaridir. Iste'mol bozorida har xil xizmatlar (madaniy, tibbiy, texnikaviy) ham sotiladi. Iste'mol bozorining hajmi unda sotiladigan tovarlarning yalpi summasi (masalan, tovaraboroti) bilan belgilanadi. Iste'mol tovarlari qat'iy davlat narxlari, nazorat qilinadigan narxlar va erkin narxlarda sotiladi.

Iste'mol bozori o'zining holatiga qarab ikki xil bo'ladi: to'yingan bozor va taqchil bozor yoki och bozor. *To'yingan bozorlarda* iste'mol tovarlari talabga yetarli sifatda va miqdorda bo'ladi. *Taqchil bozorda* esa tovarlar surunkasiga iste'molni qondirmaydi, uning narxi yuqori bo'ladi. Tovarlar narxining yuqoriligi va taqchilligi natijasida iste'molchini ijtimoiy himoyalash zarurati kelib chiqadi. Iqtisodchilar tomonidan "iste'mol savati" va uning qiymati aniqlanadi. "Iste'mol savati" - muayyan oziq-ovqat, sanoat mollari va xizmatlarning tirikchiligini ta'minlashga ma'lum darajada нetarli bo'lgan miqdorini ko'rsatadi. Narxlarning to'xtovsiz o'sib borayotgan hozirgi sharoitida aholining ko'rgan zararini qoplash

uchun hukumat tomonidan mamlakatda "iste'mol savati" tarkibi aniqlanadi va uni qo'llash taklif etiladi.

Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari (bundan buyon iste'mol deb yuritiladi), yalpi talab yoki YaIMning yakuniy iste'molga ko'ra tarkibida eng katta ulushga ega bo'lgan komponentdir. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda iste'mol xarajatlari shaxsiy tasarrufdagi daromadning asosiy qismini tashkil etadi. Shu tufayli ham iste'mol xarajatlariga ta'sir etuvchi omillarni, uning o'zgarish qonuniyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Uy xo'jaliklari tasarrufdagi daromadning iste'mol qilinmasdan qolgan qismi ularning jamg'armalarini tashkil etadi. Klassik maktab vakillari jamg'arish hajmi foiz stavkasining funksiyasi deb qarashsa J.M. Keyns uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari va jamg'arishlari hajmini belgilovchi asosiy omil ularning ishlab chiqarishda ishtirok etishdan olingan daromadlari deb hisoblaydi. Yanada aniqlik kiritsak iste'mol va jamg'arish hajmini belgilovchi asosiy omil uy xo'jaliklarining ishlab topgan daromadlari, olgan transfert to'lovlari va to'lagan soliqlari bilan belgilanadigan tasarrufdagi daromadi (DI – disposable income, yoki Yd) ko'rsatkichidir. Makroiqtisodiy nazariyada iste'mol va jamg'armalar, milliy daromad yoki shaxsiy daromadlarning funksiyasi sifatida ham tadqiq qilinadi.

Ma'lumki, uy xo'jaligi tasarrufdagi daromad iste'mol va jamg'arish uchun ishlatiladi. Ya'ni, qancha ko'p iste'mol qilinsa, shuncha kam jamg'ariladi va aksincha. Iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik har xil daromadga ega bo'lgan shaxslarda bir xil emas: kam daromadga ega bo'lganlar, odatda, uning ko'proq qismini iste'mol qilib, kamroq qismini jamg'aradi, lekin daromadlari oshib borishi bilan bu nisbat jamg'arish foydasiga o'sadi. Bu bog'liqlikni gipotetik ma'lumotlar asosida ko'rib chiqamiz (4-jadval).

Tasarrufdagi daromad hajmi 370 shartli birlikka (sh.b.) teng bo'lganda uy xo'jaliklari iste'moli 375 sh.b.ka teng, ya'ni tasarrufdagi daromaddan 5 sh.b.ka ko'p bo'ladi. Ya'ni uy xo'jaliklari 5 sh.b.ka teng miqdorda qarz hisobiga yoki o'tgan yillarda to'plangan jamg'armalar hisobiga iste'mol xarajatlari qiladilar.

Uy xo'jaliklari tasarrufdagi daromadlar 390 sh.b.ka teng bo'lganda, uning miqdori iste'mol miqdori bilan tenglashadi. Bu miqdor bo'sag'aviy daromad deb yuritiladi.

4-jadval

Daromad, iste'mol va jamg'arish ko'rsatkichlari

Yillar	Tasarrufdagi daromad (Yd)	Iste'mol (C)	Jamg'arish (S)
1	370	375	-5
2	390	390	0
3	410	405	5
4	430	420	20
5	450	435	15
6	470	450	20
7	490	465	25

7.1-chizma ma'lumotlari asosida iste'mol grafigini chizamiz.

Iste'mol grafigi ikki to'g'ri chiziq ko'rinishida berilgan. Bissektrisa ko'rinishidagi Yd =C to'g'ri chizig'ining har bir nuqtasida iste'mol va tasarrufdagi daromad hajmlari teng bo'ladi.

Haqiqiy iste'mol (S) grafigi haqiqiy iste'mol va daromad teng bo'lgan nuqtada (α) bissektrisa bilan kesishadi. Bo'sag'aviy nuqtadan quyida haqiqiy iste'mol daromaddan oshiq. Bu vaziyat insonlarning qarz hisobiga hayot kechirishini bildiradi. α – nuqtada yuqorida haqiqiy iste'mol daromaddan kam hamda ular o'rtasidagi farq jamg'arishni tashkil etadi.



7.1-chizma. **Iste'mol grafigi**

Haqiqiy iste'mol to'g'ri chizig'i iste'mol hajmini belgilovchi vertikal o'qni ***a*** nuqtada kesib o'tadi. Bu hol uy xo'jaliklari umuman daromad olmaganlarida ham

ma'lum miqdorda iste'mol qilishlarini anglatadi. *a* – nuqta esa avtonom iste'mol hajmini bildiradi.

Keltirilgan ma'lumotlar asosida jamg'arish grafigini ham ko'rib chiqamiz (7.2-chizma).

Jamg'arish grafigi daromad bilan jamg'arish o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Vertikal o'qdagi har bir nuqta jamg'arma miqdorini bildiradi va daromad bilan unga muvofiq keladigan iste'mol hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi (S= Yd - S). Boshlang'ich daromad darajasida jamg'arish nolga (0) teng bo'lgan holda ixtiyordagi daromad hajmi o'sib borishi bilan uning miqdori ham oshib boradi.



7.2-chizma. **Jamg'arish grafigi**

Mavzuning birinchi savolida keltirilgan gipotetik ma'lumotlar va grafiklarga tayanib iste'mol funksiyasini yozamiz:

C = a + b Yd , bu yerda: a – avtonom xarajatlar; Yd – tasarrufdagi daromad **(Yd =Y-T),** bu erda: T – soliqlar;

b – iste'mol hajmining tasarrufdagi daromadga bog'liqligini ifodalovchi koeffitsient, boshqacha aytganda iste'molga chegaralangan moyillik.

$$b = \frac{\Delta S}{\Delta Yd} 100.$$

Demak, iste'mol hajmi avtonom iste'molga, tasarrufdagi daromad hajmiga va iste'mol hajmining tasarrufdagi daromad o'zgarishiga ta'sirchanligiga bog'liq.

Jamg'arish grafigini ham iste'mol grafigiga o'xshab algebraik ifodalash mumkin, ya'ni jamg'arish funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$S = -a + (1 - b)\,Yd.$$

Iste'mol va jamg'arish hajmiga tasarrufdagi daromad dinamikasidan tashqari quyidagi omillar, to'g'rirog'i bu omillardagi o'zgarishlar ham ta'sir ko'rsatadi:

- Uy xo'jaliklari daromadlari.
- Uy xo'jaliklarida to'plangan mulk hajmi.
- Baholar darajasi.
- Iqtisodiy kutish.
- Iste'molchilar qarzlari hajmi.
- Soliqqa tortish hajmi.

Dastlabki besh omil ta'sirida iste'mol va jamg'arish grafiklari o'zaro teskari tomonga siljiydi. Bu besh omil ta'sirida joriy tasarrufdagi daromad tarkibida iste'mol va jamg'arish ulushi nisbatlari o'zgaradi. Soliqqa tortish darajasining o'zgarishi ixtiyordagi daromad hajmini o'zgartirgani tufayli uning ta'sirida iste'mol va jamg'arish grafiklari bir tomonga qarab siljiydi. Iste'mol funksiyasini aniqlash borasidagi tadqiqotlar, uning hajmi shuningdek, aholining daromadlari hajmi va to'plagan mulki ko'lamiga ko'ra tabaqalanishi darajasi hamda aholining soni va yoshiga ko'ra tarkibiga ham bog'liqligini ko'rsatdi.

7.2. Iste'mol va jamg'arishga o'rtacha hamda chegaralangan moyillik

Makroiqtisodiy tahlil jarayonida iste'mol va jamg'arish funksiyalarini yanada to'laroq bilish uchun iste'mol va jamg'arishga o'rtacha moyillik va chegaralangan moyillik tushunchalarini mohiyatini anglab olishimiz lozim.

Iste'molga o'rtacha moyillik deganda tasarrufdagi daromaddagi iste'mol xarajatlarining ulushi tushuniladi, ya'ni:

$$APC = \frac{S}{Yd}\,100\%,$$

bunda: APC – (average propensity to consume) iste'molga o'rtacha moyillik.

Tasarrufdagi daromaddagi jamg'arish ulushini jamg'arishga o'rtacha moyillik deb ataladi, ya'ni:

$$APC = \frac{S}{Yd} 100\%$$

Bunda: APS (average propensity to saving) – jamg'armaga o'rtacha moyillik.

Misol uchun, tasarrufdagi daromad darajasi 410 va 530 shartli birlikka va iste'mol darajalari 405 va 495 shartli birlikka teng bo'lgan holatlar uchun iste'molga o'rtacha moyillikni hisoblaymiz, ya'ni:

ARS =(405 / 410) x 100 = 98, 78% yoki 0,98;

ARS = (495 / 530) x 100 = 93,39% yoki 0,93 ga teng.

Demak, bu misollardan ko'rinib turibdiki, tasarrufdagi daromadlar miqdori ko'payib borishi bilan uning tarkibidagi iste'mol ulushi kamayib va aksincha jamg'arma ulushi ko'payib boradi. Bu holatni Keynsning "asosiy psixologik qonun"i bilan izohlash mumkin. "Mavjudligiga nafaqat aprior tasavvurlarga ko'ra, bizning inson tabiatini bilishimizdan kelib chiqib shuningdek o'tmish tajribasini sinchiklab o'rganish asosida biz to'liq ishonishimiz lozim bo'lgan asosiy psixologik qonun shundan iboratki kishilar daromadlari o'sishi bilan, odatda, o'z iste'mollarini oshirishga moyillar, ammo daromadlari o'sgan darajada emas"*

Soliqlar to'langandan keyin qolgan daromadning bir qismi iste'mol qilinadi, ikkinchi qismi esa jamg'ariladi, shu tufayli ham iste'molga va jamg'arishga o'rtacha moyillik yig'indisi 100% ga yoki koeffitsient ko'rinishda 1 ga teng: **ARS + ARS = 100%** yoki **1.**

Uy xo'jaliklari tasarrufdagi daromadlarining o'sgan qismini yo iste'mol qiladi, yoki jamg'aradi.

Iste'moldagi o'zgarishlarning shu o'zgarishni keltirib chiqargan tasarrufdagi daromad o'zgarishdagi ulushi iste'molga chegaralangan moyillik deyiladi.

$$MPC = \frac{\Delta S}{\Delta Yd} 100.$$

Bu yerda: MPC (marginal propensity to consume) – iste'molga chegaralangan moyillik.

Yuqorida keltirilgan 4-jadval ma'lumotlariga ko'ra ixtiyordagi daromad 410 sh.b.dan 430 sh.b.kacha oshgan holatda MRSni hisoblaymiz.

Δ S =420 - 405 =15; Δ Yd =430 - 410 = 20;

MRS = (15/20) 100=75%;

---

* Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. М.,1978. С.157.

Bu shuni bildiradiki, daromad 100 % ga (yoki bir birlikka) o'zgarganda iste'mol 75 % (yoki 0,75)ga o'zgaradi.

Jamg'arishdagi o'zgarishning ixtiyordagi daromad o'zgarishdagi ulushi jamg'arishga chegaralangan moyillik deyiladi.

$$MRS = \frac{\Delta S}{\Delta Yd} 100.$$

Bu yerda: MPS (marginal propensity to saving) – jamg'arishga o'rtacha moyillik. Yuqorida keltirilgan misolda:

Δ Yd = 430 - 410 = 20 Δ S = 10 - 5 = 5

MRS = (5/20) 100 = 25%;

Shunday qilib, iste'molga chegaralangan moyillik 0,75 ni tashkil etgan bo'lsa, jamg'armaga chegaralangan moyillik 0,25ni tashkil etadi. Daromadning o'sgan qismi yoki iste'molga, yoki jamg'armaga sarflanadi. Shu sababga ko'ra iste'mol va jamg'arishga o'rtacha moyillik ko'rsatkichlari yig'indisi 100%ga yoki koeffitsient ko'rinishida 1ga teng bo'ladi.

MRS + MRS =100% yoki 1.

MRS va MRS ancha barqaror ko'rsatkichlar bo'lib, juda sekin o'zgarishga uchraydilar.

Nazorat savollari

1. Daromad, iste'mol va jamg'armalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka izoh bering.

2. Avtonom iste'mol kategoriyasining mohiyatini tushuntirib bering.

3. Iste'mol va jamg'arish grafiklaririni izohlang.

4.Iste'mol va jamg'armaga o'rtacha moyillik ko'rsatkichlarini izohlab bering.

5. Iste'mol chegaraviy moyillik ko'rsatkichlarini izohlab bering.

6. Jamg'armaga chegaraviy moyillik ko'rsatkichlarini izohlab bering.

7. Chegaraviy moyillik ko'rsatkichlarini izohlab bering.

8. Iste'mol va jamg'arish grafigini mohiyatini izohlab bering.

VIII BOB. INVESTITSIYA

8.1. Investitsiyalarning mohiyati, grafigi va funksiyasi

Ko'pgina adabiyotlarda "investitsiya" terminida noaniqliklar uchraydi. Birinchidan, "investitsiyalar"ga fuqarolarning "iste'molchilik investitsiyalari" (maishiy texnika, avtomobil, ko'chmas mulk va boshq) qo'shib yuboriladi. Bunday investitsiyalar esa kapitalni o'sishini va foyda olinishini ta'minlamaydi. Ikkinchidan, "investitsiyalar" va "kapital qo'yilmalar" terminlarini tenglashtirishadi. Kapital qo'yilmalar - korxonaning moliyaviy mablag'larini asosiy kapitalga avanslashtirish bilan bog'liq investitsiya faoliyatining shaklidir. Investitsiyalar esa nomoddiy va moliyaviy aktivlarga qo'yilishi ham mumkin. Uchinchidan, ko'pgina manbalarda investitsiyalarni pul mablag'larini qo'yish deb ta'riflanadi. Amaliyotda esa, barcha hollarda bunday bo'lmaydi. Investitsiyalashni boshqa shakllarda ham amalga oshirish mumkin. Masalan, korxonaning ustav kapitaliga badal ko'rinishida ko'chib yuruvchi va ko'chmas mulk, qimmatli qog'ozlar, nomoddiy aktivlar va boshqalar. To'rtinchidan, ko'pgina ta'riflarda investitsiyalarni mablag'larning uzoq muddatli qo'yilmalar ko'rinishida bo'lishini ta'kidlashadi. To'g'ri, kapital qo'yilmalar uzoq muddatga investitsiyalanadi. Lekin qisqa muddatli investitsiyalar ham bo'ladi (masalan, montaj qilishga zarurat bo'lmagan va qurilish smetasiga kirmagan mashina va uskunalarni sotib olish).

Investitsiyalarning o'sish sur'atlari ko'p omillarga bog'liq. Avvalambor, investitsiyalar hajmi olingan daromadni iste'mol va jamg'armaga taqsimlanishiga bog'liq. Aholini o'rtacha daromadi past bo'lgan holda ularning asosiy qismi (70-80%) iste'molga sarflanadi. Aholi daromadlarini o'sib borishi jamg'arishga yuboriladigan qismni ortib borishiga sabab bo'ladi. Umumiy daromadda jamg'arish ulushining ortib borishi investitsiyalar hajmini o'sishiga olib keladi, va

aksincha. Ammo bu shart aholini davlatga ishonchi yuqori bo'lganda, davlat fuqarolarning investitsion faolligini ta'minlaganda va kafolatlaganda bajariladi. Investitsiyalar hajmiga kutilayotgan daromad normasi ham ta'sir ko'rsatadi, chunki ko'rilayotgan foyda investitsiyalashga undaydi. Kutilayotgan foyda normasi qanchalik yuqori bo'lsa, investitsiyalash hajmi shunchalik yuqori bo'ladi, va aksincha.

Investitsiyalar hajmiga ssuda foizi stavkasi katta ta'sir ko'rsatadi, chunki investitsiyalash jarayonida qarzga olingan mablag'laridan ham foydalaniladi. Agar kutilayotgan sof foyda normasi o'rtacha ssuda foizi stavkasidan yuqori bo'lsa bu qo'yilmalar investor uchun daromadlidir. Shuning uchun o'rtacha foiz stavkasini o'sishi investitsiyalash jarayonini susayishiga olib keladi.

Investitsiyalar hajmiga kutilayotgan inflyatsiya sur'atlari ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa investorning kelajakdagi foydasi shunchalik qadrsizlanadi va investitsiyalarni rag'batlantiruvchi omillar qisqarib boradi.

Investitsiyalar turli shakllarda amalga oshiriladi va ularni tahlil qilish, rejalashtirish uchun alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda guruhlashtiriladi.

Birinchidan, qo'yilish obyektiga qarab investitsiyalar real va moliyaviy shakllarga ajratiladi.

Real investitsiyalar (kapital qo'yilmalar) – pul mablag'larini korxonaning moddiy va nomoddiy aktivlariga sarflanishidan iborat.

Moddiy investitsiyalar asosiy kapitalning elementlarini sotib olish bilan bog'liq bo'lib, ko'pchilik hollarda investitsion loyihalar doirasida amalga oshiriladi. Shuning uchun o'z mablag'lari bilan birga qarzga olingan mablag'lar ham foydalanilishi mumkin. Qarzga mablag' olingan holda investor rolini aniq loyihalarga kredit mablag'lari ajratayotgan bank bajaradi. Nomoddiy (potensial) investitsiyalar nomoddiy boyliklar yaratilayotganda amalga oshirilib, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini

(NIOKR) amalga oshirish, yangi mahsulotlarning namunalarini yaratishga sarflarni mujassamlashtiradi.

Fan-texnika taraqqiyotini tezlashuvi bilan intellektual salohiyat ishlab chiqarishni eng kuchli omiliga aylandi, uning jiddiy unsuri bo'lib qoldi. XX asr boshlarida fan ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish uchun sarflanadigan qo'yilmalar oshib boradi. Shuning uchun ham jahonda real investitsiyalar tarkibida ilmiy izlanishlar, fan, ta'lim, kadrlar tayyorlash uchun sarflanadigan xarajatlar o'sib bormoqda. Masalan, AQSh, Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda fan va ilmiy izlanishga sarflanadigan qo'yilmalar o'sish sur'atlari asosiy fondlarga sarflanadigan investitsiyalardan ustundir. Jahon bozoriga kirib borish, keng ko'lamda marketingni rivojlantirish, batafsil axborotga ega bo'lish, yuqori darajadagi kompyuter tizimlarini tashkil etishni, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va mazkur sohada dunyodagi rivojlangan davlatlar darajasiga erishishni talab etadi. Shuning uchun ham jadal sur'atlar bilan rivojlanish real investitsiyalar tarkibida fan, texnika, ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash uchun sarflanadigan real investitsiyalar asosiy o'rinlardan birini egallashi zarur.

Mutaxassislarni tayyorlash, tajriba, ilmiy tekshirish, litsenziya va nou – xou berish, avtorlik huquqi va umuman olganda nomoddiy aktivlarga yo'naltirilgan investitsiyalarni ko'pgina iqtisodchi – olimlar intellektual investitsiyalar deb atamoqdalar.

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunida investitsiya mo'ljallangan obyektiga ko'ra, "kapital, innovatsiya va ijtimoiy" investitsiyalarga bo'linadi (3- modda).

Asosiy fondlarga sarflangan real investitsiyalar maqsadli sarflanish yo'nalishlari va boshqa ko'rsatkichlarga ko'ra hududlararo, tarmoqlararo, texnologik, qayta ishlab chiqarish tarkiblariga ega. Asosiy fondlarga sarflangan investitsiyalarni, ularning aktiv (mashinalar, asbob-uskunalar) va passiv (bino, inshootlar) qismlarini tashkil etish uchun sarflangan umumiy harakat yig'indisidagi ulushi investitsiyalarning texnologik tarkibini tashkil etadi. Qayta ishlab chiqarish

tarkibi investitsiyalarning qanday maqsadlarga yo'naltirilganligi: yangi qurilishga, ishlab turgan korxonalarni kengaytirishga, rekonstruksiyaga va yangi texnika bilan qayta qurollantirishga jalb qilingan harajatlarni umumiy harajatlardagi har birining nisbiy jihatdan ulushini ko'rsatadi. Investitsiyalarning hududlararo va tarmaqlararo tarkibi esa ularning nisbiy jihatdan hududlar va tarmoqlar bo'yicha taqsimotini bildiradi.

Rivojlangan mamlakatlarda real investitsiyalarning asosiy qismini xususiy investitsiyalar tashkil etadi.

Davlat sektorida real investitsiyalar sarfi muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy muvofiqlashtirish siyosati asosida kreditlar, subsidiyalar ajratiladi, davlat kapital qo'yilmalari muvozanatlashtiriladi va real investitsiyalar o'zlashtiriladi.

Davlat tomonidan o'zlashtiriladigan investitsiyalar, dastlabki bozor infratarkibini va u bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirishga sarflanadi. Investitsiyalarni samaradorligini oshirish asosiy kapitalni aktiv elementlarini vujudga keltirish va o'stirish hisobiga amalga oshiriladi.

Investitsiyalarni turli guruhlash mumkin. Makroiqtisodiy tahlilda eng ko'p duch kelinadigan guruhlashda investitsiyalar investitsiyalash obyektiga ko'ra uch turga bo'linadi.

1. ishlab chiqarish investitsiyalari;
2. tovar-moddiy zaxiralariga investitsiya;
3. uy-joy qurilishiga investitsiya.

Makroiqtisodiy tahlilda investitsiyalar dinamikasini belgilovchi omil sifatida real foiz stavkasi qaraladi. Real foiz stavkasi ortishi bilan investitsiyalar hajmi kamayishini kuzatishimiz mumkin. Chunki investorlar uchun qarz bahosi ortib, ular ko'rsatadigan foyda normasini pasaytirib qo'yadi.

Avtonom investitsiyalarning grafigi investitsiyalar hajmi foiz stavkasi dinamikasiga teskari proportsional tarzda o'zgarishini ko'rsatadi.

Avtonom investitsiya funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$I = e - dR.$$

Bu yerda: I – avtonom investitsiya xarajatlari;

e – foiz stavkasi 0 ga teng to'lgandagi investitsiya xarajatlarining maksimal hajmi. U tashqi iqtisodiy omillar, resurs imkoniyatlari, yer, foydali qazilma boyliklari va boshqalar bilan belgilanadi;

R – real foiz stavkasi;

d – investitsiyalarning real foiz stavkasi dinamikasi o'zgarishga ta'sirchanligini miqdoriy belgilovchi empirik koeffitsient.



8.1-rasm. **Avtonom investitsiyalar grafigi**

Grafikda *e* nuqtasi shuni bildiradiki, banklar nolga teng foiz stavkasi bilan kredit berganlarida hamda ularning kredit resurslari cheksiz ko'p bo'lganda ham mamlakatdagi boshqa resurslari miqdorining cheklanganligi tufayli investitsiya xarajatlari ma'lum miqdor bilan chegaralanadi.

8.2. Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi foiz stavkasidan boshqa omillar. Akselerator modeli

Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi eng muhim omillardan biri bo'lib kutilayotgan sof foyda normasi hisoblanadi. Agar real foiz stavkasi bilan investitsiya xarajatlari miqdori o'rtasida teskari bog'liqlik bo'lsa, kutilayotgan sof foyda normasi (KSFN) dinamikasi bilan investitsiya xarajatlari o'rtasida to'g'ri bog'liqlik bor.

Agarda kutilayotgan foyda me'yori foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali va aksincha, foiz stavkasi kutilayotgan foyda miqdoridan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali bo'lmay qoladi.

Misol uchun, zavodga 100000 so'mlik yangi stanok sotib olindi. Yangi stanokni qo'llashdan zavod 10000 so'm sof foyda olgan bo'lsin. Kutilayotgan sof foyda normasi quyidagicha aniqlanadi:

KSFN = 10000 / 100000 x 100 = 10%.

Investitsiya xarajatlari foyda keltirishini aniqlashda nominal foiz stavkasi emas, balki real foiz stavkasi hisobga olinadi. Real foiz stavka narxlar darajasining o'zgarishini aks ettirib, nominal stavkadan inflyatsiya darajasi ayirmasi ko'rinishida aniqlanadi. Masalan, nominal foiz stavkasi 16% ga teng bo'lsa, inflyatsiya darajasi yiliga 12% ni tashkil etsa, unda real foiz stavkasi 4 foizini (16%-12%) tashkil etadi.

Investitsiya xarajatlari dinamikasiga ta'sir etuvchi boshqa omillar quyidagilar kiradi:

1. Soliqqa tortish darajasi;
2. Ishlab chiqarish texnologiyalaridagi o'zgarishlar;
3. Mavjud bo'lgan asosiy kapital miqdori;
4. Investorlarning kutishi;
5. Yalpi daromadlarning o'zgarishi.

Soliqqa tortish darajasining pasayishi hamda yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi kutilayotgan sof foyda normasining (real foiz stavkasi o'zgarmagan sharoitda ham) ko'payishga olib keladi. Bu esa investitsiya xarajatlarining ortishiga turtki beradi.

Investitsiyalar hajmining YaIM yoki daromadlar darajasiga bog'liqligini akselerator modeli aks ettiradi:

I = f(Y), ya'ni investitsiyalar (I) YaIM (Y)ning funksiyasi ekan.

Akselerator modelining to'liqroq ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$I = I_{reja} + \gamma Y$$

bu yerda:

$$\gamma = \frac{\Delta I}{\Delta Y} = \frac{It - I\,t-1}{Yt - Yt-1}.$$

I_{reja} – rejalashtirilgan investitsiyalar; Y – YaIM (daromad) hajmi.

Akseletator modelini hisobga olib, investitsiya funksiyasini quyidagicha yozish mumkin:

$$I = e - dR + \gamma Y.$$

YaIM hajmi oshishi korxonalar foydasining ko'payishiga olib keladi. Korxona foydasi investitsiyalarning manbai ekanligini hisobga olsak, bu holatda investitsiya xarajatlari oshadi. YaIM hajmi pasayib ketganda esa, ya'ni iqtisodiy faollik pasayishi sharoitida bo'sh turgan quvvatlar mavjudligi tufayli, investitsiya

xarajatlari pasayib ketadi. Ammo YaMMning davriy tebranishlari, innovatsiyalarni doim ham bir tekisda bo'lmasligi, uskunalarni uzoq muddat xizmat qilishi, iqtisodiy kutishdagi xavflar tufayli investitsiyalar hajmi barqaror bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasida olib borilgan oqilona makroiqtisodiy siyosat natijasida yuzaga kelgan qulay investitsiya muhiti yaxshilandi. Jumladan siyosiy va iqtisodiy barqarorlikning ta'minlanganligi, soliq yukining pasaytirila borishi, bozor infratuzilmasining rivojlantirilishi, bank tizimining mustahkamlanishi va bank foiz stavkalarining pasaytirilishi, investorlarga keng imtiyoz va kafolatlar tizimining yaratilganliga mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmining o'sishiga olib keldi.

2015 yilda ana shu maqsadlarga barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 15 milliard 800 million AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb etildi va o'zlashtirildi. Bu 2014 yilga nisbatan 9,5 foiz ko'p demakdir. Jami investitsiyalarning 3 milliard 300 million dollardan ziyodi yoki 21 foizdan ortig'i xorijiy investitsiyalar bo'lib, shuning 73 foizi to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalaridir.

Investitsiyalarning 67,1 foizi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo'naltirildi. Bu esa 2015 yilda umumiy qiymati 7 milliard 400 million dollar bo'lgan 158 ta yirik ishlab chiqarish obyekti qurilishini yakunlash va foydalanishga topshirish imkonini berdi.

Masalan, Toshkent issiqlik elektr stantsiyasida 370 megavatt quvvatga ega bo'lgan bug'-gaz qurilmasi barpo etildi, Chorvoq GESi gidrogeneratorlari modernizatsiya qilindi, Qo'ng'irot soda zavodida kalsiylashtirilgan soda ishlab chiqarish kengaytirildi, "Samarqandkimyo" aksiyadorlik jamiyatida 240 ming tonna quvvatga ega bo'lgan murakkab tarkibli yangi o'g'itlar ishlab chiqarish korxonasi ishga tushirildi. Shuningdek, "Motor zavodi" aksiyadorlik jamiyatining faoliyat ko'rsatmayotgan ishlab chiqarish maydonlarida traktor tirkamalari, jumladan, katta hajmli tirkamalar, maishiy texnika uchun tarkibiy qismlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish tashkil etildi.

Ana shunday muhim obyektlar haqida gapirganda, Janubiy koreyalik investor va mutaxassislar bilan hamkorlikda Surg'il koni negizida barpo etilgan Ustyurt gaz-kimyo majmuasini alohida ta'kidlamoqchiman. Umumiy qiymati 4 milliard dollardan oshadigan ushbu majmua dunyodagi eng zamonaviy, yuqori texnologiyalar asosida ishlaydigan, yirik korxonalardan biri bo'ldi. Majmuaning ishga tushirilishi yiliga 83 ming tonna noyob polipropilen mahsulotini ishlab chiqarish imkonini beradi. Holbuki, bu mahsulot ilgari mamlakatimizga chetdan, katta valyuta hisobiga olib kelinar edi. Ayni vaqtda mazkur korxona polietilen ishlab chiqarish hajmini 3,1 barobar ko'paytirish, mingdan ziyod yuqori malakali

mutaxassislarni ish bilan ta'minlash uchun imkoniyat yaratishi bilan ulkan ahamiyatga egadir.

Xorazm viloyatida "Jeneral motors – O'zbekiston" aksiyadorlik jamiyatida umumiy qiymati qariyb 6 million dollarlik loyiha asosida "Shevrole Labo" kichik yuk mashinasi ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu yerda yiliga fermerlarimiz va xususiy tadbirkorlarimiz uchun juda zarur bo'lgan 5 mingta ana shunday mashina ishlab chiqariladi. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu model yangi "Xorazm avto" zavodida tayyorlanayotgan "Damas" va "Orlando" avtomobillaridan keyingi uchinchi turdagi avtomobil bo'ldi.

Namangan viloyatining Pop tumanida 130 kilovatt quvvatga ega bo'lgan quyosh fotoelektr stantsiyasi ishga tushirildi. Hozircha bu loyiha sinovdan o'tkazilmoqda. 2020 yilga borib mamlakatimizda har biri 100 megavatt quvvatga ega yana uchta quyosh elektr stantsiyasini foydalanishga topshirish rejalashtirilmoqda.

Samarqand – Qarshi temir yo'l uchastkasida yuqori tezlikda harakatlanadigan "Afrosiyob" elektr poezdi qatnovi yo'lga qo'yildi. Bu Toshkent – Qarshi yo'nalishi bo'yicha yo'lovchi tashish sifati va sur'atini oshirish imkonini bermoqda. Natijada poytaxtimizdan Qashqadaryo viloyatiga va Qarshidan Toshkentga yo'lovchilar tashish vaqti ikki barobar qisqardi.

8.3. Asosiy fondlarga investitsiyalar

Investitsiya xarajatlarining eng katta qismi, ya'ni deyarli to'rtdan uch qismi, asosiy fondlarga investitsiyalar hissasiga to'g'ri keladi. Bu sarmoyalar shuni anglatadiki, investitsion tovarlar kelajakdagi ishlab chiqarish maqsadida firmalar tomonidan sotib olinadi. Bu xarajat, qisqa vaqt ichida ishlatilib yoki sotilib ketadgan zaxiralarga investitsiyalardan farqli o'laroq, uzoq muddat foydalanadigan asosiy kapital uchun bo'ladi. Asosiy fondlarga investitsiyalar ofis jihozlaridan tortib zavodgacha, kompyuterdan tortib kompaniya mashinasigacha barcha narsani o'z ichiga oladi.

Asosiy fondlarga investitsiyalarning andozaviy modeli investitsiyalarning neoklassik modeli nomini olgan. Neoklassik modelda investitsion tovarlarga ega bo'lgan firmalarning foyda va xarajatlari ko'rib chiqiladi. Modelda investitsiyalar darajasi kapital zaxiralari bilan birgalikda kapitalning chekli mahsuli, foiz stavkasi hamda firmalarga nisbatan qo'llaniladigan soliqqa tortish qoidalariga qanday bog'liqligi ko'rsatiladi.

Modelni shakllantirish uchun iqtisodiyotda firmalarning ikki turi mavjud deb faraz qilamiz. Ishlab chiqaruvchi firmalar ijaraga olingan kapitaldan foydalanib tovar va xizmatlar ishlab chiqaradilar. Kapitalni ijaraga beruvchi firmalar iqtisodiyotga barcha investitsiyalarni amalga oshiradilar; ular ishlab chiqarish fondlarini sotib oladilar va ularni ishlab chiqaruvchi firmalarga ijaraga beradilar. Hayotdagi iqtisodiyotda ko'plab firmalar ikkala funksiyani ham bajaradilar, ya'ni ular tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqaradilar hamda kelgusi ishlab chiqarishga kapitalni investitsiya qiladilar. Bizning tahlilimiz nuqtai nazaridan faoliyatning bu ikki turini ular bilan turli xil firmalar shug'ullanadi deb faraz qilgan holda ajratish foydalidir.

Dastavval, ishlab chiqaruvchi firmalarni ko'rib chiqamiz. Odatda firma foydalanadigan kapital miqdori to'g'risidagi qarorini quyidagi tartibda qabul qiladi: kapitalning har bir qo'shimcha birligidan olinadigan foyda va xarajatlarni solishtiradi. Firma kapitalni R stavka bo'yicha ijaraga oladi va o'z mahsulotini R narx bo'yicha sotadi, ishlab chiqaruvchi firma uchun kapital birligiga haqiqatdagi xarajatlar R/R ni tashkil etadi. Kapital birligidan foydalanishning haqiqiy natijasi kapitalning chekli mahsulotidir (MPK), ya'ni kapitalning qo'shimcha birligidan foydalanish hisobiga olinadigan qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulotdir. Firma tomonidan foydalaniladigan kapital hajmi ortishi bilan uning chekli mahsuloti pasayadi: firma qanchalik ko'proq kapitalga ega bo'lsa, kapitalni qo'shib borish bilan ishlab chiqarish hajmining shunchalik kam o'sishiga erishiladi. 3-bobda xulosa qilganimizdek, firma foydasini maksimallashtirish uchun kapitalning chekli mahsuloti kapitalni ijaraga olishning haqiqiy narxi darajasigacha pasaymagunga qadar, ijaraga olinadigan kapitalni oshiradi.

Quyidagi rasmda ijaraga olingan kapital bozoridagi muvozanat ko'rsatilgan. Yuqorida muhokama qilgan sabablar tufayli, kapitalning chekli mahsuloti kapitalga bo'lgan talab egri chizig'ini aniqlaydi. Kapitalga bo'lgan talab egri chizig'i o'ngga pastga egilgan, chunki kapital hajmi qanchalik ko'p bo'lsa, uning chekli mahsuloti shunchalik kam.

8.2.-rasm



8.2-rasm. **Kapitalning ijara narxi**

Har bir vaqtda iqtisodiyotdagi kapital miqdori qayd etilgan, shuning uchun taklif egri chizig'i vertikal chiziq hisoblanadi. Kapitalni ijarasi uchun olinadigan narx talab va taklifni muvozanatlashtirish uchun o'zgartirib turiladi.

Kapital ijarasi uchun olinadigan narxning muvozanatli darajasiga qanday o'zgaruvchilar ta'sir etishini aniqlash uchun ko'plab iqtisodchilar qanday qilib mehnat va kapital hayotdagi iqtisodiyotda tovar va xizmatlarga aylanishini yetarli darajada asoslangan holda aks ettiruvchi sifatida qaraydigan Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funksiyasini asos qilib olamiz. quyidagi ko'rinishga ega:

$$Y = A\,K^{\alpha}L^{1-\alpha}.$$

Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funksiyasida kapitalning chekli mahsuloti quyidagicha yoziladi:

$$MPK=\alpha\,A\,(L/K)^{1-\alpha}.$$

bunda K-kapital, L-mehnat, A-texnologiya darajasini ko'rsatuvchi ko'rsatkich va α – tayyor mahsulotni ishlab chiqarishda kapitalning ulushini o'lchovchi noldan katta va birdan kichik bo'lgan ko'rsatkich. Muvozanat

sharoitida kapital ijarasi uchun olinadigan haqiqiy narx kapitalning chekli mahsulotiga teng bo'lganligi sababli, biz quyidagi ifodani yozishimiz mumkin:

$$\mathbf{R/\,R = \alpha\,A\,(L/K)^{1-\alpha},}$$

Bu kapital ijarasi uchun olinadigan haqiqiy narxni aniqlovchi o'zgaruvchilar miqdorining ifodasidir. U quyidagilarni ko'rsatadi:

•kapital zaxirasi qanchalik kam bo'lsa, uning ijarasini haqiqiy narxi shunchalik yuqori.

•qo'llaniladigan mehnat miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, kapital ijarasi haqiqiy narxi shunchalik yuqori.

•texnologiya qanchalik yaxshi bo'lsa, kapital ijarasi haqiqiy narxi shunchalik yuqori.

Kapital zaxiralarini kamaytiruvchi (yer qimirlashi), bandlikni oshiruvchi (jami talabni o'sishi) yoki texnologiylarani yaxshilovchi (ilmiy topilmalar) kapital ijarasi uchun olinadigan haqiqiy narxning muvozanatli miqdorini oshiradi.

Endi ijara firmalarini ko'rib chiqamiz. Mashinani ijara beruvchi kompaniyalarga o'xshash firmalar shunchaki kapital tovarlarini sotib oladi va ijaraga beradi. Maqsadimiz ijara firmalari tomonidan hosil qilinadigan investitsilarni tushuntirish bo'lgani uchun, kapitalga egalik qilishning foydasi va narxini ko'rib chiqishdan boshlaymiz.

Kapitalga egalik qilishning foydaliligi uni ishlab chiqaruvchi firmalarga ijaraga berishdan olinadigan daromaddandir. O'z kapitalini ijaraga bergan firma uning har birligiga R/ R haqiqiy narxni oladi.

Kapitalga egalik qilish xarajatlari murakkabroq tuzilishga ega. Firma kapital birligini ijaraga berayotgan vaqtning har bir davri mobaynida u uch xil xarajatlarni qiladi:

1. Firma kapital birligini sotib olib, keyin uni ijaraga berayotganda u kapitalni sotib olish uchun sarflangan mablag'larni bank hisobiga qo'yib olishi mumkin bo'lgan foizl ko'rinishidagi daromadni yo'qotadi. Yoki, shunga o'xshash, firma kapitalni sotib olish uchun qarz mablag'laridan foydalandi, unda u olingan qarz bo'yicha foizlar to'lashiga to'g'ri keladi. Agar R_k - kapital birligini sotib olish narxi, i -nominal foiz stavkasi bo'lsa, unda iR_k – foizlar bo'yicha xarajatlardir. E'tibor bering, agarda ijara firmasi qarz olishiga to'g'ri kelmasa ham, foiz stavkasi qiymati bir xil bo'ladi: agar ijara firmasi qo'lda naqd pul evaziga kapital birligini sotib olsa, ushbu naqd pulni bankka omonatga qo'yib ishlab topishi mumkin bo'lgan foizni yo'qotadi. Ikkala holatda ham, foiz stavkasi qiymati iP_K ga teng.

2. Firma kapitalni ijaraga berguncha, uning narxi o'zgarishi mumkin.

Agar kapital narxi pasaygan bo'lsa, unda firma uning aktivlari qiymati pasayganligi tufayli zarar ko'rishi mumkin. Agar kapital narxi oshayotgan bo'lsa, unda firma aktivlari qiymati ko'tarilishi sababli yutadi. Bu yutuq yoki zararning miqdori $-\Delta R_k$ga teng (bu yerda minus belgisi qo'yilayapti, chunki foydani emas xarajatlarni hisoblayapmiz).

3. Kapital ijaraga berilganda, u eskiradi va qiymatini yo'qotadi. Bu amortizatsiya deb ataladi. Agar δ-amortizatsiya me'yori, ya'ni eskirish natijasida

muayyan davr davomida qiymatning yo'qotilgan qismi bo'lsa, unda amortizatsiya miqdorining puldagi ifodasi δR_k bo'ladi.

Shunday qilib, bir davr mobaynida kapital birligini ijaraga berish bo'yicha umumiy xarajatlar quyidagini tashkil etadi:

$$\text{Kapital birligiga xarajatlar} = iR_k - \Delta R_k + \delta R_k = R_k(i - \Delta R_k/R_k + \delta).$$

Kapital birligiga xarajatlar kapital birligi narxiga, foiz stavkasiga, kapital narxni nisbiy o'zgarishiga va amortizatsiya me'yoriga bog'liq.

Misol uchun, mashinani ijara beruvchi kompaniya kapital xarajatini ko'rib chiqaylik. Kompaniya har bir mashinani $10000 dan oladi va boshqa firmalarga ijaraga beradi. Kompaniyaning yiliga 10% foiz stavkasi i bor, shunday ekan foiz stavkasi qiymati iP_K kompaniya tasarrufdagi har bir mashina uchun $1000. Mashinalar narxi yiliga 6%ga oshmoqda, shunday qilib, amortizatsiyani hisoblamaganda, firma yiliga $600 kapital foyda ΔP_K oladi. Mashinalarning amortizatsiyasi sababli yiliga 20% qiymatini yo'qotadi, shunday ekan amortizatsiya δP_K sababli yo'qotishlar yiliga $2000. Shuning uchun, kompaniyaning kapital birligiga xarajati:

$$\text{Kapital birligiga xarajati} = \$1000 - \$600 + \$2000 = \$2400.$$

Mashinani ijara beruvchi kompaniya uchun mashinani saqlab turish qiymati yiliga $2400ga teng.

Kapital birligi xarajatlari uchun ifodani soddalashtirish va u bilan ishlash qulay bo'lishi uchun investitsion tovarlar narxi boshqa tovarlar narxi bilan birga ko'tariladi deb hisoblaymiz. Bunday vaziyatda $\Delta R_k/R_k$ inflyatsiyaning umumiy darajasi π ga teng. $i - \pi$ ifoda real foiz stavkasi r ga teng bo'lganligi uchun, biz kapital birligiga xarajatlarni quyidagi ko'rinishda yozishimiz mumkin.

$$\text{Kapital birligiga xarajatlar} = R_k(r + \delta)$$

Bu tenglamadan ko'rinib turibdiki, kapital birligiga xarajatlar kapital narxi, real foiz stavkasi va amortizatsiya me'yoriga bog'liq.

Va nihoyat, kapital birligiga xarajatlarni iqtisodiyotdagi boshqa tovarlar narxlari bilan bog'liqligini ko'rishimiz mumkin. Kapital birligiga haqiqiy xarajatlar- bu iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish birliklarida o'lchangan kapital birligini sotib olish va ijaraga berish bo'yicha xarajatlardir va u quyidagini tashkil etadi:

$$\text{Kapital birligiga haqiqiy xarajatlar} = (R_k/R)(r + \delta).$$

Bu tenglamadan ko'rish mumkinki, kapital birligiga haqiqiy xarajatlar investitsion tovarlar nisbiy narxlari R_k/R, real foiz stavkasi r va amortizatsiya me'yori δ ga bog'liq.

Endi kapital zaxirasini oshirish yoki kamaytirish bo'yicha firma qarorini ko'rib chiqamiz. Har bir kapital birligi uchun, firma real daromad R/P oladi va real xarajat (P_K/P) (r+ δ)ni to'laydi. Shunda har bir kapital birligi uchun sof foyda:

$$\text{Foyda darajasi} = \text{daromad} - \text{xarajat} = R/P - (P_K/P)\,(r+\delta).$$

Muvozanatda real ijara narxi kapitalni chekli mahsulotiga teng bo'lgani uchun, foyda darajasini quyidagicha yozish mumkin:

$$\text{Foyda darajasi} = MPK - (P_K/P)\,(r+\delta)$$

Ijara firmasini investitsiya qarorlarini qabul qilishning iqtisodiy omillarini ko'rib chiqamiz. Firmaning kapital zaxirasi to'g'risidagi qarori, ya'ni qo'shish yoki amortizatsiyaga sarflanishiga yo'l qo'yish, kapitalga egalik qilish va uni ijaraga berish daromadli ekanligiga bog'liq. Netto investitsiya deb nomlanuvchi kapital zaxirasidagi o'zgarish kapitalni chekli mahsuloti va kapital xarajati o'rtasidagi farqqa bog'liq bo'ladi. Kapitalni chekli mahsuloti kapital xarajatidan yuqori bo'lsa, firma kapital zaxirasini ko'paytirishni daromadli deb topadi. Agar kapitalni chekli mahsuloti kapital xarajatidan kam bo'lsa, unda kapital zaxirasini kamaytirishga harakat qiladi.

Shuni ham kuzatishimiz mumkinki, ishlab chiqaruvchi va ijara firmalari o'rtasidagi iqtisodiy faoliyatni ajratish, garchi fikrimizni oydinlashtirishga xizmat qilsa-da, firmalar qancha investitsiya qilishni qanday tanlashi borasidagi xulosamiz uchun kerak emas. Kapitaldan ham foydalanadigan va unga egalik qiladigan firma uchun, qo'shimcha kapital birligining foydasi kapitalni chekli mahsuloti , xarajat esa kapital xarajati bo'ladi. Kapitalga egalik qiladigan va ijaraga beradigan firma singari, bu firma kapital zaxirasini agar marginal mahsulot kapital xarajatidan yuqori bo'lsagina ko'paytiradi. Shunday qilib:

$$\Delta K = I_n[MPK - (P_K/P)\,(r+\delta)],$$

bunda $I_n()$ investitsiyaga rag'batiga ko'ra qancha netto investitsiyalar kerakligini ko'rsatuvchi funksiya.

Endi investitsiya funksiyasini keltirib chiqarishimiz mumkin. Korxonalar asosiy fondiga investitsiyalar uchun xarajatlarning umumiy miqdori sof investitsiyalar va chiqib ketgan kapitalni tiklashga investitsiyalar miqdorlari yig'indisiga teng. Investitsiya funksiyasi quyidagicha yoziladi:

$$I=I_n(MPK-(R_k/R)(r+\delta))+\delta K.$$

Korxonalar asosiy fondlariga investitsiyalar kapitalning chekli mahsuloti, kapital birligiga xarajatlar va kapitalning chiqib ketgan miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Bu model investitsiya nima uchun foiz stavkasiga bog'liq bo'lishini ko'rsatib beradi. Real foiz stavkasi pasayishi kapital xarajatini ham kamaytiradi. Shu sabab u kapitalga egalik qilishdan keladigan daromadni oshiradi va ko'proq kapital to'plashga undaydi. Shunga o'xshash, real foiz stavkasi ko'tarilishi kapital xarajatini ham oshiradi va firmani investitsiyani kamaytirishga undaydi. Shu sababdan, investitsiyani foiz stavkasiga bog'langanligini korsatib turuvch investitsiya funksiyasining egri chizig'i 8.3-rasmdagi (a) paneldagi kabi pastga qaragan bo'ladi.

8.3-rasm



Investitsiya funksiyasi (a) investitsiyani foiz stavkasiga bog'langanligini ko'rsatib turuvchi investitsiya funktsiyasining egri chizig'i. (b) Kapitalni chekli mahsulotini oshiradigan har qanday hodisa investitsiyaning foydaliligini ham oshiradi va 18-3 rasm (b) panelidagi kabi investitsiya egri chizig'ini yuqoriroq siljishiga sabab bo'ladi

Mazkur model investitsiya chizig'ining o'zgarishiga nima sabab bo'lishini ham ko'rsatadi. Kapitalni chekli mahsulotini oshiradigan har qanday hodisa investitsiyaning foydaliligini ham oshiradi va 8-3 rasm (b) panelidagi kabi

investitsiya egri chizig'ini yuqoriroq siljishiga sabab bo'ladi. Masalan, ishlab chiqarish ko'rsatkichi Ani oshiradigan texnologik innovatsiya kapitalni chekli mahsulotini ham oshiradi va istalgan foiz stavkasi uchun ijara firmalari sotib olishni xohlaydigan kapital tovarlari miqdorini oshiradi. Nihoyat, kapital zaxirasining bunday o'zgarishi davriy davom etsa nima bo'lishini bir o'ylab ko'ring. Agar marginal mahsulot kapital xarajatidan yuqorida boshlansa, kapital zaxirasi oshadi va marginal mahsulot kamayadi. Agar marginal mahsulot kapital xarajatidan pastda boshlansa, kapital zaxirasi pasayadi va marginal mahsulot ko'payadi. Shu bilan, kapital zaxirasi o'zgarishi bilan kapitalni chekli mahsuloti kapital xarajati bilan to'qnashadi. Kapital xarajati barqaror holat darajasiga yetganida, uni quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

$$MPK = (P_K/P)\,(r+\delta)$$

Shunday qilib, keyinchalik kapitalni chekli mahsuloti real kapital xarajatiga tenglashadi. O'zgarishning barqaror holat darajasiga tomon tezligi firmalarning kapital zaxirasini qanchalik tez to'g'irlashiga bog'liq, bu esa o'z navbatida yangi kapitalni qurish, yetkazzib berish va o'rnatishning qanchalik xarajatli ekanligiga bog'liq bo'ladi.

Ko'pgina iqtisodchilar investitsiyadagi tebranishlar va fond birjasidagi tebranishlar orasida bo'gliqlikni ko'radi. Bu yerda aksiya (stock) termini korporatsiyalardagi egalik ulushini anglatadi, fond birjasi esa bunday ulushlar savdo qilinadigan bozor demakdir. Firmalar daromadli investitsiya uchun ko'p imkoniyatlar bo'lganda aksiyalar narxlari baland bo'ladi, chunki bu daromad imkoniyatlari aksiyadorlar uchun kelajakda katta daromadni bildiradi.

Shunday ekan, aksiyalar narxlari investitsiya uchun imtiyozlar beradi.

Nobel mukofoti sovrindori, iqtisodchi Jeyms Tobin fikriga ko'ra, firmalar investitsiya qarorlari quyidagi, Tobinning q koeffitsienti deb nomlanuvchi proporsiyaga asoslanadi:

$$Q = \frac{\text{O'rnatilgan kapital bozor qiymati}}{\text{o'rnatilgan kapital amortizatsiya xarajati}}.$$

Tobinning q koeffitsientidagi ko'rsatkich fond birjasi tomonidan belgilangan iqtisodiyot kapitalining qiymatidir. Maxraji esa agar hozir sotib olinganda, kapital narxi.

Tobin netto investitsiya q 1dan katta yoki kam bo'lishiga bog'liq bo'lishini asoslab berdi. Agar q 1 dan katta bo'lsa, unda fond birjasi o'rnatilgan kapitalni amortizatsiya xarajatidan yuqori baholaydi. Bunday holatda, menejerlar ko'proq

kapital sotib olish orqali o'z firma aksiyalarinining bozor narxini ko'tarishi mumkin. Va aksincha, agar q 1dan kam bo'lsa, unda fond birjasi o'rnatilgan kapitalni amortizatsiya xarajatidan past baholaydi. Bunday holatda, menejerlar kapitalni amortizatsiya qilmaydi.

Avvaliga investitsiyaning q nazariyasi ilgari ishlab chiqilgan neoklassik modeldan farqli katta bo'lib tuyuladi, lekin ikkala nazariya bir-biri bilan yaqindan bog'liq. Bog'liqlikni ko'rish uchun, e'tibor bering, Tobinning q koeffitsienti o'rnatilgan kapitaldan hozirgi va kelajakda kutiladigan foydaga asoslanadi. Agar kapitalni chekli mahsuloti kapital xarajatidan oshib ketsa, unda firmalar o'rnatilgan kapitallaridan foyda olmoqda. Bunday foyda ushbu firmaga egalik qilishga undaydi va qning yuqori qiymatini ko'rsatgan holda firma aksiyalarining bozor qiymatini oshiradi. Shunga o'xshash, agar kapitalni chekli mahsuloti kapital xarajatidan kam bo'lsa, unda firmalar o'rnatilgan kapitallarida yo'qotishlarga uchraydi, bunda past bozor qiymati va past q qiymati bo'ladi.

Investitsiyaga imtiyozlarni o'lchashda Tobin q koeffitsientining afzalligi shundaki, u hozirgi daromadlilik darajasi bilan birga kapitalning kelajakda kutilgan daromadliligini ko'rsatib beradi. Masalan, tasavvur qiling Kongress kelasi yildan boshlab korporativ daromad solig'ini pasaytirish bo'yicha qonun chiqaradi. Bu kutiladigan korporativ daromad solig'idagi pasayish kapital egasi uchun ko'proq daromadni anglatadi. Bundan kutilgan ko'proq foyda hozirgi aksiya qiymatini oshiradi, Tobinning q koeffitsientini ko'taradi va hozirgi kundagi investitsiyani chaqiradi. Shunday qilib, investitsiyaning Tobinning q koeffitsienti nazariyasi anglatadiki, investitsiya qarorlari faqat hozirgi iqtisodiy siyosatga emas, balki kelajakda kutilgan siyosatga ham bog'liq.

Iqtisodchilar o'rtasida davom etib kelayotgan munozara fond birjasidagi tebranishlar ratsional yoki yo'qligi ustida boradi.

Ba'zi iqtisodchilar fond birjasi gipotezasiga ishora qiladi, unga ko'ra kompaniya aksiyalarining bozor narxi kompaniya biznes istiqbollari haqida joriy ma'lumot berilgan kompaniya qiymatining to'liq ratsional baholanishidir. Bu gipoteza ikki narsaga asoslanadi:

1. Katta fond birjasida ko'rsatilgan har bir kompaniya ko'plab professional portfelli menejerlar, masaln, o'zaro mablag'larini bo'lishadigan shaxslar, tomonidan yaqindan kuzatib boriladi. Har kuni, bu menejerlar kompaniyaning qiymatini aniqlash uchun yangiliklarni kuzatib boradi. Ularning ishi qiymati narxi tushganda aksiya sotib olish va qiymati narxi ko'tarilganda sotish hisoblanadi.

2. Har bir aksiyalarning narxi talab va taklif muvozanati tomonidan o'rnatiladi. Bozor narxida, sotuvga qo'yiladigan aksiyalar soni aniq odamlar sotib olmoqchi bo'lgan aksiyalar soniga teng. Bu, bozor narxida, aksiyani narxi baland

deb o'ylovchilar soni uning narxi past deb o'ylovchilar soniga teng bo'ladi. Bozorda oddiy shaxs tomonidan belgilanganidek, aksiyalar ham adolatli baholanishi kerak.

Bu nazariyaga ko'ra, birja axboroti bilan samarali: u aktiv qiymati haqida mavjud bo'lgan barcha ma'lumotlarni aks ettiradi. Axborot o'zgarsa fond narxi o'zgaradi. Kompaniyaning istiqbollari haqida xushxabar hammag ma'lum bo'lib qolsa, aksiyadorlik qiymati va narxi ham ko'tariladi. Kompaniyaning istiqbollari yomonlashsa, qiymat ham narxlar ham pasayadi. Lekin istalgan davr vaqtida, bozor narxlari mavjud ma'lumotlar asosidagi kompaniya qiymati haqida eng yaxshi taxmin hisoblanadi.

Samarali bozorlar gipotezasining ma'nosi shundaki, aksiyalar narxi tasodifiy harakatni kuzatib borishi kerak. Bu fond narxlaridagi o'zgarishlarni mavjud ma'lumotlardan taxmin qilish mumkin emas degan ma'noni anglatadi. Agar, ommaviy mavjud ma'lumotlarga asoslanib, biror kishi biror aksiyalar narxi ertaga 10 foizga ko'tariladi deb bashorat qila olsa, unda fond birjasi bugun bu ma'lumotlarni o'zlashtirishga qodir bo'lmaydi. Bu nazariyaga ko'ra, birja narxlarini o'zgartirishi mumkin bo'lgan yagona narsa kompaniyaning qiymati haqida bozor fikrini o'zgartiradigan yangiliklardir. Lekin bunday yangiliklarni oldindan aytish qiyin, aks holda, albatta, bu yangilik bo'la olmaydi. Shu sababdan, aksiyalar narxlarda o'zgarishlarni oldindan aytish qiyin bo'lishi ham kerak.

Samarali bozorlar gipotezasi uchun dalil nima? Uning tarafdorlari go'yoki yetarli darajada baholanmagan aksiyalarni sotib olish va go'yoki yuqori narxdagi aksiyalarni sotish bilan bozorni yengish juda qiyin ekaniga ishora qiladi. Statistik testlar aksiyadorlik narxi tasodifiy, yoki hech bo'lmaganda taxminan ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, indeks fondlari fond birjasi indeksida barcha kompaniyalar qimmatli qog'ozlarini sotib olib, eng faol professional pul menejerlar tomonidan boshqariladigan o'zaro mablag'larni ko'rsatadi.

Samarali bozor gipotezasi ko'p tarafdorlariga ega bo'lsa-da, ba'zi iqtisodchilar fond bozori ratsional ekanligiga kamroq ishonch bildiradi. Bu iqtisodchilar aksiyalar narxlaridagi ko'p o'zgarishlar yangiliklarda aks ettirilishi qiyin deb ta'kidlashadi. Ularning fikricha, sotish va sotib olish vaqtida aksiyalar investorlar kompaniyalar fundamental qiymatiga kamroq qaraydi va keyinchalik boshqa investorlar to'lashi mumkin bo'lgan narsaga ko'proq e'tibor qaratadi.

Jon Meynard Keyns fond birjasi spekulyatsiyasini tushuntirish uchun bir mashhur analogiya taklif qilgan. Uning davrida, ba'zi gazetalar 100 ayolning suratini bosib "go'zallik bellashuvi" o'tkazganlar va gazetxonlarga besh eng go'zal ayol ro'yxatini taqdim etishi taklif qilingan. Mukofot kimning varianti boshqa o'quvchilar fikriga eng yaqin bo'lsa, o'sha kishiga berilgan. Sodda tavakkalchi

shunchaki o‘z ko‘zi bilan besh eng go‘zal ayol tanlab qo‘ya qolardi. Lekin biroz murakkab strategiya boshqa odamlar eng go‘zal deb bilgan besh ayollarni taxmin qilishni anglatardi. Boshqa odamlar, ehtimol, Shu mezon bo‘yicha fikr yuritgan. Shunday qilib, yanada murakkabroq strategiya boshqa odamlar o‘zlaridan boshqa odamlar eng go‘zal ayol deb o‘ylaydi deb o‘ylagan holda taxmin qilishga harakat qilish bo‘lar edi va hokazo. Jarayonining oxirida, tanlovda g‘olib bo‘lish uchun haqiqiy go‘zallikni aytish boshqa odamlarning fikr haqida boshqalarning fikri qandayligini taxmin qilishdan ko‘ra kamroq ahamiyat kasb etardi.

Xuddi shunday, Keyns mulohazasiga ko‘ra, fond birjasi investorlarining oxir-oqibat boshqalarga o‘z aksiyalarini sotishi sabab, ular kompaniyaning real qiymatidan ko‘ra boshqa odamlarning baholashi haqida ko‘proq o‘ylaydi. Uning fikricha, eng yaxshi aksiyador investorlar, ommaviy psixologiyani yaxshi anglay oladigan kishilardir. U fond narxlaridagi o‘zgarishlar ko‘pincha u investorlarning “hayvoniy ruhlar” deb nomlangan optimizm va pessimizmning irratsional to‘lqinlarini aks ettiradi deb ishonadi.

Fond birjasining bu ikki qarashi bugun ham mavjud. Ba’zi iqtisodchilar fond birjasini samarali bozorlar gipotezasi optikasi orqali qaraydi. Ular ishonadiki, aksiyadorlik narxlaridagi tebranishlar asosiy iqtisodiy asoslardagi o‘zgarishlarning ratsional ifodasidir. Biroq, boshqa iqtisodchilar Keyns ning go‘zallik tanlovini fond spekulyatsiyasining bir metaforasi sifatida qabul qiladi. Ularning fikriga ko‘ra, fond birjasi ko‘pincha hech sababsiz tebranib turadi va fond birjasi tovar va xizmatlar uchun jami talabga ta’sir qilishi bois, bu tebranishlar oz muddatli iqtisodiy o‘zgarishlar manbaidir.

Firma yangi kapital investitsiya qilishni xohlasa, masalan, yangi zavod qurilishida, ko‘pincha moliyaviy bozorda zarur mablag‘larni ko‘taradi. Bunday moliyalashtirish bir necha ko‘rinishlarga ega bo‘lishi mumkin: banklardan kreditlar olish, jamoatchilikka obligatsiyalarni sotish yoki fond birjasida kelajakdagi foyda aksiyalarini sotish. Neoklassik model shuni nazarda tutadiki, firma kapital xarajatlarni to‘lashga tayyor bo‘lsa, moliyaviy bozorlar mablag‘larni ko‘payadi.

Biroq, ba’zan firmalar moliyaviy bozorlarda jalb qilishi mumkin bo‘lgan miqdorga chegara, ya’ni moliyalashtirishga cheklovlarga duch keladi. Moliyalashtirish cheklovlari firmalarga daromadli investitsiyalarni amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi. Firma moliyaviy bozorlarda mablag‘larni jalb qila olmasa, u yangi kapital tovarlarga sarflashi mumkin bo‘lgan miqdor hozir olayotgan daromadi darajasigacha bo‘lgan miqdorda cheklangan. Moliyalashtirish cheklovlar xuddi qarz olish uy-xo‘jaliklar iste’moliga cheklovlar qo‘ygani kabi firmalar investitsion xatti-harakatiga ta’sir qiladi. Qarz cheklovlari doimiy daromad o‘rniga joriy daromad asosida iste’molni aniqlashga olib keladi;

moliyalashtirish cheklovlari firmalarni ularning kutilgan rentabellik o'rniga joriy pul oqimi asosida ularning investitsiyalarini aniqlashiga olib keladi.

Moliyalashtirish cheklovlar ta'sirini ko'rish uchun, investitsiya xarajatlariga qisqa inqirozning ta'siriga e'tibor bering. Inqiroz aholi bandligini, kapitalning ijara narxini va daromadlarni pasaytiradi. Biroq agar firmalar inqiroz qisqa bo'lishini bashorat qilsa, ular investitsiyalar kelajakda daromadli bo'ladi deb investitsiyani davom ettirish istagida bo'ladi. Bu qisqa inqiroz Tobinning qsiga kamgina ta'sir qiladi xolos deganidir. Moliyaviy bozorlarda mablag'larni jalb qila oladigan firmalar uchun, bunday inqirozlar investitsiyaga kamgina ta'sir qiladi xolos.

Moliyalashtirish cheklovlariga duch kelgan firmalar uchun shuning aksi to'g'ridir. Joriy foydadagi pasayish firmalarning yangi kapital tovarlarga sarflash mumkin bo'lgan miqdorini va daromadli investitsiya qilishga to'sqinlik qiladi. Shunday qilib, moliyaviy cheklovlar investitsiyalarni joriy iqtisodiy holatlarga ta'sirchan qilib qo'yadi.

8.4. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan investitsion siyosat

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy soha va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun barcha mulkchilik shakllaridagi tashkilotlarning 2016 yilda 49770,6 mlrd so'm (16782,3 mln. AQSh dollari dollar ekvivalentida) yoki 2015 yilga nisbatan 107,7 foiz asosiy kapitalga investitsiyalaridan foydalanildi. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 1991 yilga nisbatan 4,2 martta, 2000 yilga nisbatan 5,4 marta, 2005 yilga nisbatan 4,3 marta va 2010 yilga nisbatan 170,1 foizga ko'paydi.



8.4-rasm. **Asosiy kapitalga investitsiyalar**

YaIMga nisbatan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 2016 yilda 25,0 foizni tashkil etib, o'tgan yildagiga nisbatan 0,6 foiz punktga o'sdi (1991 yil 18,8 foiz, 2000 yilda 22,9 foiz, 2005 yilda 19,9 foiz, 2010 yilda 24,6 foiz va 2015 yilda 24,4 foizni tashkil etgan).



8.5-rasm. **Asosiy kapitalga investitsiyalarning YaIMdagi ulushi (foizda)**



8.6-rasm. **2016 yilda hududlarning Respublika bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmidagi ulushi**

2016 yilda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 62,0 foizi Toshkent shahri, Qashqadaryo, Buxoro, Toshkent viloyatlarida va Qoraqalpog`iston Respublikasida o‘zlashtirildi (mos ravishda jami investitsiyalarning 20,5 foizi, 14,2 foizi, 11,6 foizi, 8,0 foizi va 7,5 foizi o‘zlashtirildi).



8.7-rasm. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar



8.8-rasm. 2016 yil uchun aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga investitsiyalar

Investitsion faollik ko‘proq Surxondaryo, Buxoro viloyatlari, Toshkent shahri va Navoiy viloyatlarida kuzatildi (2015 yilga nisbatan 1,1 – 1,5 marta ko‘payish).

Toshkent viloyati va Qoraqalpog`iston Respublikalarida esa o‘tgan yilga nisbatan asosiy kaitalga investitsiyalar 12,6 – 44,0 foizga kamaydi. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar 2016 yilda 1562,8 ming so‘m yoki 2015 yilga nisbatan 105,8 foizni tashkil etdi.



8.9-rasm. 2016 yilda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘sish surati (foizda)

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar Toshkent shahrida 4243,4 ming so‘m yoki o‘tgan yilining mos davriga nisbatan 131,0 foiz, mos ravishda Buxoro (3146,8 ming so‘m yoki 120,9 foiz), Qashqadaryo (2305,7 ming so‘m yoki 107,6 foiz), Navoiy (3043,7 ming so‘m yoki 145,2 foiz), Sirdaryo (1557,3 ming so‘m yoki 106,5 foiz) viloyatlarida qayd etildi.

57 foizdan ortiq asosiy kapitalga investitsiyalar quyidagi iqtisodiy faoliyat turlariga yo‘naltirildi: qayta ishlash sanoati (18,1 foiz), tog`-kon sanoati (14,4 foiz), tashish va saqlash (11,6 foiz), elektr energiyasi, gaz, bug` va

konditsiyalangan havo (5,4 foiz), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalar va motosikllarni ta'mirlash (4,9 foiz), ta'lim (2,7 foiz), sog`liqni saqlash va ijtimoiy hizmatlar ko'rsatish (2,3 foiz), jami faoliyat turlaridan tashqari: turar joy qurilishiga investitsiyalar (22,3 foiz).

8.1-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi

	2015 y.		*2016 y.*	
	Mlrd.	*Jamiga nisbatan*	*Mlrd.*	*Jamiga nisbatan*
	So'm	*Foizda*	*So'm*	*Foizda*
Jami	**41670,5**	**100,0**	**49770,6**	**100,0**
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1375,5	3,3	1646,4	3,3
Tog` – kon sanoti	9701,1	23,3	7173,4	14,4
Ishlab chiqarish sanoati	5346,2	12,8	8992,0	18,1
Elektr energiyasi, gaz, bug` va konditsiyalangan havo	2244,5	5,4	2722,6	5,4
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig`ish va qayta ishlash	446,6	1,1	717,3	1,4
Qurilish	1057,1	2,5	932,0	1,9
Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalar va motosikllarni ta'mirlash	2028,8	4,9	2459,2	4,9
Tashish va saqlash	3739,5	9,0	5785,0	11,6
Ovqatlanish va yashash bo'yicha hizmatlar	476,3	1,1	929,7	1,9
Axborot va aloqa	985,3	2,4	1098,5	2,2
Moliya va sug`urta faoliyati	511,4	1,2	345,4	0,7
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	895,4	2,1	501,9	1,0
Ta'lim	963,7	2,3	1330,6	2,7
Sog`liqni saqlash va ijtimoiy hizmatlar ko'rsatish	950,2	2,3	1140,2	2,3
San`at, ko'ngil ochish va dam olish	189,8	0,5	378,9	0,8
Jami faoliyat turlaridan tashqari: turar joy qurilishiga investitsiyalar	9116,3	21,9	11081,7	22,3
Boshqa faoliyat turlari	1642,8	3,9	2535,8	5,1



8.10-rasm. **2016 yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jamiga nisbatan foizda)**

Jami asosiy kapitalga investitsiyalardan ishlab chiqarish sanoatiga investitsiyalarning ulushi 2015 yilga nisbatan 5,3 foizga oshdi. Undan: kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (3,9 foiz), to‘qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechak ishlab chiqarish (1,4 foiz), nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarish (0,5 foiz). Mos ravishda, quyidagi faoliyat turlarida o‘sish kuzatildi: tashish va saqlash (2,6 foiz), ovqatlanish va yashash bo‘yicha hizmatlar (0,8 foiz), suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig`ish va qayta ishlash (0,3 foiz).

8.2-jadval

Mulkchilik shakllari bo‘yicha asosiy kapitalaga investitsiyalarning tarkibi

(jamiga nisbatan foizda)

	2016y.	*Ma'lumot uchun*		
		2005y.	*2010y.*	*2015y.*
Asosiy kapitalga investitsiyalar	**100**	**100**	**100**	**100**
Xususiy mulki	83,4	69,1	78,2	83,7
Ommaviy (davlat) mulki	16,6	30,9	21,8	16,3

Asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi tog`-kon sanoatida (8,9 foiz), ulardan xom neft va tabiiy gaz (7,9 foiz), professional, ilmiy va texnik faoliyat (1,1 foiz), qurilish ( 0,6 foiz), moliya va sug`urta faoliyati (0,5 foiz), san`at, ko'ngil ochish va dam olish (0,3 foiz), axborot va aloqada (0,2 foiz) kamayish kuzatildi.

Nodavlat mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlarning jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 2016 yilda 83,4 foizni tashkil etdi, bu ko'rsatkich 2010 yilga nisbatan 5,2 foiz punktga ko'paydi. Moliyalashtirishning asosiy hajmi, ya'ni 61,4 foizni xo'jalik yurituvchi subyektlar va xususiy mulkchilik shaklidagi korxnona va tashkilotlar amalga oshirdi va mos ravishda 15,8 foiz punktga ko'paydi.



8.11-rasm. **Mulkchilik shakillari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi** *(jamiga nisbatan foizda)*

2016 yilda asosiy kapitalga investitsiyalarning asosiy qismi, jami investitsiyalarning 55,2 foizi bino va inshootlar qurilishiga yo'naltirildi. Asosiy fondlarning faol qismini rivojlantirishga investitsiyalarning ulushi 2015 yilda 39,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016 yilda 38,3 foizni tashkil etib, 1,5 foiz punktga (2005 va 2010 yilga nisbatan 1,7 foiz punktga) kamaydi.

Mashina, uskuna, transport vositalariga investitsiyalarning hududlar tarkibida quyidagilar salmoqli hajmlarni o'zlashtirdi: Qorqalpog`iston Respublikasi – 59,2 foiz, Navoiy viloyati – 57,8 foiz, Toshkent shahri – 55,6 foiz va Toshkent viloyati – 52,3 foiz.

8.3-jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalarning turlari bo'yicha tarkibi

	2016y.		*Ma'lumot uchun jamiga nisbatan foizda*		
	mlrd. so'm	*Jamiga nisbatan foizda*	*2005y.*	*2010y.*	*2015y.*
Asosiy kapitalga investitsiyalar	**49770,6**	**100**	**100**	**100**	**100**
Shu jumladan: turar joy	11126,7	22,4	11,0	15,1	20,3
Bino (turar-joydan tashqari) va inshootlar	16347,4	32,8	40,0	39,1	31,1
Mashina, uskuna, transport vositalari	19070,1	38,3	40,0	40,0	39,8
Boshqalar	3226,4	6,5	9,0	5,8	8,8



8.12-rasm. **Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi dinamikasi**

2016 yilda iqtisodiyotga kiritilgan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 62,5 foizi obyektlarning yangi qurilishiga yo'naltirildi. Mavjud obyektlarni rekonstruksiya qilishga esa jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 19,9 foizi yo'naltirildi, mos ravishda kengaytirishga 0,6 foiz va boshqa yo'nalishlarga 17,7 foiz ionvestitsiyalar yo'naltirildi.



8.13-расм. **Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar**

2016 yilda asosiy kapitalga investitsiyalarning asosiy moliyalashtirish manbaining 53,0 foizini korxonalar va aholining o‘z mablag`lari tashkil etgan bo‘lsa, jami investitsiyalarning qolgan 47,0 foizi jalb etilgan mablag`lar hisobiga to‘g`ri keldi. 2010 yilga nisbatan korxona va aholining o‘z mablag`lari ulushi 4,0 foiz punktga o‘sdi.

Nazorat savollari:

1) Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi omillarni sanab o‘ting.
2) Asosiy fondlarga investitsiyalar neoklassik modelida firmalar qanday shart ostida kapital zaxirasini oshirishni daromadli deb biladi?
3) Tobinning **Q** koeffitsienti nima va uning investitsiyalar bilan qanday aloqasi bor?
4) Foiz stavkasi oshishi nima uchun uy-joyga investitsiyalarni kamaytirishini tushuntirib bering.
5) Firmalar nima uchun zaxira saqlashining to‘rtta sababini keltiring.
6) Investitsiya va iste’mol o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlang.
7) Mamlakatimizga har yili qancha investitsiya jalb qilinadi?
8) Investitsiyaning yurtimiz iqtisodiyotidagi ahamiyatini tushuntiring.

IX BOB. PUL TAKLIFI, PULGA TALAB VA BANK TIZIMI

9.1. Pul tushunchasi va uning funksiyalari. Pul agregatlari

Pul – iqtisodiyot subyektlari mulkining bir turi bo'lib, mulkning boshqa turlaridan ikki xususiyatiga ko'ra farq qilad:

– birinchidan, pul yuqori likvidliliklar, ya'ni qisqa muddatda, sezilarsiz sarf xarajatlar bilan boshqa buyumga ayirboshlanish qobiliyatiga ega;

– ikkinchidan, baholar o'zgarmas bo'lgan sharoitda pul yoki hech qanday daromad keltirmaydi, yoki uning daromadliligi darajasi boshqa mulk turlarinikidan ancha kam. Shunga qaramasdan kishilar nima uchun mulk sifatida pulga egalik qilishga harakat qiladilar? Bu savolga javobni pulning funksiyalaridan topamiz.

Odatda pulning uch asosiy funksiyasi mavjud deb qaraladi.

1. To'lov vositasi (almashinuv vositasi).
2. Qiymat o'lchovi vositasi.
3. Jamg'arish (boylik to'plash) vositasi.

Umumiy ekvivalentlilik, yuqori likvidlilik xususiyatlari pulni ideal to'lov vositasiga aylantiradi. Hozirgi zamon iqtisodiyotida to'lovlar uch yo'l bilan amalga oshiriladi: 1) naqd pul to'lovi; 2) bankdagi hisobvaraqlarda yozuv orqali, ya'ni naqd bo'lmagan pul ko'chirish orqali; 3) bir shaxsning ikkinchi shaxsga qarzdorliligini tasdiqlovchi hujjatlar (veksellar, qarz majburiyatlari) yordamida.

Qiymat o'lchovi sifatida pullar tovarlar bahosini ifodalaydi va turli tovarlar qiymatini taqqoslash imkonini beradi.

O'z tovari uchun olgan pulini sotuvchi doim ham birdaniga ishlatavermaydi. Shu sababga ko'ra pullar ularga o'tkazilgan qiymatni saqlab turishlari juda muhim. Agar pul aytilgan xususiyatga ega bo'lsa, unda u boylik to'plash maqsadida jamg'ariladi. Pulning bu funksiyasini muqobil tarzda mulkning boshqa turlari - obligatsiyalar, aksiyalar, ko'chmas mulk ham bajarishi mumkin.

Rivojlangan iqtisodiyot sharoitida pulning to'lov vositasi sifatidagi vazifasi jamg'arish vositasi vazifasiga nisbatan muhimroq ahamiyat kasb etadi.

Pulning yuqori likvidliligi va qiymatni saqlab turishi xususiyatlar barcha turdagi to'lov vositalarida bir xil emas. Naqd pullar va muddatsiz depozitlarning likvidliligi djarajasi muddatli depozitlarga yoki veksellarga qaraganda yuqoriroq. Shu sababli pul massasi likvidlilik darajasining pasayib borishi tamoyiliga asoslangan agregatlarga bo'linadi. Rivojlangan mamlakatlarda pul massasini aniqlashda - M1; M2; M3; M4 deb belgilanadigan pul agregatlaridan foydalaniladi.

Pul agregatlarining tarkibi va miqdori turli mamlakatlarda o'zaro farq qilish mumkin. Quyida umumlashtirib olingan pul agregatlari tarkibini keltiramiz:

M0-bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar va tijorat banklarining Markaziy bankdagi rezervlari;

M1 = M0 + muddatsiz depozitlar, yo'l cheklari va boshqalar;

M2 =M1 + (miqdori va muddati cheklangan) muddatli depozitlar va boshqalar ;

M3 = M2+(miqdori va muddati cheklanmagan) muddatli depozitlar va boshqalar"*.

Makroiqtisodiy tahlilda M_1 va M_2 pul agregatlari eng ko'p foydalaniladi. Pul agregatlarining dinamikasi turli sabablarga bog'liq. Masalan, daromadlarning oshishi natijasida M_1ga talab tezroq o'ssa, foiz stavkasining o'sishi natijasida M_2 va M_3ga talab M_1ga nisbatan tezroq o'sadi.

9.2. Pul taklifi. Bank multiplikatori

Pul taklifi (M_s) o'z ichiga bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar (S) va zarur bo'lganda (D) iqtisodiy agentlar bitimlar uchun ishlatishi mumkin bo'lgan depozitlarni oladi:

$$M_s = C+D.$$

* Саидова Г., Шадыбаев Т. Макроэкономика Т., ИПАК «Шарк» 2003, 34 -с..

Aksariyat mamlakatlarda davlat pul chiqarishda monopol huquqqa ega. Uni amalga oshirish huquqi nisbatan mustaqil muassasa Markaziy bank ixtiyorida. "Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to'lov vositasi sifatida banknotlar va tangalar ko'rinishidagi pul belgilarini muomalaga chiqarish mutlaq huquqiga ega"*. Ammo pul taklifini ko'paytirish imkoniga yoki pul yaratish qobiliyatiga tijorat banklari ham ega. Ular kreditlar bera borib, to'lov vositalari emissiyasini yoki kredit multiplikatsiyasini amalga oshiradi. Masalan, A bankning depoziti 2000 so'mga o'sgan bo'lsa, zaxira normasi 20 % ga teng bo'lganda (zaxira normasi – tijorat banklar depozitlarining ma'lum qismini Markaziy bankda saqlab turish normasi), u 400 so'mni Markaziy bankda zaxiralab, qolgan 1600 so'mni qarzga beradi. Shunday qilib, A bank pul taklifini 1600 so'mga ko'paytiradi va u endi 2000+1600=3600 so'mni tashkil etadi. Ya'ni, omonatchilarning depozitlardagi 2000 so'mdan tashqari yana 1600 so'm qarz oluvchilar qo'lida qoladi. Agar, 1600 so'm yana banka tushsa, (masalan, B bankka) unda 20 % ga teng bo'lgan zaxira normasida u 320 so'mni zaxirada qoldirib, 1280 so'mni kreditga beradi hamda shu miqdorda pul taklifini oshiradi. Kredit berishning bu jarayoni so'nggi pul birligidan foydalanishga qadar davom etadi. Yakuniy hisob kitob bank depozitlari jami 10000 so'mga ko'payganligini ko'rsatadi. Bu jarayonni formula ko'rinishida quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$M = (1/rr) \times D.$$

Bunda: M- pul taklifi hajmi; rr – majburiy zaxiralash normasi ;

D - dastlabki depozit.

Keltirilgan formuladan ko'rinib rr koeffitsentiga bog'liq bo'lib, uni bank/turibdiki, pul taklifi 1/ multiplikatori yoki pul ekspansiyasi multiplikatori, deb ataladi. U ushbu bank zaxiralar normasida ortiqcha zaxiralarning bir pul birligi bilan yaratilishi mumkin bo'lgan yangi kredit pullarining eng ko'p miqdorini bildiradi.

---

* Ўзбекистон Республикасининг "Ўзбекистон Республикаси Марказий Банки тўғрисида"ги Қонуни, 1995йил. 21 декабрь / Ўзбекистон банк тизимини ислоҳ қилиш ва эркинлаштириш бўйича қонунчилик ҳужжатлари тўплами.Т.: Ўзбекистон, 2003., 18-.б.

9.3. Pul taklifining kengaytirilgan modeli, pul multiplikatori

Pul taklifining umumlashma modeli Markaziy bankning pul taklifidagi roli hamda pulning bir qismini depozitlardan naqd pullarga oqib o'tishni hisobga olgan holda yoziladi. Bu model bir qator yangi o'zgaruvchilarni o'z ichiga oladi. Bular:

- pul bazasi (rezerv pullar, yuqori quvvatli pullar) – bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar va tijorat banklari Markaziy bankda saqlaydigan depozitlar summasi;

- deponentlash koeffitsienti - Cr = S/ D

Pul bazasini MB va bank rezervlarini R deb belgilasak,

$$MB=C+R.$$

Pul taklifining kengaytirilgan modelini iuyidagicha yozish mumkin:

$$Ms = \frac{Cr + 1}{Cr + rr} \cdot MB \text{ yoki } Ms = m \cdot MB.$$

(Cr +1)/ (Cr + rr) nisbat pul multiplikatori deb yuritilib bir so'mlik pul bazasi hisobiga necha so'mlik pul taklifi yuzaga kelishini ko'rsatadi. Pul multiplikatorini – pul taklifining pul bazasiga nisbati ko'rinishida yozish mumkin:

$$m = \frac{Ms}{MB} = \frac{C + D}{C + R} = \frac{C/D + D/D}{C/D + R/D} = \frac{Cr + 1}{Cr + rr}.$$

Cr miqdori – aholining o'z mablag'larini naqd pullar va depozitlar o'rtasida qanday proportsiyada saqlashni tanlashga bog'liq.

rr = R / D miqdori esa – aholining nafaqat Markaziy Bank belgilab bergan majburiy rezerv normasiga, balki tijorat banklari saqlab turishni mo'ljallanayotgan ortiqcha rezerv miqdoriga ham bog'liq.

Demak, pul taklifi pul bazasi va pul multiplikatori miqdoriga bog'liq ekan. Pul multiplikatori pul bazasining bir miqdorga oshishi natijasida pul taklifi qanday o'zgarishini ko'rsatadi.

Markaziy bank pul taklifini avvalambor, pul bazasiga ta'sir etish yo'li bilan tartibga soladi.

Mamlakatda pul miqdori ko'payadi, agar:

-pul bazasi o'ssa;

- majburiy zaxiralash normasi pasaytirilsa;

- tijorat banklarining ortiqcha rezervlari kamaysa;

-naqd pullarningn depozitlar umumiy summasiga nisbati pasaysa.

9.4. Pulga talabning klassik va keynscha nazariyalari

Pulning miqdoriy nazariyasi pulga bo'lgan talabni almashinuv tenglamasi yordamida aniqlaydi:

$$M \cdot V = P \cdot Y.$$

Bu yerda: M – muomaladagi pul miqdori; V – pulning aylanish tezligi;

P – baholar darajasi (baho indeksi); Y – real YaIM.

Pulning aylanish tezligi, iqtisodiyotda bitimlar tarkibi nisbatan barqaror bo'lganligi uchun ham doimiy kattalik deb qabul qilinadi. Ammo bank tizimiga hisob-kitoblarni tezlashtiruvchi texnik vositalar joriy qilinishi natijasida u o'zgarishi mumkin. V doimiy bo'lgan sharoitda almashtirish tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$M \cdot V* = P \cdot Y \text{ (Fisher tenglamasi), bundan:}$$

$$M = \frac{P \cdot Y}{V*}$$

P · Y – nominal YaIM miqdorini bildirishini va doimiy miqdorligini hisobga olsak, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori ishlab chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlar miqdori va ularning bahosi o'zgarishlariga, boshqacha aytganda, nominal YaIM o'zgarishiga bog'liq. Muomaladagi pul massasining o'zgarishi, klassik nazariyaga ko'ra, Y sekin o'zgarishi tufayli asosan baholar darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Bu holat "pulning neytralligi" nomini olgan.

Monetaristlar qoidasiga ko'ra hukumat pul massasining o'sish sur'atini, real YaMMning o'rtacha o'sish sur'ati darajasida ta'minlab tursa iqtisodiyotda baholar darajasi barqaror bo'ladi.

Fisher tenglamasidan tashqari bu tenglamaning boshqa bir shakli Kembrij tenglamasidan ham keng foydalaniladi:

$$M=k*PY,$$

Bu yerda: k= 1/V – pulning aylanish tezligiga teskari miqdor.

k - koeffitsientni nominal pul miqdori (M)ning daromadlar (P·Y)dagi ulushini ko'rsatadi.

Kembrij tenglamasi turli darajada daromadli bo'lgan turlicha moliyaviy aktivlar mavjudligini va daromadni ularning qaysi biri ko'rinishida saqlashni tanlash imkoniyati mavjudligini ko'zda tutadi.

Pulga real talab quyidagi ko'rinishda hisoblanadi:

$$(M/P)\ D = k\ Y.$$

Bu yerda: M/R – "real pul qoldig'i", "pul mablag'larining real zaxirasi" deb nomlanadi.

Pulga talabning keynscha nazariyasi.

Pulga talabning Keyns nazariyasi, likvidlilikning afzalligi nazariyasi, pulni naqd ko'rinishda saqlashga kishilarni undovchi uch sababni ajratib ko'rsatadi:

1. transaktsion sabab (joriy bitimlar uchun naqd pulga talab);
2. ehtiyotkorlik sababli (ko'zda tutilmagan holatlar uchun ma'lum miqdorda naqd pullarni saqlash);
3. spekulyativ sabab (foyda olish maqsadida qimmatli qog'ozlar sotib olish uchun pulga talab).

Spekulyativ sabab foiz stavkasi bilan obligatsiyalar kursi o'rtasidagi teskari bog'liqlikka asoslanadi. Agar foiz stavkasi ko'tarilsa, obligatsiyalar bahosi pasayadi, ularga talab esa oshadi. Bu esa o'z navbatida, naqd pul zaxiralarining qisqarishiga hamda naqd pullarga talabning pasayishiga olib keladi.

Pul likvidlilik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun ham aholi uni saqlashni afzal biladi. Likvidlilikning afzalligi nazariyasi ko'rsatadiki pulga bo'lgan talab

miqdori foiz stavkasiga bog'liq. Foiz stavkasi naqd pul vositalarini qo'lda ushlab turishning muqobil xarajatlari miqdorini, ya'ni, siz foiz olib kelmaydigan naqd pullarni qo'lda ushlab turgan sharoitda yo'qotadigan pul miqdorini bildiradi. Nonning narxi non talabi miqdoriga ta'sir qilganidek, naqd pullarni qo'lda ushlab turish miqdori ham pul zaxiralariga talab miqdoriga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun foiz stavkasi oshganda, insonlar boyliklarini naqd pul shaklida kamroq ushlab turishga harakat qiladi.

Real pul zaxiralariga talab funksiyasini quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$M/P = f(R).$$

Bu tenglama ko'rsatayaptiki, pulga bo'lgan talab miqdori foiz stavkasi funksiyasi ekan. Grafikda foiz stavkasi va real pul zaxiralari miqdoriga talab teskari bog'liklikka ega ekanligi ko'rinadi. Chunki, yuqori foiz stavkasi pulga talab miqdorining kamayishini ko'rsatadi

Klassik va keynschilarga xos yondashuvlarni umumlashtirib, pulga talabning quyidagi omillarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) daromadlar darajasi;

2) pulning aylanish tezligi;

3) foiz stavkasi.

Agar klassik nazariya pulga talabni asosan, real daromad hajmi bilan bog'lasa, keynschilarda esa pulga talab asosan, foiz stavkasiga bog'liq deb hisoblanadi.



9.1-rasm. **Pulga talab grafigi**

Pulning aylanish tezligini hisobga olmaganda, real pul qoldig'iga talab formulasi quyidagicha bo'ladi:

$$(M/P)\ D = f\,(R,\ Y),$$

Bu yerda: R – foiz stavkasi; Y – real daromad.

Chiziqli bog'liqlikni e'tiborga olsak, quyidagicha formula hosil bo'ladi:

$$(M/P)D = kY - hR,$$

Bu yerda: k va h – pulga talabning daromadlar va foiz stavkasiga ta'sirchanligini ifodalovchi koeffitsientlar; k – foiz stavkasi (real foiz stavkasi).

Real foiz stavkasi nominal foiz stavkasidan inflyatsiya sur'atini ayirib topiladi.

Daromad darajasining o'zgarishi foiz stavkasi o'zgarmas bo'lgan sharoitda ham pulga talabning ko'payishiga olib keladi. Bu grafikda pulga talab egri chizig'ining siljishi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

9.5. Pul bozorida muvozanat

Pul bozori modeli pulga talab va taklifni birlashtiradi. Dastlab, soddalik uchun pul taklifi Markaziy Bank tomonidan nazorat qilinadi va $(M/P)^s$ darajasida qayd qilingan deb olamiz.

Agarda M-pul taklifini, P-narxlar darajasini bildirsa, M*/P* pul vositalarining real zaxirasi miqdorini ko'rsatadi.

$$(M/P)\ s = M^*/P^*,$$

Bu yerda: M - pul taklifi darajasini bildiradi;

P – baholar darajasi (ushbu modelda ekzogen o'zgaruvchi)ni ko'rsatadi.

9.2-rasm real pul taklifi miqdoridagi foiz stavkasiga bog'liq bo'lmagan vaziyatni ko'rsatadi. Shuning uchun real pul vositalari taklifi grafikda ko'rsatayotganimizdek vertikal chiziq ko'rinishiga ega bo'ladi. Bu holat foiz stavkasi qanchalik o'zgarishiga qaramasdan real pul taklifi miqdori o'zgarmasdan qolgan vaziyatni aks ettiradi.

Baholar darajasini ham barqaror deb qabul qilamiz. Bu holatda real pul taklifi M*/P* ga teng va grafikda Ms to'g'ri chiziq ko'rinishiga ega bo'ladi.

Pul talabi berilgan daromad darajasida foiz stavkasiga teskari proportsional egri chiziq ko'rinishiga ega. Muvozanat nuqtasida pul talabi va taklifi o'zaro teng, (9.3- rasm).

O'zgarib turuvchi foiz stavkasi pul bozorini muvozanatda ushlab turadi. Foiz stavkasining o'zgarishi natijasida iqtisodiy agentlar o'z aktivlari tarkibini o'zgartirgani tufayli pul bozorida muvozanatga erishish uchun vaziyatga ta'sir etib uni o'zgartirish zarur va mumkindir. Agar R juda yuqori bo'lsa, pul taklifi unga bo'lgan talabdan yuqori bo'ladi. Iqtisodiy agentlar o'zlarida to'planib qolgan ortiqcha naqd pullarni aksiya va obligatsiyalarga aylantirib, ulardan qutilishga intilishadi.



9.2-rasm. **Real pul vositalari zahirasi taklifi grafigi**



9.3-rasm. **Pul bozorida muvozanat modeli**

Yuqori foiz stavkasi, ta'kidlanganidek, obligatsiyalar kursining pastroq darajasiga mos keladi. Shu sababli, arzon obligatsiyalarni (kelajakda foiz stavkasi pasayishi oqibatida ular kursi o'sishini ko'zda tutib) sotib olish foydali bo'ladi.

Banklar, M_s> Md bo'lgani uchun foiz stavkasini pasaytira boshlaydi. Astasekin iqtisodiy agentlar o'z avtivlari tarkibini o'zgartirishi va banklar tomonidan foiz stavkasining o'zgartirilishi oqibatida pul bozorida muvozanat tiklanadi. Foiz stavkasi pasayib ketgan holatda teskari jarayon ro'y beradi.



9.4-rasm. **Daromadlar darajasining oshishi natijasida pulga talabning o'zgarishi**



9.5-rasm. **Pul taklifining kamayishi natijasida pul bozorida muvozanatning o'zgarishi**

Foiz stavkasi va pul massasi muvozanatli darajasining o'zgarib turishi pul bozorining ekzogen o'zgaruvchilari – daromadlar darajasi va pul taklifining o'zgarishi natijasida ham ro'y beradi.

Grafik ko'rinishda, bu, pul talabi va pul taklifi egri chiziqlarining siljishi sifatida namoyon bo'ladi (9.4, 9.5 rasmlar).

Daromadlar darajasining Y_1dan Y_2ga qadar o'sishi (9.4- rasm) pulga talabni M1d dan M2d gacha oshishiga va foiz stavkasini R_1dan R_2ga qadar ko'tarilishiga olib keladi. Pul taklifining kamayishi ham foiz stavkasining ko'tarilishiga va muvozanat nuqtasining o'zgarishiga olib keladi.

Pul bozorida muvozanatni o'rnatish va saqlab turish mexanizmi qimmatli qog'ozlar bozori rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida muvafaqqiyatli amal qiladi. Pul bozoridagi muvozanat tovarlar va xizmatlar bozoridagi muvozanat singari makroiqtisodiy muvozanatning muhim tarkibiy qismidir.

9.6. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi

Moliya bozoridagi operatsiyalar moliya muassasalari vositasida amalga oshiriladi. Bunday mussasalarga turli xil banklar, birjalar, depozitariylar, sug'urta kompaniyalari, investitsiya fondlari, agentliklar va h.k.lar kiradi.

Pul munosabatlarining rivojlanishi banklarni yuzaga keltirgan. Bank iqtisodiyot ishtirokchilarining pul yuzasidan bo'lgan aloqalariga xizmat qiluvchi institut (muassasa)dir. Pul bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatuvchi tashkilotlar ko'p, ammo ularning markazida banklar turadi. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunida, bank nima, degan savolga quyidagicha javob topish mumkin:

Bank - tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir.

O'zbekistondagi bank tizimi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, aksiyadorlik-tijorat banklari va xususiy banklardan iboratdir. 2016 yil 1-yanvar holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi bank tizimi 28 tijorat bankini o'z ichiga oldi.

Banklar pul olamini harakatga keltiruvchi motor - yurak, pul bilan bo'ladigan hisob-kitoblarni amalga oshiradi. Hamma pul to'lovlari (transfertlar) banklar orqali o'tadi. Banklar quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- pul va qimmatli buyumlarni omonatga olib, saqlab beradi;
- pul bilan bo'ladigan hisob-kitob opretsiyalarini, xususan, pul to'lash ishlarini bajaradi;
- chet el valyutasini sotadi va sotib oladi;
- o'z qo'lidagi pulni qaytarish, foizlilik va muddatlilik sharti bilan unga (muhtojlarga) qarz (ssuda)ga beradi, ya'ni, kredit bilan shug'ullanadi;
- o'z puliga aksiya sotib olib, uni boshqa sohaga joylashtiradi;
- biznes yuzasidan maslahat beradi va hk.

Bank ishi pul olamida bo'ladigan biznesdir. Bank biznesi foyda topish maqsadida yuritiladi.

Markaziy bankning monopollik mavqei uning mamlakatdagi pul va pirovard natijada iqtisodiy barqarorlik uchun alohida javobgar ekanligi bilan chambarchas bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bosh maqsadi va asosiy vazifalari quyidagilar:

"Markaziy banning bosh maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Asosiy vazifalari:

- Monetar siyosatni hamda valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish;
- O'zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil etish va ta'minlash;
- Banklar, kredit uyushmalari va garovxonalar faoliyatini litsenziyalash hamda tartibga solish,banklar, krediuyushmalari, garovxonalarni nazorat qilish, qimmatbaho qog'ozlar blankalari ishlab chiqarishni litsenziyalash;
- O'zbekiston Respublikasining rasmiy oltin valyuta rezervlarini, shu jumladan kelishuv bo'yicha hukumat rezervlarini saqlash va tasarruf etish.

Davlat byudjeti kassa ijrosini Moliya vazirligi bilan birgalikda tashkil etishdan iboratdir".

Tijorat banklari Markaziy bankda o'z qisqa muddatli va o'rta muddatli majburiyatlaridan muayyan foiz hajmida eng kam zaxira deb yuritiladigan foizsiz omonatlarni saqlashga majbur.

Markaziy bank banklar faoliyatini nazorat qilishda o'zining mintaqaviy bo'linmalari orqali kredit muasasalaridan majburiy ravishda axborot, oylik hisobot va yillik yakuniy balans ma'lumotlarini taqdim etish asosida qatnashadi.

Kredit muassasalarining bo'ysinishiga qarab bank qonunchiligi hamda kredit tizimining pastdan yuqoriga tomon tarkibiy tuzilishiga muvofiq tarzda bank tizimini ikki asosiy: bir bosqichli va ikki bosqichli turga ajratish mumkin.

Bir bosqichli bank tizimi doirasida barcha kredit muassasalari, jumladan, Markaziy bank ham, yagona bosqichda turadi hamda mijozlarga kredit - hisob xizmati ko'rsatishda bir xil vazifalarni bajaradi.

Ikki bosqichli tizimda banklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bo'yiga (vertikal) va eniga (gorizontal) yo'nalishlarida tuzilishiga asoslanadi. Vertikal – rahbarlik qiluvchi, boshqaruvchi markaz hisoblangan Markaziy bank bilan quyi bo'g'inlar – tijorat va ixtisoslashgan banklar o'rtasidagi bo'ysunish munosabatlari, gorizontal-turli quyi bo'g'inlar o'rtasidagi teng huquqli sheriklik munosabatlari tushuniladi.

O'zbekiston banklari milliy iqtisodiyotga ta'sir etuvchi qudratli tuzilmaga aylanish uchun rivojlanishning uzoq evolyutsion, ya'ni tadrijiy yo'lini bosib o'tishiga, anchagina mashaqqatlarni bartaraf etishiga to'g'ri keldi[4].

1991 yilda qator banklar shakllana boshladi. Ular O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining o'zgaruvchan sharoitlarida faoliyat yuritib, zamonaviy ish uslublarini o'zlashtirgan holda tobora yangi qirralarga ega bo'la bordi. 1991-1992 yillar banklar faoliyatiga doir qarashlarda chinakam burilish yillari bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi ikki darajali bank tizimining tarkib topishi va mamlakat Markaziy banki zimmasiga yangi vazifalar yuklanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. Uning oldiga pul muomalasini tartibga solish, tijorat banklari tizimi hamda to'lov tizimini shakllantirish vazifalari qo'yildi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarini moliyalashtirish endi tashkil etiladigan, zamonaviy tamoyil va talablar asosida faoliyat yurituvchi ixtisoslashgan tijorat banklari tomonidan amalga oshirilishi lozim edi.

1993–1994 yillarda bank tizimidagi islohotlar davom etdi. 1994 yilning 1 iyulidan e'tiboran milliy valyuta — so'mning muomalaga kiritilgani mustaqil bank tizimining, umuman, O'zbekiston iqtisodiyotining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu Markaziy bank o'z faoliyatida to'liq mustaqil bo'lganini, kelgusida bozor instrumentlari orqali milliy pul tizimini tartibga solish samarali tashkil eti-

[4] O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari www.cbu.uz

lishiga yordam berishi mumkin ekanini anglatar edi. Aynan shu vaqtdan boshlab Markaziy bankning pul-kredit siyosatini yuritish, valyutaga oid ishlarni tartibga solish, bank faoliyatini boshqarish va keyinchalik samarali to'lov tizimini yaratish bo'yicha faoliyati to'laqonli ravishda milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashga qaratildi.

1995 yil bank qonunchiligini takomillashtirish davri bo'lgani bilan ajralib turadi. Tarixiy muhim hujjat — "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonun nafaqat bank tizimining huquqiy asosini boyitdi, balki O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yangi, alohida maqomi va vakolatlarini, asosiy maqsad-vazifalarini aniq-ravshan belgilab berdi. Shu bilan bir qatorda mazkur yilda aholiga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, shuningdek, kredit va depozit bozorlarida raqobat muhitini shakllantirish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Banklarning kapital hajmiga jalb etiladigan aholi jamg'armalari miqdorini cheklovchi qoida bekor qilingach, bank muassasalarining imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi va raqobat kuchaydi. Buning samarasi darhol namoyon bo'ldi. Agar 1994 yil boshida aholi jamg'armalarining 98,5 foizi Jamg'arma banki (hozirgi Xalq banki), 1,5 foizi esa boshqa banklar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, o'sha yil oxirida boshqa tijorat banklarining hissasi ham ko'payib, bu boradagi ko'rsatkich 12,8 foizga etdi. Bugungi kunga kelib, bu boradagi ko'rsatkich 83,2 foizni tashkil etmoqda.

1996 yil. Ushbu yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni ikkinchi darajali bank tizimi — tijorat banklari faoliyatining huquqiy asosini konkretlashtirdi.

Bank tizimiga taalluqli ikki asosiy hujjat — "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi hamda "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlarining ishlab chiqilishida rivojlangan moliya tizimiga ega mamlakatlar tajribasi inobatga olinganini alohida ta'kidlash joiz. Mazkur qonunlar, shuningdek, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun nodavlat banklarning xususiy va aksiyadorlik-tijorat shaklida tashkil etilishiga qulay huquqiy sharoit yaratdi. Bu davrda bank tizimi rivojiga alohida ta'sir etgan ikki omilni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchisi, olib borilgan islohotlar natijasida 1996 yilda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki monetar boshqaruv va bank nazoratining to'la huquqli organi bo'ldi. Ikkinchisi, O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni ikkinchi darajali bank tizimi – tijorat banklari faoliyatining huquqiy asosini aniq-puxta belgilab berdi. Unda bank aktivlarini diversifikatsiyalash va xorijiy kapital jalb qilish asosida universal tijorat banklarini shakllantirish tamoyillari mustahkamlangan.

Bu davrda iqtisodiyotning alohida tarmoqlariga xizmat ko'rsatuvchi kredit-moliya tashkilotlari tashkil etildi. Bunday ixtisoslashuv qishloq xo'jaligi, avtomobil sanoati, aviasozlik kabi xalq xo'jaligining muayyan soha va tarmoqlarini moliyalashtirish zarurati bilan bog'liq edi. Kelgusida ixtisoslashgan banklar o'z operatsiyalari va mijozlari doirasini mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining yangi darajasi va biznes-muhit talablariga ko'ra kengaytira boradi.

Mazkur davrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank sektorini boshqaruvchi va nazorat qiluvchi organ sifatida shakllanish jarayonlari davom etdi. Bank tizimiga taalluqli qonunchilik bazasi sifat jihatidan yangilanib, xalqaro bank amaliyoti bilan muvofiqlashtirildi.

1997 yil. Ushbu yilda islohotlarning strategik yo'nalishlaridan biri bank sektorida xususiy kapital oqimini rag'batlantirishdan iborat bo'ldi.

Mazkur jarayon 1997 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy tijorat banklarini tashkil qilishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilinganidan so'ng jadallashdi. Unda jismoniy shaxslarning 50 foizdan kam bo'lmagan ulushi bilan banklar ochish uchun imtiyozlar taqdim etish ko'zda tutilgan edi. 1997 yil bank tizimining rivojlanish tarixida bank faoliyatida axborot tizimlarini joriy etish boshlangani bilan ahamiyatlidir. Ma'lumki, o'sha vaqtgacha respublika hududida amaldagi barcha hisob-kitoblar kun bo'yi olib borilar edi. 1997 yilning mart oyidan yangi dasturiy ta'minot joriy etilib, barcha hisob-kitoblar avtomatik rejimda amalga oshirila boshlandi. Bu esa to'lovlarni respublika tashqarisida 15 daqiqa mobaynida, Toshkentdan chekka joylarda atigi 3 daqiqada amalga oshirish imkonini berdi.

Aynan o'sha vaqtda hisob-kitoblar mexanizmi ishlab chiqildi va banklararo elektron to'lovlarning zamonaviy tizimi joriy etildi. Banklarga o'sha vaqtdagi noyob imkoniyat — kompyuter va telekommunikatsiya uskunalarini xarid qilish va departamentlarni ular bilan jihozlash imkoniyati berildi. Ular mablag'larni o'z faoliyati uchun zarur uskuna-anjomlarni modernizatsiya qilishga yo'naltirishi hisobga olinib, qator soliq to'lovlaridan ozod qilindi.

Shu tariqa, moliyaviy va iqtisodiy axborotning sifat jihatidan yangi iste'molchilari – mahalliy va xorijiy investorlar paydo bo'ldi.

1998 yil. Ushbu yilda respublika banklari Bazel tavsiyalariga muvofiq holda faoliyat ko'rsatish uchun zarur tadbirlar amalga oshirildi.

Bank nazorati va xalqaro amaliyoti bo'yicha Bazel qo'mitasining tavsiyalaridan kelib chiqib, tijorat banklari faoliyatini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari doirasida tartibga soluvchi kompleks me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Bunda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida ular balansida mavjud muammolarni oldindan aniqlash hamda bank likvidligi

pasayishi va kapital tugashi yuzaga kelishidan oldin ogohlantiruv choralarini ko'rish tamoyillaridan foydalanildi.

1999–2000 yillar. Ushbu yillarda valyuta siyosati yanada liberallashtirilgan holda, birjadan tashqari valyuta bozorida xorijiy valyutalar savdosi mexanizmi amalga kiritildi.

Mazkur mexanizm vakolatli banklarning xorijiy valyutada talab va taklifdan kelib chiqib, o'z mijozlaridan shartnoma asosida erkin kurs bo'yicha valyutalarni sotib olishini ko'zda tutadi.

2000-2010 yillar. Mazkur davr O'zbekiston bank tizimini mustahkamlashda salmoqli yutuqlarga erishilgani bilan ahamiyatlidir. Aynan shu yillarda zamonaviy infratuzilmaga ega samarali bank tizimini tashkil etish bilan bog'liq ishlar amalga oshirildi.

Bank tizimi oldiga uning rivojlanish istiqbollarini belgilab beruvchi strategik vazifalar qo'yildi. Vazifalarning birinchisi banklar moliyaviy barqarorligini oshirish va ichki bozorda moliyaviy xizmatlar doirasini kengaytirishdan iborat bo'lsa, ikkinchisi — O'zbekiston banklarining xalqaro kapital bozorida faolligini ta'minlashdir.

Mazkur davrda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov mamlakatimiz moliya-bank tizimini rivojlantirish, uning faoliyatini mustahkamlash va sifat jihatidan yaxshilash masalalariga yanada ko'proq e'tibor qaratdi. Shu munosabat bilan qator etakchi banklar ("O'zsanoatqurilishbank", "Asaka" banki va boshqalar)ning kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha muhim qarorlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mikrokreditbank" ustav fondini ko'paytirish to'g'risida"gi Farmoni mazkur bankni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish bo'yicha asosiy kredit markazlaridan biriga aylantirgan holda uning faoliyatini sifat jihatidan yanada yaxshiladi.

Ushbu davrdagi har bir yil mamlakat bank-moliya tizimining izchil rivojlanishida yangi bosqich sifatida qayd etiladi.

2001 yil. Ushbu yilning 1 iyulidan e'tiboran kichik biznes korxonalari o'zlari ishlab chiqargan eksport tovarlar (ish va xizmatlar)ni bank muassasalari kassalari orqali belgilangan tartibda valyuta ulushini o'z hisobiga o'tkazish yo'li bilan naqd xorijiy valyutada amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Respublikamiz hukumati kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirishni hamda uning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish borasida muhim qadam qo'ydi. Aynan shu yili erkin ayirboshlovchi valyutadagi Birlashgan barqarorlashgan jamg'arma tashkil etildi. Bu o'z navbatida, O'zbekistonda birjadan tashqari valyuta bozorini yanada rivojlantirishning muhim vositasi bo'lib xizmat qildi.

Bu vaqtda bank tizimi bilan xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik sezilarli darajada rivojlandi. Mazkur hamkorlik rivojiga turtki bergan muhim omillar sifatida banklar tomonidan xizmat ko'rsatish sifatining tobora yaxshilanishi, banklarda raqobatchilik muhitining yuzaga kelishi, mamlakatimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq jarayonlarni ko'rsatish mumkin. Aynan shu davrda banklar kreditlash siyosati kuchayganini, mijozlar so'rovlarini sinchkovlik bilan o'rgana boshlaganini va bank xodimlarida mijozlarning talab-ehtiyojlariga javoban tez harakat qilish qobiliyati shakllanganini yaqqol kuzatish mumkin.

2002 yil aholining banklardagi omonatlarini himoyalashning ishonchli va samarali mexanizmi yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi qonuni doirasida Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi tashkil etildi. Davlat-tijorat Xalq bankidan tashqari, respublikamiz hududida o'z faoliyatini olib boruvchi barcha banklar unga a'zo bo'ldi. Ishonchlilik, xizmat ko'rsatishning yuqori sifati, barcha mijozlar bilan o'zaro sheriklik munosabatlari O'zbekiston banklari faoliyatida asosiy tamoyillarga aylana bordi.

Bank tizimi faoliyatining institutsional asoslari takomillashtirildi. Bank sektorini liberallashtirish va isloh qilishni ko'zda tutib qabul qilingan dasturiy hujjatlar uning samaradorligini oshirishni oldindan belgilab berdi. Mazkur hujjatlar zamirida bank faoliyatini liberallashtirish jarayonining tizimli va bosqichma-bosqichlik tamoyillari yotadi. Ushbu tamoyillarga amal qilish aholining mamlakat banklariga nisbatan ishonchini yanada mustahkamlash imkonini berdi. Bunday yondashuv, shubhasiz, barqaror va ishonchli bank tizimini tashkil qilish jarayonida ulkan yutuqdir.

2003–2004 yillar. Mamlakatimizda liberallashtirish va islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonida bank tizimini rivojlantirish davri.

Bu davrda aholining bank tizimiga ishonchini mustahkamlash, banklarni respublikamizdagi yangilanishlarning moliyaviy tayanchiga aylantirish maqsadi qo'yildi. Uning muvaffaqiyati banklarning kelgusi rivojida dolzarb ahamiyat kasb etishi lozim edi. Korxonalarni aksiyadorlashtirish va ularning mulkchilik shaklini o'zgartirish jarayonlari jadallashdi. Banklar mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichi talablaridan kelib chiqib, o'z rivojlanish konsepsiyasiga rioya etgan holda strategiyasini takomillashtirib bordi. Ularning resurs bazasini kengaytirish va kapitallashuv darajasini oshirish o'z faoliyatini diversifikatsiyalash, yangi aksiyadorlarning mablag'larini jalb etish, IT-texnologiyalar asosida yangi bank mahsulotlari va instrumentlarini ishlab chiqish hisobiga amalga oshirildi.

Valyuta bozorini liberallashtirishni davom ettirish va joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha so'm konvertatsiyasini ta'minlash uchun zarur shart-sharoit yaratish bilan bog'liq bo'lgan omillar ham banklar faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Chunonchi, 2003 yilning 15 oktyabridan O'zbekiston Respublikasi Xalqaro Valyuta jamg'armasi Bitimining VIII moddasidagi majburiyatni qabul qildi. Natijada korxonalar joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyani amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu masala yuzasidan O'zbekistonning tashqi mablag'larni jalb etmay, amalda o'z resurslariga tayanib maqsadga erishgani yuksak e'tirofga sazovor. Mazkur choralar milliy valyuta konvertatsiyasidan foydalangan mahalliy tadbirkorlar faoliyatini kengaytirishga yaqindan yordam berdi.

Bu haqiqatan ham boy va sermahsul faoliyatning qiziqarli davri edi. Markaziy bankning valyuta siyosati inflyatsiya darajasini ushlab turish va milliy valyuta kursi keskin tebranishining oldini olish barobarida eksportni rag'batlantirish hamda valyuta resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan edi. O'zbekistonning asosiy eksport tovarlariga nisbatan dunyo bozorlarida qulay narx kon'yunkturasi, shuningdek, eksportga yo'naltirilgan valyuta siyosatining olib borilishi eksport va oltin-valyuta zaxiralari hajmining oshishiga imkon berdi.

Bank tizimini isloh qilishga qaratilgan ishlar davom ettirildi. Uning asosiy yo'nalishlari sifatida banklar boshqaruvida aksiyadorlarning rolini oshirish orqali korporativ boshqaruv tizimini mustahkamlash, banklar moliyaviy barqarorligini ularning aktivlari, jumladan, valyuta aktivlari sifatini yaxshilash evaziga ku-chaytirish, bank ishini yanada takomillashtirish va banklar tomonidan ko'rsatiladigan xizmat turlarini tobora kengaytirish, tijorat banklarining investitsion jarayonlardagi rolini oshirish va mulkchilikning barcha shaklidagi tadbirkorlik tuzilmalarining kredit resurslaridan (jumladan, xalqaro moliyaviy tashkilotlarning liniyalari bo'yicha ham) foydalanish mexanizmi takomillashtirilganini qayd etish joiz.

2005–2006 yillar. Mamlakatimiz banklari kapitallashuv darajasining oshishi va ularning investitsiya jarayonlarida hamda iqtisodiy-tuzilmaviy o'zgarishlarda ishtiroki yanada faollashgan davri. O'sha kezlarda mamlakat hukumati banklarning foyda (daromad) solig'idan ozod qilinishiga banklar faolligi oshuvining yana bir zaxirasi sifatida qaradi. Boz ustiga, tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq, ti-jorat banklarining mini-banklar tashkil etish bilan bog'liq xarajatlari ham soliq undirish bazasidan chiqarildi.

Shu tariqa, asosiy e'tibor pul muomalasini mustahkamlash va milliy valyuta, uning ayirboshlash kursi barqarorligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratildi. Bu esa fuqarolarda katta rag'bat uyg'otib, ularning

banklarga nisbatan ishonchini yanada orttirdi. Aholining banklarda depozit hisobraqamlar ochishga kirishishi bilan bog'liq ijobiy holatlar ko'paydi. Banklarning depozit bazasi hajmi oshdi, bank xizmatlari bozori shakllana boshladi. E'tiborlisi, bank mahsulotlari qatoridan yangi xizmat turlari, masalan, lizing xizmatlari joy ola boshladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatimizda chakana xizmatlar rivoji xalqaro bank va moliya kapitalini keng jalb qilgan holda qo'shma banklarning tashkil etilishiga ta'sir ko'rsatdi. Respublikamiz bank bozori 100 foizli xususiy kapital asosidagi yangi banklarning vujudga kelishi natijasida tubdan o'zgardi. Xususiy banklarning xizmatlar bozoridagi raqobatni kuchaytirib yuborgani mamlakat bank tizimi rivojida eng muhim bosqichlardan biri bo'ldi. Mamlakatimiz hukumati va Markaziy banki soliq imtiyozlari va kadrlarni tayyorlash jarayonida texnikaviy ko'mak taqdim etgan holda ularning rivojlanishini muntazam rag'batlantirib bormoqda. Ayni paytda xususiy banklar soni tijorat banklari umumiy sonining qariyb yarmini tashkil etadi.

Respublikamizda xususiy banklar rivojlanishini izchil rag'batlantirish raqobatni kuchaytirishga, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yaxshilashga va moliyaviy resurslarning samarali taqsimotiga turtki berdi. Bu esa, o'z navbatida, xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish va rivojlantirish jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

2006–2007 yillar. Ipotekaviy kreditlashning rivojlanish davri. Bank xizmatlarining mazkur yangi shakli mahalliy aholi tomonidan darhol ijobiy baholandi. Aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa, yoshlarni ijtimoiy himoyalashni ko'zda tutuvchi ushbu manba O'zbekiston Respublikasi "Iste'mol krediti to'g'risida"gi va "Ipoteka to'g'risida"gi Qonunlari orqali mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasining"Iste'mol krediti to'g'risida"gi Qonuni iste'molchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Mazkur qonun turar-joy va maishiy sharoitlarni yaxshilash borasida aholining imkoniyatlarini yanada kengaytirishga, binobarin, banklarda iste'mol kreditlash hajmining sezilarli darajada oshishiga xizmat qiladi.

2006 yilning oktyabr oyida esa O'zbekiston Respublikasi "Ipoteka to'g'risida"gi qonuni kuchga kirdi. Ko'chmas mulkni xarid qilish uchun kreditlar ajratishning huquqiy mexanizmini o'zida mustahkamlagan ushbu qonun hujjati bank ipotekaviy kreditlash rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Undan ko'zlangan asosiy maqsad ko'chmas mulkka garov qo'yishda yuzaga keluvchi munosabatlarni tartibga solishdan iborat edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 16 fevraldagi "Uy-joy qurilishi va uy-joy bozorini yanada rivojlantirish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi qarori doirasida uy-joylar qurilishini uzoq muddatli ipotekaviy kreditlash tizimida bir qator mexanizmlar joriy etildi.

Bu davrda, shuningdek, banklarning strategiyalari naqd pul muomalasini mustahkamlashga, har bir filialda naqd pul zaxiralarini shakllantirishga va o'z faoliyatida samaradorlikni oshirishga qaratildi.

"2005–2007 yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish va rivojlantirish dasturi"da belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi banklar kapitallashuv darajasi va ko'rsatkichlarining barqaror o'sishini ta'minlagan holda, bank tizimini yanada isloh qilish va liberallashtirishda muhim omil bo'ldi. Bu borada pul muomalasini mustahkamlash va milliy valyuta, uning ayirboshlash kursi barqarorligini oshirish, banklarda aholi omonatlarini ko'paytirishni rag'batlantirishga ustuvor yo'nalishlar sifatida e'tibor qaratildi. Rivojlanish sari doimiy ravishda intilayotgan tijorat banklariga mamlakatimiz hukumati tomonidan o'z vaqtida taqdim etilgan imtiyozlar kredit muassasalari o'z yangi instrumentlarini ishlab chiqadigan va taklif qiladigan bank-moliya bozorining shakllanishini oldindan belgilab berdi.

2008–2009 yillar. Ushbu yillarda aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun bank chakana mahsulotlarini rivojlantirish bank faoliyatining muhim yo'nalishiga aylandi.

Mazkur yo'nalishda banklar o'z faoliyatini dunyoviy amaliyotning "oltin" tamoyilidan kelib chiqqan holda olib bordilar. Ya'ni, aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarning jozibadorligi tadbirkorlarning kreditlardan foydalanish keng imkoniyati bilan mutanosib holda rivojlantirildi. Davom ettirilgan islohotlar bank faoliyatini aholining turmush darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi, ilgari qabul qilingan "Iste'mol krediti to'g'risida"gi va "Ipoteka to'g'risida"gi qonunlar doirasidagi faolligini yanada kuchaytirdi.

O'zbekiston tijorat banklari respublikamizdagi va jahon bank hamjamiyatidagi yangi voqelikka javoban o'zlari taklif etayotgan xizmatlari to'plamini kengaytirdi, bozorga yangi bank mahsulotlarini chiqardi va ayni paytda moliya institutlari faoliyatining xalqaro standartlarini faol joriy etishga kirishdi.

2010 yil. O'zbekiston tijorat banklari, avvalo, ixtisoslashgan kredit institutlari sifatida ko'zga ko'rina boshladi. Bu, bir tomondan xo'jaliklarning vaqtincha bo'sh mablag'larini jalb etishi, boshqa tomondan esa jalb etilgan mablag'lar hisobidan korxonalar, xususiy tadbirkorlar va aholining moliyaviy ehtiyojlarini qondirishi bilan dolzarb ahamiyat kasb etdi.

2015 yilning 1 yanvar holatiga O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari soni 26 tani tashkil etib, ularning 3 tasi davlat tijorat banki, 10 tasi aksiyadorlik tijorat banki, 8 tasi xususiy bank va 5 tasi chet el kapitali ishtirokidagi

banklar hisoblanadi. O'zbekistonda xorijiy banklarning 6 ta vakolatxonasi o'z faoliyatini yuritmoqda, ular bilan respublika tijorat banklari tomonidan keng qamrovli va o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalari o'rnatilgan.

Respublikaning barcha hududlarida tijorat banklarining tarmoqlari yanada kengayib, 2015 yilning 1 yanvar holatiga banklarning filiallari soni 846 taga etdi.

Bank muassasalarini aholi va ishlab chiqarish korxonalari hududlariga yanada yaqinlashtirish, bank xizmatlaridan foydalanish sharoitlarini yanada qulaylashtirish, shu jumladan, mijozlarga kommunal va boshqa to'lovlarni to'lashlari uchun yanada qulayliklar yaratish maqsadida tashkil etilgan mini-bank va maxsus kassalar soni 4244 taga etdi, shundan 2198 tasi qishloq joylarda joylashgan.

Xorijiy va mahalliy ekspertlarning qayd etishicha, so'nggi yillar davomida respublikada asosiy tamoyil — ixtisoslashuvdan uzoqlashish va bank faoliyatida universallashtirishni chuqurlashtirish kuzatilmoqda. Bu esa bank operatsiyalari mazmuni va kredit munosabatlari mohiyatini oldindan belgilab beradi.

Nazorat savollari

1. Pul taklifi asosida nimalar yotadi?
2. Bank multiplikatori qanday aniqlanadi?
3. Pul bazasining mohiyatini tushuntirib bering.
4. Pul taklifining umumiy modeli mohiyatini tushuntirib bering.
5. Deponentlash koeffitsenting pasayishi pul multiplikatori va pul taklifiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
6. Pul bozoridagi muvozanat nuqtasi nimani bildiradi?
7. Pul bozorida muvozanat qay yo'sinda ta'minlanadi?
8. Pulga talab deganda nimani tushunasiz?

X BOB. BYUDJET TAQCHILLIGI VA DAVLAT QARZI

10.1. Davlat byudjetining mohiyati, funksiyalari va ahamiyati

Hozirgi sharoitda davlat byudjeti ijtimoiy (ishlab chiqarish) munosabatlarining bir qismini ifoda etib, davlatning ixtiyoriga mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot (milliy daromad)ning nisbatan kattagina qismini to'plash va uni jamiyat taraqqiyotining turli sohalarini (iqtisodiyot, maorif, sog'liqni saqlash, fan, madaniyat, ijtimoiy ta'minot, boshqaruv, mudofaa va boshqalar) rivojlanishiga yo'naltirish imkonini beradigan muhim taqsimlash vositasidir.

Mohiyatiga ko'ra davlat byudjeti mamlakat moliya tizimining tarkibiy qismi bo'lib, shunga mos ravishda moliya tizimiga doir barcha xususiyatlarga ega va unga tegishli bo'lgan barcha funksiyalarni bajaradi. Bir vaqtning o'zida, davlat byudjeti faqat o'ziga xos bo'lgan xarakterli xususiyatlarga ham egadirki, ular o'z navbatida, davlat byudjetini moliya tizimining boshqa bo'linmalaridan ajratib turadi va unda markaziy o'rinni egallashga imkon beradi. Uning ana shunday xususiyatlaridan biri bevosita davlatga tegishli ekanligidir. Haqiqatdan ham har bir mamlakatda davlat barcha moliyaviy munosabatlarning tashkilotchisi bo'lsa-da, uning bu xislati, ya'ni mamlakatning moddiy va moliyaviy resurslari asosiy taqsimlovchi sifatidagi roli faqat byudjetda katta kuch bilan namoyon bo'ladi. Yagonalik va yuqori darajada markazlashuv davlat byudjetining muhim xususiyatlaridandir. Davlat byudjetiga xos xususiyatlar mablag'lar bilan byudjet siyosatini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Davlat byudjeti deyilganda, eng avvalo, ikki tushunchaning qo'shilishini tushunmoq kerak:

1) davlat miqyosida yalpi ichki mahsulotni taqsimlash natijasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar;

2) davlatning asosiy moliyaviy rejasi.

Yalpi ichki mahsulotni taqsimlashning moliyaviy vositasi sifatida davlat byudjeti boshqa xususiyatlarga ham ega.

Yalpi ichki mahsulotning davlat byudjeti orqali taqsimlanishi ma'lum darajada, almashuvdan ajralgan holda sodir bo'ladi. Qiymatning davlat byudjeti orqali harakatlanishi moddiy mahsulotning harakatidan to'liq uziladi va sof qiymat

xarakterini kasb etadi. Faqat davlat byudjetidan tashqarida, byudjet resurslari sarflanayotganda taqsimlash va almashuv operatsiyalarining qayta qo'shilib ketishi sodir bo'ladi. Davlat byudjetining mohiyatini ochib berishda u orqali amalga oshiriladigan taqsimlash jarayonlarining mazmunini ko'rib chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

Yalpi ichki mahsulotni davlat byudjeti orqali taqsimlash bir vaqtning o'zida, o'zaro bog'langan va ma'lum darajada mustaqil bo'lgan uch bosqichga egadir:

1) umumdavlat pul fondini shakllantirish (byudjet daromadlari);

2) hududiy va ma'lum maqsadlarga mo'ljallangan ko'p sonli byudjet fondlarini yaratish;

3) byudjet fondidan foydalanish (byudjet xarajatlari).

Davlat byudjeti orqali yalpi ichki mahsulotni taqsimlashning bu bosqichlari bir vaqtning o'zida va uzluksiz sodir bo'lsada, bu ularning nisbatan alohidaligini ham inkor etmaydi. Bu bosqichlarni bo'lish va ularni alohida-alohida ko'rib chiqish orqali byudjetli taqsimlashning xarakteri, shakli va metodlari to'g'risida osonroq va aniqroq tasavvur hosil qilish mumkin. Birinchi bosqichda yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli pul mablag'larining bir qismi davlatning qo'lida to'planishi sodir bo'ladi. Ana shu asosda mablag'larni oluvchi sifatida davlat bilan mablag'larni to'lovchilar o'rtasida byudjet munosabatlari vujudga keladi. Bu munosabatlar, asosan, majburiylik (imperativlik) xarakterga egadir. Bu bosqichdagi taqsimlash jarayonlarining xarakterli xususiyati shundaki, byudjetga tushuvchi mablag'lar ajratib olingan bo'lib, ular qat'iy chegaralanmagan. Ularning barchasi hozircha yagona maqsadga — umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan. Davlat pul fondining alohidaligiga aniq maqsadlarga mo'ljallangan fondlarni kristallizatsiya qilish boshlanganda barham beriladi.

Byudjet fondini shakllantirishda ikki xil tushunchadan foydalaniladi:

byudjetga to'lovlar (soliqlar, ajratmalar, bojlar va boshqalar);	**davlat byudjetining daromadlari.**

Davlat byudjetiga to'lovlar (soliqlar, ajratmalar, bojlar va boshqalar), eng avvalo, to'lovchilarning xarajatlaridan iborat bo'lib, ularning daromadlaridan chegirilsada, bir vaqtning o'zida ular davlat byudjetida davlatning daromadlari sifatida gavdalanadi. Ana shundan taqsimlash munosabatlariga kirishgan

ishtirokchilar (tomonlar) o'rtasidagi manfaatlarda ba'zi bir farqli jihatlar vujudga keladi. Davlat byudjetning daromadlarini oshirishdan manfaatdor bo'lsa, bu narsa u yoki bu darajada to'lovchilarning (yuridik va jismoniy shaxslarning) manfaatdorligini pasaytiradi. Davlat byudjetining daromadlari o'zining yaxlitligi bilan farqlanadi va ular yagona maqsadga – ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi.

Byudjet daromadlari davlatning subyektlar (xo'jaliklar va aholi) bilan o'zaro munosabatlarining aniq chegaralangan, aniqlangan qismini ifoda etadi. Bu munosabatlar xilma-xil bo'lishiga qaramasdan, ular umumiy belgilarga ega va umumlashtirilgan, abstrakt holda ishlab chiqarish (byudjet) munosabatlarining alohida elementi sifatida maydonga chiqadi. Byudjet daromadlari o'zlarining iqtisodiy tabiatiga ko'ra obyektiv bo'lib, ular davlatning subyektlar (xo'jaliklar va aholi) bilan barqaror aloqalarini ifodalaydi. Ularning obyektiv zarurligi davlatning o'ziga xos funksiyalarga ega bo'lgan mavjudligi bilan belgilanadi.

Davlat byudjeti daromadlarining farqlanuvchi belgisi shundan iboratki, ular taqsimlash natijasi (byudjetga to'lovlar) va yanada taqsimlash obyekti (byudjet ichidagi fondlarni shakllantirish va moliyalashtirish) sifatida maydonga chiqadi. Demak, davlat byudjetining daromadlari aniq ifodalangan byudjet kategoriyasi bo'lib, ularni shakllantirish va ulardan foydalanish taqsimlashning byudjet mexanizmi orqali amalga oshiriladi.

Davlat byudjetining xarajatlari xuddi uning daromadlari singari, ikkiyoqlama xarakterga ega. Bir tomondan, bu davlatning xarajatlari, boshqa tomondan esa — subyektlarning ixtiyoriga tushadigan qaytarilmaydigan mablag'lar bo'lib, ularning daromadlariga aylanadi va ular tomonidan turli maqsadlarga mo'ljallangan tegishli fondlarni shakllantirishda foydalaniladi. Ana shu ikkiyoqlama xarakter davlat byudjeti xarajatlarining yakuniy emas, balki taqsimlash jarayonlarining oraliq bosqichi ekanligidan dalolat beradi. Bu yerda byudjet fondlarining egasi — davlat va pul mablag'larini oluvchilar — subyektlar o'rtasida yangi taqsimlash munosabatlari paydo bo'ladi. Daromadlar singari, davlat byudjetining xarajatlari

ham obyektiv iqtisodiy kategoriyadir. U kategoriya sifatida byudjetli taqsimlash munosabatlarining ma'lum bir yakuniy qismini abstrakt holda umumlashtiradi. Ularning moddiylashuvi byudjetdan subyektlarga pul mablag'larining teskari oqimi bilan xarakterlanadi.

Shunday qilib, davlat byudjetining iqtisodiy mazmuni deganda umumdavlat pul fondini shakllantirish, mablag'larni byudjetlar ichida taqsimlash va subyektlarni byudjetdan moliyalashtirish natijasida vujudga keladigan, o'zaro bog'langan taqsimlash munosabatlarining butun kompleksi tushuniladi. . Davlat byudjeti ko'p sonli va bo'lingan taqsimlash aktlarining majmui orqali yalpi ichki mahsulot harakatining asosiy yo'nalishlarida namoyon bo'ladi. Aynan byudjet iste'mol va jamg'arish fondlarining shakllanishida, iste'mol fondining qismlarga ajralishiga, sof daromadning davlat va subyektlar o'rtasida bo'linishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi ko'rinishida qonuniy rasmiylashtirilgan, davlat pul fondlarini yaratish va ulardan foydalanish borasidagi iqtisodiy munosabatlar majmuiga davlat byudjeti deyiladi.



Davlat byudjetining taqsimlash funksiyasi orqali uning mohiyati namoyon bo'ladi. Bu davlat byudjeti tomonidan amalga oshirilayotgan taqsimlash munosabatlarining mazmunida yaqqol ko'rinadi.

Davlat byudjeti orqali amalga oshiriladigan taqsimlash bu jarayonning ikkinchi (oraliq) bosqichidir. Shuning uchun ham davlat byudjetining taqsimlash funksiyasi o'ziga xos bo'lgan xususiyatga ega bo'lib, undan taqsimlangan yalpi ichki mahsulotni qayta taqsimlashda foydalaniladi. Agar taqsimlashning birinchi bosqichida byudjet mablag'lari milliy daromadda davlatning ulushi sifatida maydonga chiqsa, uning ikkinchi bosqichida esa ana shu ulush qismlarga bo'linadi

va ko'p sonli kanallar orqali turli tadbirlarni moliyalashtirishga va fondlarni shakllantirishga yo'naltiriladi. Davlat byudjeti bilan iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning barcha bo'linmalari bevosita yoki bilvosita bog'langandir.

Davlat byudjetining nazorat funksiyasi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Birinchi xususiyat umumiylik, universallik. Bu milliy iqtisodiyotni tezkor boshqarishda davlat byudjetining nazorat funksiyasidan keng foydalanish uchun sharoit yaratadi.

Davlat byudjetining nazorat funksiyasiga tegishli bo'lgan ikkinchi xarakterli xususiyat moliyaviy munosabatlarning alohida sohasi sifatida davlat byudjetining yuqori darajada markazlashtirilganligidan kelib chiqadi. Markazlashtirilganlik har doim yuqori organlar oldida quyi organlarning hisobot berib turishini, ma'lum ketma-ketlikda bo'ysunishning tizimliligini anglatadi. Bu esa, o'z navbatida, yuqoridan quyigacha davlat moliyaviy nazoratini tashkil etishga shart-sharoit yaratib beradi.

Kuchli majburiylik, imperativlik davlat byudjetining nazorat funksiyasiga tegishli bo'lgan uchinchi xususiyatdir. Byudjet davlatniki bo'lganligi uchun uning nazorat funksiyasi milliy iqtisodiyotni boshqarish vositalaridan biri hisoblanadi.

Davlat byudjetining nazorat funksiyasi:

1) davlat byudjetining daromadlarini oshirish uchun pul mablag'larini jalb qilish;

2) mablag'larni sarflashning qonuniyligini ta'minlash;

3) byudjet mexanizmi orqali ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi.

subyektlar faoliyatini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda davlat byudjetining tartibga soluvchi roli quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- moliyaviy resurslarga bo'lgan yangbi talabni kelgusi byudjet yilida byudjetning xarajatlari tarkibiga kiritish;

- moliyaviy resurslarga bo'lgan qo'shimcha ehtiyojni mavjud byudjet resurslarini manyovr qilish, ya'ni byudjet kreditlarini bir obyektdan ikkinchisiga

o'tkazish yo'li bilan qondirish. Bunday imkoniyatning mavjudligi amaliyotda ayrim subyektlarning o'zlariga taqdim etilgan moliyaviy resurslarni to'liq o'zlashtirishning uddasidan chiqa olmasligi bilan izohlanadi;

- qo'shimcha ehtiyojni hukumatning zaxira fondlari hisobidan qoplash va boshqalar.

10.2. Davlat byudjetining daromadlari

Davlat byudjetining daromadlari mamlakat yalpi ichki mahsulotini taqsimlash va qayta taqsimlash umumiy jarayonining elementlaridan biri bo'lib, ular oraliq (tranzit) xarakterga ega. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan daromadlar va jamg'armalarning bir qismini byudjetga o'tkazilishi natijasida vujudga keladi. Byudjet daromadlarining moddiy-buyumlashgan mazmunini davlatning ixtiyoriga borib tushgan pul mablag'lari tashkil etadi. Bu byudjet kategoriyasining namoyon bo'lish shakli byudjetga tushuvchi turli soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, bojlar va ajratmalardan iborat.

Miqdoriy jihatdan davlat byudjetining daromadlari yaratilgan yalpi ichki mahsulotda (milliy daromadda) davlatning ulushini ko'rsatadi. Ularning absolyut hajmi va salmog'i mamlakatning yalpi ichki mahsuloti (milliy daromadi)ning umumiy hajmi, u yoki bu davrda davlatning oldida turgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va boshqa vazifalar bilan belgilanadi. Ana shularga muvofiq davlat byudjetida mablag'larni yig'ish miqdori va ularni undirishning shakl va metodlari aniqlanadi.

Byudjet daromadlarini shakllantirish jarayoni quyidagi tamoyillarga asoslanishi maqsadga muvofiqdir:

- soliqlarning byudjetga olinishi mamlakat milliy boyligi manbalarining tugashiga olib kelmasligi kerak;

- soliqlar ularni to'lovchilar o'rtasida teng taqsimlanmog'i lozim;

- soliqlarni ishlab chiqaruvchilarning aylanma fondlari hajmiga ta'sir ko'rsatmasligi;

- soliqlarning sof daromadga nisbatan hisoblanishi;

- davlat uchun soliqlarning undirilishi iloji boricha arzonroq bo'lishi lozim;

- soliqlarning undirilish jarayoni xususiy sektorni siqib chiqarmasligi kerak;

- subyektlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishiga sharoit yaratish, ya'ni, subyektlarga tegishli bo'lgan mablag'larning bir qismini davlat byudjetiga olinishi ularning mustaqil rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak.

Chegaradan o'tib ketilganda subyektlarning mustaqilligini yo'qotishiga, kasodga uchrash hollarining vujudga kelishiga, ichki rezervlarni qidirib topishga va ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarini ta'minlashga intilish susayadi, xufyona iqtisodiyotning rivojlanishi boshlanadi;

- subyektlarning xatti-harakati va intilishiga bog'liq bo'lmagan holda vujudga kelgan daromadlarning to'liq yoki qisman byudjetga olinishi. Ma'lum bir xarajatlarni amalga oshirmasdan olingan barcha daromadlar davlatning ixtiyoriga o'tishi kerak. Bu tamoyilning ta'siri ostiga subyektlar ma'muriyati noto'g'ri, noqonuniy harakati (masalan, davlat standartlarini buzish va boshqalar) natijasida olingan daromadlar ham kiritilmog'i lozim;

- ishlab chiqarishni kengaytirish va boshqa maqsadlar uchun korxonaning rejalashtirilgan ehtiyojidan ortgan summalarni byudjetga olish. Bu tamoyil davlat byudjeti daromadlarini davlat korxonalarining mablag'lari hisobidan tashkil etishda qo'llanilishi mumkin. U davlat korxonalarining moliyaviy holatini tartibga soladi va bir vaqtning o'zida ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishda davlatning manfaatlarini ta'minlaydi;

- byudjet mexanizmining rag'batlantiruvchi ta'sirini ta'minlash. Mablag'larni subyektlar ixtiyorida byudjetga o'tkazilishi ularning samarali faoliyat ko'rsatishga rag'batlantirishi kerak.

- byudjet daromadlarini shakllantirishda ulushli ishtirok etish. Bu tamoyil byudjet daromadlarini aholi mablag'lari hisobidan shakllantirishda qo'llanilib, uning natijasida aholi daromadlari darajasiga bog'liq ravishda bir qismi byudjetga o'tkaziladi.

Davlat byudjetining daromadlari o'zlarining manbalari, ijtimoiy-iqtisodiy xarakteri, mulkchilik shakli, soliq va to'lovlarning turi, mablag'larning tushish shakli va ularni byudjetga undirish metodlariga muvofiq klassifikatsiya qilinishi mumkin.

Davlat byudjetining daromadlari o'z manbalariga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- soliqli daromadlar;
- soliqsiz daromadlar;
- tiklanmaydigan (qaytarilmaydigan) tarzda o'tkaziladigan pul mablag'lari.

Byudjetning soliqli daromadlari tarkibi mamlakat soliq qonunchiligiga muvofiq umumdavlat soliqlari va yig'imlari, mahalliy soliqlar va yig'imlar, bojxona bojlari, boj yig'imlari va boshqa boj to'lovlari, davlat boji, penya va jarimalardan iborat.

Soliqsiz daromadlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

-davlat mulkidan foydalanish tufayli olingan daromadlar (soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'langan soliq va yig'imlardan so'ng);

-byudjet tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan to'lovli xizmatlardan kelgan daromadlar (soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'langan soliq va yig'imlardan so'ng);

-fuqarolik-huquqiy, ma'muriy va jinoiy choralarni qo'llash natijasida olingan mablag'lar, jumladan, jarimalar, musodaralar, tovon to'lashlar va davlat subyektlariga etkazilgan zararlarni qoplash bo'yicha olingan mablag'lar hamda majburiy undirilgan boshqa mablag'lar;

- moliyaviy yordam ko'rinishidagi daromadlar (byudjet ssudalari va byudjet kreditlaridan tashqari);
- boshqa soliqsiz daromadlar.

Tushumlarning quyidagi ko'rinishlari ham byudjet daromadlari tarkibida hisobga olinishi mumkin:

- davlat mulkini vaqtinchalik foydalanishga berish natijasida ijara haqi yoki boshqa ko'rinishda olinadigan mablag'lar;

- kredit muassasalaridagi hisobvaraqlarda byudjet mablag'larining qoldig'i bo'yicha foizlar ko'rinishida olinadigan mablag'lar;

- davlat mulkiga tegishli bo'lgan mol-mulkni garovga yoki ishonchli boshqaruvga berishdan olinadigan mablag'lar;

-qaytarish va haq olish asosida boshqa byudjetlarga, xorijiy davlatlarga yoki boshqa yuridik shaxslarga berilgan byudjet mablag'laridan foydalanganlik uchun haq;

- davlatga qisman tegishli bo'lgan xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalining hissasiga yoki aksiyalar bo'yicha dividendlarga to'g'ri keladigan foyda ko'rinishidagi daromadlar;

- davlat unitar korxonalari foydasining bir qismi (soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'langan soliq va yig'imlardan so'ng);

- davlatga tegishli bo'lgan mol-mulkdan foydalanish natijasida olinadigan qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa daromadlar.

Byudjetning daromadlar qismini to'ldirishning manbalaridan biri byudjet tizimida boshqa darajada turgan dotatsiyalar, subventsiyalar va subsidiyalar yoki mablag'larni qaytarilmaslik va tiklamaslik shakllarida olinadigan moliyaviy yordamdir. Bunday moliyaviy yordamlar mablag'larni oluvchi byudjetning daromadlarida o'z ifodasini topishi kerak. Jismoniy va yuridik shaxslardan, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar hukumatlaridan qaytarilmaydigan yoki tiklanmaydigan shaklda o'tkazilayotgan mablag'lar ham byudjetning shunday daromadlari tarkibiga kiradi.

Hozirgi amaliyotda davlat byudjetining daromadlari quyidagi tartibda klassifikatsiyalanadi:

1. To'g'ri (bevosita) soliqlar. Ularning tarkibiga yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq; savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalar; yagona soliq to'lovidan

(mikrofirmalar va kichik korxonalar bilan biigalikda) davlat byudjetiga ajratmalar; jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqlar va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan qat'iy soliqlar kiradi.

2. Egri (bilvosita) soliqlar. Bu soliqlarning tarkibi qo'shilgan qiymat solig'i; aksizlar; bojxona bojlari; jismoniy shaxslardan olinadigan yagona boj to'lovi; transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga jismoniy shaxslardan olinadigan soliqdan iborat.

3. Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i. Bu guruhga kiruvchi soliqlar va to'lovlar mol-mulk solig'i; er solig'i; er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni o'z ichiga oladi.

4. Ustama foydadan olinadigan soliq.

5. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq.

6. Boshqa daromadlar.

O'zining ijtimoiy-iqtisodiy belgisiga ko'ra davlat byudjetining daromadlari ikki guruhga bo'linishi mumkin:

— xo'jalik yurituvchi subyektlardan olinadigan daromadlar;

— aholidan tushumlar.

Mulkchilik shakliga ko'ra davlat byudjetining daromadlari quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

— nodavlat sektordan olinadigan daromadlar;

— davlat xo'jaliklaridan olinadigan daromadlar;

— aholidan olinadigan mablag'lar.

Davlat byudjetining daromadlari majburiy yoki ixtiyoriy tarzda jalb qilinishi mumkin. Bunda daromadlarni majburiy shaklda jalb qilish hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ixtiyoriy shakldagi to'lovlarga davlat obligatsiyalarini va pul-buyum lotereyalarini realizatsiya qilishdan olingan tushumlar kiradi. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi majburiylik- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ma'lum bir mablag'lar belgilangan muddatlarda byudjetga o'tkazilishi

zarurligini anglatadi. U yoki bu to'lovni qonun tomonidan majburiy deb e'tirof etilishi to'lanmagan summalarning majburiy undirilishini ko'zda tutadi.

subyektlarning daromadlari davlat byudjeti ixtiyoriga ikki xil metodlarni qo'llab, olinishi mumkin:

1) soliqli metodlar;

2) nosoliqli metodlar.

Soliqli metodlar uchun mablag'larning davlat byudjeti foydasiga aniq belgilangan miqdorlarda va oldindan o'rnatilgan muddatlarda undirilishi xarakterlidir. Soliqlarning undirilishi mamlakat yalpi ichki mahsuloti va milliy daromadining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi bilan bog'liq. Ular yordamida xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholiga tegishli bo'lgan mablag'larning bir qismi davlat ixtiyoriga o'tkaziladi. Soliqlarning tarkibiga qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, daromad (foyda) solig'i, er solig'i, mol-mulk solig'i va boshqa soliqlar kiradi.

Nosoliqli daromadlar davlatga tegishli bo'lgan korxona va tashkilotlardan olinadigan to'lovlardir. Davlat mulkiga aylanadigan va qaytarishni talab etmaydigan mablag'lar ham davlat byudjetining daromadlari bo'lishi mumkin.

10.3. Davlat byudjetining xarajatlari

Davlat byudjetining xarajatlari umumiy moliyaviy kategoriya bo'lgan byudjetning ko'rinishlaridan biri bo'lib, unga tegishli bo'lgan umumiy xususiyatlarga egadir. Davlat byudjetining xarajatlari xarajatlarning konkret turlari orqali namoyon bo'ladi. Byudjet xarajatlari konkret turlarining xilma-xilligi esa, o'z navbatida, quyidagi omillarning mavjudligi bilan belgilanadi: davlatning iqtisodiy tabiati va funksiyalari; mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi; byudjetning milliy iqtisodiyot bilan bog'langanligi; iqtisodiy munosabatlarning rivojlanganlik darajasi; byudjet mablag'larining namoyon bo'lish shakllari va h.k.

Davlat byudjetining barcha xarajatlarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

— ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

— milliy iqtisodiyotga xarajatlar;

— mudofaa xarajatlari;

— boshqaruv xarajatlari.

Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari o'z tarkibiga maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy ta'minot, aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar baholaridagi farqlarni byudjetdan qoplash va oilalarga ijtimoiy nafaqalarni oladi. Davlatning ijtimoiy funksiyasini o'zida aks ettirib, bu guruhdagi byudjetning xarajatlari xalq ta'limi tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga, fan va madaniyatni moliyalashtirishga, aholining tibbiy xizmatga bo'lgan talabini qondirishga, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minotni amalga oshirishga keng yo'l ochib beradi.

Milliy iqtisodiyotga byudjetdan xarajat qilinishi davlatning xo'jalik yurituvchi asosiy subyektlardan biri ekanligidan darak beradi. Aynan bu xarajatlar keng miqyoslarda yangi sanoat korxonalarini qurish, zamonaviy industriya asosida qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni rivojlantirish, transport, aloqa va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini texnika vositalari bilan qayta ta'minlashga imkon yaratadi. Shuning uchun ham davlat byudjetining bu xarajatlari orasida iqtisodiyot va markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari alohida o'rin egallaydi. Davlat byudjetining mudofaa xarajatlari ham davlatning funksiyalaridan kelib chiqadi. Ular har bir davlatning o'z mudofaa qobiliyatini mustahkamlashi zarurligi bilan bog'liqdir. Qurolli kuchlarning barcha turlari byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Boshqaruv shaklidagi faoliyat turining davlat tomonidan amalga oshirilishi, uning xo'jalik-tashkilotchilik funksiyasi davlat byudjetidan boshqaruv xarajatlari deb nomlangan alohida xarajatlar ajratilishini taqozo etadi. Boshqaruv (davlat hokimiyati organlari, sud va prokuratura fuqarolarning o'zini-o'zi boshqaruv organlari) xarajatlari davlat organlari faoliyatining moliyaviy asosini tashkil etib, jamiyat hayotining barcha sohalariga rahbarlik qilishga imkon yaratadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida Davlat byudjetining xarajatlari uning daromadlari bilan uzviy bog'langandir. Bunday o'zaro bog'liqlik xarajatlarning miqdoriy jihatdan daromadlarga muvofiq kelishi va ularning bir-biriga o'zaro ta 'sir ko'rsatishi orqali ifodalanadi. Bir tomondan, aksariyat hollarda, byudjet xarajatlarining hajmi byudjet daromadlarining hajmi bilan cheklanadi. O'z navbatida, byudjet daromadlarining hajmi esa davlatning iqtisodiy imkoniyatlari bilan aniqlanadi. Shuning uchun ham bu yerda byudjet xarajatlarining shunday hajmini va milliy xo'jalikda pul fondlarini shakllantirishda byudjet mablag'laridan foydalanishning shunday muddatlarini o'rnatish kerakki, ular minimal xarajatlar qilib maksimal samaraga erishish orqali davlat oldidagi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlash, boshqa tomondan esa, ishlab chiqarishning o'sishiga ijobiy ta'sir qilish, ilmiy-texnika taraqqiyotini tezlashtirish va milliy xo'jalikdagi proportsiyalarni optimallashtirish orqali davlat byudjetining xarajatlari uning daromadlari darajasining ortishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Davlat byudjeti xarajatlari hajmining yildan-yilga ortib borishi ularni milliy xo'jalikning samaradorligi nuqtai nazaridan baholashni dolzarb muammoga aylantirib qo'yadi. Bunda milliy xo'jalikning yakuniy natijasini baholab, faqat unga tegishli bo'lgan daromadlarning qo'shimcha ravishda o'sganligiga e'tibor berish bilan cheklanish maqsadga muvofiq emas. Bunda, bir vaqtning o'zida, jamiyatning ijtimoiy taraqqiyot darajasi, ijtimoiy muammolarning qay darajada hal etilganligi ham nazardan chetda qolmasligi kerak.

Davlat byudjeti xarajatlarining tarkibi va uning tuzilmasi davlatning tabiatiga, u tomonidan bajarilayotgan funksiyalarga, milliy xo'jalikning ehtiyojlariga bog'liq hamda byudjet mexanizmi orqali ishlab chiqarish va iste'molning ba'zi bir omillariga davlatning ta'sirchanligini ta'minlash kabilar bilan belgilanadi. Davlat byudjetining xarajatlaridan foydalanish byudjetdan moliyalashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan, byudjetdan moliyalashtirish deyilganda rejada ko'zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun subyektlarga byudjetdan mablag'larni taqdim eish tizimi tushuniladi.

10.4. Davlat xarajatlari, soliq va balanslashgan byudjet multiplikatorlari

Qisqa muddatli davrda byudjet-soliq siyosati davlat xarajatlari, soliq va balanslashgan byudjet multiplikatorlari samarasi ta'siri ostida bo'ladi.

$$\Delta G \uparrow \rightarrow \Delta E \uparrow (\Delta Eq \Delta C) \rightarrow \uparrow \Delta Y (\Delta Y = \Delta C \times mg).$$

Davlat xarajatlarining **ΔG** miqdorga o'sishi rejalashtirgan xarajatlarining **ΔE** miqdorda o'sishiga va umumiy xarajatlarning egri chiziq bo'yicha yuqoriga surilishiga olib keladi. Bu vaziyatda yalpi ishlab chiqarish hajmi (ΔY) miqdorida o'sadi.

Xarajatlardagi ozroq o'zgarish daromadlardagi undan ancha katta bo'lgan, o'zgarishni keltirib chiqaradi va ΔY/ ΔE=1/(1-b) bo'ladi (10.1-chizma).



10.1-rasm. **Davlat xarajatlari o'zgarishining multiplikativ samarasi**

$$\Delta Y = \Delta E \times (1/(1-b)) = \Delta E \times m.$$

Soliqqa tortish hisobga olinmaganda yopiq iqtisodiyot uchun davlat xarajatlari multiplikatori va ishlab chiqarishning muvozanatli hajmini quyidagi tenglamalar sistemasini yechish orqali topish mumkin:

$$\begin{cases} Y=C+I+G \\ C=a+bY, \end{cases}$$

Bu yerda: Y=C+I+G – yopiq iqtisodiyot uchun asosiy makroiqtisodiy ayniyat.

Tenlamalar sistemasini Y uchun yechib quyidagi natijani olamiz:

$$Y = \frac{1}{1-b}(a + I + G),$$

Bu yerda: 1/(1-b) – yopiq iqtisodiyotda soliqqa tortish hisobga olinmagan vaziyatda xarajatlar multiplikatori;

(a+I+G) – avtonom xarajatlar;

b=MPC – istemolga chegaralangan moyillik bo'lib multiplikator miqdorini belgilovchi asosiy omildir.

Soliqqa tortish hisobga olinganda iste'mol funksiyasi o'zgaradi va **C=a+b(1-t)Y** ko'rinishni oladi. Bu tenglamani asosiy makroiqtisodiy ayniyatga qo'yib echsak, quyidagi natijani olamiz:

$$Y = \frac{1}{1-b\,(1-t)}(a + I + G).$$

Bu yerda: 1 / (1-b(1-t) – yopiq iqtisodiyotda xarajatlar multiplikatori;

t – chegaraviy soliq stavkasi.

$$t = \Delta Y / \Delta T.$$

Bu yerda: ΔT – to'lanadigan soliqlar miqdorining o'sishi;

ΔY – daromadlarning o'sishi.

Progressiv soliq tizimi multiplikator samarasini yumshatadi va ishlab chiqarish hamda bandlilik darajalarini barqarorlashtiradi.

Soliqqa tortish hisobga olingan holdagi xarajatlar multiplikatori soliqqa tortish hisobga olinmagan holdagi soliq multiplikatoridan ancha kichikroq miqdorga ega, chunki daromadlarga aylangan xarajatlarning bir qismi soliqlarga

chegirilib, muomaladan chiqadi va maltiplikatsiya samarasini pasaytiradi. Bu ikkala formulani solishtirganda ham ko'zga tashlanadi. Shuningdek ochiq iqtisodiyotda oshgan daromadlarning bir qismi importga yo'naltirilishi oqibatida muomaladan chiqib ketishi tufayli multiplikator samarasi yopiq iqtisodiyotga nisbatan pastdir.

Ochiq iqtisodiyotda davlat xarajatlari multiplikator va muvozanatli ishlab chiqarish hajmi quyidagi tenglamalar sistemasini echib topiladi:

$$\begin{cases} Y=C+I+G+Xn \\ C=a+b(1-t)\ x\ Y. \\ Xn=g+m'Y \end{cases}$$

Agarda (2) va (3) tenglamalarni asosiy makroiqtisodiy ayniyatga qo'yib, echsak quyidagi echimga ega bo'lamiz:

$$Y = \frac{1}{1\,(1 - b\,(1 - t) + m'}(a + I + G + g),$$

Bu yerda: 1/1(1-b(1-t)+m ochiq iqtisodiyotda davlat xarajatlar multiplikatori.

Muvozanatli daromadlar darajasiga soliqlarni kamaytinish ham multiplikativ ta'sir ko'rsatadi. Soliqlar miqdorini ΔT ga kamaytirsak, tasarrufdagi daromad darajasi ΔT ga oshadi. Iste'mol xarajatlari mos tarzda ΔTx b (bu yerda b-iste'molga chegaraviy moyillik) miqdorga oshadi va u rejalashtirilgan xarajatlar egri chizig'ini yuqoriga siljitadi, milliy ishlab chiqarish hajmini esa ΔU ga oshiradi.

Soliq multiplikatsiya samarasi davlat xarajatlari singari soliqlarning bir marta o'zgarishi oqibatida iste'molning bir necha bor o'zgarishiga boqliq.

T↓(ΔT)⇨ Yd↑ (ΔYd= -ΔT) ⇨C↑ (ΔC=b(-ΔT)) ⇨E↑ (ΔE=b(-ΔT)) ⇨ Y↑ (ΔY=b(-ΔT) ⇨C↑ (ΔC=b(b(-ΔT)) ⇨E↑ (ΔE=b^2(-ΔT)) ⇨Y↑ (ΔY=b^2(-ΔT)) ⇨

⇨C↑ (ΔC=b(b^2(-ΔT))) va h.k.

Demak, soliq multiplikatorini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$\frac{\Delta Y}{\Delta T} = \frac{-b}{1-b}.$$

Agar davlat byujetiga barcha soliq tushumlari joriy daromad–Y dinamikasiga bog'liq deb hisoblasak soliq funksiyasi **T = tY** – ko'rinishni oladi. Bu holatda iste'mol funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$S=a+b(Y-tY)= a+b(1-t)\ Y,$$

Soliq multiplikatori esa quyidagi ko'rinishni oladi:

$$m_t = \frac{-b}{1-b(1-t)}$$

Bu yerda: m_t – yopiq iqtisodiyot uchun soliq multiplikatori.

To'liq soliq funksiyasi **T=Ta+tY** ko'rinishga ega.

T_a – avtonom soliqlar (masalan, mulkka, yerga soliqlar).

To'liq soliq funksiyasini e'tiborga olsak, iste'mol funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$C=a+b[Y-(T_a+tY)].$$

Iste'mol funksiyasining Ushbu shaklini hamda sof eksport funksiyasini hisobga olib ochiq iqtisodiyot uchun soliq multiplikatorini hisoblasak u

$$m_t = \frac{-b}{1-b(1-t)+m'}$$ ko'rinishini oladi.

Demak soliqlarni bir miqdorga kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi natijasida YaIM hajmining bundan necha marta ko'p miqdorga o'zgarishi iste'molga chegaralangan moyillik, chegaraviy soliq stavkasiga va importga chegaralangan moyillik darajalariga bog'liq

Ochiq iqtisodiyotda davlat xarajatlari multiplikatori va soliq multiplikatorini hisobga olganda muvozanatli ishlab chiqarish hajmi modeli quyidagicha bo'ladi:

$$Y_t = \frac{1}{1-b(1-t)+m'}(a+I+G+g).\frac{b}{1-b(1-t)+m'}Ta.$$

Aytaylik hukumat o‘z xarajatlarini qandaydir miqdorga oshirdi va bu xarajatlarni moliyalashtirish uchun soliq miqdorini ham shuncha oshirdi.

Bunda davlat xarajatlari va avtonom soliqlar miqdorlarining bir vaqtning o‘zida bir xil miqdorda o‘zgarishi natijasida daromadlarning jami o‘zgarishi ΔY miqdori quyidagiga teng bo‘ladi:

$$\Delta Y = \frac{1}{1 - b(1 - t) + m'}\Delta G - \frac{b}{1 - b(1 - t) + m'}\Delta Ta.$$

Agar davlat xarajatlari va avtonom soliqlar bir xil miqdorga ko‘paysa muvozanatli ishlab chiqarish hajmi shu miqdorga teng yoki undan kamroq summaga ko‘payadi. Buni balanslashgan byudjet multiplikatori deb yuritiladi. Balanslashgan byujet multiplikatori birga teng yoki undan kichikroq bo‘ladi.

Davlat xarajatlari o‘zgarishidan yuzaga keladigan multiplikativ samara soliqlar pasayishidan olinadigan multiplikativ samaradan kattaroq bo‘ladi. Bu holat davlat xarajatlarining daromadlar va is’temol hajmiga ta’siri (soliqlar o‘zgarishi ta’siriga nisbatan) kuchliroq ekanligi oqibatidir.

Ushbu farq fiskal siyosat vositalarini tanlashda muhim rol o‘ynaydi. Agar hukumat davlat sektorini kengaytirmoqchi bo‘lsa, davriy pasayishni tugatish uchun o‘z xarajatlarini oshirishi, inflyatsiyani cheklash uchun esa soliqlarni oshirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Aksincha, fiskal siyosat davlat sektorini cheklashga qaratilgan bo‘lsa, davriy pasayish sharoitida soliqlarni kamaytiradi, davriy ko‘tarilish paytida esa davlat xarajatlarini oshirish maqbul yo‘l hisoblanadi.

10.5. Diskret va nodiskret fiskal siyosat. Byudjet taqchilligi va ortiqchaligi

Hukumatning bandlik darajasi, ishlab chiqarish hajmi, inflyatsiya sur’atlari va to‘lov balansi holatini o‘zgartirishga yo‘naltirilgan maxsus qarorlarni qabul qilishi

natijasida davlat xarajatlari, soliqlar va davlat byudjeti qoldig'ini maqsadli o'zgartirilishi diskret fiskal siyosat deyiladi. Diskret fiskal siyosat yuritilganda iqtisodiy pasayish davrida jami talabni rag'batlantirish uchun davlat xarajatlarini oshirilishi va soliqlarni kamaytirilishi natijasida davlat byudjeti kamomadi yuzaga keltiriladi. O'z navbatida davriy ko'tarilish paytida byudjet ortiqchaligi yuzaga keltiriladi.

Diskret fiskal siyosat iqtisodiy tebranishlarni yumshatishda muhim rol o'ynasada, uning ayrim kamchiliklari mavjud. Bu, avvalam bor, vaqt oraliqlari bilan bog'liq. Ya'ni iqtisodiyotda pasayish yoki inflyatsion zo'riqishning paydo bo'lishi, bu holatlarni aniqlash yuzaga kelgan muammolarni hal etish uchun davlat xarajatlari va soliq tushumlarini o'zgartirish borasida qaror qabul qilish, bu qaror bajarilishini ta'minlash jarayonlarining har biri o'rtasida ma'lum vaqt o'tadi.

Bu vaqt davomida iqtisodiy vaziyat o'zgaradi va ko'rilgan chora-tadbirlar ko'tilgan natijani bermasligi mumkin. Shu tufayli davriy tebranishlarni avtomatik tarzda yumshatib turish mexanizmini yaratish zarurati yuzaga keladi.

Nodiskret fiskal siyosat – davlat xarajatlari, soliqlar va davlat byudjeti qoldig'ini avtomatik o'zgartirishni ko'zda tutadi. Nodiskret fiskal siyosat o'rnatilgan barqarorlashtirgichlarga asoslanadi. Rivojlangan davlatlarda o'rnatilgan barqarorlashtirgichlari rolini progressiv soliq tizimi, davlat transfertlari tizimi va foydada ishtirok etish tizimi o'ynaydi. Nodiskret fiskal siyosat davriy tebranishlarni yumshatish uchun hukumatning bevosita aralashuvini talab etmaydi. Davriy pasayish sharoitida daromadlar pasayishi tufayli soliq stavkalari pasayadi. Bu esa jami talabning oshishiga, ishlab chiqarishni kengaytirishga rag'batni yuzaga kelishiga olib keladi. Shuningdek pasayish davrida davlat transfertlari, jumladan ishsizlik nafaqasi to'lovlari miqdori oshadi. Bu holat ham jami talabni oshirib, jami taklif hajmini oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy yuksalish davrida ortiqcha talab iqtisodiyotga inflyatsion ta'sir ko'rsatayotgan sharoitda daromadlar darajasi oshishi bilan soliqlar stavkalari pasayadi va bu jami talabga cheklovchi ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda davlat

xarajatlari (ishsizlarga nafaqalar, davlat transfertlarining bir qancha turlar) ham pasayadi. Ammo nodiskret fiskal siyosat vositalari iqtisodiy tebranishlarni to'liq yumshatish imkonini bermaydi va u diskret fiskal siyosat yuritishni inkor etmaydi.

Iqtisodiyotning o'rnatilgan barqarorli darajasi davriy byudjet taqchilligi va ortiqchaligi miqdorlariga bog'liq. Davriy taqchillik (ortiqchalik) iqtisodiy faollik pasayishi (oshishi) sharoitida soliq tushumlarining avtomatik kamayishi (oshishi) va davlat xarajatlarining avtomatik oshishi (kamayishi) natijasida yuzaga keladigan davlat byudjeti taqchilligi (ortiqchaligi)dir.



10.2-rasm. **Byudjet taqchilligi va ortiqchaligi**

Davriy pasayish bosqichida soliqlar avtomatik pasayishi, davlat transfertlarining oshishi natijasida byudjet taqchilligi kelib chiqadi.

Davriy yuksalish bosqichida soliqlar avtomatik ko'payishi va davlat xarajatlarining kamayishi natijasida byudjet ortiqchaligi paydo bo'ladi. Davlat xarajatlari o'zgarmas bo'lgan sharoitda ham byudjet taqchilligi va ortiqchaligi mavjud bo'lishi mumkin. Davriy taqchillik va ortiqchalik miqdorlari soliq va byudjet funksiyalari grafiklarining «tikligiga» bog'liq. Soliq funksiyasi T ning egilish burchagi chegaraviy soliq stavkasi t ning miqdoriga bog'liq. t qancha yuqori bo'lsa T chizig'i shuncha tik bo'ladi. Davlat byudjetidan beriladigan

transfertlar hajmi o'zgarishining daromadlar o'zgarishiga bog'liqligini xarakterlovchi γ koeffitsent qancha kichik bo'lsa, G chizig'i ham shuncha tik bo'ladi. Demak daromad oshgani sari byudjetga soliq to'lovlari oshaveradi, byudjetdan transfert to'lovlari esa kamayadi.

Davlat xarajatlari daromadga bog'liq bo'lmagan o'zgarmas miqdor bo'lganda t qanchalik katta bo'lsa T chizig'i shuncha tik va iqttisodiyotning o'rnatilgan barqarorligi darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Ammo iqtisodiy o'sishning ta'minlash vazifasi T va G chiziqlarini yotiqroq bo'lishini taqozo etadi.

O'rnatilgan barqarorlashtirgichlar muvozanatli YaMM hajmini , uning potensial hajmi darajasi atrofida tebranishi sababini to'liq tugatmaydi va ishlab chiqarishning har qanday darajasida mavjud bo'lishi mumkin.

To'liq bandlikni ta'minlagan diskret fiskal siyosat yuritilishi natijasida davlat byudjetining tarkibiy taqchilligi (ortiqchaligi), ya'ni to'liq bandlik sharoitida byudjet xarajatlari (daromadlari) va daromadlari (xarajatlari) o'rtasidagi farq yuzaga keladi.

Davriy taqchillik ko'pincha davlat byudjetining haqiqiy taqchilligi va tarkibiy taqchillik farqi sifatida baholanadi.

Davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirish usullari:

1. Pul-kredit emissiyasi;

2. Davlat zayomlarini chiqarish;

3. Davlat byudjetiga soliq tushumlarini ko'paytirish.

Davlat byudjeti kamomadi pul chiqarish orqali qoplanganda muomalada pul massasini ko'paytirish inflyatsiyaga olib keladi.

Inflyatsiya darajasi oshganda Oliver-Tanzi samarasi paydo bo'ladi. Ya'ni, soliq to'lovchilar tomonidan davlatga to'laydigan soliqlar to'lovini atayin kechiktirish hollari yuzaga keladi. Bu esa davlat byudjeti kamomadi oshishiga olib keladi. Byudjet taqchilligi tufayli davlat xususiy ishlab chiqaruvchilardan tovarlar va xizmatlar sotib olsa-yu, lekin ular to'lovlarni kechiktirsa, xususiy ishlab

chiqaruvchilar o'z mahsulotlari narxlarini oldindan oshirib qo'yishadi. Bu esa inflyatsiyaning oshishiga olib keladi.

Agar davlat byudjeti taqchilligi davlat zayomlarini chiqarish orqali moliyalashtirilsa, ular sotilishi natijasida pulga talab oshadi. Bu esa o'z navbatida foiz stavkasini ko'tarilishiga olib kelishi mumkin. Oqibatda investitsiya xarajatlari,sof eksport hajmi va qisman iste'mol xarajatlari kamayadi. Pirovardida siqib chiqarish samarasi ro'y beradi va u fiskal siyosatning rag'batlantiruvchi samarasini zaiflashtirib qo'yadi.

Byudjet taqchilligini moliyalashtirishning bu usuli noinflyatsion usul hisoblansada inflyatsiya xavfini ma'lum muddatga kechiktiradi xolos. Chunki muddati etgan zayomlarni sotib olish bilan davlat muomaladagi pul massasini ko'paytiradi. Bu esa o'z navbatida, baholar darajasining ko'tarishiga sabab bo'ladi. Soliq tushumlarini ko'paytirish byudjet taqchilligini moliyalashtirishning uchinchi yo'li bo'lib, u uzoq muddat talab etadigan soliq islohati o'tkazilishini talab etadi. Bu islohotlar soliq bazasini kengaytirish, soliq stavkalarini kamaytirish, soliq yukini ishlab chiqaruvchilardan ko'proq mulk egalari va mulkdan foydalanuvchilar zimmasiga o'tkazish orqali soliqlar tushumini ko'paytirishni ko'zda tutadi.

Byudjet ortiqchaligini kamaytirish usullariga muomaladagi pul mablag'larini olib qo'yish va davlat qarzlarini to'lash kiradi.

Davlat qarzlarini to'lash nominal daromadlar va muomaladagi pul massasini oshirib, baholar darajasining yanada oshishiga olib kelishi mumkin. Shu tufayli byudjetdagi ortiqcha mablag'larni muzlatib qo'yish byudjet kamomadini pasaytirishning nisbatan noinflyatsion usulidir.

Byudjet taqchilligi asosan noinflyatsion usullar bilan, ya'ni davlat obligatsiyalari chiqarish hamda xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar hisobiga moliyalashtirilmoqda. Respublikamizda o'tkazilayotgan soliq-byudjet siyosati makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlab turish, ustivor tarmoqlarni investitsiyalash, ta'lim sohasini jadal rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadlariga qaratilib kelinmoqda.

Nazorat savollari:

1. Davlat byudjetining mohiyati va funksiyalari nimalardan iborat?
2. Davlat byudjeting xarajatlari tarkibini sanab o'ting.
3. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarida qanday o'zgarishlar ro'y bermoqda?
4. Soliqlarning funksiyalariga izoh bering.
5. O'zbekiston Respublikasi byudjetiga soliq tushumlarining tarkibi va miqdoridagi tendensiyalarni izohlab bering.
6. Diskret va nodiskret fiskal siyosatga izoh bering.
7. Davlat byudjetining parametrlari deganda nimani tushunasiz?
8. Respublikamizning davlat byudjeti daromadlarida qanday o'zgarishlar ro'y bermoqda?

XI BOB. IS-LM MODELI VA UNING QO'LLANILISHI

11.1. IS - LM modelining mohiyati va AD-AS modeli bilan bog'liqligi

Tovar va pul bozorida umumiy muvozanatga erishish shartlari va makroiqtisodiy siyosat tadbirlarining bu ikki bozorga ta'sirini umumlashtirib tadqiq qilish IS - LM modeli yordamida bajariladi.

IS-LM modeli birinchi marta 1937 yilda J.Xiks tomonidan keynsning makroiqtisodiy konsepsiyasini izohlash uchun taklif etildi hamda 1949 yilda A. Xansenning "Monetar nazariya va fiskal siyosat" nomli kitobi nashr qilinganidan so'ng keng yoyildi. Shu sababli bu model Xiks modeli yoki Xiks-Xansen modeli deb ham yuritiladi. I S - LM modeli qisqa muddatli davrga ham tovarlar ham pul bozorida birgalikda muvozanat o'rnatilishi mexanizmini xarakterlaydi. Bunda tovarlar bozori deganda ham iste'mol ham investitsion tovarlar bozori tushuniladi. Garchand iste'mol va investitsion tovarlarga talab turli omillar bilan belgilansada IS - LM modelida ular bir butun deb qaraladi. Pul bozori deganda xazina veksellari va tijorat qog'ozlari ko'rinishidagi qisqa muddatli kredit vositalarini oldi sotdi mexanizmi tushuniladi. Bu bozorni obligatsiyalar bozoridan farqlash zarur. Pulning obligatsiyalarda ifodalangan nisbiy bahosi obligatsiyalar bo'yicha foiz stavkasidir.

IS - LM modeli (investitsiyalar-jamg'armalar, likvidlilikni afzal ko'rish – pul) – yalpi talab funksiyasini belgilovchi iqtisodiy omillarni aniqlash imkonini beruvchi tovar-pul muvozanati modeli"*. AD-AS modelida tovar va pul bozorlarining aloqasi e'tiborga olingan edi. Ya'ni tovarlar va xizmatlar baholarining ko'tarilishi pulga bo'lgan talabni oshirishi bu esa o'z navbatida foiz stavkasining ko'tarilishiga olib kelishi, oqibatda investitsiya xarajatlari va umuman yalpi xarajatlar kamayishi AD-AS modelida ko'zda tutilgan edi. IS-LM modeli AD-AS modelini qisqa muddatli

* Агапова Т.А.Серегина С.Ф. Макроэкономика:Учебник. Дело и сервис, 2005. С.191

davrga aniqlashtiradi va bu modelda har ikkala bozor yagona makroiqtisodiy tizimning sektorlari sifatida namoyon bo'ladi. Model bu sektorlarda tarkib topgan sharoitlarga bog'liq tarzda foiz stavkasi R bilan daromad darajasi Y ning muvozanatli darajasini belgilaydi.

Makroiqtisodiyotda AD-AS modeli ishlab chiqarish hajmlari va narxlar darajalarining tebranishlarini hamda ular o'zgarishining oqibatlarini o'rganish uchun asosiy model bo'lib hisoblanadi va boshqa bir qancha modellar AD-AS modelining xususiy holi hisoblanadi. AD-AS modeli yordamida davlat iqtisodiy siyosatining turli variantlari tasvirlab berilishi mumkin.

Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modeli yalpi talab- yalpi taklif modelini qisqa muddatli makroiqtisodiy siyosat maqsadlarida aniqlashtirgan bo'lib, uning xususiy holi hisoblanadi. Yalpi talab va yalpi taklif modelidan farqli o'laroq bu modelda narxlar darajasi va ish haqi o'zgarmas miqdorlar hisoblanadi. Ayni shu sababga ko'ra tovar moddiy zaxiralarining o'sishi qisqa muddatda makroiqtisodiy muvozanatga erishishni belgilovchi omil bo'ladi.

Ishlab chiqarishning kamayishi natijasida mumkin bo'lgan yo'qotishlarning oldini olish uchun jami talabni tartibga solib turadigan faol davlat siyosati zarur. Shuning uchun ham Keynsning iqtisodiy nazariyasini ko'p hollarda jami talab nazariyasi deb yuritiladi. Jami talab komponentlari, ayniqsa investitsiyalarning o'zgarishi makroiqtisodiy beqarorlik sabablaridan biridir.

Narxlarning muvozanatli darajasi deganda shunday narx darajasi tushuniladiki, unda yalpi talab va taklif hajmi bir-biriga mos kelishi yoki teng bo'lishi kerak.

IS egri chizig'i bozordagi tovar va xizmatlar muvozanatini aks ettiradi, LM esa bozorda real pul qoldiqlar muvozanatini aks ettiradi, buning natijasida, qachonki narx darajasi belgilangandagina IS-LM birgalikda foiz stavkasi va milliy daromad qisqa vaqt ichida ishga tushirilishini aniqlaydi. O'z navbatida IS-LM modelining 2 muhim masalalarini tahlil qilish zarur.

Birinchidan, milliy daromadning potensial o'zgarishlar sababini ko'rib chiqmoq lozim. Biz milliy daromad o'zgarishi salohiyati sabablarini nazada tutgan holda IS-LM modelining qanday ekzogen o'zgaruvchan holatlari (davlat xaridi, soliqlar va pul ta'minoti) berilganda narx darajasining endogen o'zgaruvchan (foiz stavkasi va milliy daromad) ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, tovarlar bozorida (IS egri chizig`i) va pul bozori (LM egri chizig`i) bo'yicha turli qisqa muddatlik foiz stavkasini va milliy daromadga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqish kerak.

Ikkinchidan, IS-LM modelining jami talab va jami taklif modeli bilan moslashishini ko'rib chiqish zarur. Shu jumladan, biz IS-LM modelining jami talab yig`indisini va o'rmini tushuntirish nazariyasini ta'minlab beramiz. Bu yerda biz o'z taxminlarimizni susaytirishimiz va belgilangan narhlar darajasini va IS-LM modelidagi narxlari darajasini va milliy daromad o'rtasidagi salbiy munosabatni nazarda tutgan holda ko'rsatishimiz kerak. Model bizga yana jami talabning qanday yonalishda kengayishini aytib berishi mumkin.

11.2. IS-LM modelining asosiy tenglamalari

IS egri chizig`i va LM egri chizigining kesishgan nuqtasi milliy daromad darajasini belgilaydi. Agar bir egri chiziqda siljish ro'y bersa, qisqa davr ichida iqtisodiyot muvozanati o'zgarishi va milliy daromad tebranishi vujudga keladi. Bu bo'limda biz bu egri chiziqlarning kesishishlari qanday siyosiy o'zgarishlar va iqtisodiy shok holatiga olib kelishini ko'rib chiqamiz. Qanday tarzda fiscal siyosat IS egri chizig`ini siljitadi va qisqa davrda muvozanatni o'zgartiradi?

Avvalambor, biz fiscal siyosat o'zgarishlari (davlat xaridlari va soliqlar)qanday qilib qisqa muddat ichida iqtisodiyot muvozanatini o'zgartirishi mumkinligini o'rganishni boshlaymiz.Fiscal siyosat o'zgarishi rejalashtirilgan xarajatlarga ta'sir etishi mumkinligini va shu bilan birga IS egri chizig`ining siljishiga olib kelishini

eslatib o'tamiz. Qanday qilib IS egrichizig'ining daromad va foiz stavkasiga ta'sir qilishini IS-LM modeli ko'rsatib o'tadi.

Davlat xaridlari sohasidagi o'zgarishlar. Davlat xaridlarini o'sish su'ratini ΔG korib chiqamiz. Keyns chizmasida bizga davlat haridlari xilma-xilligini, ΔG o'sishi daromad o'sish darajasini ΔY ko'rsatib o'tadi. Shuning uchun 11-1 rasmda IS egri chizig'i o'ng tarafga siljishi ko'rsatilgan.



11.1-rasm. **IS-LM modelida davlat xaridlari o'sishi**

Iqtisodiyotda muvozanat A nuqtadan B nuqta tomon harakat qiladi. 11.1-rasmda nima sodir bo'layotganini tushunish uchun, IS–LM modelini Keyns xochi va likvidlilik afzallik nazariyasi bilan bo'g'likligini ko'rib o'tamiz.

Davlat tovar xaridi va xizmatlari ortganda, rejalashtirilgan xarajatlar ham oshadi. Rejalashtirilgan xarajatlar tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishini rag'batlantiradi va umumiy daromad Y o'sadi. Bu ta'sir Keyns xochidan bizga tanish bo'lishi kerak. Likvidlikning afzallik nazariyasida tasvirlanganidek, endi pul bozorini ko'rib chiqamiz. Iqtisodiyotda pulga talab daromadga bog'liq bo'lgani uchun, umumiy daromad o'sishi pul miqdorini har bir foiz stavkasida o'sadi. Pulga yuqori talab, muvozanat foiz stavkasini o'sishiga olib keladi, ammo pulga taklif

o‘zgarmaydi. Pul bozorida foiz stavkasi qancha yuqori bo‘lsa, bu o‘z navbatida ishlab chiqarish harajatlarining oshishiga, bu esa tovarlar narhining qimmatlashishiga olib keladi. Foiz stavkalarinig yuqoriligi firmalarning investitsion faolliligini susayishiga olib keladi. Bu investitsion faollikning susayishi qisman davlat tomonidan haridlarni oshirilishi bilan qo‘llab quvvatlanadi. Gorizontal IS egri chizig`ining ogishi, Keyns xochidagi daromad o‘sishi muvozanati bilan teng bo‘ladi. IS-LM modelidagi muvozanat modelining o‘sishi miqdorida ancha ko‘proq hisoblanadi. Investitsiyalarning siqib chiqarilishi foiz stavkalarining oshishi bilan farqlanadi.

Soliqdagi o‘zgarishlar. IS-LM modelidagi soliqning o‘zgarishi, soliqdagi o‘zgarishlar iqtisodiyotga o‘z ta’sirini ko‘rsatganidek, davlat xaridlarining o‘zgarishi, istisno tarzida soliqlar va iste`mol harajatlariga ta’sir etadi. Misol uchun, ko‘rib turganimizdek, $\Delta T$ soliqlarning kamayishi iste`molchilarni ko‘proq iste`mol qilishlari uchun zamin yaratadi va rejalashtirilgan xarajatlarning oshishiga sabab bo‘ladi. Keyns xochidagi soliq koeffitsienti shuni ko‘rsatadiki, ushbu o‘zgarishlar daromad darajasi foiz stavkasini ΔT X MPC/(1-MPC) siyosatini o‘zgartiradi. Shuning uchun 11-2 rasmda ko‘rsatilganidek, IS egri chizig`i o‘ng tomonga kengayib og`ib tushgan. Iqtisodiyotda muvozanat A nuqtadan B nuqtaga siljishi kuzatiladi. Soliqlarning pasayishi foiz stavkalari va daromadning o‘sishiga olib keladi. Yani foiz stavkalarinig osishi sababli investitsiyalar chiqib ketishi mumkin, Keyns xochiga ko‘ra, IS-LM modelida daromadlar kam.

Monetar siyosat qanday qilib LM egri chizig`ini siljitadi va qisqa davrda muvozanatni o‘zgartiradi?

Keling, endi monetar siyosatining ta’sirini ko‘rib chiqaylik. Pul taklifini o‘zgarishi daromadning har qanday darajasiga ta’sir etadi. Shuningdek pul bozoridagi muvozanat foiz stavkasi o‘zgarishiga olib keladi va shu tariqa LM grichizig`i siljiydi.

11-2



IS-LM modelida soliqlar kamayishi soliqlarning pasayishi IS egri chizig'ini o'nga siljitadi muvozanat Anuqtadan B nuqtaga harakatlanadi. Daromad Y1dan Y2 gacha ortadi va foiz stavkasi r_1 dan r_2. gacha oshadi.

11.2-rasm **IS-LM modeli**

Pul ta'minoti o'sishini ko'rib chiqaylik. M ortishi real pul M/P qoldiqlarini o'sishiga olib keladi, narxlar darajasi P, qisqa muddatda belgilanadi.

Likvidlikning afzallik nazariyasi shuni ko'rsatadiki, daromadning har qanday darajasi uchun, real pul qoldig`i ko'payishi foiz stavkasi kamayishiga olib keladi. Shuning uchun, LM egri chizig`i 11-3 rasmdagi kabi, muvozanat A nuqtadan B nuqta tomon og`adi. Pul massasining ko'tarilishi foiz stavkasini kamaytiradi va daromad darajasini ko'taradi.

11-3



IS-LM modelida pul taklifi oshishi.
Pul taklifidagi oshish LM egri chizig'ini pastga ko'chiradi. Muvozanat nuqta A dan B nuqtaga ko'chadi. Daromad Y1 dan Y2 ga ko'tarilidi va foiz darajasi r1 dan r2 ga ko'tariladi.

11.3-rasm. **IS-LM modelida pul taklifi oshishi**

IS-LM (investitsiya - jamg'armalar, likvidlilikning afzalligi - pul) modeli foiz stavkasi R bilan daromadlar Y ning bir vaqtning o'zida har ikkala bozorda muvozanatni ta'minlaydigan kombinatsiyalarini topish imkonini beradi.

Modelning asosiy tenglamalari quyidagilar:

1. Y=C +I + G +Xn — asosiy makroiqtisodiy ayniyat.

2. C = a+b (Y-T) — iste'mol funksiyasi, bu yerda T = Ta + tY.

3. I = e-dR — investitsiya funksiyasi.

4. Xn = d- m`Y - nR — sof investitsiya funksiyasi.

5. M/P =kY - hR — pulga talab funksiyasi.

IS-LM modelida ko'rilgan barcha tenglamalar bajarilsa muvozanatga erishiladi.

Modelning endogen o'zgaruvchilari Y,C,I,Xn va foiz stavkasi R.

Modelning ekzogen o'zgaruvchilari G, Ms va chegaraviy soliq stavkasi t.

a,b,c,d,m`,n,k va h empirik koeffitsientlar bo'lib, musbat va nisbatan barqarordir.

Y haqiqiy < Y potensial bo'lgan qisqa muddatli davrga muvozanat ko'rib chiqilayotganda, modelda, baholar darajasi o'zgarmas, foiz stavkasi R va daromad Y o'zgaruvchan deb olinadi.

Y haqiqiy = Y potensial bo'lgan, ya'ni to'liq bandlik sharoitida baholar darajasi R o'zgaruvchan, Ms nominal kattalik va boshqa barcha o'zgaruvchilar real kattaliklardir.

11.3. IS - egri chizig'i va uning tenglamasi

IS-egri chizig'i tovarlar xizmatlar bozorida foiz stavkasi R va daromadlar darajasi Y ning kombinatsiyalarini xarakterlovchi, bir vaqtning o'zida asosiy makroiqtisodiy ayniyat, iste'mol, investitsiya va sof eksport funksiyalari qondiriladigan nuqtalarning geometrik joylashuvini xarakterlaydi. Iqtisodiyotdagi muvozanat yoki tovar pul muvozanatiga erishishda investitsiya va

jamg'armalarning YaIM bilan bog'liqligi tushuntiriladi. Bu bog'liklik shuni ko'rsatadiki, banklar foiz stavkalarini pasaytirib borishi bilan YaIM hajmi ham ko'payib boradi. Ya'ni, milliy iqtisodiyot moliyaviy "kislorodni" ko'proq olish natijasida YaIM ishlab chiqarish ham ko'payib boradi. IS-egri chizig'i tovarlar xizmatlar bozorida foiz stavkasi R va daromadlar darajasi Y ning kombinatsiyalarini xarakterlovchi, bir vaqtning o'zida asosiy makroiqtisodiy ayniyat, iste'mol, investitsiya va sof eksport funksiyalari qondiriladigan nuqtalarning geometrik joylashuvini xarakterlaydi. Bu egri chiziqning har bir nuqtasida investitsiyalar va jamg'armalar o'zaro teng bo'ladi.

IS-egri chizig'ini Keyns xochi va investitsiya funksiyasi grafigi yordamida keltirib chiqaramiz.



11.4-rasm. **IS-egri chizig'ini Keyns xochi**

Foiz stavkasining R_1 dan R_2ga qadar ko'tarilishi investitsiyalar miqdorini I_1 dan I_2 ga qadar kamayishiga olib keladi. Bu haqiqiy xarajatlar egri chizig'ini E_1 dan E_2 ga qadar pastga tomon $\Delta E = \Delta I$ ga teng miqdorda surilishiga olib keladi.

Oqibatda daromadlar miqdori Y_1 dan Y_2 qadar $\Delta Y = \Delta E$ x m miqdorga pasayadi, bu yerda **(m = 1/(1-b(1-T)+m'))**.

Demak tovarlar va xizmatlar bozorida daromadlar darajasi va foiz stavkasi dinamikasi o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud.

R o'zgarmagan holda IS egri chizig'ining o'ngga yoki chapga siljishi quyidagi omillar ta'sirida ro'y beradi:

- iste'mol xarajatlari darajasi;
- davlat xaridi darajasi;
- sof soliqlar (soliqlar - subsidiyalar - transfertlar);
- investitsiyalar hajmining (R ning mavjud stavkasida) o'zgarishi.

IS tenglamasini iste'mol, investitsiya va sof eksport funksiyalari tenglamalarini asosiy makroiqtisodiy ayniyatga qo'yib, uni R va Y ga nisbatan echib topiladi.

R ga nisbatan topilgan IS tenglamasi:

$$R = \frac{a + e + g}{d + n} + \frac{1 - b(1 - t) + m`}{d + n} Y + \frac{1}{d + n} G - \frac{b}{d + n} Ta,$$

bu yerda: T = Ta + t Y Y ga nisbatan topilgan IS tenglamasi:

$$Y = \frac{a + e + g}{1 - b(1 - t) + m`} - \frac{1}{1 - b(1 - t) + m`} G - \frac{b}{1 - b(1 - t) + m`} G - \frac{d + n}{1 - b(1 - t) + m`} R,$$

bu yerda: T = Ta + t Y

(1-b (1-t) + m`)/ (d+n) IS egri chizig'ining Y o'qiga nisbatan og'ish burchagini ko'rsatadi va fiskal hamda pul kredit siyosati samaradorligining nisbiy parametrlaridan biri hisoblanadi.

11.4. LM - egri chizig'i va uning tenglamasi

LM egri chizig'i o'zgarmas narxlar sharoitida pul vositalari bozorida vujudga keladigan foiz stavkasi va daromadlar darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi. LM egri chizig'ining har bir nuqtasida pulga talab Md pul taklifi Ms ga teng bo'ladi (liquidity Preferense = Money Supply). Pul bozorida bunday muvozanatga daromad Y ning oshishi bilan foiz stavkasi R ko'tarilsagina erishiladi.

Ma'lumki, pulga talab miqdoriga foiz stavkasidan tashqari daromadlar darajasi ham ta'sir ko'rsatadi. Daromadlar yuqori bo'lsa, xarajatlar ham ko'p bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida iste'mol va boshqa xarajatlar uchun pulga talabni oshishiga olib keladi. Shunday qilib, daromadlar darajasining yuqoriroq bo'lishi pul talabini oshiradi. Boshqacha aytganimizda, daromad va pulga talab dinamikasi o'rtasida to'g'ri bog'liqlik mavjud.

Pulga talab funksiyasini quyidagicha yozamiz:

$$M/R= f(R;U).$$

Pul bozori holatini belgilovchi ko'rsatkichlar o'rtasidagi bunday o'zaro munosabatlarni 11.5, 11.6 rasmlarda tasvirlaymiz. 11.5- rasmdan ko'rinib turibdiki, pulga bo'lgan talab, foiz stavkasi pasayishi bilan, shuningdek, daromadlar ko'payishi natijasida ham oshadi. Daromadlarning oshishi natijasida pulga talab egri chizig'i M_{d1} yuqori surilib, M_{d2} holatini egallaydi va unda pul bozoridagi muvozanat nuqtasi, r1 holatidan r2 holatiga o'tadi.

Shunday qilib, yuqoriroq daromad yuqoriroq foiz stavkasiga olib keladi va buni LM egri chizig'i aks ettiradi. U pul bozorida foiz stavkasi va daromad o'rtasidagi munosabatlarni ko'rgazmali tarzda ifodalaydi. Daromad darajasi qancha baland bo'lsa, pulga bo'lgan talab shuncha yuqori va shunga muvofiq muvozanatli foiz stavkasi ham shuncha yuqori bo'ladi.

LM egri chizig'i o'ziga xos konfiguratsiyaga ega: gorizontal qism va vertikal qism. LM egri chizig'ining gorizantal qismi foiz stavkasi R ning minimal darajasidan pasaya olmasligini anglatsa, vertikal qism foiz stavkasi R ning maksimal darajasi chegarasidan tashqarida hech kim o'z mablag'larining likvid (pul) shaklida ushlab turmasligini va ularni qimmatli qog'ozlarga aylantirishini anglatadi.



11.5-rasm. **Pul bozoridagi muvozanat grafigi**

11.6-rasm. **LM egri chizig'i grafigi**

LM egri chizig'i o'ziga xos: gorizontal va vertikal konfiguratsiyaga ega. LM egri chizig'ining gorizontal kesmasi foiz stavkasi foiz stavkasi Rmin, darajadan pastga tushishi mumkin emasligini ko'rsatadi. Egri chiziqning vertikal kesmasi foiz stavkasining maksimal daraja Rmax. chegarasidan tashqarida hech kim jamg'armalarini likvid (pul) shaklida ushlab turmaydi va ularni qimmatli qohozlarga aylantiradi. Baholarning o'zgarishi hamda pul taklifi hajmidagi o'zgarishlar LM egri chizig'ining o'ngga yoki chapga siljishiga olib keladi.

LM egri chizig'i tenglamasi pulga talab funksiyasini R va Y ga nisbatan echib topiladi.

R ga nisbatan LM egri chizig'i tenglamasi quyidagicha:

$$R=(k/h)Y - (1/h)(M/P).$$

Y ga nisbatan LM egri chizig'i tenglamasi quyidagicha:

$$Y = (1/k)(M/P) + (h/k)R.$$

k/h koeffitsenti LM egri chizig'ining Y o'qiga nisbatan og'ish burchagini xarakterlaydi hamda fiskal va pul kredit siyosatining nisbiy samaradorligi baholaydi.

Shunday kilib, LM egri chizig'i o'zgarmas narxlar sharoitida pul vositalari bozorida vujudga keladigan foiz stavkasi va daromadlar darajasining kombinatsiyalarini ko'rsatadi. LM egri chizig'ining har bir nuqtasida pul bozorida talab va taklif o'zaro teng bo'ladi.

11.5. IS-LM modelida makroiqtisodiy muvozanat

Bozor iqtisodiyoti sharoitida makroiqtisodiy muvozanatga erishishning roli va ahamiyati benihoya kattadir. Makroiqtisodiy muvozanat mamlakat iqtisodiyotining to'g'ri yoki noto'g'ri yo'ldan borayotganligini ko'rsatuvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki, iqtisodiyotda bo'layotgan doimiy o'zgarishlar xar qanday mamlakatni ham iqtisodiy muvozanatdan chiqarib yuborishi mumkin.

Iqtisodiy tizimlardagi og'ish tovarlar va xizmatlar taqchilligini yoki ortiqcha ishlab chiqarilganligini, inflyatsiya, ishsizlik va shunga o'xshash boshqa salbiy hodisalar sifatida namoyon bo'ladi. Ular iqtisodiyot samaradorligining pasayishiga va aholi turmush tarzini tushib ketishiga olib keladi. Shu sababli ham iqtisodiy muvozanat muammolarini tadqiq qilish eng muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

IS-LM egri chiziqlari kesishadigan nuqta IS-LM modelidagi iqtisodiy muvozanat holatini ko'rsatadi. Bu nuqta o'zida shunday foiz stavkasi «R» ni va

daromad darajasi «Y» ni aniqlaydiki, bunda tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif hamda real pul mablag'lariga bo'lgan talab va ularning taklifi o'zaro teng bo'ladi. (11.7- rasm.)



11.7-rasm. **IS – LM modelidagi iqtisodiy muvozanat**

Bu yerda : R* -muvozanatli foiz stavkasi; Y*- muvozanatli daromad hajmi.

IS va LM egri chiziqlarining o'zaro kesishishi pul taklifi investitsiyalar va jamg'armalarni o'zaro tenglashtiruvchi foiz stavkasi shakllanishi uchun yetarli ekanligini anglatadi.

IS egri chizig'i rejalashtirilgan xarajatlarga bog'liq bo'lganligi uchun uning o'zgarishi fiskal siyosatidagi o'zgarishlarni xarakterlaydi. LM pul taklifiga bog'liq bo'lganligi uchun undagi o'zgarish monetar siyosat tadbirlari natijasini ko'rsatadi.

Bundan xulosa shuki IS-LM modeli fiskal va monetar siyosatning iqtisodiyotga birgalikda ko'rsatadigan ta'sirini baholash imkonini beradi. Davlat xarajatlarining o'sishi yoki soliqlarning kamayishi IS egri chizig'ini o'ngga siljitadi. Davlat xarajatlarining kamayishi va soliqlarning oshishi esa bu egri chiziqni chapga siljitadi. Xuddi shuningdek pul taklifining oshishi LM egri chizig'ini o'ngga, kamayishi esa chapga siljitadi. IS-LM modeli ma'lum makroiqtisodiy natijalarga erishishning turli variantlarni ko'rib chiqish imkoniyatini beradi. Bir bozorda bo'lgan o'zgarish ikkinchi bozorga ham ta'sir

etadi. Masalan Markaziy bank ochiq bozordan obligatsiyalar sotib ola boshladi. Natijada pul taklifining ko'payishi (LM egri chizig'ini o'ngga siljishida aks etib) foiz stavkasining pasayishini keltirib chiqaradi. Monetar impuls ta'sirida, ya'ni, foiz stavkasining pasayishi oqibatida investitsiya xarajatlari ko'payadi va IS egri chizig'i ham o'ngga siljib yangi nuqtada muvozanat o'rnatiladi.

Agar modelda muvozanati LM egri chizig'ining gorizontal (keyns) kesmasida yuzaga kelsa pul massasining ko'paytirilishi investitsiyalar, ishlab chiqarish va bandlilikning o'sishiga olib kelmaydi. Bu iqtisodiy tizimda aloqalar buzilganligidan dalolat beradi. Bunda pul taklifining o'sishi tovarlar bozoriga ta'sir ko'rsata olmaydi, chunki pul bozorida foiz stavkasini kamaytirish imkoniyati qolmaydi. Bunday vaziyat likvidlilik tuzog'i nomini olgan.

"Likvidlilik tuzog'i vaziyatida kredit (monetar) siyosat yalpi talab va milliy daromadni rag'batlantirish vositasi sifatida kutilgan samarani keltirib chiqarmaydi va shu sababli, keynschilar fikriga ko'ra, (ixtiyorimizda) faqat bir dastak - soliqlar va hukumat xarajatlari orqali yalpi talabga bevosita ta'sir ko'rsatadigan fiskal siyosatgina qoladi"*.

Agar modelda IS egri chizig'i LM egri chizig'ining vertikal kesmasidan kesib o'tganda yuz bergan bo'lsa pul taklifini oshirish milliy daromadning o'sishigava foiz stavkasining pasayishiga olib keladi. Aksinsa davlat xarajatlarining oshirilishi esa, keynschilar fikriga ko'ra, bu kesmada yalpi talabga va milliy daromar hajmiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Agar IS egri chizig'i vertikal ko'rinishda bo'lsa, ya'ni investitsiyalarga talab foiz stakasi o'zgarishiga ta'sirchan (elastik) bo'lmagan, masalan investorlar kelajakdagi bozor konyukturasining noaniqligi sababli o'z investitsiyalari istiqboliga tushkun baho bersalar investitsion tuzoq yuzaga keladi. Investitsion tuzoq shuni anglatadiki IS egri chizig'i vertikal bo'lganda LM egri chizig'ining siljishlari real daromad miqdorini o'gartirmaydi. Bu holatda pul-kredit siyosati

* Ивашковкий С.Н. Макроэкономика: Учебник.-2-е изд., доп.- М.: Дело, 2002, с. 219

yalpi talalab va milliy daromad hajmiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi, fiskal siyosat esa samarali bo'ladi.

Demak pul - kredit siyosati foiz stavkalari yuqori bo'lganda samarali bo'ladi. Fiskal siyosat esa foiz stavkasi minimal, ya'ni LM egri chizig'i gorizontal, IS egri chizig'i esa vertikal bo'lganda samaraliroq bo'ladi. Model yordamida makoiqtisodiy siyosat variantlarini tanlash, shuningdek usullarini muvofiqlashtirilgan holda qo'llash va siqib chiqarish samaralarini kamaytirish yo'llarini tahlil etish mumkin.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. IS-LM modeli qanday maqsadga xizmat qiladi va unga ehtiyojni qanday asoslab berish mumkin?

2. IS-LM modelining asosi bo'lgan tenglamalarni sanab bering va ularga tavsif bering.

3. IS egri chizig'ining mohiyati nimada va qanday keltirib chiqariladi?

4. LM egri chizig'ining asosiy o'zgaruvchilari nimalardan iborat va u qanday keltirib chiqariladi?

5. IS egri chizig'i tenglamasidagi qaysi parametr fiskal va pul kredit siyosatining nisbiy samaradorligini belgilaydi va nima sababli?

6. Modelda makroiqtisodiy siyosat yuzaga kelishining shartlari qaday?

siyosatga qanday ta'sir ko'rsatadi?

8."Investitsion tuzoq" atamasi qo'llaniladigan makroiqtisodiy vaziyatni tavsiflab bering.

XII BOB. IQTISODIY O'SISHNING NEOKEYNSCHA MODELLARI

12.1. Iqtisodiy o'sishning umumiy tavsifi

Iqtisodiy o'sish — bu, obyektiv qonuniyat bo'lib, aholining o'sishi, FTT, ishlab chiqarish hajmining ma'lum bir vaqt davomida o'sishi kabi jarayonlar bilan bog'langan. Iqtisodiy o'sish jami taklifning o'sishini yoki boshqacha aytganimizda, potensial YaIM hajmining oshishini bildiradi. Shunday qilib, iqtisodiy o'sish nafaqat ishlab chiqarishning o'sishini, balki iqtisodiyot potensiali (salohiyati) ning o'sishini ham bildiradi.



12.1-rasm. **Makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy belgilari**

Iqtisodiyotning barqarorligi aholi turmush darajasining yaxshilanishi va barcha sohalarning taraqqiy etishini ta'minlaydi. Shu sababli, iqtisodiy o'sish muammolari dunyo olimlari, siyosatchilarining diqqat markazidagi mavzulardan

biri bo'lib kelmoqda. Iqtisodiy o'sish sur'ati darajasi mamlakatda olib borilayotgan makroiqtisodiy siyosatga bog'liq hisoblanadi. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda iqtisodiy siyosatning dastaklaridan foydalaniladi.

Iqtisodiy o'sishda nafaqat mamlakat real daromadlarining o'sishi, shuningdek, jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlarning o'sishi ham tushuniladi.

Iqtisodiy o'sish ikki xil usul bilan aniqlanadi va o'lchanadi.

Birinchi usul, YaIM (SIM)ni o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakatning umumiqtisodiy imkoniyatlari harakatini aniqlash uchun ishlatiladi.

Ikkinchi usul, real YaIM (SIM)ning o'tgan davrga nisbatan aholi jon boshiga o'zgarishi sifatida aniqlanadi.

Iqtisodiy o'sishni aniqlash va asoslab berish jarayonlarida quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1) Iqtisodiy o'sishni o'lchash;
2) O'sish omillari;
3) Iqtisodiy o'sish modellari.

Milliy iqtisodiyot o'sishini o'lchashda jami daromadlarning (mahsulotlarning) har xil indikatorlaridan foydalanish mumkin. Umumiy o'sish darajasi aslida YaIM miqdori bilan belgilanadi. Shuningdek, bu ko'rsatkichlar miqdori va bajarayotgan vazifasiga qarab YaIM yoki MD ham bo'lishi mumkin. Bu ko'rsatkichlarning barchasi bir-biriga juda ham yaqin. YaMD YaIM kabi ushbu mamlakat aholisi olayotgan daromadlar miqdorini ko'rsatadi. Shuning uchun ham undan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar dinamikasi va darajasini aniqlayotganda foydalanish mumkin. Iqtisodiy o'sish nazariyasi va modellarida umumiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning farqi unchalik katta ahamiyatga ega emas.

Chunki, ularning farqi iqtisodiy o'sish chegarasi va omillari o'sish darajasini tahlil qilishda hal qiluvchi jarayon hisoblanmaydi.

Iqtisodiy o'sish nazariyasida daromadlar iste'mol va investitsiyalarga bo'linadi.

$$Y = C + I.$$

Davlat xarajatlari va sof eksport ko'rsatkichlari ham iste'mol va investitsiyalar tarkibiga kiritib yuboriladi.

Mutlaq miqdordagi ko'rsatkichlar dinamikasi va jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlar birgalikda o'sish jarayonini bildiradi. Iste'mol hajmi iqtisodiyotning provard maqsadini va yashash darajasi oshishini bildirsa, investitsiyalar esa resurs imkoniyatlarining o'sishi va texnik yangiliklarning moddiylashishini anglatadi.

Iste'mol va investitsiya o'rtasida yetarlicha muqobillik mavjud, chunki, joriy iste'mol miqdorining oshishi investitsiyalarning daromaddagi ulushini pasaytirish iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini qisqartiradi.

Har bir mamlakat iqtisodiy o'sishga intiladi, chunki iqtisodiy o'sish, birinchidan, milliy mahsulot hajmi va daromadning ko'payishiga, ikkinchidan, rssurslardan samarali foydalanishga, uchinchidan, yangi-yangi ehtiyojlar va imkoniyatlarning paydo bo'lishiga, to'rtinchidan, xalqaro bozorlarda mamlakat obro'sining oshishiga olib keladi.

Iqtisodiy o'sish usullaridan to'g'ri va o'z o'rnida foydalanish katta ahamiyatga ega. Masalan, mamlakat harbiy salohiyatini aniqlash va rivojlantirish muammosi qaralayotganda YaIM hajmining o'sishi, mamlakat aholisining turmush faoliyati taqqoslanayotganda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Amaliyotda iqtisodiy o'sishning ikki xil ko'rinishi farqlanadi: haqiqiy va potensial.

Haqiqiy iqtisodiy o'sish - bu statistika organlari tomonidan muntazam nashr etiladigan YaIM yoki boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning haqiqiy yillik ko'payishidir.

Potensial iqtisodiy o'sish – bu iqtisodiyot o'sishi mumkin bo'lgan tezlikdir.

Potensial iqtisodiy o'sishni [illegible] mintaqa mintaqovchi omillar bo'lib [illegible] quyidagilar hisoblanadi:	**resurslarning ko'payishi;**
	samaradorlikni oshishi.

12.2. Iqtisodiy o'sish omillari va tiplari

Iqtisodiy o'sish jami taklifning o'sishini yoki boshqacha aytganimizda, haqiqiy va potensial YAIM hajmining oshishini bildiradi. Iqtisodiy o'sish muammosini o'rganish natijasida real ishlab chiqarish tizimi duch keluvchi - cheklangan resurslardan samarali foydalanish muammosiga echim topiladi. Demak, iqtisodiy o'sish omillari va ular samaradorligini o'rganish hamda tahlil qilish jamiyat oldidagi eng dolzarb muammolardan biridir.

Real ishlab chiqarish hajmlarining uzoq muddatli o'sishi sur'atlarini, ko'lamlarini, samaradorligi va sifati oshishini belgilovchi hodisa va jarayonlar iqtisodiy o'sish omillari deyiladi.

Iqtisodiy o'sish omillari ikki guruhga ajratiladi:

Birinchi guruh omillari iqtisodiy o'sishni fizik (ashyoviy) jihatdan ta'minlaydi. Bu guruhga ishlab chiqarish omillari kiritiladi:

- tabiiy resurslar soni va sifati;
- mehnat resurslari soni va sifati;
- asosiy kapital hajmi;
- texnologiyalar va ishlab chiqarishni tashkil etish;
- jamiyatda tadbirkorlik malakalarining rivojlanishi darajasi.

Ikkinchi guruh omillari jamiyatdagi iqtisodiy o'sish potensialini yuzaga chiqarish imkonini beruvchi omillar – talab va taqsimot omillari, bilvosita omillar) kiritiladi:

- bozorning monopollashuvi darajasini pasayishi;
- iqtisodiyotdagi soliq muhiti;
- kredit-bank tizimi samaradorligi;
- iste'mol, investitsiya va davlat xarajatlarining o'sishi;
- eksport hajmining o'sishi;
- iqtisodiyotda ishlab chiqarish resurslarini qayta taqsimlash imkoniyatlari;
- daromadlarni taqsimlashning shakllangan tizimi.

Agar o'sish qo'shimcha resurslarni jalb etish hisobiga ta'minlansa va jamiyatdagi resurslardan foydalanishning shakllangan o'rtacha samaradorligi darajasini oshirmasa ekstensiv iqtisodiy o'sish deb ataladi.

YaIMning o'sishi iqtisodiyotda ish bilan band bo'lganlar sonidan yuqori sur'atga ega bo'lsa intensiv iqtisodiy o'sish ro'y beradi. Iqtisodiy o'sishning intensiv tipi ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga bog'liq. U foydalanilayotgan resurs birligiga to'g'ri keladigan mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishni, ishlab chiqarishning texnik xususiyatlarini yaxshilashni ko'zda tutadi.

Iqtisodiy o'sishning bu ikki tipi sof holda ro'y bermaydi. Iqtisodiy o'sish uni ta'minlashdagi intensiv yoki intensiv omillarning ulushi darajasiga qarab ko'proq ekstensiv, yoki ko'proq intensiv bo'lishi mumkin.

12.3. Iqtisodiy o'sishning keynscha modellarining umumiy tavsifi. E.Domar modeli

Iqtisodiy o'sish moldellari yalpi ishlab chiqarishning uzoq muddatli ko'payishi taklif omillariga tayangan holda tahlil etish imkonini beradi.

Iqtisodiy o'sishning keynscha va neokllasik modellari mavjud. Keynscha modellarning mohiyati quyidagicha:

1) ularning barchasi Keynsning yalpi talab to'g'risididagi bosh g'oyasiga tayanadi. Ya'ni ularni tuzishda mualliflar iqtisodiyotni uzoq muddatli

mutanosib rivojlanishining hal qiluvchi sharti yalpi talabni oshirish deb qarashgan;

2) iqtisodiy o'sishning asosiy omili investitsiyalar hisoblanadi, boshqa ishlab chiqarish omillari e'tiborga olinmaydi;

Keynscha iqtisodiy o'sish modelidan soddarog'i 40-yillarda E. Domar tomonidan taklif etilgan model hisoblanadi.

E.Domar investitsiyalarni ham talab ham taklif omili deb qaraydi. Ya'ni investitsiyalar nafaqat multiplikativ ta'sir ko'rsatib yalpi talabni oshiradi, balki ishlab chiqarish quvvatlarini yuzaga keltirib, ishlab chiqarishni rivojlantiradi, tovarlar taklifini oshiradi . Shunday ekan, yalpi talabning o'sishi yalpi taklifning o'sishiga teng bo'lishi uchun investitsiyalar qanday o'sishi kerak degan savol paydo bo'ladi. Bu savolga javob topish uchun Domar uch tenglamani o'z ichiga olgan tenglamalar sistemasini tuzdi:

1) taklif tenglamasi;
2) talab tenglamasi;
3) talab va taklif tengligini ifodalovchi tenglama.

1. Taklif tenglamasida investitsiyalar ishlab chiqarish omillarining qanchaga qo'shimcha o'sishini ko'rsatadi . Agar berilgan sharoitda investitsiyalar ΔI o'ssa, yalpi ishlab chiqarish $\Delta K\ \alpha$ miqdorga o'sadi:

$$\Delta Ys = \Delta K\ \alpha\ ,$$

ΔK investitsiyalar hisobiga ta'minlanganligi uchun tengikni:

$$\Delta Ys = I\ \alpha$$

deb yozish mumkin, bunda,

α – kapital qo'yilmalar(investitsiyalar)ning chegaraviy unumdorligi. Agar bir yilda yalpi ishlab chiqarishni 1 mlrd. so'mga oshirish uchun 4 mlrd so'm investitsiya talab etilsa $\alpha = 0{,}25$ bo'ladi.

$\boldsymbol{\alpha = \Delta Ys\ /\ I}$ bir so'mlik investitsiya hisobiga yaratilgan yangi mahsulot miqdorini ko'rsatadi.

2. Talab tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega

$$\Delta Yd = \Delta I\ (1/\mu),$$

bu yerda:

$1/\mu$ – xarajatlar multiplikatori,

μ–jamg'arishga chegaralangan moyillik.

Bu tenglama milliy daromad ΔYd, yoki yalpi talab qo'shimcha investitsiyalarning multiplikativ ko'payishiga teng miqdorda o'sishini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish to'plangan jami kapital bilan ta'minlanishi, milliy daromad esa qo'shimcha investitsiyalarning multiplikativ ta'siri ostida ko'payishi sababli taklif tenglamasida jami investitsiyalar, talab tenglamasida esa qo'shimcha investitsiyalargina ko'rib chiqilaadi.

3. Daromadlar va ishlab chiqarish quvvatlarining qo'shimcha o'sish sur'atlari tengligi tenglamasi:

$$\Delta I\ (1/\mu) = I\ \alpha.$$

Bu tenglamani echib quyidagi natijani olamiz:

$$\Delta I / I = \mu\ \alpha.$$

(Δ I / I) – investitsiyalarning yillik o'sish sur'ati bo'lib, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish yordamida to'liq bandlilikni ta'minlab turish uchun

(μ α) miqdorga teng bo'lishi kerak. Bundan xulosa shuki investitsiyalarning mutanosib o'sish sur'ati jamg'arishga chegaralangan moyillik va investitsiyalarning unumdorligi (kapital qaytimi) darajalarining hosilasi ekan.

Agar $\mu = 0{,}2$ $\alpha=0{,}4$ bo'lsa,

$\Delta I / I = 0{,}2 * 0{,}.4 = 0{,}08$ yoki 8 %.

Demak investitsiyalarning o'sish sur'ati 8% bo'lishi talab etiladi.

E. Domar moddelidan kelib chiqadigan umumiy xulosa shuki iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun investitsiyalar hajmini oshirish, bu uchun esa jamg'arish normasi hamda fan - texnika taraqqiyoti orqali kapitalning samaradorligini oshirish zarur.

12.4. Iqtisodiy o'sishning R. Xarrod modeli.

Agar E. Domar o'z modelida investitsiyalarni ekzogen tarzda berilgan miqdor deb olgan bo'lsa, R.F. Xarrodning 1939-yilda ishlab chiqilgan iqtisodiy o'sish modeliga akselerator tamoyili va tadbirkorlarning kutishiga asoslangan endogen funksiyasi ham kiritildi. Akselerator tamoyiliga ko'ra nafaqat investitsiyalar ishlab chiqarishning o'sishini keltirib chiqaradi, balki ishlab chiqarish va daromadlarningning o'sgan hajmi ham investitsiya jarayonlarining jadallashishiga olib keladi.

R.Xarrod o'z modeliga uch tenglamani kiritadi:

1) kafolatlangan o'sish sur'ati tenglamasi;

2) haqiqiy o'sish sur'ati tenglamasi;

3) tabiiy o'sish sur'ati tenglamasi.

R Xarrod modelida haqiqiy o'sish sur'ati ishchi kuchining o'sish sur'ati va kapital unumdorligining o'sish sur'ati bilan belgilanadi.

$$G\,c = s\,,$$

bu yerda

G - YaIMning haqiqiy qo'shimcha o'sish sur'ati; $\Delta Y/Y$;

c- ishlab chiqarishning kapital talabchanligi koeffitsenti, $I/\Delta Y$;

s– milliy daromaddagi jamg'arish hajmi yoki jamg'arishga o'rtacha moyillik, S/Y;

Tadbirkorlar dinamik muvozanat ta'minlangan o'sish sur'ati bo'lgan kafolatlangan (prognoz qilingan) o'sish sur'atiga asoslanib o'z investitsiya rejalarini tuzadilar. Kafolatlangan o'sish sur'ati jamg'arishga o'rtacha moyillik darajasini akseleratorga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$Gw = s / cr\,,$$

bu yerda:

Gw – kafolatlangan o'sish sur'ati;

cr – talab etiladigan kapital talabchanlik koeffitsenti (o'tgan yillardagi shakllangan darajasi).

Bu ko'rsatkichlar doimiy bo'lganligi sababli kafolatlangan o'sish sur'atlari ham doimiy bo'ladi.

Agar haqiqiy o'sish sur'ati kafolatlangan o'sish sur'atiga mos kelsa iqtisodiyotda barqaror uzluksiz o'sish ta'minlanadi. Amaliyotda bunga doimo erishib bo'lmasligi tufayli qisqa muddatli davriy tebranishlar ro'y beradi.

Xarrod modelida resurslardan to'liq foydalangan sharoitda ta'minlanishi mumkin bo'lgan maksimal o'sish sur'ati tabiiy o'sish sur'ati deb nomlandi.

Iqtisodiyotning barqaror dinamik muvozanati to'liq bandlilik sharoitida kafolatlangan va tabiiy o'sish sur'atlari o'zaro teng bo'lganda ta'minlanadi.Ammo bunday tenglikka davlatning faol aralashuvi orqaligina erishiladi.

Nazorat savollari

1. Iqtisodiy o'sish nima?
2. Makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy belgilari nimalardan iborat?
3. Ekstensiv va intensiv iqtisodiy o'sishning farqlari nimada, sof intensiv o'sishga erishish mumkinmi?
4. Domar modelida investitsiyalar tahlili Keyns tahliliga nisbatan qanday farq qiladi?
5. Domar modelining asosiy o'zgaruvchilariga tavsif bering va uning mohiyatini tushuntiring?
6. Iqtisodiy o'sishning Xarrod modeli Domar modelidan qaysi jihatlariga ko'ra farq qiladi?
7. Domar modelida iqtisodiy o'sish shartlari qanday izohlangan?
8. Kapitalning jamg`arilishi deganda nimani tushunasiz?

XIII. IQTISODIY O'SISHNING NEOKLASSIK MODELLARI

13.1. R. Solouning neoklassik modeli asoslari

Iqtisodiy o'sishning dastlabki neoklassik modellari 1950-1960 yillarda, ya'ni dinamik muvozanat muammosiga e'tibor pasaygan va birinchi darajaga nafaqat foydalanilmagan quvvatlar hisobiga, balki shu bilan birga yangi texnikani joriy qilish, unumdorlikni oshirish va ishlab chiqarishni tashkil qilishni yaxshilash hisobiga potensial mumkin bo'lgan o'sish sur'atlariga erishish muammosi chiqqan davrda paydo bo'ldi.

Shu sababli iqtisodiy o'sish muammosining nafaqat nazariy asoslari, balki uni tahlil qilishning uslublari ham o'zgardi. Bu davrda rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida yirik firmalarning roli keskin oshdi. Bu firmalar o'z investitsiyalarini strategik rejalashtirish uchun, iqtisodiy o'sishning neokeynscha modellariga tayangan holda, mikrodarajada o'sishning dinamik modellarini tuza boshlashdi. Ta'kidlangan modellarni tuzishda firmalar chiziqli dasturlash uslublaridan va V.Leontevning ishlab chiqarish funksiyasidan foydalanishdi.

Yirik firmalarning mustaqil iqtisodiy siyosat yuritishga va iqtisodiy o'sishga erishishga intilishlari neoklassik yo'nalish vakillarini iqtisodiy o'sishning neokeynscha modellariga muqobil bo'lgan o'sish modellarini yaratishga faol kirishishga undadi. Bu yo'nalish vakillari (amerikalik iqtisodchi R. Solou va ingliz iqtisodchisi J.Mid hamda boshqalar), bozor raqobati sharoitida yirik firmalarga potensial o'sishga erishish maqsadi o'z resurslaridan to'laroq foydalanish imkonini berish uchun, iqtisodiyotga davlat aralashuvini qat'iy cheklash lozim degan fikrni olg'a surdilar.

Ular yaratgan modellarning metodologik asoslari bo'lib, shuningdek, mehnat, kapital va erni ijtimoiy mahsulotni yaratishning mustaqil omillari deb qarovchi ishlab chiqaish omillarining klassik nazariyasi xizmat qildi.

Neoklassik modellarning navbatdagi metodologik asosi bo'lib chekli (chegaralangan) unumdorlik nazariyasi hisoblanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra ishlab chiqarish omillari egalari oladigan daromad, bu omillarning chekli mahsulotlari (omillarning qo'shimcha birligi hisobiga yaratilgan qo'shimcha mahsulot) bilan belgilanadi.

Neoklassik maktab nazariyotchilari iqtisodiy o'sishning neokeynscha nazariyalarini uch jihat bo'yicha tanqid qildilar:

- birinchidan, ular e'tiborni faqat iqtisodiy o'sishning bir omiliga-kapital jamg'arishga (investitsiyalarnining qo'shimcha o'sishiga) qaratishdi. Boshqa omillar (ayniqsa texnik taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan holatlar, ya'ni ishchi kuchining ma'lumot darajasi va malakasining o'sishi, ishlab chiqarishni tashkil etishning yaxshilanishi hamda boshqalar) ular e'tiboridan chetda qoldi. Neoklassiklar bo'sh turgan ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish uchun yangi ishchi kuchini jalb qilish hisobiga ham ishlab chiqarishning qo'shimcha o'sishini ta'minlash mumkin deb hisobladilar;

- ikkinchidan, neokeynschilar ishlab chiqarishning kapital talabchanligi koeffitsenti-s ($s=I/\Delta Y$)ni o'zgarmas deb qaradilar. Neoklassik modellar esa ikki ishlab chiqarish omilini (kapital va mehnatni) hisobga olgan holda va ularning o'zaro bir-birini almashtirishini (substitut ekanligini) ko'zda tutib bu koeffitsent o'zgarishi mumkinligini nazarda tutadilar. Bundan esa, ishlab chiqarishning berilgan texnik qurollanishi darajasida, belgilangan ishlab chiqarish hajmiga resurslarning turli kombinatsiyalarini qo'llab erishish mumkin degan xulosa chiqadi;

- uchinchidan, neokeynschilar bozor mexanizmining muvozanatni avtomatik tiklash qobiliyatini etarlicha baholamadilar. Neokeynschilardan farqli ravishda, neoklassiklar faqatgina raqobatga asoslangan bozor tizimigina iqtisodiy o'sishning balanslashganligini ta'minlashi mumkin deb hisobladilar. Ular iqtisodiy o'sishning balanslashganligini ta'minlash raqobat mexanizmidan tashqari barqaror pul tizimiga ham bog'liq, raqobat mexanizmi va barqaror pul tizimi bozor

muvozanatini avtomatik tiklaydi deb hisoblashdilar. Shu sababli ular, davlatning iqtisodiyotga aralashuviga barqarorlikni buzuvchi omil sifatida qarab, inflyatsion davlat xarajatlariga qarshi chiqdilar.

Neoklassik modellar barcha iqtisodiy jarayonlarning aniq holatini qamrash xususiyatiga egadir.

Birinchi neoklassik model R. Solou tomonidan 1956 yilda "Iqtisodiy o'sish nazariyasiga hissa" asarida tasvirlab berildi va so'ngra 1957 yilda "Texnik taraqqiyot va agregativ ishlab chiqarish funksiyasi" nomli asarida rivojlantirildi.

R.Solou modeli mutanosib iqtisodiy o'sishning zarur sharti yalpi talab va yalpi taklifning tengligi hisoblanadi. Modelda yalpi taklif Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funksiya bilan ifodalangan. Bu funksiya bir tomondan ishlab chiqarish hajmi va ikiinchi tomondan foydalanilayotgan omillar hamda ularning o'zaro kombinatsiyalari o'rtasidagi funktsional bog'liqlikni aks ettiradi, ya'ni:

Y= f(L,K,N), modelda yuqori texnik rivojlanish bosqichida erning kichik ahamiyatga egaligi tufayli ishlab chiqarish faqat mehnat resurslari va kapitalga bog'liq deb olingan.

Y= f(L,K), funksiyaning kengaytirilgan ko'rinishi quyidagicha:

$$Y= (\Delta Y/ \Delta L) L + (\Delta Y/ \Delta K)K ,$$

bu erda: $\Delta Y/ \Delta L$- mehnatning chekli mahsuloti (MPL);

$\Delta Y/ \Delta K$- kapitalning chekli mahsuloti (MPK).

Solou modeliga ko'ra yalpi ishlab chiqarish hajmi mehnat unumdorligini -bitta ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot ishlab chiqarish hajmini (y=Y/L) o'stirish hisobiga ta'minlanishi mumkin. Ayni paytda mehnat unumdorligi kapital bilan qurollanganlik darajasining k= K/L) funksiyasi, ya'ni

$$y =f (k),$$

Bu erda f(k) = F(k, 1).

Kapital (fond) bilan qurollanganlik darajasining o'sishi esa jamg'arish normasiga bog'liq.



13.1-rasm. **Bitta ishchiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish va talab**

Modelda yalpi talab investitsion va iste'mol xarajatlari bilan belgilanadi deb olinadi.

$$Y = C + I.$$

Davlat xarajatlari va sof eksport ko'rsatkichlari ham iste'mol va investitsiyalar tarkibiga kiritib yuboriladi.

Daromad, shakllangan jamg'arish normasiga ko'ra, iste'mol va jamg'arishga bo'linishini hisobga olib iste'mol funksiyasini quyidagi ko'rinishda yozishimiz mumkin:

$$C=(1-s)Y,$$

Bu erda s-jamg'arish normasi.

Bundan

$$Y= C + I=(1-s)Y+ I,$$

o'z navbatida **I**= sY kelib chiqadi.

Boshqacha aytganda muvozanat holatida investitsiyalar jamg'armalarga teng va daromadga proportsionaldir.

Talab va taklifning tengligi shartini quyidagicha yozish mumkin:

$$f(k)=C+I,\ f(k)= I/s.$$

Ishlab chiqarish funksiyasi tovarlar bozorida taklifni, kapital jamg'arish esa ishlab chiqarilgan mahsulotga talabni belgilaydi. Ishlab chiqarish hajmi dinamikasi kapital (kapital bilan qurollanganlik) hajmiga bog'liq. Kapital hajmi esa uning chiqib ketishi va investitsiyalar ta'sirida o'zgaradi. Investitsiyalar kapital zaxirasini orttiradi, chiqib ketish (amortizatsiya) esa uni kamaytiradi.

Investitsiyalar fond bilan qurollanganlik va jamg'arish normasiga bog'liq.. Bu iqtisodiyotda talab va taklif tengligi shartidan kelibchiqadi: **I**= sf(k). Jamg'arish normasi (s) k ning har qanday miqdorida mahsulotning investitsiya va iste'molga bo'linishini belgilaydi:

$$Y =f(k),\ \mathbf{I}= sf(k),\ S=(1-s)f(k)$$

13.2. R. Solou modelida kapitalning chiqib ketishi aholi soni o'sishing barqaror muvozanat va iqtisodiy o'sishga ta'siri

Amortizatsiya quyidagicha hisobga olinadi: agar yiliga eskirish hisobiga kapitalning qayd etilgan d qismi chiqib ketadi deb hisoblasak (chiqib ketish normasi), chiqib ketish miqdori kapital hajmiga proportsional bo'ladi va dk ga teng bo'ladi. Grafikda bu aloqadorlik koordinata boshidan d burchak koeffitsenti bilan chiquvchi to'g'ri chiziq bilan aks ettiriladi (13.2. rasm).



13.2-rasm. **Investitsiyalar va kapitalni chiqib ketishini iqtisodiy muvozanatga ta'siri**

Investitsiyalar va chiqib ketishning kapital zaxirasi dinamikasiga ta'sirini $\Delta k=I-d$, yoki investitsiyalar va jamg'armalar tengligidan foydalanib $\Delta k=s\cdot f(k)-dk$ ko'rinishida yozish mumkin. Kapital zaxirasi(k), investitsiyalar hajmi, kapitalning chiqib ketishi hajmiga teng bo'lguniga qadar, ya'ni $s\cdot f(k)=dk$ shart bajarilguniga qadar oshib boraveradi. Shundan so'ng bitta ish bilan band xodimga to'g'ri keladigan kapital zaxirasi (fond bilan qurollanganlik) o'zgarmaydi ($\Delta k=0$).

Investitsiyalar hajmi kapitalning chiqib ketishi hajmiga teng bo'lgan sharoitdagi kapital zaxirasi darajasi fond bilan qurollanganlikning muvozanatli (barqaror) darajasi deyiladi va k* deb belgilanadi. K* ga erishilganda iqtisodiyot uzoq muddatli muvozanat holatida bo'ladi. Muvozanat barqaror bo'lishiga sabab k ning dastlabkit miqdori qandayligidan qat'iy nazar iqtisodiyot muvozanat holatiga, ya'ni k* ga intiladi. Agar k ning boshlang'ich miqdori k* dan kam bo'lsa, yalpi investitsiyalar (sf(k)) chiqib ketish miqdori (dk) dan ko'p bo'ladi va kapital zaxirasi sof investitsiyalar miqdoriga ko'payib boradi. Aksincha $k_2>k$ bo'lsa, investitsiyalar amortizatsiyadan kamligini anglatadi. Bu holda kapital zaxirasi muvozanatli darajaga qadar kamayib boradi (13.2.-rasm).



13.3-rasm. **Jamg'arish normasiningning iqtisodiy muvozanatga ta'siri.**

Jamg'arish normasi(me'yori) fond bilan qurollanganlikning barqarorr darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Jamg'arish normasining s_1 holatdan s_2 holatga siljishi investitsiyalar egri chizig'ini yuqoriga $s_1f(k)$ holatdan $s_2f(k)$ holatga qadar siljishini keltirib chiqaradi (13.3-rasm).

Boshlang'ich holatda iqtisodiyot kapitalning barqaror zaxirasi k^*_1 ga ega bo'lib, investitsiyalar amortizatsiyaga teng edi. Jamg'arish normasi oshganidan so'ng investitsiyalar (I'_1-I_1) miqdorga o'sdi, kapital zaxirasi (k^*_1) va amortizatsiya (dk_1) esa o'zgarmasdan qoldi. Bunday sharoitda investitsiyalar kapitalning chiqib ketishi (amortizatsiya)dan ortiqlik qiladi va kapital zaxirasining yangi muvozanat darajasi (k^*_2) ga qadar o'sishini keltirib chiqaradi. k^*_2 esa fond bilan qurollanganlik va mehnat unumdorligining yuqoriroq darajalari bilan xarakterlanadi.

Solou modeli jamg'arish normasi kapital bilan qurollanganlikning barqaror darajasiga erishishning o'ta muhim omili ekanligini ko'rsatadi.

Jamg'arish normasining o'sishi investitsiyalar hajmining oshishini keltirib chiqaradi. Bu esa asosiy kapital miqdorining ortishiga, o'z navbatida kapital bilan qurollanganlik darajasining (k) ko'tarilishi orqali , pirovard natijaga, ya'ni esa ishlab chiqarish hajmining (Y) ko'payishiga olib keladi.

Shunday qilib, jamg'arish normasining oshishi barqaror muvozanat sharoitida yuqoriroq ishlab chiqarish va kapital zaxirasi darajasiga erishish imkonini beradi. Ammo jamg'arish normasining ortishi qisqa muddatdli davrda, iqtisodiyot yangi barqaror muvozanat nuqtasiga yetgunga qadar, iqtisodiy o'sishni jadallashishiga olib keladi. Jamg'arish jarayoni ham, jamg'arish normasining oshishi ham barqaror muvozanat holatida aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmining uzluksiz o'sishi mexanizmini tushuntirish uchun etarli emas. Ular muvozanatning bir holatidan ikkinchi holatiga o'tilishini ko'rsatadi xolos. Solou modelini keyingi rivojlantirilishida navbat bilan ikki shart olib tashlanadi: aholi soni va uning ish bilan band qismi sonining o'zgarmasligi hamda texnik taraqqiyotning mavjud emasligi.

Aholi doimiy (*n*) sur'at bilan o'sadi deb tasavvur qilamiz. Ishchilar sonining ko'payishi boshqa teng sharoitlarda mehnatning kapital bilan qurollanishi darajasining qisqarishiga olib kelishi mumkin. Natijada, bir ishchiga to'g'ri keladigan kapital zaxirasi o'zgarishini ko'rsatuvchi tenglama quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\Delta k = I - dk - nk \text{ yoki } \Delta k = I - (d+n)k.$$

Mehnatning kapital bilan qurolanganligi pasayishi tufayli uni oldingi darajada saqlab turish uchun investitsiyalarning kapital chiqib ketishini qoplaydigan hajmi zarur. Kapital jamg'arish normasi yuqori bo'lmasa kapitalning chiqib ketishi, aholi sonining o'sishi tufayli kapital bilan qurollanganlik darajasi o'zgarmasdan qolishi yoki pasayib ketishi mumkin.



13.4-rasm. **Aholi soni o'sishiningiqtisodiy muvozanatga ta'siri.**

Matematik jihatdan o'zgarmas kapital bilan qurollanganlik sharoitidagi iqtisodiyotda barqaror muvozanat sharti quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\Delta k = sf(k) - (d+n)k = 0 \text{ yoki } sf(k) = (d+n)k.$$

Tenglamadagi (d+n)k investitsiyalarning kritik kattaligini xarakterlaydi. Ya'ni bir ishchiga to'g'ri keladigan kapitalni doimiy o'zgarmas darajada saqlab turadigan hajmini ifodalaydi.

Aholi o'sishining hisobga olgan holda R. Solou modelini grafik jihatdan ifodalash uchun mehnatning kapital bilan qurollanganligi barqaror darajasini (k*) deb belgilaymiz. Aniqlaganimizdek, agar bir ishchiga to'g'ri keladigan kapital (k=const) bo'lsa iqtisodiyot muvozanat holatida bo'ladi. Agar k1<k* bo'lsa, unda amaldagi investitsiyalar ularning kritik kattaligidan yuqori va (k_1) k* ga qadar o'sadi. Agar k_2>k*, unda investitsiyalar ularning kritik darajasidan past va (k_2)k* ga qadar pasayadi.

Model iqtisodiyot barqaror holatda bo'lishi uchun investitsiyalar sf(k) kapital chiqib ketishi va aholining o'sishi (d+n)k oqibatlarini qoplashi kerakligini ko'rsatadi. B holda kapital bilan qurollanganlik (k) va mehnat unumdorligi (y) o'zgarmas qoladi. Lekin aholi o'sishida kapitalning doimiyligi rapital ham aholiga mos sur'atda o'sishi kerakligini anglatadi: ya'ni:

$$\Delta Y/Y=\Delta L/L=\Delta K/K=n.$$

Bundan quyidagi xulosa kelib chiqadi: aholining o'sishi – iqtisoiyotning barqarorlik holati sharoiidagi uzluksiz iqtisodiy o'sishning sabablaridan biri.

Biroq agar aholining o'sishi investitsiyaning oshishi bilan birga bormasa, unda bu bir ishchiga tug'ri keladigan kapital zaxirasining kamayishiga olib keladi.Aholining n dan n_1 ga o'sishi (d+n)k chizig'ini yuqoriga (d+n_1)k holatiga siljitadi. Bu esa kapital bilan qurollanganlikni k* dan k1* gacha qisqartiradi. Shunday qilib, R.Solou modeli aholi o'sishining yuqori sur'atlarga ega bo'lgan davlatlarda kapital bilan qurollanganlik past –demakki, daromadlar ham past bo'lishini tushuntirib beradi.

R.Soluning fikriga ko'ra, barqaror muvozanat sharoitida kapital, mehnat va milliy daromad darajasi bir xil, aholi soni o'sishiga teng sur'atda o'sib boradi. Aholi sonining tez o'sishi iqtisodiyotning o'sish sur'atlari jadallashishiga ta'sir etadi, ammo barqaror muvozanat holatida aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish kamayadi. O'z navbatida, jamg'arish normasining oshirilishi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad miqdorini oshiradi va kapital bilan qurollanganlik koeffitsentini ko'tarilishiga olib keladi, lekin barqaror holatdagi

o‘sish sur’atiga ta’sir ko‘rsatmaydi. Shu sababli barqaror holatdagi iqtisodiy o‘sishning yagona sharti texnik taraqqiyotning o‘sish sur’ati hisoblanadi.

13.3. Texnologik taraqqiyotning iqtisodiy o‘sishga ta’siri. Felpsning «oltin qoidasi».

Iqtisodiy o‘sishning investitsiyalar va bandlar sonining oshishidan keyingi uchinchi manbasi bo‘lib, texnik taraqqiyot hisoblanadi. Neoklassik nazariyada texnik (texnologik) taraqqiyot deganda ishlab chiqarishning mashinalashtirilishi emas, balki, ishlab chiqarishdagi sifat o‘zgarishlari (ishchilarning ma’lumot darajalari va malakalarining o‘sishi, ishlab chiqarishni tashkil qilishning yaxshilanishi, ishlab chiqarish ko‘lamining kengayishi) tushuniladi.

Modelga texnik taraqqiyotning kiritilishi ishlab chiqarish funksiyasini o‘zgartirib, u quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$Y=f(K,L*E).$$

Bu erda (E)- mehnat birligi samaradorligi (ishchi kuchining salomatligi, ma’lumoti va malakasiga bog‘liq):

(L*E)- doimiy samaradorlik E ga ega shartli mehnat birliklari soni.

E qanchalik katta bo‘ls, mavjud ishchilar soni bilan shuncha ko‘p mahsulot ishlab chiqarilishi mumkin.

Texnik taraqqiyot mehnat samaradorligi (E) ning doimiy surat (g)bilan o‘sishga olib keladi. Shuning uchun g =2% bo‘lganda, mehnatning har bir birligidan qaytim yiliga 2% ga oshadi, bu esa ishlab chiqarish hajmining ishchi kuchi yiliga 2% o‘sgandagi kabi o‘sishiga olib keladi. Texnik taraqqyotning bunday shakli mehnatni tejaydi deyiladi, (g)– esa mehnatning tejaydigan texnik taraqqiyotning surati. Endi texnik taraqqiyot holatidagi kapital bilan qurollanganlikning barqaror darajasini aniqlash mumkin. Agar bandlarning soni (L) (n) sur’at bilan oshayotgan bo‘lsa, samaradorlik (E) esa (g)sur’at bilan o‘sayotgan bo‘lsa, unda (LE) (n+g) sur’at bilan oshib boradi.

Doimiy samaradorlikka ega bir mehnat birligiga to'g'ri keladigan kapital k_1+[K/(LE)] ni tashkil etadi. Doimiy samaradorlik bilan mehnat birligiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmi esa u_1=Y/(LE)ni tashkil etadi. Bunda barqaror muvozanatlilik holatiga quyidagi shartda erishiladi:

$$sf(k_1)=(d+n+g)k_1$$

Tenglama kapital bilan qurollanganlikning, o'zgarmas samaradorlikka ega bo'lgan mehnat birligiga to'g'ri keladigan kapital va ishlab chiqarishning doimiyligini ta'minlaydigan, faqatgina bitta darajasi (k*) mavjud ekanligini ko'rsatadi. Bu barqaror holat iqtisodiyotning uzoq muddatli muvozanatini ifodalaydi.(13.5.-rasm).



13.5-rasm **Texnologik taraqqiyotning barqaror muvozanatga ta'siri**

(K_1*) ning barqaror (qat'iy) holatida texnik taraqqiyot mavjud bo'lgan sharoitda kapital hajmi (K) va ishlab chiqarish (U) (n+g) sur'at bilan o'sadi. Bir ishchi hisobiga to'g'ri keladagan kapital bilan qurollanganlik (K/ L) va ishlab chiqarish (U/L) (g)- sur'at bilan o'sib boradi. Bu R.Solou modelida texnik taraqqiyot-turmush darajasi uzluksiz o'sishining yagona sharti ekanligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, R.Solou modeli iqtisodiy o'sishning uch manbai-investitsiyalar, ishchi kuchi soni va texnik taraqqiyot o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni yoritish imkonini beradi. Davlat iqtisodiy o'sishga jamg'arma me'yori va texnik taraqqiyotni jadallashtirish orqali ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Jamg'arma me'yori qanday bo'lishi kerak? Aniqlaganimizdek muvozanatli iqtisodiy o'sish jamg'armaning turli me'yorlari bilan muvofiqlashadi. Shuning uchun maksimal iste'mol darajasi bilan iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan me'yor optimal bo'ladi. Bunday me'yor "Oltin qoida" ga muvofiq keladi. Jamg'armaning bu me'yoriga mos keladigan kapial bilan qurollanganlik darajasini (k**) bilan iste'molni esa – (S**) bilan belgilaymiz. Oldin biz ishlab chiqariladigan mahsulot iste'mol va investitsiyalarga sarflanadi deb belgilagan edik:

$$Y=C+I$$

bundan

C=Y-I kelib chiqadi.

Berilgan parametrlarning o'rniga ular barqaror holatidagi ifodasini qo'ysak, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$C^*=f(k^*)-dk^*,$$

bu erda s*- barqaror o'sish holatidagi iste'mol.

Iste'mol hajmi maksimal bo'ladigan kapital bilan qurollanganlikning barqaror darajasi "Oltin qoida"ga muvofiq keladi. "Oltin qoida" bo'yicha kapital bilan qurolanganlik k** bilan iste'mol esa- S** bilan belgilangan.



13.6-rasm. **Felpsning «oltin qoidasi» bo'yicha iste'molning barqaror darajasi.**

"Oltin qoida" darajasiga mos keladigan kapital bilan qurollanganlik holatida f(k*) ishlab chiqarish funksiyasi va dk* chizig'i bir xil og'maga ega va isst'mol maksimal darajaga erishadi.

k** kapital bilan qurollanganlik darajasida kapital zaxirasining bir birlikka oshishi ishlab chiqarish o'sishini keltirib chiqaradi (kapitalning chegaraviy mahsulotiga teng keladigan) va kapitalning d kattalikka chiqib ktishini oshiradi. Shunday qilib, "Oltin qoida"ga mos keladigan k** kapital bilan qurollanganlik darajasida MPK=d shart bajariladi. Aholi o'sishi va texnik taraqqiyotni hisobga olgan holda esa MPK=d+n+g shart bajariladi.

Agar iqtisodiyot "Oltin qoida" bo'yicha ega bo'lishi mumkin bo'lgan kapital zaxirasidan ortiqcha kapital zaxirasi bilan rivojlanayotgan bo'lsa, unda bu holatda jamg'arma me'yorini pasaytirishga yo'naltrilgan siyosatni amalga oshirish zarur. Jamg'arma me'yorining kamayishi iste'molning oshishi va unga muvofiq ravishda investitsiyalarning pasayishiga olib keladi, demak kapital zaxirasining barqaror darajasining pasayishiga ham olib keladi.

Agar iqtisodiyot barqarorlik holatida "Oltin qoida" dagidan kam kapital bilan qurollanganlik bilan rivojlanayotgan bo'lsa, unda jamg'arma me'yorini oshirish zarur. Bu investitsiyalarni oshirib iste'molni pasaytiradi, lekin kapitalning jamg'arilib borishi bo'yicha qandaydir vaqtdan boshlab yana o'sa boshlaydi. Natijada iqtisodiyot yana yangi muvozanat holatiga erishadi ammo oltin qoidaga muvofiq bo'lgan holda, bunda iste'mol dastlabkiga nisbatan yuqoriroq darajaga ega bo'ladi.

R.Solou modeli texnik taraqqiyotni farovonlikni barqaror oshiruvchi va o'sishning optimal variantini topishga imkon yaratuvchi yagona asos sifatida ko'rsatadi. Biroq u texnik taraqqiyotni tashqi (ekzogen) omil sifatida ko'rib chiqadi, demakki uni tushuntirmaydi. Ayrim olimlarning fikricha, texnik taraqqiyotning determinantlari bugungi kunda etarlicha aniq emas. Biroq davlat siyosati turli xil instrumentlardan shu jumladan ilmiy tadqiqot va loyiha – konstruktorlik ishlaridan foydalanib texnik taraqqiyotni rag'batlantirishi mumkin.

Masalan, patent qonunchiligini mukammallashtirib, ayrim rivojlangan mamlakatlar (AQSh,Yaponiya, Germaniya) uzoq muddat davomida yangi mahsulotni ishlab chiqarish huquqiga monopoliyani berishdi. Soliq to'g'risidagi qonunlar ko'pgina mamlakatlarda ilmiy tadqiqot tashkilotlariga bir qancha imtiyozlar beradi. Maxsus tashkil etilgan milliy ilmiy fondlar fundamental ilmiy tadqiqotlarga subsidiyalar beradi. Hozirgi kunda mablag'larni inson kapitaliga yo'naltirish ham muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda, texnik taraqqiyotida u asosiy rolni o'ynaydi.

13.4. Iqtisodiy o'sishning J.Mid va A. Lyuis modellari.

J.Midning iqtisodiy o'sish modeli ham neoklassik asoslarga ega. U iqtisodiy o'sishni chekli unumdorlik qonuni qo'llaniladigan marjinalistik yondashuvlar bilan tushuntiradi. O'z konsepsiyasini J. Mid "Iqtisodiy o'sishning neoklassik nazariyasi" (1961) kitobida bayon etdi. Kobba-Duglas funksiyasining zamonaviylashtirilgan variantidan foydalanib, J Mid barqaror dinamik muvozanat imkoniyati tenglamasini keltirib chiqardi.

$$Y=\alpha k+\beta L+r,$$

bu erda Y-milliy daromadning o'rtacha yillik o'sish surati:

k- kapitalning o'rtacha yillik o'sish sur'ati;

L- mehnatning o'rtacha yillik o'sish sur'ati;

α- milliy daromadda kapitalning ulushi;

β- milliy daromadda mehnatning ulushi;

r- texnik taraqqiyot sur'ati.

Tenglama, milliy daromadning o'sish sur'ati milliy daromadda ega bo'lgan ulushi bo'yicha mehnat va kapital o'sish sur'atlarining yig'indisiga texnik taraqqiyot sur'ati qo'shilishidan paydo bo'lgan miqdorga teng bo'lishini ko'rsatadi.. Mehnat va texnik taraqqiyot o'sish sur'atlarini doimiy deb taxmin qilib J. Mid quyidagi xulosaga keldi; iqtisodiy o'sishning barqaror sur'ati kapital

o‘sishning barqaror sur’atlari va uning milliy daromad o‘sish sur’atlari bilan tengligi sharoitida erishiladi. Agar kapitalning o‘sish sur’atlari milliy daromadning o‘sish sur’atlaridan oshsa, unda bu jamg‘arish sur’atlarining o‘z-o‘zidan pasayishiga olib keladi.

Bunday bog‘liqlik J.Midning jamg‘arishning milliy daromaddagi ulushi doimiy deb shart kiritganligining natijasidir. Shu sababli kapital jamg‘arishning (investitsiyalarning) yuqoriroq sur’atlarini moliyalashtirish uchun zarur bo‘lgan jamg‘armalarning qo‘shimcha o‘sishi birichisidan orqada qoladi va unga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Agar kapitalning o‘sish sur’ati milliy daromadning o‘sish sur’atidan orqada qolsa teskari holat ro‘y beradi.

Mehnat unumdorligi o‘sish sur’atlarining dinamik muvozanatga ta’sirini ko‘rib chiqib J. Mid agar ular kapital jamg‘arish sur’atidan oshsa unda chekli mehnat unumdorligining pasayishi natijasida mehnatning kapital bilan almashtirilishi hosil bo‘ladi degan xulosaga keldi. Ishlab chiqarish jarayonida ularning yangi nisbati esa mehnatning ham, kapitalning ham to‘liq bandligini ta’minlaydi. Shu bilan birga J. Mid real holatda mehnatning va kapital jamg‘arilishining o‘sish sur’atlari o‘rtasida muvofiqlikka amal qilish zarurligiga e’tibor qaratgan. Aks holda, agar mehnatning o‘sishi shunga muvofiq kapital oshishi bilan birga bormasa ishlab chiqarishning o‘sishi ro‘y bermaydi, chunki ishchi kuchining o‘sishi ortiqcha bo‘lib ishsizlik vujudga keladi. Agar kapital mehnat unumdoligini o‘sish sur’atlaridan tezroq o‘ssa, unda ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari hosil bo‘ladi. Biroq bu holda ham dinamik muvozanatga erishish usullari mavjud. J. Mid bozorlarning neoklassik nazariyasiga asoslanib ularni ko‘rsatadi.

Bunda, mehnat bozorida ishsizlikning vujudga kelishi raqobatni kuchaytiradi, bu esa o‘z navbatida ish haqi stavkalarining pasayishiga va kapitalning foydaliligining o‘sishiga olib keladi. Natijada jamg‘arish sur’atlari oshadi va ishchi kuchining o‘sish sur’atlari bilan tenglashadi. J. Mid modelida davlat pul-kredit siyosatidan foydalangan holda faqatgina bilvosita barqarorlashtiruvchi rolini

bajarishi kerak. Faqat shugina daromadlar va jamg'armalarni qayta taqsimlashning, resurslarning zarur bandligi va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan, samarali mexanizmini yaratish imkonini beradi.

A. Lyuis o'z modelida ishchi kuchi zaxirasi (rezerv) ni iqtisodiy o'sishning asosi sifatida ko'rib chiqadi. Shuning uchun uning fikricha, bu model "aholi zichligi yuqori, kapital taqchil, tabiiy resurslar esa cheklangan" davlatlar uchun qo'l keladi. Bunday mamlakatlarga A. Lyuis Hindiston, Pokiston, Misr va boshqalarni kiritadi.

A. Lyuis o'z konsepsiyasida erkin bozor g'oyasiga asoslanganligi tufayli, tahlil markaziga tadbirkor shaxsini qo'yadi. U bozorda mavjud ishlab chiqarish omillaridan, ya'ni mehnat, er va kapitaldan foydalanish xususida qarorlar qabul qiladi, Model iqtisodiyotning ikki sektori: agrar va sanoat sektorlarini hisobga olgan holda quriladi:. Agrar sektorda mehnat resurslarining taklifi cheklanmagan, mehnat unumdoligi juda past, chekli mahsulot esa nolga teng deb taxmin qilinadi. Bu esa qishloq xo'jaligidan ishchi kuchining "olinishi" ishlab chiqarish qisqarishiga olib kelmasligini anglatadi. Qishloq xo'jaligida ishchilarning ish haqi yashash minimumi darajasida bo'lgani sababli, bu ishchi kuchidan sanoatda foydalanish hech qanday muammo tug'dirmaydi. Bu sektordagi mehnat unumdoligi agrar sektordagidan ancha yuqori.

Shunday qilib, A. Lyuis modelining vazifasi mehnat resurslarining bir qismini qishloq xo'jaligidan sanoatga qayta taqsimlash va bu bilan iqtisodiy o'sish sur'atining tezlanishiga erishish hisoblanadi. Bu jarayonda asosiy mexanizm bo'lib tarmoqlararo bozor xizmat qiladi.

Sanoat ishlab chiqarish mashtablarini kengaytirib, o'z ishchilarining daromadlari o'sishini ta'minlaydi, bu esa ichki talabni oshishiga ko'maklashadi. Bunda tadbirkorlar o'sib borayotgan daromadlarni ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltiradilar. Bu daromadlar keyinchalik iqtisodiy o'sishga dinamik ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy o'sishning o'zini A. Lyuis ikki turga ajratadi: sanoatda uning manbai bo'lib qo'shimcha ishchi kuchidan foydalanish hisoblanadi (ekstensiv tur), qishloq xo'jaligida esa- chekli mehnat unumdorligining oshishi (intensiv tur). Iqtisodiy o'sishning bu ikki turi investitsiyalashning ikki turli xil funksiyalariga muvofiq keladi. Sanoatda gap asosan kapitalni kengaytirish ustida boradi. Shuning uchun investitsiyalarning berilgan funksiyasi yakuniy sanoat mahsulotiga talabga bog'liq bo'ladi. Uning o'sishi daromadlar oshishi va investitsiyalar kengayishini rag'batlantiradi. Qishloq xo'jaligida, aksincha, investtsiyalar daromadlarning qisqarishiga bog'liq holda kengayadi: ish haqiga xarajatlarning ko'payishi fermerlarni qo'l mehnatini mashina mehnati bilan almashtirishga majbur qiladi.

O'z modelini rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ishlab chiqib A. Lyuis uni industrial bosqichni o'tgan g'arbiy mamlakatlar uchun to'g'ri kelmaydi, deb hisoblagan. Boshqa mualliflar esa, aksincha, uni rivojlangan iqtisodiyot sharoitlari uchun maqbul deb hisoblashadi. Sh.Kindlberger o'z tahlilida ko'rsatganidek iqtisodiy o'sishning mehnat va kapital bilan bog'liqligining eng yaxshi namunasi bo'lib Shveytsariya, GFR, Italiya va Niderlandiya hisoblanadi. Buyuk Britaniya , Belgiya, Shvetsiya, Norvegiya va Daniya kabi mamlakatlar ham A. Lyuis modelini teskari bog'liqlikda bo'lsada, tasdiqlashdi: bu mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning past sur'atlari mehnat resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan cheklangan holda foydalanish bilan bog'liq edi. Yana bir guruhni sezilarli ishchi kuchi ortiqchaligini boshidan kechirgan mamlakatlar tashkil etadi (Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya, Turkiya). Ularning iqtisodiy o'sishi ham Sh.Kindlberger fikricha A. Lyuis modeliga to'g'ri keladi. Bu mamlakatlar nafaqat o'z sanoatini balki boshqa evropa davlatlari sanoatini ham ishchi kuchi bilan ta'minlar edi va butun qit'a uchun o'ziga xos mehnat zaxirasi fondi vazifasini bajargan edi.

Nazorat savollari:

1. Iqtisodiy o'sish omillarini ishlab chiqarish, talab va taklif omillariga qaysi tamoyillarga asoslanib bo'linadi?

2. Iqtisodiy o'sishning dastlabki neoklassik modellari qachon yuzaga kelgan?

3. Iqtisodiy o'sishning Solou modeli?

4. Qanday qilib jamg`armalar iqtisodiyotning o'sish natijalariga olib keladi?

5. Kapitalning "Oltin Qoidasi" deganda nimani tushunasiz?

6. Aholining o'sishi iqtisodiy o'sishga qanday ta'sir ko'rsatdi?

7. Kapitalning chiqib ketishini iqtisodiy o'sishga ta'sirini tushuntirib bering?

8.Aholi sonining o'sishi kapital bilan qurollanganlik darajasiga va ishlab chiqarish hajmiga qay yo'sinda ta'sir ko'rsatadi?

XIV BOB. OCHIQ IQTISODIYOT: MANDELL–FLEMING MODELI VA VALYUTA KURSI TIZIMI

14.1.Ochiq iqtisodiyot tushunchasi va uning ko'rinishlari

Hozirda dunyoning hech bir mamlakati tashqi iqtisodiy aloqalar va munosabatlardan uzilgan holatda emas. Shu sababli to'liq makroiqtisodiy model o'zida ham ichki, ham tashqi bozorlarda amalga oshirilayotgan operatsiyalarni majassam etishi lozim. To'liq makroiqtisodiy model-ochiq iqtisodiyot modelidir. Ochiq iqtisodiyot- shunday iqtisodiyotki, u:

a) mamlakat ishlab chiqarayotgan tovarlari va xizmatlarining ma'lum bir qismini eksport va import qilishini;

b) mamlakat jahon moliya bozorlarida kredit olishi va kredit berishini anglatadi.

Agar yopiq iqtisodiyot sharoitida barcha ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar ushbu mamlakat ichkarisida sotilsa va barcha xarajatlar uch qismga: iste'mol, investitsiya va davlat xarajatlariga bo'linsa, ochiq iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan mahsulotning ma'lum bir qismi chet elga eksport qilinadi. Bunda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga, xarajatlarga to'rtinchi unsur sifatida mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning eksporti (chet elliklarning mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni sotib olishga qilgan xarajatlari) ham kiritiladi. Iqtisodiyot kichik ochiq iqtisodiyot va katta ochiq iqtisodiyotga bo'linadi.

Kichik ochiq iqtisodiyot va katta ochiq iqtisodiyot o'zaro farqlanadi.

Kichik ochiq iqtisodiyot katta bo'lmagan mamlakat iqtisodiyotidir. Kichik ochiq iqtisodiyot modeli kapital harakati hisobi va joriy operatsiyalar hisobini o'z ichiga oladi. Bunday iqtisodiyot jahon bozorida katta ulushga ega emas va jahon foiz stavkasiga amalda ta'sir ko'rsata olmaydi. Kichik ochiq iqtisodiyot

jamg'armalari va investitsiyalari-jahon jamg'armalari va investitsiyalarining juda kichik miqdorini tashkil etganligi sababli jahon moliyaviy bozorlaridagi shart-sharoitlarga ko'ra belgilangan jahon foiz stavkasi bu iqtisodiyotda belgilab berilgan (ekzogen) ko'rsatkich sifatida qabul qilinadi.

Katta ochiq iqtisodiyot ko'lami yirikligi sababli foiz stavkasi mamlakatning ichida ro'y berayotgan jarayonlarning jiddiy ta'sirida shakllanadigan iqtisodiyotdir. Katta ochiq iqtisodiyot jahon jamg'armalari va investitsiyalarining katta qismiga egalik qilayotan yirik mamlakat (AQSh, XXR, Germaniya, Yaponiya, Rossiya va boshq.) iqtisodiyotidir. Bunday mamlakatlar jahon moliya stavkasiga ta'sir ko'rsata oladi.

Ochiq iqtisodiyotning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardir:

a) YalMdagi tashqi savdo kvotasi;

b) ishlab chiqarish hajmidagi eksport ulushi;

g) iste'mol tarkibidagi importning ulushi;

d) investitsiyalar hajmidani xorijiy investitsiyalarning ulushi.

Iqtisodiyotning ochiqligi darajasi odatda mamlakatning tashqi savdosi hajmiga yoki hukumatning siyosiy liniyasiga bog'liq bo'ladi. Masalan, Buyuk Britaniya iqtisodiyoti nisbatan ochiq hisoblanadi, chunki u tashqi savdoga juda bog'langan. AQSh iqtisodiyoti esa nisbatan yopiqdir, chunki tashqi savdo uning rivojlanishi uchun hal etuvchi ro'l o'ynamaydi. Ochiq iqtisodiyot xalqaro hisob-kitoblarda xorijiy valyutadan foydalanishni ko'zda tutadi. U to'lov balansida, xususan joriy operatsiyalar balansi va kapital harakati balansida o'z aksini topadi.

Monetar (pul-kredit) va fiscal (byudjet-soliq) siyosat olib borilayotganda, siyosatchilar o'z mamlakatlari chegaralaridan tashqaridagi mamlakatlarga nazar solishadi. Xatto mahalliy rivojlanish ularning yagona maqsadlari bo'lsada, ular uchun dunyodagi boshqa mamlakatlardagi o'rganish muhim hisoblanadi. Tovar va xizmatlarning xalqaro oqimi, kapitalning xalqaro oqimi iqtisodiyotga chuqur yo'llar bilan ta'sir qiladi. Hatarga qaramay, siyosatchilar bunday ta'sirlarga e'tibor qaratishmaydi.

14.2. Ichki muvozanat va tashqi muvozanat

Ichki muvozanat inflyatsiya jarayonlari mavjud bo'lmagan to'liq bandlik sharoitida talab va aklifning balanslashganligidir(muvozanatlashgan). Qisqa muddatli davrda ichki muvozanat muammosi, birinchi navbatda, byudjet-soliq va pul-kredit siyosati vositasida yalpi talabni tartibga solish orqali ta'minlanadi.

Tashqi muvozanat qayd qilingan, yoki suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida to'lov balansining nolga teng qoldig'ini ta'minlab turilishni anglatadi. Alohida holatlarda bu muammo ikki o'zaro mustaqil qismga bo'linadi:

a) joriy operatsiyalar balansining belgilangan holatini ta'minlab turish;

b) valyuta zaxiralarining aniq belgilangan miqdorini saqlab turish.

Tashqi va ichki muvozanatni ta'minlab turish usullari bir xil: byudjet-soliq va pul-kredit siyosati. Ayrim hollarda mustaqil usul sifatida almashinuv kursi siyosati ham ajratib ko'rsatiladi. Tashqi muvozanatni ta'minlash kapital harakatining mobilligi (mamlakatlararo kapital quyilishi jarayonining ichki foiz stavkasining jahon foiz stavkasiga nisbatan o'zgarishiga javoban keskinlashuvi) sababli murakkablashadi.

Ichki va tashqi muvozanatni ta'minlash muammosi tovar, pul va valyuta bozorlarining amal qilishiga ta'luqlidir. Ichki va tashqi muvozanatni ta'minlash makroiqtisodiy tartibga solishning muhim muammosi sifatida yuzaga chiqadi, chunki u ichki va tashqi o'zgaruvchilarning bir-biriga o'zaro ta'sirini va qayta ta'sirini ko'zda tutishni talab etadi.

Ochiq iqtisodiyotda iqtisodiy siyosat tahlili Mandell-Fleming modeliga asoslangan holda amalga oshiriladi. Bu model qisqa muddatda iqtisodiyotni muvozanatlashtirishni ifodalaydi va kichik ochiq iqtisodiyot uchun IS-LM modelining modifikatsiya qilingan shakli hisoblanadi. Ikkala model ham baholarning o'zgarmasligini nazarda tutadi va yalpi talab hajmining o'zgarishi sabablarini tushuntiradi. Ular o'rtasidagi asosiy farq shundaki, IS-LM modeli-yopiq iqtisodiyot modeli, Mandell-Fleming modeli esa ochiq iqtisodiyot modeli ekanligidadir. Bu model "ochiq iqtisodiyotdagi monetar va fiscal siyosatni

o'rganish uchun dominant siyosiy andaza" hisoblanadi. 1999 yilda Robert Mandell o'zining ochiq makroiqtisodiyotdagi iqtisodiy ishlari, jumladan mazkur model uchun ham, Nobel mukofoti bilan taqdirlangan edi.

Ichki va tashqi muvozanat muammosi, ko'pincha, IS-LM modelining modifikatsiya qilingan shakli vositasida, unga uchinchi- VV egri chizig'i qo'shilib tahlil qilinadi. VV egri chizig'i to'lov balansining muvozanatli darajasini tasvirlaydi. Model ham qayd qilingan, ham erkin suzib yuruvchi valyuta kursi rejimlari uchun va kapital mobilligining turli darajalariga moslab tuziladi.

Bir vaqtning o'zida ichki va tashqi muvozanatga erishish muammosini quyidagi yondashuv asosida ko'rib chiqamiz (14.1. rasm).



14.1-rasm. **Tashqi muvozanatga erishish mexanizmi**

14.1-rasmdan koordinata o'qlarida ichki va tashqi muvozanatga erishishni ta'minlashni ko'zda tutuvchi siyosatning ikki instrumenti-davlat xarajatlari darajasi (G) va foiz stavkasi (R) berilgan. VV egri chizig' davlat xarajatlari (G) va foiz stavkasi (R)ning tashqi balans (BP=0)ni ta'minlovchi turli kombinatsiyalarini aks ettiradi. VV egri chizig'i ijobiy egilishga ega bo'lib, bu quyidagilar bilan izohlanadi:

Aytaylik, E nuqtasida ichki va tashqi muvozanat ta'minlangan bo'lsin. Davlat xarajatlari E nuqtadan S nuqtaga qadar o'sishi daromadlar va importning oshishini keltirib chiqaradi. Natijada savdo balansi taqchilligi (BP<0) ro'y beradi.

To'lov balansining taqchilligini bartaraf etish uchun davlat cheklovchi pul-kredit siyosati vositasida kapital harakati balansining ijobiy qoldig'ini ta'minlash choralarini ko'radi. Masalan, foiz stavkasining oshirilishi mamlakatga kapital harakati balansining (joriy operatsiyalar balansining manfiy qoldig'ini qoplaydigan hajmdagi) ijobiy qoldig'ini ta'minlashga yetarli hajmda xorijiy kapitalning oqib kelishini rag'batlantiradi. Natijada to'lov balansi qoldig'i (VV egri chizig'ining S nuqtasida) 0ga tenglashadi. Aynan tashqi balansga erishish maqsadida G va R o'zgarishlarining ana shunday kombinatsiyasi mavjudligi VV egri chizig'ining ijobiy egilishini aks ettiradi. VV egri chizig'idan pastda va o'ngda joylashgan nuqtalar to'lov balansi taqchilligini aks ettiradi. VV egri chizig'idan yuqorida va chapda joylashgan har qanday nuqta to'lov balansining, qat'iy byudjet-soliq va pul-kredit siyosati bilan ta'minlanadigan ijobiy (musbat) qoldig'ini aks ettiradi.

To'liq bandlilik, potensial ishlab chiqarish hajmi va inflyatsiya jarayonlarining mavjud emasligi bilan xarakterlanadigan ichki muvozanatni 14.2.-rasm ko'rinishida tasvirlash mumkin.



14.2-rasm. **Ichki muvozanatga erishish mexanizmi**

Aytaylik E nuqtada ham ichki, ham tashqi muvozanat ta'minlansin. Agar davlat xarajatlari G o'ssa, daromad multiplikativ samara bilan E dan A ga qadar ko'payadi. Daromad muvozanat (E) nuqtasidan ortiqcha talab holatiga (A) o'sishi natijasida ortiqcha daromad inflyatsion bosimni yuzaga keltiradi. Ichki muvozanatni tiklash uchun talabni kamaytirish maqsadida foiz stavkasi R ni ko'tarish orqali pul massasini kamaytirish talab etiladi. 14.2- rasmda bu holat A nuqtadan D nuqtaga qadar siljishi ko'rinishida aks etadi. Bu nuqtada daromad resurslarning to'liq bandliligiga mos keladi, ichki muvozanat esa tiklanadi. O'z navbatid, G va R ning ichki muvozanatni ta'minlovchi kombinatsiyalari ijobiy egilishga ega YY egri chizig'ini yuzaga keltiradi.

YY egri chizig'idan o'ngda va quyida joylashgan nuqtalar ortiqcha talabni aks ettiradi. YY egri chiziqdan chapda va yuqorida joylashgan nuqtalar ortiqcha taklifni aks ettiradi. Bu nuqtalarda talab kamayadi va foiz stavkasi o'sadi.

Rasmdan ko'rinib turibdiki VV egri chizig'i YY egri chizig'iga nisbatan yotiqroq. VV egri chizig'ining tikligi kapital mobilligi bilan belgilanadi. Kapital qanchalik harakatchan bo'lsa joriy operatsiyalar hisobininng taqchilligini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan kapitalning oqib kelishini rag'batlantiruvchi foiz stavkasi R shunchalik kam miqdorga o'sadi. Bunda VV egri chizig'i yotiqroq bo'ladi. Kapital kamroq harakatchanligi sharoitida VV egri chizig'i tikroq ko'rinishni oladi. Ammo kapitalning nisbatan kamorq mobilligi sharoitida ham VV egri chizig'i YY egri chizig'idan ko'ra tikroq bo'lmaydi. VV egri chizig'ining tikligi kapitalning mobilligi 0 ga teng bo'lgan sharoitda YY egri chizig'i tikligiga tenglashadi. Boshqa barcha holatlarda YY egri chizig'i VV egri chizig'iga nisbatan tik bo'ladi.

Shunday qilib fiskal va monetar siyosatni qo'shib olib borish ichki va tashqi muvozanatni ta'minlash imkonini beradi. Navbatdagi muammo – fiskal va monetar siyosatning ichki va tashqi muvozanatga ta'siri darajasini aniqlashdir. Bu nazariy masalani echishga Robert Mandell va Markus Fleming urinib ko'rinishgan.

14.3. Mandell-Fleming modeli

Mandell-Fleming modeli kichik ochiq iqtisodiyot modeli bo'lib qayd qilingan va suzib yuruvchi valyuta kurslari sharoitida iqtisodiy siyosatning turli ko'rinishlarini amalga oshirish natijalarini baholash maqsadida qo'llaniladi. Mandell-Fleming modeli milliy iqtisodiyotning jahon bozoridagi hissasi kichik va shu sababli uni rivojlantirishning asosiy parametrlari jahon bozori tomonidan, ya'ni tashqaridan belgilab beriladi degan shartga asoslanadi. Bu model XX asrning 60-yillarida ishlab chiqilgan bo'lib baholarning barqarorligini ko'zda tutadi va yalpi daromadning tebranishlari sabablarini tushuntirib beradi.

Mandell–Fleming modeli IS–LM modeliga yaqindan bog'liq. Ikkala modelda ham tovar hamda pul bozorlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ko'rsatiladi. Ikkala model ham narxlarning o'zgarmas darajasini ko'zda tutadi va yalpi daromad miqdori tebranishlarining sabablarini tushuntiradi. Bu modellar o'rtasidagi asosiy farq shundan iboratki, IS–LM modeli yopiq iqtisodiyotni tavsiflasa, Mandell – Fleming modeli kichik ochiq iqtisodiyotni tavsiflaydi. Mandell-Fleming modeli bitta muhim va katta taxmin qiladi: u shunday faraz qiladiki, o'rganilayotgan iqtisodiyot mukammal capital oqimiga ega bo'lgan kichik ochiq iqtisodiyotdir. Shundan kelib chiqib, iqtisodiyot jahon moliyaviy bozorlarida o'zi xohlagancha qarz berishi yoki qarz olishi mumkin va mamlakatdagi foiz stavkalari jahon foiz stavkalari bilan belgilanadi.

Bu modelga ko'ra iqtisodiyotning amal qilishi valyutalarning almashinuv kursi tizimiga bog'liq. Mandell-Fleming modeli uchta tenglamani o'z ichiga oladi:

1) $Y+C(Y-T)+I(r)+G+X_n(e)$, IS;

2) $M/P=L(r,Y)$,LM;

3) $r = r^*$

- birinchi tenglama tovar bozorini
- ikkinchi tenglama pul bozorini,

- uchinchi tenglama esa ichki foiz stavkasi (r) jahon foiz stavkasi (r*) darajasi bilan belgilanishini anglatadi.

Modelda uchta endogen o'zgaruvchilar: Y, r va e mavjud.



14.3-rasm. **Mandell-Flemingning Y-r modeli**

Modelni tasvirlash uchun ikkita grafik tuzish taklif etiladi. Har bir grafikda o'zgaruvchi miqdorlardan bittasi konstanta deb olinadi va tahlil ikki o'zgaruvchining aloqadorligi bo'yicha o'tkaziladi. Mandell-Flemingning Y-r modeli 14.3- rasmda tasvirlangan. Rasmdan ko'rinib turibdiki IS egri chizig'i quyiga, LM egri chizig'i esa yuqoriga yo'nalgan. Gorizontal liniya jahon foiz stavkasini ifodalaydi. Grafik ikki xususiyatga ega.

1. IS egri chizig'ining holati almashinuv kursining darajasiga bog'liq.. Almashinuv kursining ko'tarilishi egri chiziqni chapga siljitadi.

2. Barcha uch egri chiziq bir nuqtada kesishadi.

Lekin bu uch egri chiziq bir nuqtada kesishmaydi deb tasavvur qilish mumkin. (14.4-rasm).

Bunday vaziyatda ikki variant yuzaga keladi:

1.Almashinuv kursi juda past bo'lganligi sababli IS va LM egri chiziqlari jahon foiz stavkasidan yuqorida kesishadi (14.4 (a)-rasm). Bunday vaziyat chet ellik investorlarni mazkur mamlakat iqtisodiyotiga kapital kiritishga rag'batlantiradi. Natijada mamlakatning valyuta kursi ko'tariladi va IS egri chizig'i pastga siljiydi.

2. IS va LM egri chiziqlari ichki foiz stavkasi jahon foiz stavkasidan past bo'lgan nuqtada kesishadi (14.4 b -rasm). Bunday vaziyatda mazkur mamlakat investorlari kapitallarini xorijga olib chiqib ketishdan manfaatdor bo'lishadi. Natijada milliy valyutaning almashinuv kursi pasayadi va IS egri chizig'i yuqoriga siljiydi. Shunday qilib muvozanat LM egri chizig'ining gorizontal chiziq bilan kesishish nuqtasida jahon foiz stavkasi darajasida o'rnatiladi.



14.4-rasm. **Mandell-Flemingning Y-r modelida muvozanatga erishish mexanizmi**

Mandell-Flemingning **Y-e** modeli 14.5. va 14.6. rasmlarda tasvirlangan.

14.5- rasmda vertikal o'qda almashinuv kursining turli darajalari, gorizontal o'qda esa daromadning miqdorlari tasvirlangan. Foiz stavkasi o'zgarmas va jahon foiz stavkasiga teng deb tasavvur qilinadi. Bunday vaziyatda grafikda ikki tenglama tasvirlanadi:

1) $Y=C(Y-T)+I(r^*)+G+X_n(e)$, IS;

2) $M/P= L(r^*,Y)$, LM*.

Iqtisodiyotda muvozanat IS va LM egri chiziqlarining kesishish nuqtasida ta'minlanadi. Bu kesishish nuqtasi almashinuv kursi va daromadning darajalarini aks ettiradi.

Grafikda tovar bozoridagi (IS*) va pul bozoridagi (LM*) muvozanat tasvirlangan. Jahon foiz stavkasi belgilab berilgan sharoitda LM* tenglamasi yalpi daromadni almashinuv kursiga bog'liq bo'lmagan holda qayd etadi.



14.5-rasm. **Mandell-Flemingning Y-e modeli**



14.6-rasm. **Mandell-Flemingning Y-e modeli**

14.6-rasmda LM egri chizig'i gorizontal liniya bilan belgilangan jahon foiz stavkasi r* ga teng bo'lgan holatda aks ettirilgan. Bu egri chiziqlar birgalikda almashinuv kursiga bog'liq bo'lmagan daromad darajasini aniqlab beradi.

14.7. rasmda LM* egri chizig'i qanday qilib vertikal liniya ko'rinishini olishi aks ettirilgan.



14.7-rasm. **LM* egri chizig'ining vertikal ko'rinishi**

Y-e modeli almashinuv kursi darajasi iqtisodiy siyosatga qanday ta'sir etishini ko'rsatadi.

Mandell-Fleming modelini tahlil qilish kichik ochiq iqtisodiyotda davlatning har qanday iqtisodiy siyosati natijasi qayd qilingan va suzib yuruvchi valyuta kursiga bog'liq degan xulosaga olib keladi. Masalan, suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida daromadga faqat pul-kredit siyosati ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda rag'batlantiruvchi byudjet-soliq siyosatining ta'siri, valyuta kursining ko'tarilishi sababli, nolga teng bo'ladi.

Qayd qilingan valyuta kursi sharoitida daromadga faqat byudjet-soliq siyosati ta'sir ko'rsatadi. Bunday sharoitda pul-kredit siyosati daromadlarga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi, chunki Markaziy Bankning pul taklifini o'zgartirishdan maqsadi almashinuv kursini belgilangan darajada saqlab turishdan iborat bo'ladi. Bu o'zgartirish ichki iqtisodiy siyosat maqsadlariga to'g'ri kelish-kelmasligi e'tiborga olinmaydi.

14.4. Valyuta kursi. Erkin suzib yuruvchi valyuta kurslari bo'yicha kichik ochiq iqtisodiyot

Valyuta kursi – bu bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birligida ifodalangan bahosidir. Valyuta kursini o'rnatish kotirovkalash deb ataladi.

U to‘g‘ri va teskari kotirovkalashga ajratiladi. Agar xorijiy valyuta birligining bahosi milliy valyutada ko‘rsatilsa, bunga to‘g‘ri kotirovkalash deb ataladi. Masalan, 1 AQSh dollari 4075 so‘mga, 1 Rossiya rubli 57 so‘mga teng va hakozo. Teskari kotirovkalashda milliy valyutaning bir birligiga to‘g‘ri keladigan xorijiy valyutaning miqdori o‘rnatiladi. Dunyoning ko‘p mamlakatlarida, shu jumladan, O‘zbekistonda ham to‘g‘ri kotirovkalash qabul qilingan. Valyuta bozoridagi talab va taklifni solishtirish natijasida valyutaning bahosi yoki kursi aniqlanadi. O‘zbek so‘mining kursi O‘zbekiston valyuta birjasida o‘rnatiladi, uning ishtirokchilari valyuta operatsiyalarini olib borish huquqiga ega bo‘lgan banklar hisoblanadi. Shu bilan birga, turli pul birliklari uchun valyuta kurslarini o‘rnatish jarayonida bozor kuchlarining ta’sir etish darajasi bir xil emas. Bu ta’sir kuchiga bog‘liq holda valyuta kurslarini qabul qilishning bir-biridan farq qiluvchi ikki varianti mavjud.

1. Talab va taklifga asosan aniqlanadigan egiluvchan yoki erkin suzib yuruvchi valyuta kursi tizimi.

2. Davlat aralashuvi asosida aniqlanadigan qat’iy belgilangan valyuta kursi tizimi.



14.8-rasm. **Xorijiy valyuta bozori**

Erkin suzib yuruvchi valyuta kurslari talab va taklif asosida aniqlanadi. Masalan, bir o‘zbek so‘mining AQSh dollariga almashishini qarab chiqamiz.

Milliy valyuta kursining pasayishi natijasida dollarga talab kamayadi va taklif esa oshadi (14.8- rasm).

Dollarga bo'lgan talabning kamayishi (D) to'g'ri chizig'ida berilgan. Bu shuni ko'rsatadiki, agarda dollar O'zbekistonliklar uchun arzon bo'lsa, Amerika tovarlari ham ular uchun arzon bo'ladi va bu, o'z navbatida, ularning Amerika tovarlariga bo'lgan talabini oshiradi. Dollarning taklifi (S) kamaysa, so'mda belgilangan dollarning qiymati oshadi (ya'ni, dollarda belgilangan so'mning qiymati pasayadi). Bunday vaziyatlarda amerikaliklar ko'proq O'zbekistonda ishlab chiqarilgan tovarlarni sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki, so'mning dollarga nisbatan qiymati pasaysa, u o'z navbatida o'zbek tovarlarining narxi ham pasayganini bildiradi va oqibatda ko'proq o'zbek tovarlarini sotib olish imkoni paydo bo'ladi. O'zbekistonda ishlab chiqarilgan tovarlarni sotib olish jarayonida ular AQSh dollarini valyuta bozoriga olib chiqadi. Chunki, O'zbekistonda ishlab chiqarilgan tovarlarni sotib olish uchun dollarni so'mga almashtirishadi. Dollarga bo'lgan talab va taklifning kesishgan nuqtasi dollarning so'mdagi qiymatini bildiradi.

Agarda, dollarning so'mdagi qiymati oshsa, so'm qiymatining pasayganligini yoki qadrsizlanganligini ko'rsatadi. Aksincha, agarda dollarning so'mdagi qiymati pasaysa, so'm qiymatining oshganligini yoki so'mning qimmatlashganligini ko'rsatadi. Bir birlik xorijiy valyutani sotib olish uchun kam miqdorda milliy valyuta sarf qilish milliy valyutaning qimmatlashuvini bildiradi. Agarda, dollarga nisbatan so'm qadrsizlansa, dollar so'mga nisbatan qimmatlashadi.

Erkin suzib yuruvchi valyuta kursi tizimi bo'yicha, valyuta kursi bozor kuchlari tomonidan o'rnatiladi va o'zgaruvchan iqtisodiy holatlarga javoban u ham tebranib turadi. Bunday vaziyatda, tovarlar va pul bozorida muvozanatga erishish uchun valyuta kursi o'zgartiriladi. Bu muvozanatni o'zgartiradigan nimadir yuz bersa, valyuta kursi yangi muvozanat qiymatiga o'zgaradi. Keling shu muvanatni o'zgartira oladigan uchta siyosatni ko'rib chiqaylik: fiskal siyosat, monetar siyosat va savdo siyosati. Bizning maqsad siyosiy o'zgarishlar ta'sirini ko'rsatish va

iqtisodiyot bir muvozanatdan boshqa muvozanat nuqtasiga ko'chganda iqtisodiy kuchlarni tushuntirish uchun Mandell-Fleming modelidan foydalanishdir.

Faraz qiling, hukumat davlat xaridini oshirish yoki soliqlarni kamaytirish orqali mahalliy xarajatlarni tartibga soladi. Bunday kengaytirilgan fiscal siyosat rejalashtirilgan xarajatlarni oshirgani uchun, u IS egri chizig'i 14.9-rasmda ko'rsatilgani kabi o'ngga ko'chadi. Natijada, valyuta kursi oshadi va daromad darajasi o'zgarmasdan qoladi.



Suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitidagi kengaytirilgan fiscal siyosat. Davlat xarajatlaridagi oshish yoki soliqlardagi kamayish IS egri chizig'ini o'nga suradi. Bu valyuta kursini oshiradi ammo daromadga hech qanday ta'sir qilmaydi.

14.9-rasm. **Suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitidagi kengaytirilgan fiscal siyosat.**

E'tiborli tomoni Soliq–byudjet siyosatining ochiq iqtisodiyotda yopiq iqtisodiyotga qaraganda ta'siri boshqacha. Yopiq-iqtisodiyotda IS-LM modeldagi o'zgaruvchan valyuta kursini ko'taradi hamda kichik ochiq iqtisodiyotda, daromadni ko'taradi, moliyaviy kengaytirish turli darajada daromadni beradi. O'z-o'zidan, farq ko'tariladi chunki LM egri chizig'i vertikaldir, biz o'rganish uchun ishlatiladigan LM egri chizig'i yopiq iqtisodiyotda yuqoriga ko'tariladi. Ammo bu izoh qoniqarli emas.

Turli xil daromadlar orqasida yotadigan iqtisodiy tasirlarni qanday aniqlaymiz? Bu savolga javob berish uchun, biz xalqaro pul oqimida nima

bo'layotganini va aslida bu mablag'ning ichki iqtisodiyotga oqishi haqida o'ylashimiz kerak.

Yopiq iqtisodda daromad yuqoriga ko'tariladi, ulush qiymati oshadi, chunki foiz stavkasi ko'proq daromadni talab qiladi. Bu kichik ochiq iqtisodiyotida mumkin emas chunki jahon foiz stavkasi oshgan sayin foiz stavkasi ham oshib boradi, yuqori foyda olish uchun xorijdan kapital oqadi. Bu kabi sarmoya kiritish kirimni orqaga tortadi, buni ham boshqa ta'siri bor: chunki xorijiy investorlar ichki iqtisodiyot uchun ichki valyutani sotib olish kerak, sarmoya kiritish esa ichki valyutaga bo'lgan talabni oshiradi pul ayirboshlash uchun.

Nima uchun moliyaviy siyosat ojizligi ko'rinadi, sof eksport pasayadi shunday qilib, uning ta'siri katta emas va u ta'minlangan? Bu savolga javob berish uchun pul bozoridagi quyidagi ta'rifni, hisobga oling:

$$M/P = L(r,Y).$$

Har ikkala, ochiq va yopiq iqtisodiyotda, M/P ta'minlaydigan real pul taklifi markaziy bank (M ni belgilab beradigan) va o'zgarmas narxlar farazlari tomonidan belgilanadi (P ni belgilab beradigan). Talab hajmi bu belgilandan taklifga teng bo'lishi kerak. Yopiq iqtisodiyotda, kengaytirilgan fiscal siyosat muvozanatli foiz stakasining oshishiga sabab bo'ladi. Foiz stavkasidagi oshish muvozanatli daromadning oshishiga sabab bo'ladi. Bu ikkita tasirlar birgalikda pul bozoridagi muvozanatni saqlab turadi. Teskari ravishda, kichik ochiq iqtisodiyotda, $r = r^*$ bilan belgilanadi shuning uchun bu tenglikni qanoatlantiradigan bitta daromad darajasi mavjud va bu daromad darajasi fiscal siyosat o'zgarganda o'zgarmaydi. Bu bilan, hukumat xarajatlarni oshirganda yoki soliqlarni qisqartirganda, valyutaning qadrsizlanishini va sof eksportdagi pasayish daromadlarni oshirish bo'yicha kengaytirilgan siyosatlarni to'liq qoplashga yyetarli bo'lishi kerak.

Pul taklifini kengaytirish foiz stavkalarini pasaytiradi va xarajatlarning oshishiga olib keladi. Ma'lumki xarajatlarning ortishi importning o'sishini rag'batlantiradi va savdo balansini yomonlashtiradi. To'lov balansining taqchilligi

yuzaga kelishiga foiz stavkasining pasayishi sababli kapitalning mamlakatdan chiqib ketishi ham ta'sir ko'rsatadi. Lekin egiluvchan valyuta kursi sharoitida taqchillik saqlanib qolmaydi. Importning o'sishi va kapitalning oqib ketishi xorijiy valyutaga talab oshishiga olib keladi va milliy valyuta qadrsizlanadi. Bu qadrsizlanish mamlakat eksportchilarining raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Oqibatda savdo balansi yaxshilanadi. Eksportning ortishi mamlakatimiz mahsulotiga bo'lgan talabning o'sishini anglatadi va pul massasining dastlabki o'sishi natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy yuksalishni yanada kuchaytiradi. Demak, pul siyosati ichki daromadlarga bevosita (pul taklifining o'sishi orqali) va bilvosita (almashinuv kursining pasayishi hamda eksportning o'sishi orqali) ta'sir ko'rsatadi. Kapitalning oqib ketishiga va o'z navbatida milliy valyutaning qadrsizlanishi darajasiga ta'sir ko'rsatgani uchun ham kapitalning mobilligi muhim ahamiyatga egadir.

Ammo, pul-kredit siyosati murakkab yetkazib berish mexanizmiga egaligi sababli uning ishlab chiqarish hajmiga ijobiy ta'siri ishlab chiqarishni kengaytirishning ichki rag'batlari (foiz stavkasining pasayishi) orqali emas, balki ko'proq tashqi dunyo orqali ro'y beradi deb tasavvur qilish mumkin. Boshqacha aytganda, kapitalning chiqib ketishi va valyutaning qadrsizlanishi sharoitida mamlakat mahsulotlariga talabning o'sishi uning eksportiga talabning oshishi hisobiga ro'y beradi. Shu sababli pul siyosatining ichki balansga ijobiy ta'siri o'ziga xos xususiyatga ega. Suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida byudjet-soliq siyosatining samaradorligini baholash yanada murakkabroqdir. Ma'lumki, davlat xarajatlarining ortishi ichki va tashqi muvozanatga ikki yo'nalishda: daromad orqali va foiz stavkasi orqali ta'sir ko'rsatadi. Daromadlarning ortishi(multiplikator samarasi orqali) importni ko'paytiradi, savdo balansini yomonlashtiradi va milliy valyutaning kursini pasaytiradi. Davlat xarajatlarining ortishi, shuningdek, hukumat olayotgan qarzlarini ko'paytirayotganligini anglatadi, bu esa foiz stavkalarining ortishiga olib keladi. Yuqoriroq foiz stavkalari esa xorijdan kapital oqib kelishini rag'batlantiradi. Bu esa milliy valyuta kursini

oshiradi va kapital harakati hisobini yaxshilaydi. Yakuniy natija esa kapitalning mobilligi darajasiga bog'liq bo'ladi.

Kapitalning past mobiligi sharoitida byudjet ekspantsiyasi daromad orqali ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Kapitalning uncha ko'p bo'lmagan miqdorda oqib kelishi savdo balansining taqchilligini qoplay olmaydi va oqibatda valyuta kursi pasayadi.

Milliy valyutaning arzonlashishi eksportning o'sishi uchun qulay sharoit yaratadi va to'lov balansining taqchilligini bartaraf qilish imkonini beradi. Eksportning ortishi, shuningdek, byudjet ekspantsiyasining ichki ishlab chiqarishga ijobiy ta'sirini to'ldiradi.

Shu bilan birga kapitalning mobilligi ortib borishi bilan kapital hisobining to'lov balansi va valyuta kursiga ta'siri kuchaya boradi. Kapitalning yuqori mobilligi sharoitida uning oqib kelishi sababli ro'y bergan valyuta kursining ko'tarilishi tendensiyasi ustunlik qiladi. Bu eksportning qisqarishiga va savdo balansi taqchilligining ortishiga olib keladi. Kapitalning katta miqdorda oqib kelishi bu taqchillikni qoplash va to'lov balansini muvozanatlashtirish imkonini beradi. Ammo byudjet ekspantsiyasining ishlab chiqarish hajmiga yakuniy ta'siri deyarli nolga teng bo'ladi. Bunga kuchli siqib chiqarish samarasi mavjudligi, ya'ni xususiy investitsiyalarni foiz stavkasining oshishi orqali va eksportni almashinuv kursining oshishi orqali siqib chiqarilishi sabab bo'ladi.

Suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida ichki ishlab chiqarish hajmiga, shubhasiz, kapitalning mobilligi qanday bo'lishidan qat'iy nazar pul-kredit siyosati ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

14.5. Qayd etilgan valyuta kurslari ostidagi kichik ochiq iqtisodiyot

Qayd etilgan valyuta kursi – bu, xorijiy valyutada ifodalangan, davlat tomonidan rasmiy o'rnatilgan milliy pul birligining bahosi bo'lib, unga valyuta bozorida talab va taklifning o'zgarishi bevosita ta'sir qilmaydi.

Qayd qilingan valyuta kursi tizimi tarafdorlari ta'kidlaydilarki, undan foydalanish xalqaro savdo va moliya bilan bog'liq bo'lgan tahlika va noaniqlikni

kamaytiradi. Qayd qilingan valyuta kurslarini qo'llash o'zaro foydali savdo va moliyaviy operatsiyalar hajmini kengaytirishga olib keladi. Ammo, qayd qilingan valyuta kurslari tizimining hayotga layoqatliligi o'zaro aloqalar jarayondagi ikki sharoitga bog'liq:

- zaxiralarning mavjudligi;
- o'z hajmi bo'yicha sezilarsiz kamyoblik yoki to'lov balansi aktivlarining tasodifiy vujudga kelishi. Katta va doimiy kamyobliklar mamlakat zaxiralarini yo'qqa chiqarishi mumkin.

Qayd etilgan valuta kursi ostida valuta kursi uchun qiymatni e'lon qiladi va e'lon qilingan darajadagi valuta kursini saqlagan holda milliy valutani oldi-sotdisiga tayyor turadi.

Qayd etilgan valyuta kursi tizimi ostida markaziy bank qayd etilgan narxda xorijiy valyuta uchun mahalliy valyutani sotib olish va sotish uchun doim tayyor turadi. Masalan, Markaziy bank bir AQSh dollari uchun 4075 so'm belgilanishini e'lon qildi. 4075 so'm uchun 1 AQSh dollari yoki 1 AQSh dollari uchun beris 4075 so'm hi uchun barcha imkoniyatlarni tayyorladi. Ushbu siyosatni amalga oshirish uchun Markaziy bank so'mni (uni ishlab chiqarishi mumkin), shuningdek dollarni (oldin sotib olingan) jamlashiga to'g'ri kelar edi.

Qayd etilgan valyuta narxining yagona maqsadi, mamlakatning pul muomalasi siyosatiga, ya'ni kurs valyutasini e'lon qilingan darajada ushlab turish hisoblanardi. Pul muomilasini bir me'yorda saqlab turish uchun markaziy bankka imkoniyat yaratish uchun e'lon qilingan xorijiy valyuta kursi bozordagi valyuta kursiga tenglashib muvozanatini saqlashga majburdir.

Bundan tashqari, markaziy bank qayd etilgan valyuta kursida xorijiy valyutani sotib olish va sotishga tayyorlanar ekan, pul muomilasi balansi o'z - o'zidan zaruriy darajada bir maromga tushadi.

Pul hajmini ko'tarish LM* chizig'i o'ng tomonga qarab o'zgaradi va kurs valyuta muvozanati ham pasayadi. Shu tariqa pul muomilasi, valyuta kursi muvozanati e'lon qilingan darajaga tushgunga qadar ko'ratarilishda davom etadi.

Valyuta kursi tizimi nominal (shartli) valyuta kursini belgilab berishini tushunish muhim hisoblanadi. Bundan tashqari u haqiqiy valyuta kursi narxini belgilab beradi va bu hisobga olingan gorizont vaqtiga bog'liq bo'ladi. Agar narxlar barqaror bo'lmasa, oxir oqibatda, shartli valyuta kursi belgilab qo'yilgan holatda ham haqiqiy valyuta kursi o'zgarishi mumkin. Qayd etilgan nominal valyuta kurslari narxi faqat pul ta'minotiga va narx darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek qisqa muddatli boshqaruv Mandell-Fleming modeli asosida tasvirlangan bo'lib, bunda narxlar aniq belgilanib olinadi, shuning uchun qayd etilgan shartli valyuta kurslari aniq qayd etilgan valyuta kurslarini ham o'z chiga oladi.



Qayd etilgan valyuta kursi pul taklifini qanday boshqaradi. (a) panelda, muvozanatli valyuta kursi dastlab o'rnatilgan darajadan oshib ketadi. Arbitrajlar xorijiy valyuta bozorlarida xorijiy valyutani sotib olishadi va uni FEDga foyda hisobiga sotadi. Bu jarayon avtomatik tarzda pul taklifini oshiradi bu esa LM chizig'ini o'nga suradi va valyuta kursini pasaytiradi. (b) panelda, muvozanatli valyuta kursi dastlab belgilangan valyuta kursidan pastda bo'ladi. Arbitrajlar xorijiy valyuta bozorlarida dollarni sotib olishadi va ularni FEDdan xorijiy valyuta sotib olish uchun foydalanishadi. Bu jarayon avtomatik tarzada pul taklifini kamaytiradi, bu esa LM egri chizig'ini chapga suradi va valyuta kusini oshiradi.

14.10-rasm. **Qayd etilgan valyuta kursi pul taklifini qanday boshqaradi**

Qayd qilingan valyuta kursi sharoitida byudjet-soliq siyosatining samaradorligi kapitalning mobilligiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq. Davlat xarajatlarining ko'payishi

foiz stavkasining o'sishini keltirib chiqaradi (fond bozorida qarzga mablag' olib, davlat xususiy sektor foydalanadigan pul massasini kamaytiradi). Bu esa o'z navbatida xorijdan kapital oqib kelishini rag'batlantirapdi. Kapitalning yuqori mobilligi sharoitida davlat xarajatlarining ko'payishi bilan bog'liq savdo balansi taqchilligi kapital harakati hisobining musbat (ijobiy) qoldig'i bilan amalda qoplanadi. Markaziy Bank esa yuzaga kelgan almashinuv kursining o'sish tendensiyasini bartaraf qilish uchun xorijiy valyutani sotib olish va muomalaga milliy valyutani ko'p miqdorda chiqarishga, bu bilan esa pul taklifini oshirishga majbur bo'ladi. Bu tadbir (davlat xarajatlarining o'sishi bilan birgaldikda) daromadlarning kengayishi uchun qo'shimcha rag'bat yaratadi.

Shunday qilib, qayd qilingan valyuta kursi sharoitida byudjet-soliq siyosati pul-kredit siyosatidan farli ravishda daromad darajasiga, o'z navbatida ichki muvozanatga muvaffaqiyatli ta'sir ko'rsata oldadi. Tasir darajasi kapitalning mobilligi o'sishi bilan ortib boradi.

Nazarot savollari

1. Ochiq iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?
2. Kichik va katta ochiq iqtisodiyotning mohiyati va farqlarini tushuntirib bering.
3. Tashqi muvozanat atamasini izohlab bering.
4. Mandell-Flemingning ochiq iqtisodiyot modelini tavsiflab bering.
5. Yalpi daromad,almashinuv kursi va joriy operatsiyalar balansi saloqlar oshganda qanday o'zgarishini Mandell-Flemingning ochiq iqtisodiyot modelidan foydalangan holda tushuntirib bering.
6. Nima sababdan qayd qilingan valyuta kursi sharoitida pul-kredit siyosati ichki balansni ta'minlashda samara bermaydi?
7. Qayd qilingan valyuta kursi sharoitida byudjet-soliq siyosatining ichki muvozanatni ta'minlashdagi samaradorligini izohlab bering.
8. Suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida pul-kredit siyosati qanday maqsadlar uchun qo'llanilganda yuqori samara beradi va nima sababdan?

XV BOB. XALQARO SAVDO NAZARIYASI

15.1. Xalqaro savdoning zaruriyati, rivojlanish bosqichlari va asosiy ko'rinishlari

Jahon xo'jaligi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlaridan biri - bu xalqaro iqtisodiy munosabatlarning intensiv rivojlanib borishi hisoblanadi. Bu mamlakatlar, mamlakatlar guruhi, alohida firma va korxonalar o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi tobora chuqurlashuvi bilan izohlanadi. Ushbu holatni xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, xo'jalik hayotining globallashuvi, milliy iqtisodiyot ochiqligining kuchayishi, mamlakatlarning iqtisodiy integratsiyalashuvi va hududiy xalqaro iqtisodiy aloqalar strategiyasining chuqurlashib borayotganligida ko'rish mumkin.

Hozirgi zamon iqtisodiyotining ochiqlik darajasi ya'ni mamlakatlarning ixtisoslashuvi va ular o'rtasida kooperatsiya chuqurlashib bormoqda. Mamlakatlar o'z iqtisodiyotini rivojlantirish, iqtisodiy muammolarni hal qilish borasida tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda bu holatlarni etiborga olishi shart.

Jahon savdosi tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy shaklidir. Uning kengayishi va chuqurlashuvi natijasida kapitalni chetga chiqarish imkoniyatlari yuzaga keldi va unga bog'liq ravishda xalqaro moliya-valyuta, kredit munosabatlari rivojlandi.

Tashqi savdoning vujudga kelishi ikki muhim obyektiv sabab bilan izohlanadi.

Birinchidan, bu tabiiy va xomashyo resurslarining mamlakatlar o'rtasida notekis taqsimlanganligi. Eng katta hududga ega bo'lgan yoki rivojlangan davlatlar ham barcha resurslar bilan o'zini to'liq ta'minlay olmaydi. Ular o'zlarida ortiqcha bo'lgan resurslarni eksport qilishga va mamlakatda taqchil bo'lgan resurslarni import qilishga majburlar.

Xalqaro savdo rivojlanishining zarurligini belgilovchi ikkinchi muhim sabab shundaki hamma mamlakatlar ham barcha turdagi mahsulotni bir xil samaradorlik bilan ishlab chiqara olmaydi. Ya'ni bir tovar Yaponiyada arzon ishlab chiqarilsa, ikkinchi tovar O'zbekistonda arzon ishlab chiqarilishi mumkin. Shu sababli resurslardan samarali foydalanish maqsadida mamlakatlar ixtisoslashadilar va o'zaro savdo-sotiqni yo'lga qo'yadilar. Bu ikki obyektiv sabab har qanday milliy iqtisodiyotning takror ishlab chiqarishi jarayonida xalqaro savdoning ahamiyatini aniqlaydi.

Xalqaro savdo o'zining rivojlanish bosqichlariga ega bo'lib, har bir bosqich o'z tarixiy xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- tashqi savdo aloqalarining lokal darajada shakllanish bosqichi – (VI–XIII asrlar) O'rta er dengizidan Sharqqa tomon xalqaro savdo yo'llarining vujudga kelishi;
- tashqi savdo aloqalarining mintaqaviy darajada shakllanish bosqichi – (XII–XV asrlar) tashqi savdo aloqalarining O'rta er, Boltiq va Shimoliy dengizlarida kontsentratsiyalashuvi;
- tashqi savdo aloqalari globallashuvining boshlanish bosqichi – (XV–XVII asrlar) Buyuk geografiya kashfiyotlari tufayli xalqaro savdo yo'llarining Atlantika, Hind va Tinch okeanlariga ko'chishi;
- tashqi savdo aloqalarining intensivlashuv bosqichi – (XVIII–XIX asrlar) sanoat to'ntarishi, G'arbiy Evropa va AQSh iqtisodiyotining industirlashtirish jarayoni bilan bog'liq;
- tashqi savdo aloqalarining militarizatsiyalashuv bosqichi – (XIX oxiri – XX asr boshi) Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari bilan bog'liq;
- integratsion bloklar va birlashmalarning tashqi savdo munosabatlariga faol ta'sir etish bosqichi – (XX asrning o'rtasi va ikkinchi qismi);
- tashqi savdo aloqalari globallashuv jarayonlarining zamonaviy bosqichining shakllanishi va jahon bozorining vujudga kelishi.

Xalqaro savdoning zamonaviy xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

- ilm-fan va texnika taraqqiyoti ta'sirida mahsulot hamda xizmatlar savdosi hajmining keskin ortishi;
- xalqaro savdo rivojlanayotgan mamlakatlar salmog'ining qisqarishi;
- ilm-fan va texnika taraqqiyoti ta'sirida jahon eksportining tovar tarkibidagi ilm-fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan mahsulot va xizmatlar ulushining ortishi;
- tashqi savdo aylanmasining jon boshiga baholangan qiymatining notekis taqsimlanishi;
- yangi tarmoq va ishlab chiqarishning vujudga kelishi;
- qator mamlakatlarning ayrim mahsulotlar importiga bog'liqligining ortishi;
- tashqi bozorda ortiqcha mahsulotni sotish kabi sodda shaklining turli mamlakat korxonalari o'rtasidagi hamkorlik aloqalari asosida avvaldan kelishilgan holda mahsulotni yetkazib berish shakliga o'tilishi.

Tashqi savdo xalqaro ayirboshlashning an'anaviy shakli sifatida quyidagi ko'rinishlarni o'z ichiga oladi:

- mahsulotlarni ayirboshlash: yoqilg'i-xomashyo mahsulotlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, sanoat mahsulotlari;
- xizmatlarni ayirboshlash: muhandislik-maslahat xizmatlari;
- transport xizmatlari, sayyohlik va boshqa xizmatlar. Hozirgi vaqtda xizmatlarning jahon eksportidagi hissasi 30 foizdan oshib ketdi;
- yangi ilmiy-texnik ma'lumotlarni ayirboshlash: litsenziyalar va «nou-xou»lar. Ular hissasiga xalqaro savdo aylanmasining 10 foiziga yaqini to'g'ri keladi.

Eksport operatsiyasi	mahsulotlarni chet mamlakatlarga chiqarish.
Import operatsiyasi	mahsulotni xorijiy sherikdan sotib olish va uni mamlakatga olib kelish.
Reeksport operatsiyasi	avval import qilingan va qayta ishlov berilmagan mahsulotni chet elga olib chiqib sotish.
Reimport operatsiyasi	avval eksport qilingan va u yerda qayta ishlov

berilmagan mahsulotni chet elda sotib olish va mamlakatga olib kelish.

Xalqaro savdo mahsulotlari, xizmatlar va fan-texnika ma'lumotlarini ayirboshlashning barcha ko'rinishlari tashqi savdo operatsiyalari yordamida amalga oshiriladi. Ular o'z navbatida eksport, import, reeksport va reimport operatsiyalariga bo'linadi.

15.2. Merkantilizm

Xalqaro savdoga oid nazariyalar o'z tarixiga ega. Bu boradagi ilk iqtisodiy ta'limot XVII asrdayoq yaratilgan. O'rta asrlarda ro'y bergan Evropadagi ulkan o'zgarishlar, jumladan, yangi qit'alarning kashf etilishi, mustamlakalardagi oltin va boshqa boyliklarni egallab olishga intilish o'z-o'zini ta'minlashni targ'ib etuvchi feodalizm nazariyasi doirasidan chiqib ketgan yangi xo'jalik tizimi doirasida tovarlar rolini va davlatlarning xalqaro savdoga bo'lgan talabini asoslab bera oladigan yangi iqtisodiy nazariyaga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi. Shunday nazariyalardan biri merkantilizm ta'limotidir. Merkantilizm maktabi XVI–XVII asrlarda faoliyat ko'rsatgan. Uning eng yirik vakillari ingliz iqtisodchilari Tomas Man (1571–1641) va Uilyam Staffordlar (1554–1612) hisoblanishadi.

Merkantilistlar o'z nazariyalarida faqat cheklangan miqdordagi boylikka ega bo'lgan statik qarashlarni qo'llab-quvvatlaganlar. Shu sababdan biron-bir mamlakat boyligining ko'payishi faqatgina boshqa mamlakatning qashshoqlashishi evaziga amalga oshishi mumkin. Demak, boylikning ko'payishi qayta taqsimot evaziga amalga oshar ekan, har bir mamlakat mustahkam iqtisodiyotga va boshqa davlatlar ustidan hukmronlikni ta'minlab bera oladigan armiya, harbiy va savdo flotidan iborat kuchli davlat qurilmasiga ega bo'lishi zarur deb hisoblashgan.

Merkantilistlar iqtisodiyotni ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va harbiy koloniyalar sektoriga bo'lishgan. Savdogarlar iqtisodiyotning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishida eng muhim guruh, deb hisoblangan, mehnat esa ishlab

chiqarishning asosiy omili sifatida baholangan. Mamlakatning boyligi uning ixtiyorida bo'lgan oltin va kumush bilan belgilanligi sababli tashqi savdo maktabi mamlakat milliy iqtisodiyotini mustahkamlashi uchun quyidagilarga amal qilish lozim, deb hisoblashgan:

- tashqi savdoda musbat saldoni ta'minlash – eksportning importdan katta bo'lishi mamlakatning oltin zaxirasini boshqa mamlakatlarning oltin manbalari hisobiga o'sishiga olib keladi. Bu, o'z navbatida, ichki xarajatlar, ishlab chiqarish va bandlikning oshishiga olib keladi;
- eksportni oshirish va importni kamaytirishga qaratilgan tashqi savdo siyosatini yuritish – tariflar, kvotalar va boshqa dastaklar yordamida savdo balansining musbat savdo saldosini ta'minlash;
- xomashyoning olib chiqilishini qattiq cheklash yoki ta'qiqlash va mamlakatda mavjud bo'lmagan xomashyo importidan boj undirmaslik, chunki bunday chora-tadbirlar mamlakat oltin zaxirasining ko'payishi va tayyor mahsulotlarni past narxlar bo'yicha eksport qilish imkonini yaratadi;
- mustamlakalarning metropoliyadan boshqa davlatlar bilan har qanday savdo aloqalarini taqiqlash va mustamlakalarni xomashyo ta'minotchisiga aylantirish.

Merkantilistlar g'oyasiga binoan iqtisodiy tizimda to'liq bandlikka erishib bo'lmaydi. Shu sababli xorijdan keladigan qo'shimcha oltin qo'shimcha ish joylarining yaratilishiga, ishsizlik darajasining pasayishi va ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishiga olib keladi.

Merkantilistlar xalqaro savdo nazariyasi rivojlanishiga jiddiy ulush qo'shdilar. Ular xalqaro savdoning mamlakat iqtisodiy o'sishi uchun ahamiyatini birinchi bo'lib chuqur tahlil qildilar va uning rivojlanishining muhim modellaridan birini ishlab chiqdilar. Ular birinchi bo'lib zamonaviy iqtisodiyotda to'lov balansi, deb ataladigan tushunchani ta'rifladilar.

Merkantilistlar g'oyasining asosiy kamchiligi – bu ularni bir mamlakat boyishi boshqa mamlakatlarning qashshoqlashishi hisobiga amalga oshadi deb

hisoblashganidir. Bunday g'oyaga amal qilish jahon iqtisodiyotida iqtisodiy disproportsiyalarga va iqtisodiy vaziyatning keskinlashuviga olib keldi. Metropoliyalarning mustamlakalar hisobidan boyishi ularda haddan ziyod oltin massasining to'planishiga va shu orqali giperinflyatsiyaga olib keldi.

Merkantilistlarning g'oyalari xalqaro iqtisodiyotdagi keyingi maktablari g'oyalariga ilmiy yo'nalish berdi. Merkantilistlar g'oyalari 1,5 asr maboynida keng qo'llanilgan. Buning natijasida XVIII asrda xalqaro savdo aloqalarda keskinliklar kuzatilgan.

15.3. A.Smitning mutlaq ustunlik nazariyasi

Merkantilistlarni tanqid qilgan asosiy iqtisodchilardan biri Adam Smitdir (1723–1790). A.Smit mamlakatning boyligi u ega bo'lgan oltin miqdoriga emas, balki uning ishlab chiqarish imkoniyatlariga bog'liqligini ko'rsatib berdi. Shuning uchun har qanday davlatning asosiy vazifasi mamlakat ega bo'lgan oltin miqdorini oshirish emas, balki xalqaro mehnat taqsimotida o'ziga xos munosib o'rin egallashdan iboratdir. Shuningdek, A.Smit g'oyalariga binoan ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash kerak. Ushbu siyosat «Lessa fer»[5] nomini oldi.

A. Smit qarashlariga muvofiq;

- davlat tashqi savdoga aralashishi kerak emas va mamlakat erkin savdo rejimiga rioya qilishi lozim;
- mamlakatlar ishlab chiqarishda afzallikka ega bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishlari kerak va bu tovarlarni boshqa mamlakatlar afzallikka ega bo'lgan tovarlar bilan ayirboshlashi kerak;
- tashqi savdo milliy bozorlarni boshqa mamlakatlar hisobiga kengaytirish orqali mehnat unumdorligining o'sishini ta'minlaydi;
- eksport mamlakat iqtisodiyoti uchun ijobiy omil hisoblanadi, chunki u ichki bozorda sotilmagan ortiqcha mahsulotlarni xorijga sotish imkonini beradi;

---

[5] Лэсса фэр – французча «laisses-faite», яъни давлатнинг иқтисодиётига аралашмаслик ва рақобат эркинлиги сиёсати.

- eksport subsidiyalari ichki soliqlar hisobidan moliyalashtiriladi va ichki narxlarning oshishiga olib keladi. Shuning uchun ularni bekor qilishi kerak.

Shu vaqtga qadar yuzaga kelgan barcha xalqaro savdo nazariyalari xalqaro savdoni erkinlashtirish barcha mamlakatlar uchun foyda keltiradi degan fikrni ilgari suradi. Erkin tashqi savdoning zarurligi va foydaliligi to'g'risida dastlabki nazariyalardan biri A.Smitning mutlaq ustunlik nazariyasidir. Bu nazariyaga ko'ra har bir mamlakat undagi mavjud sharoitlar va resurslar o'ziga xosligiga tayangan holda ma'lum bir tovarni eng kam xarajatlar hisobiga (yoki vaqt birligida bu tovarni eng ko'p) ishlab chiqirish imkoniyatiga ega. Shunday ekan mamlakat mutlaq ustunlikka ega bo'lgan tovar ishlab chiqarishga ixtisoslashadi va ushbu tovarning o'z iste'molidan ortiqcha qismini sotadi hamda boshqa tovarlarni sotib oladi. Chunki bu tovarlar ularni ishlab chiqarishda mutlaq ustunlikka ega bo'lgan davlatlarda ancha arzon ishlab chiqarilgan bo'ladi. Natijada har ikki davlat ham kam resurs sarflab ko'proq mahsulotga ega bo'ladi.

Masalan, O'zbekiston asosan paxta mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashganligi uchun boshqa mahsulotlarga nisbatan ko'proq shunga e'tiborni qaratish lozim. Chunki, O'zbekiston qishloq xo'jaligi, ob-havosi va qolaversa, butun respublika sharoiti paxta etishtirishga moslashgan va unga kam miqdorda mehnat va moliyaviy resurslarni sarf qilib, yuqori hosil olish texnologiyasiga ega. Shuningdek, boshqa mamlakatlar ham o'zi ixtisoslashgan sohaga ko'proq e'tiborni qaratishsagina dunyo bo'yicha ko'proq mahsulot ishlab chiqariladi va xalqaro savdoda ham katta muvaffaqqiyatlarga erishish mumkin. Demak, shu yo'l bilan dunyo aholisining talablarini maksimum qondirish imkoniyatiga erishiladi.

Ammo qaysidir mamlakat hech qaysi mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda mutlaq ustunlikka ega bo'lmasligi mumkin. Bu esa shu mamlakat hamma tovarlarni chetdan keltiradi-mi degan savolni tug'diradi. Agar shunday bo'lsa importni bu mamlakat qaysi mablag'lar hisobiga moliyalashtiradi. Bu savolga javob berish borasida mutlaq ustunlik nazariyasi boshi berk ko'chaga kirib qoladi.

15.4. D.Rikardoning nisbiy ustunlik nazariyasi

D. Rikardo A. Smitning «Mutlaq ustunlik» nazariyasini yanada mulohaza qilish natijasida ushbu nazariya umumiy qoidaning bir qismi ekanligini isbotlab berdi. D. Rikardo «Siyosiy iqtisodning boshlanishi va soliqlar» nomli asarida klassik nazariyani boshi berk ko'chadan olib chiqadi. Uning fikricha, mamlakatlar ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashda yoki ko'proq ustunlikka ega bo'lgan yoxud kamroq zaiflikka ega bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish va sotishga ixtisoslashsalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday vaziyatlarda ikki mamlakat o'rtasidagi savdo ko'proq imkoniyatlar olib keladi. Har bir mamlakat o'zi ixtisoslashgan mahsulotlarni ishlab chiqaradi va shu orqali yutuqlarga yerishadi. Uning mulohazalari "Nisbiy ustunlik nazariyasi"da o'z echimiga ega bo'ldi.

Masalan, Portugaliyada ishlab chiqarilgan movut va Angliyada ishlab chiqarilgan vino individual xarajatlarga ega bo'lsin. Shuni hisobga olgan holda D. Rikardoning "Nisbiy ustunlik" nazariyasini qo'llaymiz:

15.1-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mehnat sarfi.

	Movut (bir dona)	Vino(barrel)
Portugaliya	90	80
Angliya	100	120

Yuqoridagi misoldan ko'rinib turibdiki Portugaliya barcha turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda mutlaq ustunlikka ega. Ya'ni bir dona movut ishlab chiqarish uchun 90 mehnat birligi, bir barrel vino ishlab chiqarish uchun esa 80 mehnat birligini sarflaydi. Ammo, D. Rikardo Portugaliyada movut ishlab chiqarishga nisbatan vino ishlab chiqarish savdosini yo'lga qo'yish ko'proq foyda olib kelishini ta'kidlaydi. Chunki, bir dona movutga nisbatan bir barrel vino ishlab chiqarish arzonga tushmoqda. Bunda nisbiy ustunlikdagi farq har bir millat uchun xalqaro savdoda yutuqqa olib keladi. Ya'ni, Portugaliya bir barrel vinoni (80

birlikda) 120 birlikda Angliyaga sotsa va o'z navbatida, Angliyadan (100 birlikda) ushbu birlikda 1,2 dona movut sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zida ishlab chiqarilgan mahsulotga solishtirganimizda esa **8/9** donaga ega bo'lar edi. Boshqacha aytganimizda, Portugaliyaning vino ishlab chiqarish va movutni sotib olish evaziga oladigan foydasi quyidagicha bo'ladi.

120 / 100 – 8 / 9 =1,2 - 0,(8) = 0,31 dona movut.

Angliya esa movut ishlab chiqarishda kamroq zaiflikka ega. Ya'ni movut ishlab chiqarishga qilinadigan mehnat sarflari o'rtasidagi farq vino ishlab chiqarishdagiga nisbatan kamroq. Demak movut ishlab chiqarishga ixtisoslashish hisobiga xalqaro savdodan Angliya ham yutadi. Ya'ni, movut ishlab chiqarib, uni Portugaliyaga sotish hisobiga 11/8 barrel vino (o'zidagiga nisbatan **5/6** barrel) sotib olishi mumkin. Ushbu vaziyatda Angliyaning yutug'i:

9 / 8 - 5 / 6 =7 / 24 = 0,29 barrel vino.

Bu misolda Portugaliya uchun har bir barrel vinoga **9/8** dona movut sotib olgandagina xalqaro sovda foydali hisoblansa, Angliya uchun esa har bir barrel vinoga **5/6** dona movut almashganda savdo foydali hisoblanadi.

Shunday qilib, erkin savdo xalqaro ixtisoslashuvni rag'batlantirib, quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: har bir mamlakat biror turdagi mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashishguncha o'tgan davrgiga nisbatan kamroq moddiy va mehnat xarajatlari sarflaydigan bo'ladi. Ammo, bu borada barcha nazariyalar ham savdoda mamlakatlarning pul birliklari ishtorokida amalga oshishi hisobga olinmagan. Chunki, mamlakatlar o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun valyutalarini almashtirishadi. D. Rikardo ushbu vaziyatni ham tushuntirib bera olgan. U izohlaganidek yuqorida keltirilgan imkoniyat valyutalarni almashtirish sharoitida ham saqlanib qoladi. Bu vaziyatda eksport-import to'lovlari o'zaro balansga ega emas. Bunday vaziyat valyuta kurslaridagi o'zgarishlar hisobiga yoki biror bir mamlakatdagi barcha baholarni o'zgartirish hisobiga bartaraf etiladi. Yuqoridagi misol mavhum xususiyatga ega. U aniq vaziyatlarga asoslanishi uchun:

- mehnat savdo qilayotgan mamlakatlar o'rtasida emas, balki mamlakat ichida harakatchan bo'lishini;
- transport, bojxona xarajatlari, savdo ustamalari va boshqa cheklashlar hisobga olinmasligini;
- mahsulotlarning yangi namunalarni ishlab chiqarishda yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash hamda ularni ko'p miqdorda seriyali ishlab chiqarishda xarajatlardagi o'zgarishlar e'tiborga olinmasligini ta'minlash imkoniyatlari yaratilishi lozim.

Angliya va Portugaliya misolida keltirilgan vaziyatlarda xalqaro savdo narxlarining keng amal qilayotgan shaklini qo'llash mumkin. Chunonchi, bir barrel Portugaliya vinosini Angliyada tannarxidan kam narxda (80) va sotib olingan bahodan (120) yuqori narxda sotmaslik kerak. Shuningdek, angliyaliklar movutidan Portugaliyada (90 dan 100 gacha) shunday tartibda sotilishi kerak.

Mahsulotlar bahosi o'rtasidagi o'zaro nisbat aniqlab olingandan keyin «savdo sharoiti» (terms of trade) *tushunchasi savdo sharoitini aniqlab olish uchun esa* "savdo sharoiti indeks" tushunchasi kiritilgan. Bu indeks quyidagi formula orqali aniqlangan:

$$\text{Savdo sharoiti indeksi} = \frac{\text{Eksport narxlar indeksi}}{\text{Import narxlar indeksi}} 100 = \frac{Ei}{Ii} 100$$

Indeksning o'sishi (masalan, 100 dan 105 gacha) savdo sharoitlarining yaxshilanayotganligini ko'rsatadi. Ya'ni, ushbu miqdordagi importga hisob-kitob qilish uchun undan kam miqdorda eksport talab etiladi.

Amaliyotda savdo sharoiti, birinchidan, tovarlar bahosi o'zgarishi hisobiga, unga bo'lgan talabning oshishi yoki kamayishiga bog'liq. Ayrim mahsulot ishlab chiqaruvchilar (masalan, neft va neft mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar) narxlarda bo'layotgan o'zgarishlarga qaramay, katta yutuqlarga erishadilar.

Ikkinchidan, savdo sharoiti ishlab chiqaruvchilar yoki yetkazib beruvchilarning bozorga moslashishiga (egiluvchanligiga) bog'liq bo'ladi.

Uchinchidan, savdo sharoiti ishlab chiqarish sharoitlari yoki mahsulotlar iste'molidagi o'zgarishlarga qarab o'zgaradi.

Savdo sharoiti indeksi mamlakatning xalqaro savdodagi holati to'g'risida ma'lumotlar bersada, ko'pgina kamchiliklardan xoli emas. Ularning eng asosiylaridan biri mamlakatda umumiy sharoitni yaxshilasada, sotilgan mahsulotlar miqdorini hisobga olmaydi. Boshqacha aytganda, savdo sharoiti yaxshilanishi eksport hajmi qisqarishi va import hajmi oshishiga olib keladi. Bu esa to'lov balansini yomonlashtiradi.

A. Smit va D. Rikardo nazariyasida ishlab chiqarishga ta'sir qiladigan eng asosiy omil mehnat hisoblangan. Mahsulotlar narxi esa ishlab chiqarish xarajatlariga bog'liq.

Keyingi tadqiqotlar ishlab chiqarishda asosiy omillar sifatida yer, kapital kabi omillardan foyda olish imkoniyatini hisobga olgan. Agarda, mehnatning bozor bahosi ish haqi sifatida gavdalansa, kapitalning bahosi foiz stavkalari ko'rinishida, erning bahosi renta miqdorida aniqlangan.

Nazorat savollari

1. Xalqaro savdoni rivojlantirishning obyektiv sabablari nimalardan iborat?
2. Xalqaro savdoni rivojlantirishning subyektiv sabablari nimalardan iborat?
3. Xalqaro savdoning shakllari.
4. A. Smitning «Mutlaq ustunlik» nazariyasi kamchiligi nimada ko'rinadi?
5. «Nisbiy ustunlik» nazariyasining mohiyatini tushuntirib byering.
6. Savdo sharoitlari tushunchanchasini izohlab bering. Savdo sharoitining yaxshilanishi qanday oqibatlarga olib keladi?
7. Xeksher-Olinning neoklassik kontsepsiyasini izohlab bering.
8. "Leontev taajubi" nima sababli yuzaga keldi va qanday yechim topdi?

XVI BOB. TASHQI SAVDO SIYOSATI

16.1. Tashqi savdo siyosatining mohiyati va vositalari

Har bir mamlakat makroiqtisodiy siyosatini yuritishda tashqi savdo siyosati ham muhim o'rin egallaydi.

Tashqi savdo siyosati – mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan olib boradigan savdo munosabatlarini muvofiqlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi bo'lib, milliy iqtisodiyot ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni oqilona import siyosati hisobiga to'ldirish hamda milliy iqtisodiyotda ortiqcha bo'lgan mahsulotlarni eksport qilish hisobiga mamlakatning jahon bozoridagi o'rnini mustahkamlash vazifasini hal etadi.

Ushbu siyosatni yuritish orqali tashqi savdo hajmlari soliqlar, subsidiyalar, import yoki eksportni to'g'ridan to'g'ri cheklashlar kabi vositalar yordamida tartibga solinadi. Tartibga solish vositalari bevosita va bilvosita xaraktyerga ega bo'lishi mumkin. Tashqi savdo siyosati eksport va import hajmi hamda tarkibiga ta'sir ko'rsatish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishga erishish, to'lov balansini yaxshilash hamda valyuta kursini tartibga solish maqsadlarini ko'zda tutadi.

Mamlakatlar erkin yoki cheklovchi (protektsionistik) tashqi savdo siyosatini olib borishi mumkin. Ko'pgina mutaxassis-iqtisodchilar mamlakat iqtisodiyoti va aholisi turmush darajasini yaxshilash uchun erkin savdo siyosatini qo'llash iqtisodiy resurslardan samaraliroq foydalanish imkonini beradi deb hisoblaydilar. Biroq erkin savdo jahon iqtisodiyoti nuqtai nazaridan foydali bo'lishi mumkin bo'lsada, ammo alohida olingan mamlakat iqtisodiyoti manfaati nuqtai nazaridan erkin savdo hamma vaqt ham foydali bo'lavermaydi.

Tashqi savdoni cheklash bilan bog'liq bo'lgan protektsionistik siyosat borasida olib boriladigan har qanday chora-tadbirlar qisqa muddatli samara beradi. Uzoq muddatli davrda esa, faqatgina erkin savdo siyosati iqtisodiy resurslarni samarali joylashtirish imkonini beradi.

Tashqi savdo siyosati chora-tadbirlarining ayrimlari davlat g'aznasini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lsa, ba'zilari import va eksportni cheklashga, yoki ularni rag'batlantirishga yo'naltirilgan. Amaliyotda tashqi savdoni tartibga solishning tarif va notarif usullaridan foydalaniladi.

Tarif usullariga import va eksport bojlarini joriy qilish kirsa, notarif usullariga eksportyerlar va ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalar berish, kvotalash, litsenziyalash kabilar kiradi.

Bojxona bojlari import va eksport bojlariga ajratiladi.

Import bojlari davlat g'aznasini to'ldirish maqsadida va ichki bozorlarga tushadigan chet el mahsulotlari oqimini tartibga solish uchun belgilanadi. Import bojlari eng kam va eng ko'p miqdordagi import bojlariga bo'linadi. Eng kam miqdordagi import bojlari qulay savdo sharoitlarni yaratib berishni ko'zda tutuvchi savdo shartnomalari va bitimlari bo'lgan mamlakatlar mahsulotlariga nisbatan o'rnatiladi. Eng ko'p miqdordagi import bojlari esa qulay savdo sharoitlarini yaratib berish bo'yicha shartnoma va bitimlar tuzilmagan mamlakatlar mahsulotlariga nisbatan o'rnatiladi.

Eksport bojlari mamlakat ichida talab ko'p bo'lgan mahsulotlar taqchilligining oldini olish maqsadida belgilanadi.

Litsenziyalash tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishga davlat tashkilotlaridan ruxsat olishning ma'lum tartibi hisoblanadi va bunday ruxsat berish huquqini qaysi davlat tashkilotlariga berish amalga oshiriladigan operatsiyalarning mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyatiga bog'liqdir.

Kvotalash mahsulotlar, xizmatlar bo'yicha ma'lum davrga eksport va importga miqdoriy yoki qiymat chegaralarini belgilashdir.

ko'rsatkich 5,2 foizni, qora va rangli metallar 6,6 foiz o'rniga 5,8 foizni tashkil qildi. Oziq-ovqat mahsulotlari esa 5,4 foizdan 5,7 foizga, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar 2,9 foizdan 6,9 foizga, energiya manbaalari va neft mahsulotlari 10,3 foizdan 14,1 foizga, xizmatlar 13,7 foizdan 26,3 foizga va boshqa tovarlar 30,2 foizdan 34,2 foizga o'sishiga erishildi (16.6-rasm).

Tashqi savdo bo'yicha asosiy hamkorlar MDH davlatlar orasida Rossiya va Qozog`iston bo'lsa, boshqa mamlakatlar orasida Xitoy, Turkiya, Afg`oniston, eron va Koreya Respublikasi hisoblanadi.



16.7-rasm. **O'zbekiston Respublikasining yirik eksport hamkorlari**

Hozirgi davrda deyarli 2000 turdagi tovar va xizmatlar dunyoning 168 dan ortiq mamlakatlariga (Evropa mamlakatlari, MDH, Osiyo, Shimoliy va Janubiy Amerika, Afrika va Avstraliya davlatlarini qo'shgan holda) yetkazib berilmoqda.

2000 yilga nisbatan eksport bo'yicha hamkor davlatlar soni 31 taga ko'paygan (16.7-rasm).

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING EKSPORTDAGI O'RNI

Bozor islohotlarini chuqurlashtirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, raqobatni rivojlantirish va xususiy mulkni himoya qilishga qaratilgan kompleks tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida so'nggi yillarda turli sohalarda kichik biznes subyektlari soni ko'paymoqda. Eksportga yo'naltirilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi ularni eksport hajmini o'sishihga qo'shgan hissasini oshishiga yordam berdi.



16.8-rasm. **Eksportda kichik biznesning ulushi**

Statistik ko'rsatkichlarning dinamikasi shuni ko'rsatadiki, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli yildan yilga ortib bormoqda.

2016 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3223,2 million AQSh dollari miqdorida tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksport qilindi (umumiy eksport hajmining 26,5 foizi), bu 2010 yilga nisbatan 80,8 foizga ko'p va 2000 yilga qaraganda deyarli 10 baravar ko'p.

Korxonalarning aksariyat qismi xizmat ko'rsatishga ixtisoslashganiga qaramasdan, eksport qilishda kichik biznes qariyb 45 foizni tashkil etsada, ularning faoliyati ko'plab ishlab chiqarish segmentlarini qamrab oladi.

Asosiy eksport qilinadigan mahsulotlar sirasiga ho'l va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari, shuningdek, tayyor to'qimacilik va charm mahsulotlari, zamonaviy qurilish va pardozlash buyumlari, mexanik asboblar, elektrotexnika va maishiy buyumlar kiradi.



16.9-rasm. **Eksport tarkibi**

2016 yilda 3000 ortiq kichik biznes subyektlari tomonidan 154 mamlakatga eksport amalga oshirildi.

Toshkent shahri tashqi savdo bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni jihatidan va eksport faoliyatidan olingan tushumlar bo'yicha peshqadam hisoblanadi. 2016

yilda 1150 dan ziyod tadbirkorlar eksportning 15 foizini ta'minladi, bu shaharning jami eksportining 18,3 foizini tashkil etadi.

Ikkinchi va uchinchi o'rinlarni Toshkent va Samarqand viloyatlari egallaydi. Tashqi bozorlarda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni bo'yicha ular tegishlicha taxminan 10 foiz va 9 foizdan sal ko'proqni tashkil etadi.



[1)] Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shmagan holda

16.10-rasm. **Eksportda kichik biznesning hududlardagi ulushi** [1)]

Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlarining ulushi bir oz kamroq. Shu bilan birga, hududining umumiy eksport hajmida Namangan viloyati kichik tadbirkorligining eksporti hajmi 87,4 foizni, Andijonda - 72,0 foizni tashkil etdi.



16.11-rasm. **Eksportda kichik biznesning hududlardagi jami eksportdagi ulushi**

Eksportga bo'lgan talabning oshishi mamlakatni rivojlantirish uchun muhim manbadir. Doimiy tashqi iqtisodiy faoliyat olib boradigan tadbirkorlik subyektlari mavjudligiga qaramasdan, korxonalarning eksport imkoniyati to'liq amalga oshirilmayapti. Buning sabablari haqida gapirganda, tashqi bozorlarning imkoniyatlari va talablari bo'yicha ma'lumotlarning yetarli emasligi, chet elda raqobatning yuqoriligi, shuningdek chet ellik sheriklar bilan muloqotni tashkil etishning murakkabligini aytib o'tish lozim.

Nazorat savollari

1. Tashqi savdo siyosatining mohiyati nimadan iborat?
2. Tashqi savdoni cheklash usullari qanday?
3. Bojxona bojlari qanday turlarga ajaratiladi?

4. Bojxona bojlari undirilishi nuqtai nazaridan qanday ko'rinishlarda bo'ladi?

5. Hozirgi vaqtda kvotalash bojlarga nisbatan ko'proq qo'llanilishiga sabab nima?

6. Bojxona tariflarini kirtishni yoqlovchi mutaxassislar fikriga ko'ra import tariflari qanday ijobiy oqibatlarga olib keladi?

7. Mahsulotlar eksporti va importini litsenziyalash davlatga qanday imkoniyatlar beradi?

8. Eksport subsidiyalari va kompensatsion import bojlari qanday vaziyatlarda qo'llaniladi?

XVII BOB. VALYUTA KURSI

17.1. Valyuta va jahon valyuta tizimi tushunchasi

Xalqaro valyuta munosabatlari pulning xalqaro to'lov jarayoniga xizmat qilishi jarayonida vujudga keladi. U tashqi savdo bilan birga paydo bo'ldi va rivojlanishning uzoq yo'lini bosib o'tdi. Tarix davomida jahon puli va xalqaro hisob-kitob shakllari o'zgardi. Bir vaqtda valyuta munosabatlari ahamiyati o'sdi va ularning nisbatan mustaqil darajasi oshdi. Tovarlar, xizmatlar, kapitallar va ishchi kuchi harakati mamlakatdan mamlakatga ko'chadigan pul massasalari oqimi yordamida amalga oshadi. Bu harakatni tartibga solish zarurligi xalqaro valyuta tizimi va jahon valyuta tizimlarining shakllanishiga olib keldi. Valyuta – keng ma'noda mamlakat pul birligini (masalan, so'm, dollar, funt-styerling va hokazo) anglatadi. Qisqa ma'noda valyuta atamasi chet davlatlarning pul belgisi ma'nosida qo'llaniladi. Har bir milliy bozor xususiy milliy valyuta tizimiga ega.

Milliy valyuta tizimi bazasida jahon bozori rivojlanishi natijasida tarkib topadigan va davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilish shakli bo'lgan jahon valyuta tizimi amal qiladi.

Mamlakatlar o'rtasida tovar va xizmatlar oqimi ko'paygani sari pul vositalarini ayirboshlashi ham tobora oshib boradi, o'zaro hisob-kitoblardagi nomutanosiblik muammolari yuzaga keladi. Bularning barchasi jahon valyuta tizimining barpo etilishiga obyektiv shart-sharoitlar yaratadi. Uning maqsadi - mamlakatlar o'rtasidagi barcha turdagi bitimlarni amalga oshirishni tartibga solishdan va shuningdek, bu ishlarni tezlashtirishdan iborat. Shunday qilib, jahon valyuta tizimi - bu, xalqaro ayirboshlashning barcha shakllariga xizmat qilishga va ularning samarali rivojlanashini ta'minlashga qaratilgan mamlakatlar o'rtasidagi

valyuta munosabatlarining yig'indisidir. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Xalqaro bitimlarda foydalaniladigan to'lov va kredit vositalarini (oltin, eng rivojlangan mamlakatlarning milliy valyutalari, xalqaro pul birliklari);

2. Valyuta kurslarini o'rnatish va saqlab turish mexanizmini;

3. Valyuta bozorining ishlash tartibini;

4. Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartib va qoidalarini;

5. Valyuta yordamida tartibga solish va nazorat qilish tizimini;

6. Valyuta munosabatlarini tartibga solib turuvchi va jahon valyuta tizimining barqaror faoliyatini ta'minlovchi xalqaro tashkilotlar tizimi (Xalqaro valyuta fondi, Umumjahon banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki).

Hozirgi zamonda xalqaro hisob-kitoblarda va kreditlashda asosan uch xil ko'rinishdagi pul vositalari ishlatiladi:

- oltin, hozirda o'zining asosiy to'lov va hisob-kitob vositasi xususiyatini yo'qotgan bo'lsada, ammo ko'pchilik valyuta zaxiralarining sezilarli qismini tashkil etadi va muhim tashqi savdo opyeratsiyalariga xizmat qilish va kreditlashni kafolatlash uchun ishlatiladi;

- jahonda asosiy o'rin tutuvchi rivojlangan mamlakatlarning milliy valyutalari (AQSh dollari, EVRO, Ingliz funt-styerlengi, Yaponiya ienasi va boshqalar);

- xalqaro pul birliklari.

Bunday pul birliklariga shu paytga qadar foydalanilgan EKYu, SDR misol bo'la oladi. Ular barcha mamlakatlar tomonidan tashqi savdo opyeratsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi. Xorijda kreditlash va investitsiyalashda, chet ellik ishchi kuchi mehnatiga, shuningdek, mamlakat valyuta zaxiralarini yaratishda qo'llaniladi.

Xalqaro valyuta yoki xalqaro to'lov-hisob va kreditlash vositalariga javob berishi kyerak bo'lgan talab ularning konvyertirlashuvi hisoblanadi. Valyuta konvyertirlashuvi deganda uni boshqa xorijiy valyutalarga almashish qobiliyati

tushiniladi. Hozirgi paytda ular yerkin konvyertirlanadigan, qisman konvyertirlanadigan va konvyertirlanmaydigan valyutalarga ajratiladi.

Yerkin konvyertirlanadigan valyuta – bu, amaldagi kurs bo'yicha har qanday boshqa xorijiy valyuta yerkin va cheklanmagan miqdorda ayirboshlanadigan valyutadir. Bunga misol qilib AQSh, Evropa hamjamiyatiga a'zo mamlakatlar, Yaponiyalar valyutalarini kiritish mumkin.

Qisman konvyertirlanadigan valyuta – bu, faqat ba'zi xorijiy valyutalarga almashtiriladigan va xalqaro to'lov oborotini qisman qamrab oladigan milliy valyutadir.

Konvyertirlanmaydigan valyuta – bu, faqatgina ichki to'lovlarga xizmat qiladigan va xorijiy valyutaga ayirboshlanmaydigan milliy valyutadir.

Konvyertirlashni ichki va tashqi konvyertirlashga ham ajratish mumkin. Ichki konvyertirlash rezidentlarining mamlakat ichkarisida xorijiy valyutani sotib olishi, uni saqlab turishi va u bilan ayrim opyeratsiyalarni olib borishini imkoniyatini aks ettiradi. Tashqi konvyertirlashda xorijda to'lovlarni amalga oshirishga va moliyaviy aktivlarni ushlab turishga ruxsat etiladi. Valyutalarni konvyertirlash ko'pgina mamlakatlar olib borayotgan iqtisodiy siyosatlarning muhim maqsadi hisoblanadi.

17.2. Valyuta bozorini davlat tomonidan tartibga solish usullari

Bozordagi talab va taklif ta'siri natijasida vaqti-vaqti bilan valyuta kurslari o'zgarib turadi. Davlat valyuta kurslarini barqororlashtirish uchun valyuta bozorining amal qilishiga bevosita yoki bilvosita aralashishi zarur. Buning bir qator usullari mavjud:

1.Zaxiralardan foydalanish. Valyuta kursini mustahkamlashning ko'proq qo'llaniladigan usuli - rasmiy zaxiralar bilan bozorda manipulyatsiya qilish hisoblanadi. O'z-o'zidan aniqki, valyuta zaxiralari alohida mamlakatlar

ixtiyoridagi chet mamlakatlar valyutalarining zaxirasidir (Masalan, AQSh dollari, EVRO va h.k.).

2. Savdo siyosati. Valyuta bozoriga ta'sir ko'rsatishning boshqa tadbirlariga savdo va moliyaviy oqimlar ustidan to'g'ridan to'g'ri nazorat qilishni kiritish mumkin. Masalan, AQSh dollarining etishmasligi sharoitida valyuta kursini tegishli darajada importni cheklash hisobiga ushlab turish mumkin. Xususan import hajmi boj yoki import kvotalarini kiritish bilan qisqarishi mumkin. Boshqa tomondan mamlakat hukumati eksport uchun milliy ishlab chiqaruvchilarga subsidiya byerib, shu orqali xorijiy valyuta taklifini ko'paytirishi mumkin. Bu tadbirlardan foydalanishda vujudga keladigan asosiy muammo shundan iboratki, u jahon savdosi hajmini qisqartiradi, uning tarkibini va savdo aloqalarini o'zgartirib yuboradi, iqtisodiy maqsadga muvofiqlikning buzilishiga hissasini qo'shadi. Buning oqibatlarini hisobga olmaslik mumkin emas.

3. Valyuta nazorati. Boshqa muqobil variant valyuta nazorati hisoblanadi. Valyuta nazorati sharoitida hukumat milliy eksportyorlar olgan barcha tegishli chet el valyutalarini davlatga sotish talabi bilan ularning etishmasligi muammosini hal qilishi mumkin. Keyin, hukumat o'z navbatida chet el valyutasining bu zaxirasini turli milliy importyorlar o'rtasida taqsimlaydi. Shu yo'l bilan hukumat milliy importni, milliy eksport hisobidan olingan chet el valyutasi miqdoriga cheklaydi.

Valyuta nazorati tizimi bir qator kamchiliklarga ega. Birinchidan, savdo cheklashlari (boj, kvota, eksportga subsidiya) kabi valyuta nazorati nisbiy ustunlik tamoiliga asoslangan xalqaro savdoning tarkib topgan aloqalarini buzadi. Ikkinchidan, yetarli bo'lmagan valyuta resurslari ustidan valyuta nazorati jarayoni, so'zsiz, alohida importyorlarni kamsitilishi bilan bog'liq. Uchinchidan, nazorat tadbirlari iste'molchining tanlash yerkinligiga tajovuz qilish hisoblanadi.

4. Ichki makroiqtisodiy tartibga solish. Valyuta kursi barqarorligini ushlab turishning oxirgi vositasi ichki soliq yoki pul siyosatidan shunday foydalanish hisoblanadiki, bunda tegishli chet el valyutasining etishmasligi bartaraf qilinadi. Masalan, cheklovchi soliq va pul kredit siyosati tadbirlari mamlakat milliy

daromadini boshqa bir davlat milliy daromadiga nisbatan pasaytiradi. Chunki, import miqyosi milliy daromad darajasiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'lib, bu o'sha boshqa davlat buyumlariga va demak, xorijiy valyutaga talabning cheklanishiga olib keladi.

17.3. Valyuta kursi va uni belgilovchi omillar

Barcha xalqaro bitimlar valyutalarni ayirboshlash orqali olib borilishi tufayli har qanday ayirboshlashda bo'lgani kabi valyuta bahosini yoki valyuta kursini aniqlash zaruriyati paydo bo'ladi. Shunday qilib, valyuta kursi – bu, bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birligida ifodalangan bahosidir. Valyuta kursini o'rnatish kotirovkalash deb ataladi. U to'g'ri va teskari kotirovkalashga ajratiladi. Agar xorijiy valyuta birligining bahosi milliy valyutada ko'rsatilsa, bunga to'g'ri kotirovkalash deb ataladi. Masalan, 1 AQSh dollari 975 so'mga, 1 Rossiya rubli 32 so'mga teng va hakozo. Teskari kotirovkalashda milliy valyutaning bir birligiga to'g'ri keladigan xorijiy valyutaning miqdori o'rnatiladi. Masalan, 1 o'zbek so'mi 0,001025 AQSh dollariga to'g'ri keladi. Dunyoning ko'p mamlakatlarida, shu jumladan, O'zbekistonda ham to'g'ri kotirovkalash qabul qilingan. Valyuta bozoridagi talab va taklifni solishtirish natijasida valyutaning bahosi yoki kursi aniqlanadi. O'zbek so'mining kursi O'zbekiston valyuta birjasida o'rnatiladi, uning ishtirokchilari valyuta opyeratsiyalarini olib borish huquqiga ega bo'lgan banklar hisoblanadi. Shu bilan birga, turli pul birliklari uchun valyuta kurslarini o'rnatish jarayonida bozor kuchlarining ta'sir etish darajasi bir xil emas. Bu ta'sir kuchiga bog'liq holda valyuta kurslarini qabul qilishning bir-biridan farq qiluvchi ikki varianti mavjud.

1. Talab va taklifga asosan aniqlanadigan egiluvchan yoki yerkin suzib yuruvchi valyuta kursi tizimi.

2. Davlat aralashuvi asosida aniqlanadigan qat'iy belgilangan valyuta kursi tizimi.

Yerkin suzib yuruvchi valyuta kurslari talab va taklif asosida aniqlanadi. Masalan, bir o'zbek so'mining AQSh dollariga almashishini qarab chiqamiz. Milliy valyuta kursining pasayishi natijasida dollarga talab kamayadi va taklif esa oshadi (17.1- rasm).



17.1-rasm. **Xorijiy valyuta bozori**

Dollarga bo'lgan talabning kamayishi D to'g'ri chizig'ida byerilgan. Bu shuni ko'rsatadiki, agarda dollar o'zbekistonliklar uchun arzon bo'lsa, amyerika tovarlari ham ular uchun arzon bo'ladi va bu, o'z navbatida, ularning amyerika tovarlariga bo'lgan talabini oshiradi.

Dollarning taklifi (S) kamaysa, so'mda belgilangan dollarning qiymati oshadi (ya'ni, dollarda belgilangan so'mning qiymati pasayadi). Bunday vaziyatlarda amyerikaliklar ko'proq o'zbek tovarlarini sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki, so'mning dollarga nisbatan qiymati pasaysa, u o'z navbatida o'zbek tovarlarining narxi ham pasayganini bildiradi va oqibatda ko'proq o'zbek tovarlarini sotib olish imkoni paydo bo'ladi.

O'zbek tovarlarini sotib olish jarayonida ular AQSh dollarini valyuta bozoriga olib chiqadi, chunki, o'zbek tovarlarini sotib olish uchun dollarni so'mga

almashtiriladi. Dollarga bo'lgan talab va taklifning kesishgan nuqtasi dollarning so'mdagi qiymatini bildiradi.

Agarda, dollarning so'mdagi qiymati oshsa, so'm qiymatining pasayganligini yoki qadrsizlanganligini ko'rsatadi. Aksincha, agarda dollarning so'mdagi qiymati pasaysa, so'm qiymatining oshganligini yoki so'mning qimmatlashganligini ko'rsatadi. Bir birlik xorijiy valyutani sotib olish uchun kam miqdorda milliy valyuta sarf qilish milliy valyutaning qimmatlashuvini bildiradi. Agarda, dollarga nisbatan so'm qadrsizlansa, dollar so'mga nisbatan qimmatlashadi.

Qayd etilgan valyuta kursi – bu, xorijiy valyutada ifodalangan, davlat tomonidan rasmiy o'rnatilgan milliy pul birligining bahosi bo'lib, unga valyuta bozorida talab va taklifning o'zgarishi bevosita ta'sir qilmaydi.

Qayd qilingan valyuta kursi tizimi tarafdorlari ta'kidlaydilarki, undan foydalanish xalqaro savdo va moliya bilan bog'liq bo'lgan tahlika va noaniqlikni kamaytiradi. Qayd qilingan valyuta kurslarini qo'llash o'zaro foydali savdo va moliyaviy opyeratsiyalar hajmini kengaytirishga olib keladi. Ammo, qayd qilingan valyuta kurslari tizimining hayotga layoqatliligi o'zaro aloqalar jarayondagi ikki sharoitga bog'liq:

- zaxiralarning mavjudligi;

- o'z hajmi bo'yicha sezilarsiz kamyoblik yoki to'lov balansi aktivlarining tasodifiy vujudga kelishi. Katta va doimiy kamyobliklar mamlakat zaxiralarini yo'qqa chiqarishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, valyuta kurslarining talab va taklif ta'siri ostida shakllanish darajasi, o'z-o'zicha kurslar o'rtasidagi nisbatlarga ta'sir etuvchi real jarayonlarni aniqlab byera olmaydi. Chet el valyutalariga talab va taklifga, demak, valyuta kurslariga mamlakatdagi ham ichki va ham tashqi iqtisodiy munosabatlar majmui bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Valyuta kurslarining o'zgarishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Ularni qisqacha qarab chiqamiz:

1. Iste'molchilar didining boshqa mamlakat buyumlariga nisbatan o'zgarishi.

2. Turli mamlakatlarda daromadlardagi nisbiy o'zgarishlar..

3. Bahodagi nisbiy o'zgarishlar.

4. Nisbiy real foiz stavkalari. Faraz qilamiz, AQSh inflyatsiyani quvib o'tish maqsadida «qimmat pul» siyosatini amalga oshira boshlaydi. Natijada, real foiz stavkalari (inflyatsiya sur'atini hisobga olib o'zgartirilgan (korrektirovka qilingan) foiz stavkalari) AQShda boshqa mamlakatlar, masalan, Buyuk Britaniyaga qaraganda ko'tariladi. Britaniyalik jismoniy shaxs va firmalar ishonch hosil qiladiki, AQSh moliyaviy vositalarni qo'yish uchun juda jozibador va qulay joyga aylanadi. Amerika moliyaviy aktivlariga talabning bu ko'payishi Angliya funti taklifining kengayganligi va shu sababli dollar qiymati o'sganligini bildiradi.

5. Spekulyatsiya.

Dollar kursi pasayishi, funt kursi esa, aksincha ko'tarilishi to'g'risidagi prognozlar natijasida dollarni ushlab turuvchilar ularni funtga aylantirishga harakat qiladi va shu bilan funtga bo'lgan talabni oshiradi. Bu almashish, dollar kursining pasayishini va funt kursining oshishini keltirib chiqaradi.

Valyuta almashinuv kursini tartibga solish bu vaziyatdan chiqishning yagona yo'lidir.

Valyuta bozori, depozitlar (qo'yilmalar) va qimmatbaho qog'ozlar bozori bilan bevosita aloqaga ega. Bunda asosan foiz me'yorlari asosiy ahamiyatga ega. Agarda, foiz me'yorlari baholar o'sishini qoplasa, mijozlar esa moliya institutlariga ishonch hosil qilishsa, jamg'arma bozori valyuta bozoriga asosiy raqobatchi bo'lishi mumkin. Ko'pgina mamlakatlarning statistik kuzatishlaridan shu ma'lum bo'lganki, depozitlar va qimmatbaho qog'ozlar bozoridagi opyeratsiyalar o'sishi bilan, valyuta bozorlariga iste'molchilar tomonidan bo'ladigan ta'sir o'z-o'zidan kamayadi.

Sarmoyachilar qanday qilib bo'lsa ham o'zlarining vaqtincha bo'sh turgan resurslaridan unumli foydalanish va shuningdek, nafaqat o'z resurslaridan, balki

xorij aktivlaridan ham foydalanish yo'llarini izlashadi. Chunki, jahon moliya bozorining asosiy qismini kapital aktivlar tashkil etadi.

Agarda, depozit stavkalari oshsa, pul oqimi valyuta kursining oshishiga olib keladi. Xorijiy sarmoyadorlar uchun, ya'ni, ushbu mamlakat depozitiga o'z sarmoyalarini qo'yishni xohlovchilar uchun ularning valyutalari foiz stavkalaridan keladigan foydadan ko'ra qimmatliroq bo'ladi.

17.4. Nominal va real valyuta kurslari

Valyuta kurslari o'zining nominal va real ko'rinishlariga ega bo'ladi. Nominal valyuta kursi bu bir birlik xorijiy valyutani muayyan birlikdagi milliy valyutalarga yoki aksincha bir birlik milliy valyutani muayyan birlikdagi xorijiy valyutaga almashtirish kursidir. Yuqorida keltirilgan kurslar nominal valyuta kursiga misol bo'ladi.

Real valyuta kursi ikki mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarning nisbiy narxidir.

Real valyuta kursi bir mamlakat tovarlari boshqa mamlakat tovarlariga almashishi mumkin bo'lgan nisbatni ko'rsatadi, shu tufayli u savdo sharoiti deb ham yuritiladi.

Nominal va real valyuta kurslari o'rtasidagi nisbat quyidagi ko'rinishga ega.

$$Er = E_n \times R_d/R_t$$

Bu yyerda : Er — real valyuta kursi;

E_n - nominal valyuta kursi ;

R_d - milliy valyutada ko'rsatilgan ichki narxlar darajasi (indeksi);

R_t - xorijiy valyutada ko'rsatilgan chet eldagi narxlar darajasi (indeksi).

Har ikkala mamlakatdagi narxlar darajasi (indeksi) bir xil bazis yilga nisbatan byerilgan. Real valyuta kursining ko'tarilishi yoki pasayishi bu mamlakat tovarlari raqobatbardoshligining pasayganligi yoki oshganligini anglatadi. Umuman valyuta kursi tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi

kuchlarning mamlakatlararo harakatini o'ziga xos boshqarib turuvchisi hisoblanib, uni o'zgarib turishi mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalariga hamda butun makroiqtisodiy vaziyatga kuchli ta'sir qiladi. Bu ta'sirni shunday vaziyat misolida ko'rib chiqish mumkin. Masalan, o'zbek so'mining kursi 1 AQSH dollariga nisbatan 2000 so'mdan 2200 so'mgacha pasaygan bo'lsin, ya'ni, so'm AQSH dollariga nisbatan arzonlashgan va aksincha, AQSH dollari so'mga nisbatan qimmatlashgan bo'lsin. Bunday holatda mamlakatimizda ishlab chiqarilgan 100000 so'mlik qiymatga ega bo'lgan tovar AQSH bozorida arzonlashib boradi va endi bu tovar 50 dollar (100000/2000x1) emas, balki 45,5 dollar turadi (100000/2200x1). Natijada, tovarning raqobatga chidamliligi orta boradi va unga bo'lgan talab oshadi, eksport rag'batlantiriladi. Biroq milliy valyutani AQSHga chiqarish O'zbekiston uchun foydali bo'lmay qoladi. AQSHda ishlab chiqarilgan 10 dollarlik mahsulot endi o'zbek so'mi kursining pasayishi va AQSH dollari kursining qimmatlashuvi natijasida o'zbek bozorida 20000 so'm (10 x 2000/ 1) emas, balki 22000 so'm (2200x10/1) turadi. Ko'rinib turibdiki, mahsulot narxi qimmatlashadi va shu sababli uni olib kelish qisqarib boradi va aksincha, o'zbek so'mi kursi oshib borishi bilan AQSHdan tovar olib kelish va kapitalni chetga chiqarish foydali bo'ladi.

Xarid qobiliyati pariteti konsepsiyasiga ko'ra valyuta kursi doimo turli mamlakatlarda narxlar darajasining o'zgarishi natijasida kelib chiqadigan farqni qoplash uchun zarur bo'lgan darajada o'zgaradi. Ya'ni:

$$r = \frac{Pd}{Pt}$$

Bu yyerda: r — xorijiy valyutaning milliy valyutadagi narxi;

R_d — ichki narxlar darajasi;

R_t — chet eldagi narxlar darajasi.

Biz xarid qobiliyati pariteti konsepsiyasini real almashtirish kursi modelida ifodalashimiz mumkin. Xalqaro olib sotarlarning tez harakatlari shuni ko'rsatyaptiki,

sof eksport har qanday o'zgarishlar natijasida tez o'zgaradi. Milliy tovarlar narxining chet tovarlarga nisbatan kamayishi yoki boshqacha aytganda real almashtirish kurslarining pasayishi, olib sotarlarni o'z mamlakatidan tovarlarni sotib olib, chetga sotishga undaydi, yoki, aksincha. Valyuta kurslari milliy iqtisodiyotga, ishlab chiqarish va undagi bandlikka sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Milliy valyutalar kursining pasayishi mamlakatlar eksport imkoniyatini oshiradi. Ammo mamlakat eksporti xomashyo tovarlari importiga asoslansa, bunda valyutalar kursining pasayishi eksport qilinadigan tovarlar narxsining o'sishiga olib keladi va bu ularning raqobatga layoqatliligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Valyuta kurslarining oshishi mamlakatlar eksport imkoniyatlarini yomonlashtiradi. Valyuta kurslarining beqarorligi tashqi iqtisodiy aloqalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uning tebranishi xalqaro bitimlarda noaniqlik va tahlika darajasini ko'paytiradi. Shu sababli valyuta kursi ham mamlakat ichida va xalqaro munosabatlarda tartibga solishning muhim obyekti hisoblanadi.

Shunday qilib, sof eksport egri chizig'i real almashtirish kursiga nisbatan yanada qiyalashadi. Ya'ni, turli mamlakatlar valyutalarining xarid qobiliyatini tenglashtiradi, real almashtirish kurslaridagi har qanday o'zgarishlar esa sof eksport miqdorida o'zgarishlarga olib keladi.



17.2-rasm. **Xarid qobiliyati pariteti**

Valyuta almashuv kursining o'zgarib boruvchi boshqariladigan usulini qo'llash orqali almashuv kursining maqsadli yo'l doirasida bo'lishi ta'minlanadi. Shu sababdan eksportni rag'batlantirish maqsadida so'mning AQSh dollariga nisbatan kursini bosqichma-bosqich pasaytirish choralari ko'rildi.

Natijada 2017 yil davomida so'mning AQSh dollariga nisbatan ayirboshlash kursi 8000,0 ni tashkil etib, 2017 yilning dekabr holatiga ko'ra, bir AQSh dollari 8010, so'mni tashkil qildi.

Mamlakatimiz tashqi savdo opyeratsiyalarining 95 foizga yaqini AQSh dollarida amalga oshirilishini inobatga olib, so'mning boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kurslarini belgilashda opyeratsion mo'ljal sifatida so'mning AQSh dollariga nisbatan almashuv kursidan foydalanildi.

Shunga muvofiq, so'mning AQSh dollaridan boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kurslari ushbu valyutalarning tashqi valyuta bozorlaridagi AQSh dollariga nisbatan kurslari dinamikasi va ichki valyuta bozorida so'mning AQSh dollariga nisbatan almashuv kursi ta'siri ostida shakllandi.

Olib borilgan valyuta siyosati ta'sirida so'mning almashuv kursi evroga nisbatan 15,7 foizga, Xitoy yuaniga nisbatan 14,2 foizga, funt styerlingga nisbatan 13,1 foizni tadhkil etib, eksportni rag'batlantirishga xizmat qildi.

17.5. Makroiqtisodiy siyosatning nominal va real valyuta kurslariga ta'siri

Real valyuta kurslari jamg'arma va sarmoyalar o'rtasidagi farqni ko'rsatuvchi vyertikal to'g'ri chiziq va sof eksport miqdorini ko'rsatuvchi, o'ngdan pastga egilgan egri chiziq kesishgan nuqtada tenglikka yerishadi (17.3-rasm). Ushbu nuqtada xorijga kredit berish sifatida ko'rsatilgan milliy valyuta taklifi, xorijliklarning ushbu mamlakatdan sof eksportni sotib olishi uchun zarur bo'ladigan milliy valyuta talabi bilan kesishadi. Bu shuni bildiradiki, real valyuta

kursi kapital bilan bo'ladigan opyeratsiyalar bo'yicha milliy valyuta taklifini joriy opyeratsiyalar uchun unga bo'lgan talabni tenglashtiradi.



17.3-rasm. **Real almashinuv kursidagi muvozanat**

Davlat xarajatlarining oshishi (yoki soliqlarning kamayishi) milliy jamg'armalarni kamaytiradi va (S-I) egri chiziq chapga suriladi (17.3- rasm). Bu siljishlar xorijiy investitsiyalar uchun milliy valyuta taklifining kamayishini ko'rsatadi.



17.4-rasm. **Valyuta taklifidagi o'zgarishlarning real almashtirish kursiga ta'siri**

Valyuta taklifining qisqarishi uning real almashtirish kursini oshiradi. Natijada, milliy mahsulotlar xorijliklarnikiga nisbatan qimmatlashadi. Bu esa, o'z navbatida, eksportning qisqarishiga va importning oshishiga olib keladi. Oqibatda joriy opyeratsiyalar hisobida taqchillik paydo bo'ladi. Agarda, soliqlarning kamayishi investitsiyalarning oshishiga olib kelsa, milliy jamg'armalar hajmi o'zgarmasa ham (S-I) egri chizig'i yana chapga siljiydi.

Investitsion soliq kreditlari ushbu mamlakatga investitsiyalar kiritishni xorijiy sarmoyadorlar uchun foydali bo'lishiga olib keladi. Bu esa muvozanatli real valyuta kursini oshiradi va to'lov balansida taqchillikni keltirib chiqaradi.

Chet mamlakatlardagi rag'batlantiruvchi byudjet-soliq siyosati bu mamlakatlardagi jamg'armalar darajasini kamayishiga olib keladi. Bu esa xalqaro foiz stavkasini oshiradi va kichik ochiq iqtisodiyotdagi investitsiyalar darajasini kamaytiradi.



17.5-rasm. **Byudjet - soliq siyosati-ning real almashtirish kurslariga ta'siri**



17.6-rasm. **Importdagi o'zgarishlar-ning eksportga ta'siri**

Bunday vaziyatlarda xorijga sarmoya qo'yish uchun taklif qilinayotgan milliy valyuta ko'payadi va (S-I) egri chizig'i o'ngga suriladi (17.5- rasm). Natijada muvozanatli real almashtirish kursi pasayadi, milliy mahsulotlar arzonlashadi va sof eksport ko'payadi.

Importga tarif yoki kvotalar joriy qilish siyosati sof eksportning oshishiga olib keladi va bu hol grafikda Xn $(E)_1$ egri chizig'ini Xn $(E)_2$ holatiga siljishi sifatida namoyon bo'ladi (17.6-rasm).

Natijada muvozanatli real valyuta kursi oshadi, milliy mahsulotlar qimmatlashadi va sof eksport kamayadi.

Shunday qilib, mamlakat ichki bozorini chet el raqobatchilaridan himoya qilish maqsadida olib boriladigan protektsionistik savdo siyosati joriy opyeratsiyalar hisobi va kapital harakati hisobiga ta'sir qilmaydi. Ammo, u muvozanatli real valyuta kursini oshiradi va tashqi savdo miqdorini kamaytiradi. Sof eksport o'zgarmagan bo'lsa ham B nuqtadagi eksport va import hajmi A nuqtadagi eksport va import hajmidan kam bo'ladi. Importga cheklashlarni joriy qilish ichki narxlar darajasi oshishiga olib keladi.

Shuning uchun ham uzoq davrda nominal valyuta kursi (En) narxlar oshishiga teng tarzda kamayadi. Natijada, o'sgan muvozanatli real valyuta kursi E2 nuqtada barqarorlashadi, ya'ni sof eksport kamayishi ortidan E_1 nuqtaga qadar pasaymaydi. Baholar darajasining ko'tarilishiga javoban nominal valyuta kursining pasayishi sotib olish qobiliyati paritetini tiklaydi.

Nazorat savollari:

1. Valyuta tizimining mohiyatini va uning tarkibiy qismlarini aytib byering
2. Valyuta bozori davlat tomonidan qaysi usullar bilan tartibga solib turiladi?
3. Ichki va tashqi konvyertirlash tushunchalariga izoh byering.
4. Valyuta kursi nima va uni qanday omillar belgilaydi?
5. Foiz stavkasi va valyuta kursi o'rtasida qanday bog'lig'lik bor?
6. Nominal va real valyuta kurslariga izoh byering.
7. Xarid qobilyati pariteti atamasining mohiyati nimadan iborat?
8. Real valyuta kursi makroiqtisodiy siyosat ta'sirida qay tarzda o'zgartiriladi va uning milliy iqtisodiyotga ta'siri qanday?

XVIII BOB. BARQARORLASHTIRISH SIYOSATI

18.1. Barqarorlashtirish siyosati tushunchasi va xususiyatlari.

Barqarorlashtirish siyosati tushunchasi va xususiyatlari haqida ba'zi iqtisodchilar, William McChesney Martin kabi, nobarqarorlikni iqtisodiyotga xos bo'lgan xususiyat deb hisoblaydilar. Ular iqtisodiyot doimo yalpi talab va yalpi taklif sohasida to'satdan shoklarga duch keladi deb ta'kidlaydilar. Iqtisodiyotni barqarorlashtirishga yo'naltirilgan pul va byudjet-soliq siyosati o'tkazilmasa, bu shoklar ishlab chiqarish hajmlarida istalmagan va samarasiz tebranishlarga olib kelishi, ishsizlik va inflyatsiya muammolarini kuchaytirishi mumkin. Hammaga tanish bo'lgan fikrga ko'ra, makroiqtisodiy siyosat "shamolga qarshi yurishi", ya'ni turg`unlik sharoitida iqtisodiyotni rag'batlantirib va "qizib ketganda" uning o'sishini sekinlashtirishi lozim.

Hukumat siyosatchilari biznes sikliga qanday munosabatda bo'lishlari lozim?

Milton Fridmanga o'xshagan boshqa iqtisodchilar iqtisodiyot tabiyatan barqaror deb hisoblashadi. Vaqti - vaqti bilan unda yuzaga keladigan kuchli va xatarli tebranishlar uchun javobgarlikni ular noto'g'ri iqtisodiy siyosat zimmasiga yuklaydilar. Ular iqtisodiyotni maqsadga yo'naltirilgan tadbirlar yordamida "nozik sozlash"ni ta'minlashga harakat qilish kyerakmasligini isbotlaydilar. Aksincha, iqtisodiy siyosatchilar imkoniyatlari cheklanganligini hisobga olib, zarar yetkazishmaganidan xursand bo'lish kerakligini uqtiradilar.

O'n yillar mobaynida bu masala bo'yicha munozaralarga o'z nuqtai nazarlarini asoslash uchun turli dalillarni ilgari surgan ko'plab qatnashchilar jalb etildilar. Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda iqtisodning tebranishlar nazariyasini qo'llash haqidagi masala bu munozaralar diqqat markazida bo'ldi.

Ushbu bobda ikkita munozarali masala muhokama qilamiz. Birinchisi: iqtisodiyotni barqarorlashtirishda monetar va fiskal siyosat faol rol o'ynashi kyerakmi yoki ularning roli joriy davrdagi iqtisodiy tebranishlarga moslashishdan iborat bo'lishi lozimmi? Ikkinchisi: iqtisodiy siyosat muayyan yo'ldan chiqmaslikka harakat qilishi lozimmi yoki siyosat namoyandalari o'zlarining shaxsiy qarashlariga ko'ra iqtisodiy sharoitlar o'zgarishini tezlik bilan inobatga olishlari lozimmi?

Federal hukumatning siyosatchilari iqtisodni barqarorlashtirishni o'zlarining asosiy majburiyatlaridan biri deb hisoblashadi. Makroiqtisodiy siyosatni tahlil qilish iqtisodiy maslahat kengashi, Kongriss byudjet idorasi, Fedyeral zaxira tizimi va boshqa davlat tashkilotlarining xar kunlik majburiyatlariga kiradi. Oldingi boblarda ko'rganimizdek, monetar va fiskal siyosat jami talabga, va shu asnoda, inflyatsiya va ishsizlikka kuchli tasir qilishi mumkin. Qachonki Kengash yoki prezident fiskal siyosatda yoki Federal zaxira tizimi monetar siyosatda katta o'zgarishlar amalga oshirishmoqchi bo'lsa, avvalambor, o'zgarishlarni muhokama qilishda ko'zda tutilayotgan chora-tadbirlar inflyatsiya va ishsizlikka qanday ta'sir ko'rsatishi hamda yalpi talabni oshirish yoki qisqartirish zarurligi haqidagi masala diqqat markazida bo'ladi. Pul-kredit va byudjet-soliq siyosatlarini ishlab chiqish va o'tkazish hukumatning an'anaviy vazifalari bo'lishiga qaramay, uning barqarorlashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirishga majburligi haqidagi fikrni yuzaga kelganligiga unchalik ko'p bo'lmadi. Hukumat makroiqtisodiy vaziyat uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olganligining birinchi dalili 1946 yilda qabul qilingan bandlik to'g'risidagi Qonun bo'ldi. Unda "Fedyeral hukumat to'liq bandlik va ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga yo'naltirilgan siyosatni doimo o'tkazishga majbur"ligi haqida gapirilgan. Bu qonun qabul qilingan vaqtda Buyuk depressiya haqidagi o'y-hayollar hali yangi edi.

Masalani aktiv davlat siyosati foydasiga hal etish ko'plab iqtisodchilarga oddiy va tushunarli bo'lib ko'rinadi. Pasayish davrlari uchun ishsizlikning yuqori darajasi, daromadlar va aholi farovonligining past darajasiga xosdir. Yalpi talab va

yalpi taklif modeli qanday qilib to‘satdan bo‘ladigan shoklar iqtisodiy pasayishlarni yuzaga kelitirishini ko‘rsatadi. U shuningdek, qanday qilib monetar va fiskal siyosat bunday shoklarga tezda ta’sir etib iqtisodiy pasayishlarni oldini olishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Boshqa iqtisodchilar hukumatni iqtisodiyotni barqarorlashtirishga intilishlariga tanqidiy yondashadilar. Bu tanqidchilar davlat makroiqtisodiy siyosatdan chetda turishi lozim deb hisoblaydilar. Birinchi qarashda bunday nuqtai nazar g‘alati tuyulishi mumkin.

18.2. Siyosatni amalga oshirish va uning oqibatlarida vaqt oraliqlari

Agar siyosatning ta’sirlari natijasi kutishga majbur qilmasa, iqtisodiyotni barqarorlashtirish oson bo‘lardi. Siyosatni barpo qilish mashina haydash kabi bo‘ladi: iqtisodiyotni kerakli yo‘lda saqlab qolish uni asboblar orqali rostlash demakdir. Iqtisodiy siyosatni yuritish katta kemada yo‘l ko‘rsatishga qaraganda ko‘proq mashina boshqarishga o‘xshaydi. Mashina yo‘nalishini o‘zgartirishda rul burilgandan keyin deyarli zudlik bilan yo‘nalish o‘zgaradi. Aksincha, kemani yo‘nalishini o‘zgartirish uchun kapitan rulini rostlaydi, keyin yelkanni tiklab o‘zgartiradi va uzoq vaqt davomida aylantirishni davom ettiradi. Agar kema haydovchisi endi ish o‘rgangan bo‘lsa, aylantirish davomida qarama-qarshi tomonga kema yo‘nalishini o‘zgartirguncha katta kichik xatolarga yo‘l qo‘yiladi.

Kema boshqaruvchisiga o‘hshab iqtisodiy siyosatni amalga oshiruvchilar uzoq kechikishlar natijasida muammolarga duch keladi.

Albatta siyosatchilar uchun muammolar qiyinroq kechadi. Chunki uzoq va o‘zgaruvchan muddatli davrda monetar va fiskal siyosat yuritishni bashorat qilish oson ish emas.

Iqtisodchilar iqtisodiy siyosatga olib boruvchi ikki muhim vaqt oralig`ini ajratiadilar: ichki va tashqi. Ichki oraliq – bu iqtisodiy larza yuzaga kelgan vaqt bilan bunga javoban iqtisodiy siyosat chora-tadbirlarini qabul qilish vaqti

o‘rtasidagi vaqt oralig‘i bo‘lib, inqiroz yuz berganligini va unga muvofiq chora-tadbirlarni hayotga tadbiq etishni his qilish uchun qandaydir vaqt zarur bo‘lganligi uchun ham yuzaga keladi. Tashqi oraliq – bu iqtisodiy siyosatning u yoki bu chora-tadbirlari qabul qilingan vaqt bilan bu chora-tadbirlar o‘z natijalarini bera boshlagan vaqt o‘rtasidagi oralig‘idir. U bu chora-tadbirlar xarajatlar, daromadlar va bandlik darajalarini birdaniga o‘zgarishga olib kelmasligi sababli yuzaga keladi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirishda fiskal siyosatini amalga oshirish uzoq davom etadigan ichki oraliqlarning markaziy muammosidir. Ayniqsa bu holat AQSH uchun haqiqat, chunki byudjet xarajatlari yoki soliqlarni qayta ko‘rib chiqish uchun odatda prezident va Kongressning ikkala palatasi roziligiga erishish zarur. Qonunni qabul qilish jarayoni sekin va murakkab bo‘lib, ko‘pincha kechikishlarga olib keladi, bu esa iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun fiskal siyosatning mujmal vositasi hisoblanadi. Bu ichki oraliqlar, Buyuk Britaniya kabi parlament tizimidagi mamlaktlarda kechikishlar qisqaroq bo‘ladi, chunki ko‘pincha siyosatni muntazam o‘zgartirishda hokimiyat tepasidagi partiya amalga oshirishi mumkin.

Barqarorlashtirish siyosatining “avtomatik stabilizatorlar” deb ataluvchi ba’zi chora-tadbirlari shu oraliqlarni qisqartirish uchun maxsus o‘ylab topilgan. Ular siyosiy yo‘nalishni maxsus o‘zgartirishlarsiz iqtisodiy o‘sishni to‘xtatish yoki rag‘batlantirishga imkon byeradi. Bunday stabilizatorlarning daromad soliqlari tizimi misol hisoblanadi yani: iqtisodiy pasayish davrida fuqarolar va korporatsiyalar daromadlarining qisqarishiga qarab soliq qonunchiligiga qandaydir maxsus o‘zgartirishlarsiz soliqlar avtomatik ravishda kamayadi. Xuddi shunday tarzda ishsizlik bo‘yicha ijtimoiy tolovlar tizimida ham iqtisodiy pasayish oqibatida ishsizlikni o‘sishi to‘lovlarni avtomatik ko‘payishiga olib keladi, chunki ko‘proq odamlar nafaqa olish uchun arizalar bilan murojat qilishadi. Bu avtomatik stabilizatortlar ichki oraliqlarga bog`liq bo‘lmagan fiskal siyosatning turini o‘zida aks ettiradi.

Bashoratlashdagi xatolar, "Ozroq yog`ingarchilik, o'zgaruvchan bulutlilik va o'rtacha shamollar". Bu ob-havo bashorati 1987-yil 14-oktyabrda Britaniyaning mashhur ob-havo xizmati tomonidan taqdim qilingan. Yertasi kuni Britaniyada oxirgi ikki asrdagi eng kuchli bo'ron bo'lgan.

Ob-havo ma'lumotlarini bashoratlash kabi iqtisodiy bashoratlar ham xususiy va ommaviy qaror qabul qilishning muhim asosidir. Biznes rahbarlari bashoratlarga tayanib, qancha ishlab chiqarish kyerak, zavodga va uskunalarga qancha investitsiya tikish kerakligi boyicha qaror qabul qiladi. Hukumat siyosatchilari iqtisodiy siyosatni bashoratlarga asoslanib ishlab chiqadilar. Afsuski, ob-havo bashoratlariga o'xshab, iqtisodiy bashoratlar ham kamdan-kam to'g`ri chiqadi.

AQSH iqtisodiyotining tarixida eng og`ir pasayish 1930-yillardagi Buyuk Depressiya bo'lib, iqtisodiy bashoratchilar uchun butunlay kutilmagan hodisa bo'ldi. 1929-yildagi fond bozorining qulashidan keyin ham, ular iqtisodiyot qiyichiliklarsiz ozini o'nglay oladi deb ishontirishgan edi. 1931-yilning oxirida iqtisodiyot o'zining eng past nuqtasiga yetganida, taniqli iqtisodchi Irving Fishyer, iqtisodiyot tez qayta iziga tushadi deb bashorat qilgan. Keyingi voqealar ko'rsatishicha bu bashoratlar juda ham optimistik bo'lgan: ishsizlik darajasi 1933-yilga qadar o'sishni davom etdi va u o'n yillikni oxirigacha ham yuqori suratlarda saqlanib qoldi[6].

Ikkinchi mavzu iqtisodchilar o'rtasida muhokama qilinganda iqtisodiy siyosat qonun qoida tomonidan yoki mulohazakorlik bilan boshqarilishi lozim. Siyosat qonun qoida tomonidan boshqarilsa siyosatchilar oldindan qay darajada siyosatni turli vaziyatlarga javob berishini va o'zlarini o'sha mulohaza orqali borishini ta'kidlaydi. Siyosat mulohazakorlik bilan olib borilsa siyosatchilar voqealarni hajmi ular zarur deb hisoblangan siyosatni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

---

[6] Kathryn M. Dominguez, Ray C. Fair,va Matthew D. Shapiro, "Depressiyani prognoz qilish: Harvard Yalega qarshi", Amerika iqtisodiy tahriri 78 (1988 sentabr): 595-612. Bu maqola shuni ko'rsatadiki, buyuk depressiya davrida iqtisodiy bashoratlash qanday yomon amalga oshirilganini korishimiz mumkin va bu ular hozirgiday bashoratlashni amalga oshira olishmaganini bildiradi.

Qoidalarga va mulohazalarga bog`liq bahslar faol siyosatning passiv nisbatlari ustidan munozara qiladi. Siyosat qonun qoida bilan boshqarilganda aktiv yoki passiv misol uchun passiv siyosat qonun qoidasida barqaror o'sishni yiliga 3 foiz pul talabini ajratish orqali ko'rishimiz mumkin. Foal siyosat qoidasi bo'lishi uchun

Pulning o'sishi = 3%+(ishsizlik darajasi -6%)

Bu qoidaga ko'ra pul massasi 3% ga o'sadi, agar ishsizlik darajasi 6% bo'ladi, ammo har bir foiz ishsizlik darajasi bilan pul bazasi o'sishi 6% ko'proqdir. Bu qoida iqtisodiyotda pul massasini o'sishini kuchaytirish orqali, qachonki iqtisodiyotda turg`unlik bo'lganda barqaror holatga yerishtirishga harakat qiladi.

Monetar siyosat sababli agar Fedyeral zaxira nol foiz inflatsiya siyosatini sodir etsa katta ishsizlik darajasisiz kamroq inflatsiya vujudga keladi yani:

- investitsiyani kuchaytirish hukumat kapitaldan daromad solig`i bo'lmaganligini elon qiladi. Ammo fabrikalar qurilgandan keyin hukumat o'zining soliq daromadlarini kuchaytrishni vada byerganligiga ishontiradi;
- qayta o'rganib chiqishni kuchaytirishda hukumat muntazam kompaniyalarga yangi dori darmon ishlab chiqarish uchun monopoliya byerganligini elon qiladi, ammo bitta dori yaratilgandan keyin hukumat patentni bekor qilishga yoki dorini narxini pasaytirishga ko'ndiradi;
- yaxshi xatti harakatni rag`batlantirishda ota - ona farzandi qonun qoidani buzganda uni jazolash kyerakligini elon qiladi bola tartib qoidani buzmaganda esa ota ona uni kechirishligini aytadi chunki o'zini bolasini jazolash ota - ona uchun og`ir hisoblanadi.

18.3. Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari

Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish:

- makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o'zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;

- xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

- soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish;

- ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash;

- bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish;

- sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va aholining yerkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish;

- xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, etakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish.

Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modyernizatsiya va divyersifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:

- milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish;

- ishlab chiqarishni modyernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;

- yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatni yanada modyernizatsiya va divyersifikatsiya qilish;

- iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;

- tamoyilial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash;

- ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rnini bosish, tarmoqlararo sanoat koopyeratsiyasini kengaytirish;

- iqtisodiyotda enyergiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga enyergiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta

tiklanadigan enyergiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish;

- faoliyat ko'rsatayotgan yerkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalari samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish;

- xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;

- turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni divyersifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish;

- eksport faoliyatini libyerallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini divyersifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

- yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

Qishloq xo'jaligini modyernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:

- tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish;

- paxta va boshoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo'shagan yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog' olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog' va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish;

- fermyer xo'jaliklari, eng avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan ko'p tarmoqli fyermyer xo'jaliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat hamda qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha eng zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modyernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish;

- sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya obyektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish;

- kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy yer-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi selektsiya navlarini hamda yuqori mahsuldorlikka ega hayvonot zotlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish;

- global iqlim o'zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish.

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:

- xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to'liq yerkinlik berish, «Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi» degan tamoyilni amalga oshirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish;

- davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

- investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;

- korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish;

- tadbirkorlik subyektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo'yicha tartib-taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish;

- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy shyeriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish.

Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, minyeral-xomashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash;

- hududlar iqtisodiyotini modyernizatsiya va divyersifikatsiya qilish ko'lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tuman va

shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish;

- yangi sanoat korxonalari va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo'jalik birlashmalarining mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish;

- sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga subventsiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish va mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish;

- sanoat korxonalari va boshqa ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modyernizatsiya qilish.

Nazorat savollari:

1. Ichki oraliq va tashqi oraliq nima? Qaysi birida uzunroq ichki oraliq bo'ladi - monetar yoki fiscal siyosatda? Qaysi birida uzunroq tashqi oraliq bo'ladi? Nima uchun?

2. Nima uchun ishonchli iqtisodiy prognoz siyosatshunoslar uchun iqtisodiyotni barqarorlashtirishni osonlashtiradi? Iqtisodchilar Iqtisodiyotdagi rivojlanishni prognoz qiladigan 2 hil usulni tasvirlang.

3. Lukas tanqidini tasvirlang.

4. Insonning makroiqtisodiyot tarixi natijasi uning makroiqtisodiy siyosatiga oid qarashiga qanday ta'sir qiladi?

5. Iqtisodiy siyosatning “norozilik vaqti” tushunchasi qanday tushuncha? Nima uchun siyosatshunoslar o‘zlari byergan e’lonlarini rad qilishlari mumkin? Bu holatga siyosat qonunining qanday avzalligi bor?

6. Fed amal qilgan 3 ta siyosat qonunini misol keltiring. Bulardan qaysi birini siz himoya qilgan bo‘lar edingiz?

7. Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari haqida so‘zlab bering.

8. Hozirgi sharoitda O‘zbekistonning barqarorlashtirish siyosati haqida nimalarni bilasiz?

TESTLAR

1. Daromadlarning o'sishi pulga talab egri chizig'ini
   a) O'ngga suradi
   b) Chapga suradi
   c) Pastga suradi
   d) Tepaga suradi
2. Fillips egri chizig'i qanday bog'liqlikni anglatadi?
   a) ishsizlik va inflyatsiya o'rtasidagi
   b) foiz darajasi va investitsiya o'rtasidagi
   c) pul taklifi va inflyatsiya o'rtasidagi
   d) iqtisodiy sikl va ishsizlik o'rtasidagi
3. Inflyatsiya sabablari nima?
   a) pul massasi va pul aylanish tezligini oshishi hamda tovar ishlab chiqarish hajmi kamayishi
   b) pul massasini oshishi
   c) pul aylanish tezligi oshishi
   d) faqat pul aylanish tezligi tovar ishlab chiqarish hajmi kamayishi
4. Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar turlarini belgilang
   a) egri va to'g'ri soliqlar
   b) egri va noto'g'ri soliqlar
   c) bevosita va to'g'ri soliqlar
   d) egri va bevosita soliqlar
5. iqtisodiyotda talabning keskin oshib ketishi va uni ishlab chiqarishning real hajmi bilan qondirish mumkin bo'lmay qolgan sharoitlarda kelib chiqadi
   a) Talab inflyatsiyasi
   b) Taklif inflyatsiyasi
   c) O'rmalovchi inflyatsiya
   d) Giperinflyatsiya
6. IS modeli qaysi bozordagi muvozanatni ifodalaydi?
   a) Tovar va xizmatlar
   b) pul
   c) Jamg'armalar
   d) Investitsiya
7. iste'mol, davlat va investitsiya xarajatlaridagi, sof eksportdagi o'zgarish...
   a) Jami talabning narxga bog'liq bo'lmagan omillari
   b) Jami talabning narxga bog'liq omillarni

c) Jami taklifning narxga bog'liq bo'lmagan omillarni
d) Jami taklifning narxga bog'liq omillarni

8. Iste'molga chegaralangan moyillik 0,75ni tashkil qilsa, jamg'armaga chegaralangan moyillik qanchani tashkil etadi?
   a) 0,25
   b) 0,5
   c) 0,75
   d) 0.33
9. Iste'molga o'rtacha moyillik deganda ... tushuniladi
   a) ixtiyordagi daromaddagi iste'mol xarajatlarining ulushi
   b) Ixtiyordagi daromad
   c) ixtiyordagi daromaddagi jamg'arishning ulushi
   d) O'rtacha daromadni sarflanishi
10. jamg'arishdagi o'zgarishlarning shu o'zgarishni keltirib chiqargan ixtiyordagi daromad o'zgarishidagi ulushi qanday ataladi?
   a) Jamg'armaga chegaralangan moyillik
   b) Iste'molga chegaralangan moyillik
   c) Iste'molga o'rtacha moyillik
   d) Jamg'armaga o'rtacha moyillik
11. Jamg'arishga o'rtacha moyillik deganda... tushuniladi
   a) ixtiyordagi daromaddagi jamg'arishning ulushi
   b) Iste'mol xarajatlarining ixtiyordagi daromaddagi ulushi
   c) Ixtiyordagi daromad
   d) Shaxsiy daromad
12. Klassik nazariya pulga talabni nimaga bog'liq deb xisoblaydi
   a) foiz stavkasiga
   b) real daromad hajmi
   c) pulning aylanish tezligi
   d) pulning taklifiga
13. Klassiklar nazariyasi bo'yicha jamg'armalar va investitsiyalar miqdorini aniqlaydigan asosiy omil...
   a) Foiz stavkasi
   b) Aholining ixtiyordagi daromadi
   c) Aholi jamg'armalari
   d) Iste'mol xajmi
14. Makroiqtisodiy siyosatning muhim vazifalari nimalardan iborat?
   a) makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini ta'minlash
   b) iqtisodiy o'sishni oshirish

c) makroiqtisodiy barqarorlik
d) aholi farovonligini ta'minlash

15. Mikroiqtisodiyotdan farqli ravishda makroiqtisodiyot...
a) ustun ravishda umumlashtirilgan tushunchalar bilan ishlaydi
b) tavakkal fikrlarni qo'llamayd
c) uy xo'jaliklari hulq – atvorini o'rganadi
d) iqtisodiy muvozanat tushunchasidan foydalanadi

16. Pulga bo'lgan talab grafigida qanday ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqliklari ifodalanadi
a) foiz stavkasi va real pul zaxiralari miqdoriga talab teskari bog'liklikka ega ekanligi ko'rinadi.
b) foiz stavkasi va real pul zaxiralari miqdoriga talab тўғри bog'liklikka ega ekanligi ko'rinadi.
c) foiz stavkasi va pul aylanish tezligi miqdoriga talab teskari bog'liklikka ega ekanligi ko'rinadi.
d) foiz stavkasi va pul aylanish tezligi miqdoriga talab тўғри bog'liklikka ega ekanligi ko'rinadi.

17. Pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasini yana qanday atash mumkin
a) Fisher tenglamasi
b) Kembrij tenglamasi
c) Talab tenglamasi
d) Taklif tenglamasi

18. Taklifning keskin o'zgarishi qisqa muddatli davrda ... olib keladi
a) narx oshishi va ishlab chiqarish hajmi pasayishiga
b) narx pasayishi va ishlab chiqarish o'sishiga
c) narx va ishlab chiqarish hajmi oshishiga
d) narx va ishlab chiqarish hajmi pasayishiga

19. 2017 yil inflyatsiya darajasining o'sish sur'ati ko'rsatkichlari necha foizdan oshmadi?
a) 14.4 foizdan
b) 13 foizdan
c) 12 foizdan
d) 12.5 foizdan

20. 2017 yil mamlakat YaIM o'sish sur'ati qancha bo'lgan?
a) 5.3%
b) 6.3%
c) 8.4%
d) 8.5%

21.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Oliy Majlisiga Murojaatnomasi qachon taqdim etildi?

a) 2017 yil 22 dekabrda
b) 2017 yil 31 dekabrda
c) 2017 yil 11 noyabrda
d) 2018 yil 1 yanvarda

22.2017 yilda YIM dagi sanoat mahsulotlari ulushi necha foizni tashkil qildi?

a) 7
b) 6,7
c) 6,8
d) 6,9

23.2017 yilda YalMda qurilishning ulushi necha foizni tashkil qildi?

a) 5,6
b) 7,8
c) 5,7
d) 12,6

24.A.Ouken qonunining mohiyati qanday?

a) Agar ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan bir foiz ortiq bo‘lsa, YalM hajmining orqada qolishi 2.5 foizni tashkil qiladi.
b) Agar ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan bir foiz kam bo‘lsa, YalM hajmining orqada qolishi 5 foizni tashkil qiladi.
c) Agar ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan bir foiz ortiq bo‘lsa, YalM hajmining orqada qolishi 1.5 foizni tashkil qiladi.
d) Agar ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan bir foiz ortiq bo‘lsa, YalM hajmi 7% ni tashkil qiladi.

25.A.Smitning mutlaq ustunlik nazariyasidan keyin D.Rikardo nazariyasi qanday nomlanadi?

a) nisbiy ustunlik nazariyasidir
b) mutlaq ustunlik nazariyasidir
c) matematik nazariyadir
d) nisbiy nazariyadir

26.A.Smitning mutlaq ustunlik nazariyasiga ko‘ra,

a) har bir mamlakat undagi mavjud sharoitlar va resurslarda ma’lum bir tovarni eng kam xarajatlar hisobiga ishlab chiqirish imkoniyatiga ega.
b) har bir mamlakat undagi mavjud sharoitlar va resurslarda ma’lum bir tovarni eng kam xarajatlar hisobiga ishlab chiqirish imkoniyatidan bosh tortadi.
c) har bir mamlakat undagi mavjud sharoitlar va resurslarda ma’lum bir mamlakatga eng ko‘p tovarlarni sotishga harakat qiladi

d) har bir mamlakat undagi mavjud sharoitlar va resurslarda ma'lum tovarlarni boshqa gavlatga sotishni istamaydi

27.AD egi chizig'i qanday omillar ta'sirida o'ng yoki chap tomonga suriladi?

a) Narxdan boshqa omillar ta'sirida
b) Import xaridlar samarasi ta'sirida
c) Narx va daromad ta'sirida
d) Taklif oshganda

28.AD-AS egri chiziqlari kesishadigan nuqta nimani ifodalaydi?

a) Yalpi talab va yalpi taklif hajmlari o'zaro teng bo'ladi
b) Yalpi talab yalpi taklifdan ortiq bo'ladi
c) Tovarlar va pul bozoridagi taklif talabdan ortiq bo'ladi
d) Xizmatlar va pul bozoridagi taklif talabdan ortiq bo'ladi

29.AD-AS modeli nimani ifodalaydi?

a) Yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi bog'liqlikni
b) Tovar va xizmatlar bozoridagi foiz stavkasi bilan daromadlar o'rtasidagi bog'liqlikni
c) Pul bozoridagi xarajatlar stavkasi bilan daromadlar o'rtasidagi bog'liqlikni
d) Pul bozoridagi foiz stavkasi bilan investitsiya o'rtasidagi bog'liqlikni

30.AD-AS modeli qanday model?

a) Yalpi talab-yalpi taklif modeli
b) Talab va taklif modeli
c) Tovar va xizmatlar modeli
d) Mahsulot taklifi modeli

31.Advolar bojlarni undirish tartibi qanday?

a) Import qilinayotgan tovar qiymatiga ma'lum foiz tariqasida
b) Kapital harakati hisobining ijobiy qoldig'i
c) Kapital harakati hisobining nol qoldig'i
d) Joriy operatsiyalar hisobining manfiy qoldig'i

32.Agar iqtisodiyotda korxona, firma, uy xo'jaligi, alohida olingan bozorlar muammosi tadqiq qilinsa, bunday tahlil ...

a) Mikroiqtisodiy tahlil
b) Makroiqtisodiy tahlil
c) Ilmiy abstraktiv tahlil
d) Normativ tahlil

33.Agar milliy daromaddan korporatsiya foydasiga soliqni, taqsimlanmaydigan foydani va ijtimoiy sug'urta to'lovlarini chegirsak, so'ngra sof transfert to'lovlarini qo'shsak, hosil bo'lgan miqdor bu...

a) Shaxsiy daromad

b) Amortizatsiya
c) Yalpi milliy mahsulot
d) Sof milliy mahsulot

34. Agar narxlar o'ssa, unday holatda...
a) Pulga bo'lgan talab va foiz stavkasi darajasi o'sadi
b) Istemolchilar ko'plab tovar va xizmatlarni sotib ola boshlaydilar
c) Xarajatlar ko'payadi
d) Qayd etilgan narxlardagi qimmatli qog'oz egalarining xarid qobiliyati ko'tariladi

35. Agar narxlar pasaysa, boshqa teng shartlarda...
a) Pulga bo'lgan talab va foiz stavkasi darajasi pasayadi
b) Qayd etilgan narxlar qimmatli qog'oz egalari o'z xarajatlarini ko'paytiradilar
c) Foiz stavkasi o'zgarishiga ta'sirchan xarajatlar ko'payadi
d) Qayd etilgan narxlardagi qimmatli qog'oz egalarining xarid qobiliyati pasayadi

36. Agar uy xo'jaliklari o'zining hamma daromadlarini iste'molga ishlatmasdan, sarflanmagan miqdorni bankka joylashtirsa, unda ular...
a) Jamg'armaga ega bo'ladilar
b) Jamg'armaga ega bo'lmaydilar
c) Aksiyalar sotib oladilar
d) Daromadlari kamayib ketadi

37. Agregatlash – bu...
a) Bir qancha iqtisodiy ko'rsatkichlar va kategariyalarni yagona makroiqtisodiy ko'rsatkich yoki kategoriyaga umumlashtirish
b) Sifat ko'rsatkichlar
c) Miqdor ko'rsatkichlar
d) Mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar

38. Amortizatsiyalar quyidagilardan qaysi birini hisoblashda hisobga olinadi?
a) Faqat xarajatlar oqimi usuli bo'yicha YaIMni hisoblashda
b) Faqat daromadlar oqimi usuli bo'yicha YaIMni hisoblashda
c) Ham xarajatlar oqimi va ham daromadlar oqimi usullari bo'yicha YaIMni hisoblashda
d) Ixtiyoridagi daromadni hisoblashda

39. AS egri chizig'i qanday kesmalardan iborat?
a) Gorizantal, vertikal, oraliq
b) Keyns, klassik, vertical

c) Oraliq, klassik, vertikal
d) Gorizontal, keyns, oraliq

40.AS egri chizig'i qanday omillar ta'sirida o'ng yoki chap tomonga suriladi?
a) Narxdan boshqa omillar ta'sirida
b) Foiz stavkasi samarasi ta'sirida
c) Iimport xaridlar samarasi ta'sirida
d) Valyutani devalvatsiyasi yordamida

41.AS egri chizig'ining klassik varianti uzoq muddatli davrda jami talab o'zgarishini ko'zda tutadi,bunda
a) ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatmaydi, narx darajasiga ta'sir ko'rsatadi
b) narx darajasi va ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatmaydi
c) narx darajasi va ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatadi
d) narx darajasiga ham, ishlab chiqarish hajmiga ham ta'sir ko'rsatadi

42.Bir qancha iqtisodiy ko'rsatkichlar va kategariyalarni yagona makroiqtisodiy ko'rsatkich yoki kategoriyaga umumlashtirish....deyiladi
a) agregatlash
b) kategoriya
c) ko'rsatkichlar
d) yig'ish

43.Boj olinadigan mahsulotlar, boj olinmaydigan mahsulotlar, olib kelish va olib ketish taqiqlangan mahsulotlar, shuningdek, bojxona bojlari stavkasi, ya'ni, ularning tartibga solingan ro'yxati nima deb ataladi?
a) Bojxona tariflari deb ataladi.
b) Tarif ro'yxati deb ataladi.
c) Mahsulot tariflari deb ataladi.
d) Tarif stavkalari deb ataladi.

44.boylik samarasi...
a) Jami talabning narx omill
b) Jami talabning narxdan boshqa omill
c) Jami taklifning narx omill
d) Jami taklifning narxdan boshqa omill

45.Bozor iqtisodiyotiga o'tishni amalga oshiruvchi bosh islohotchi bu...
a) Davlat
b) Siyosiy partiyalar
c) Kasaba uyushmalari
d) Jamoat tashkilotlari

46.Bozor iqtisodiyotining muhim afzalliklaridan biri cheklangan resurslar sharoitida...

a) Iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash
b) Resurslarni qimmatga sotish
c) Resurslarni arzon sotib olish
d) Resurslarni arzon sotib olishni va qimmatga sotishni ta'minlash

47.Chet el tovarlari oqimini tartibga solishda qanday bojlardan foydalaniladi?
a) Import bojlari
b) Eksport bojlari
c) Savdo bojlari
d) Maxsus bojlar

48.Choralarning aniq yo'nalishlarini ... o'rganadi
a) Normativ makroiqtisodiyot
b) Pozitiv makroiqtisodiyot
c) Pozitiv va normativ makroiqtisodiyot
d) Statistika fani

49.Daromadlar usuli...
a) YalM ni hisobdash usullaridan biridir
b) Ishlab chiqarishni xisoblash usullaridan biridir
c) YaMD xisoblash usullaridan biridir
d) Millliy daromadni xisoblash usullaridan biridir

50.Davlat byudjeti daromadlari qanday tushumlar hisobiga shakllanadi
a) soliq va soliq bo'lmagan tushumlar hisobiga
b) davlat foydasi hisobidan
c) import hisobidan
d) export hisobidan

51.Davlat jamg`armasi va byudjet taqchilligi o'rtasida qanday bog`liqlik mavjud?
a) Davlat jamgarmasi byudjet taqchilligiga teskari miqdor
b) Mavjud emas
c) Davlat jamgarmalari doim byudjet taqchilligidan katta
d) Davlat jamg`armalari doim byudjet taqchilligidan kichik

52.Davlat transfert to'lovlarining asosiy hususiyati nimada?
a) Uning evaziga uni oluvchilar davlatga hech narsa bermaydi
b) Uning evaziga uni oluvchilar davlatga soliq to'laydi
c) Uning evaziga uni oluvchilar davlatga ishlab berishlari kerak
d) Uning evaziga uni oluvchilar davlatga boj to'laydi

53.Davlatning barqarorlashtirish siyosati - bu...
a) Monetar, fiskal va tashqi savdo siyosat
b) Monetar va fiskal siyosat

c) Fiskal va tashqi savdo siyosati
d) Faqat tashqi savdo siyosat

54.Davlatning makroiqtisodiy siyosati qanday siyosatlarni o'z ichiga oladi?
a) Monetar, fiskal, ijtimoiy va tashqi iqtisodiy siyosat
b) Faqat monetar va fiskal siyosat
c) Faqat fiskal va tashqi savdo siyosati
d) Tashqi savdo siyosat

55.Davriy ishsizlik – bu...
a) Ishlab chiqarishning pasayishi natijasida ishchi kuchiga bo'lgan talabning kamayishidan paydo bo'ladigan ishsizlik
b) Ishlab chiqarish strukturasining o'zgarishi natijasida paydo bo'ladi
c) Ishlab chiqarishning o'sishi natijasida ishchi kuchiga bo'lgan talabdagi ishsizlik
d) Mehnat layoqati yo'qolgan davrdagi ishsizlik

56.Davriy ishsizlik qaysi iqtisodiy siklda paydo bo'ladi?
a) Ishlab chiqarishning pasayishi natijasida turg'unlik davrida paydo bo'ladi
b) cho'qi
c) ko'tarilish
d) retsessiya

57.Deflyator qanday ko'rsatkich?
a) Narx indeksi
b) Ishsizlik darajasini o'lchaydi
c) Joriy narxlar hisoblagichi
d) Xarajatlar ko'rsatkichi

58.Diversifikatsiya - bu...
a) Tavakkalchilikni pasaytirish usuli bo'lib, bunda tavakkalchilik bir qator tovarlarga shunday taqsimlanadiki, tovarlardan bittasini sotib olishdan tavakkalchilikning ortishi boshqa tovarni sotib olishdagi tavakkalchilikning pasayishini bildiradi
b) Shunday inson tushuniladiki, kutiladigan taklif berilganda, u tavakkalchilik bilan bog'liq natijalarga nisbatan, kafolatlangan natijani ustun ko'radi
c) Kutiladigan natija bilan haqiqiy natija o'rtasidagi farq
d) Mumkin bo'lgan barcha natijalarning o'rtacha o'lchangan qiymatlari

59.Dotatsiya nima?
a) Byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan qaytarib olmaslik sharti bilan xo'jaliklarning zararini qoplash uchun ajratilgan pul mablag'laridir
b) Pul yoki natura ko'rinishida yordam turi bo'lib, albatta soliq undirib olinadi
c) Qat'iy berilangan shartnoma

d) Pul yoki natura ko'rinishida yordam turi bo'lib, albatta qaytarib olinadi

60.Eksport bojlari nima maqsadda belgilanadi?

a) Mamlakat ichida talab ko'p bo'lgan mahsulotlar taqchilligining oldini olish maqsadida belgilanadi
b) Mamlakat ichida talab ko'p bo'lgan mahsulotlarni sotib yuborish maqsadida belgilanadi
c) Eksportni ko'paytirish maqsadida
d) Eksportni kamaytirish maqsadida

61.Eksport-import aloqalari yo'lga qo'yilgan mamlakat iqtisodiyoti qanday ataladi?

a) Ochiq iqtisodiyot
b) Yopiq iqtisodiyot
c) Aralash iqtisodiyot
d) Sof iqtisodiyot

62.Ekzogen miqdorlar –bu...

a) Tashqi o'zgaruvchilar
b) Ichki iqtisodiy o'zgaruvchilar
c) Pul masasi va foiz stavkasi o'zgarishi
d) Valyuta kursini o'zgarish

63.Endogen miqdorlar –bu...

a) Ichki o'zgaruvchilar
b) Tashqi iqtisodiy o'zgaruvchilar
c) Pul massasi va foiz stavkasi o'zgarishi
d) Valyuta kursini o'zgarish

64.Erkin savdoni sezilarli darajada cheklovchi vosita bo'lib sanalganlarning qaysinisi hisoblanadi?

a) Import boji
b) Erkin narx
c) Transfertlar
d) Keltirilganlarning hech biri

65.Fillips egri chizig'i qanday bog'liqlikni anglatadi?

a) Ishsizlik va inflyatsiya o'rtasidagi
b) Pul taklifi va inflyatsiya o'rtasidagi
c) Foiz darajasi va investitsiya o'rtasidagi
d) Iqtisodiy sikl va ishsizlik o'rtasidagi

66.Fisher tenglamasini ko'rsating

a) MxV=YxP
b) M=k x py

c) M=k/PY
d) M= PY - k

67.Foiz stavkasi samarasi jami talabning qanday omili?
a) Narx omili
b) Qiymat omili
c) Sifat omili
d) Teskari omili

68.foiz stavkasi samarasi…
a) Jami talabning narx omill
b) Jami talabning narxdan boshqa omill
c) Jami taklifning narx omill
d) Jami taklifning narxdan boshqa omill

69.Friksion ishsizlik – bu …
a) Ish qidirayotgan yoki yaqin vaqtlar ichida ish bilan ta'minlanishni ko'tayotgan ishchi kuchi
b) Ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lmaganlar
c) Vaqtinchalik ishlayotganlarning bir qismi
d) Yaqin orada ishga joylashmayadiganlar

70.Friksion,tarkibiy va davriy ishsizlikning qaysi turi eng havflisi?
a) Davriy
b) Tarkibiy
c) Friksion
d) Barchasi

71.gorizantal, vertikal, oraliq kesmalari qaysi chiziqqa tegishli
a) AS egri chiziq'iga
b) AD egri chiziq'iga
c) LM egri chiziq'iga
d) talab egri chiziq'iga

72.Haqiqiy investitsiyalar o'z ichiga oladi
a) rejalashtirilgan va rejalashtirilmagan investitsiyalar miqdorini
b) rejalashtirilgan investitsiyalar miqdorini
c) rejalashtirilmagan investitsiyalar miqdorini
d) tovar moddiy zaxiralarini

73.Hozirgi davr pulining qadr -qimmati nima bilan o'lchanadi?
a) Muomaladagi pul miqdori bilan o'lchanadi
b) Uning tashqi ko'rinishi bilan
c) Mutloq likvidliligi bilan
d) Undagi oltin miqdori va narxlar darajasi bilan

74.Ijara haqi YaIM ni hisoblashning qaysi usulida xisobga olinadi?
a) Daromadlar usulida
b) Xarajatlar usulida
c) Qo'shilgan qiymat usulida
d) Barcha usullarda
75.Import bojlari nima maqsadda belgilanadi?
a) Davlat byudjetini to'ldirish maqsadida va ichki bozorlarga tushadigan chet el tovarlari oqimini tartibga solish
b) Ma mlakatda import tovarlarini ko'paytirish uchun
c) Eksportni ko'paytirish maqsadida
d) Eksportni kamaytirish maqsadida
76.Import operatsiyasi -...
a) Mahsulotni xorijiy sherikdan sotib olish va uni mamlakatga olib kelish
b) Mahsulotni xorijiy sherikga sotish
c) Mahsulotlarni chet elga chiqarish
d) Mahsulotlarni transportirovka qilish
77.Import tariflari kiritilishi natijasida mahsulot baxolari...
a) Ko'tariladi
b) Pasayadi
c) O'zgarmaydi
d) Sinadi
78.import xaridlar samarasi...
a) Jami talabning narx omill
b) Jami talabning narxdan boshqa omill
c) Jami taklifning narx omill
d) Jami taklifning narxdan boshqa omill
79.Importga tariflarning qanday turlari o'zaro farqlanadi?
a) Maxsus va advolar turlari
b) Maxsus va ketma-ket
c) Advolar va boj
d) Ketma ket
80.Inflyatsiya sabablari nima?
a) Pul massasi va pul aylanish tezligini oshishi hamda tovar ishlab chiqarish hajmi kamayishi
b) Pul aylanish tezligi oshishi
c) Pul aylanish tezligi oshib, tovar ishlab chiqarish hajmi kamayishi
d) Pul massasini kamayishi
81.Inflyatsiyani miqdoran o'lchash usuli qaysi?

a) «70-miqdor qoidasi»
b) «80-miqdor qoidasi»
c) «90-miqdor qoidasi»
d) «100-miqdor qoidasi»

82.Inflyatsiyaning qanday turlari mavjud?
a) Sudraluvchi, yuguruvchi va giperinflyatsiya
b) Yuruvchi va giperinflyatsiya
c) Giperinflyatsiya va turg'un
d) Sudraluvchi va yuguruvchi

83.Investitsiya funksiyasi...
a) I=e-dr
b) I=e+dr+1
c) I= -e-dr
d) I= -e+dr-1

84.Investitsiya hajmiga qaysi omil ta'sir ko'rsatadi?
a) Foiz stavkasi darajasi
b) Texnologik o'zgarishlar darajasi
c) Import darajasi
d) Eksport darajasi

85.Investitsiya hajmining YalM hajmiga bog'liqligini xarakterlovchi model...
a) akselerator modeli deyiladi
b) investitsiya modeli deyiladi
c) pul modeli deyiladi
d) talab modeli deyiladi

86.Iqtisodiy davr fazalari - bu...
a) Cho'qqi, pasayish, quyi, jonlanish
b) Jonlanish, tiklanish, pasayish.retsessiya
c) Cho'qqi, quyi, o'zgarmas,retsessiya
d) Tiklanish, cho'qqi, quyi, tik

87.Iqtisodiy davrlar bir-birlari bilan nimasi bilan farq qiladi?
a) Davomiyligi va faolliligiga ko'ra
b) Mexnat unumdorligiga ko'ra
c) Fang'texnika yutuqlariga ko'ra
d) Iqtisodiyotdagi pul miqdoriga ko'ra

88.Iqtisodiy davrlar nechta bosqichni o'z ichiga oladi?
a) To'rt
b) Ikki
c) Uch

d) Bir

89.Iqtisodiy davrlar qanaqa bosqichni o‘z ichiga olmaydi?

a) Stagflyatsiya
b) Pasayish
c) Ko‘tarilish
d) Cho‘qqi, turg‘unlik

90.iqtisodiy hodisalarni qanday bo‘lsa shunday o‘rgatadi

a) Pozitiv makroiqtisodiyot
b) Normativ makroiqtisodiyot
c) Rejali makroiqtisodiyot
d) Xalqaro makroiqtisodiyot

91.Iqtisodiy o‘sish necha usulda aniqlanadi?

a) Ikki xil usulda
b) Bir xil usulda
c) To‘rt xil usulda
d) Uch xil usulda

92.iqtisodiyotda korxona, firma, uy xo‘jaligi, alohida olingan bozorlar muammosi tadqiq qilinsa, bunday tahlil ... deyiladi.

a) Mikroiqtisodiy tahlil
b) Makroiqtisodiy tahlil
c) Ilmiy abstraktiv tahlil
d) Normativ tahlil

93.Iqtisodiyotning pasayishi natijasida ishchi kuchiga bo‘lgan talab yetarli bo‘lmaganda ... olib keladi?

a) Davriy ishsizlikning oshishiga
b) Tarkibiy ishsizlikning oshishiga
c) Friksion ishsizlikning oshishiga
d) Yashirin ishsizlikning oshishiga

94.IS egri chizig‘ini siljishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlang?

a) Iste’mol xarajatlari, davlat xaridlari va sof soliqlar
b) Davlat xaridlari vas sof soliqlar
c) Sof soliqlar
d) Iste’mol xarajatlar va sof soliqlar

95.IS egri chizigi qanday bozorni ifodalaydi?

a) Tovarlar va xizmatlar bozorini
b) Investitsiya bozorini
c) Pul bozorini
d) Moliya bozorini

96.IS modeli nimani ifodalaydi?

a) Tovar va xizmatlar bozoridagi foiz stavkasi bilan daromadlar o'rtasidagi bog'liqlikni
b) Tovar va xizmatlar bozoridagi foiz stavkasi bilan xarajatlar o'rtasidagi bog'liqlikni
c) Tovar va xizmatlar bozoridagi xarajatlar bilan daromadlar o'rtasidagi bog'liqlikni
d) Pul bozoridagi foiz stavkasi bilan daromadlar o'rtasidagi bog'liqlikni

97.IS modeli qanday makroiqtisodiy kategoriyalardan iborat?

a) Investitsiya, jamg'arma
b) Iste'mol, jamg'arma
c) Daromad, iste'mol
d) Iste'mol, jamg'arma

98.IS modeli qaysi modellar yordamida shakllangan?

a) Keyns hochi, Investitsiya
b) Iste'mol, jamg'arma
c) Iste'mol, keyns xochi
d) Keyns xochi, pul

99.Ish haqi YaIM ning qaysi usulida hisobga olinadi?

a) YaIMni daromadlar oqimi usuli bo'yicha hisoblashda
b) Yaimni xarajatlar oqimi usuli bo'yicha hisoblashda
c) Sof eksportni hisoblashda
d) Davlat korxonalariga sof subsidiyalarni hisoblashda

100. Ish qidirayotgan yoki yaqin vaqtlar ichida ish bilan ta'minlanishni kutayotganlar qanday ishsizlikka kiradi?

a) Friksion ishsizlik
b) Davriy ishsizlik
c) Tarkibiy
d) Ciklli

101. Ishchi kuchi nima ?

a) Ish bilan bandlar+ ishsizlar
b) Ishlashni xoxlovchilar
c) Ish bilan bandlar
d) Ishlayotganlar

102. Ishchi kuchiga bo'lgan talab yetarli bo'lmaganda ... olib keladi?

a) Davriy ishsizlikning oshishiga
b) Tarkibiy ishsizlikning oshishiga
c) Friksion ishsizlikning oshishiga

d) Yashirin ishsizlikning oshishiga

103. ishlab chiqarish usuli...
   a) YaIM ni xisobdash usullaridan biridir
   b) Ishlab chiqarishni xisoblash usullaridan biridir
   c) YaMD xisoblash usullaridan biridir
   d) Millliy daromadni xisoblash usullaridan biridir

104. Ishlab chiqarish, bandlilik va inflyatsiya darajasining davriy tebranishlari nima deb ataladi?
   a) Iqtisodiy davr (sikl)lar deyiladi
   b) Iqtisodiy davr chiziqlari deyiladi
   c) Iqtisodiy o'zgarishlar deyiladi
   d) Iqtisodiy sakrashlar deyiladi

105. Ishlab chiqarishning pasayishi natijasida ishchi kuchiga bo'lgan talabning kamayishidan paydo bo'ladigan ishsizlik turi...
   a) davriy
   b) strukturaviy
   c) mavsumiy
   d) friksion

106. Ishlab chiqarishning potensial darajasi deb nimaga aytiladi?
   a) Ishsizlikning tabiiy darajasi xolatida iqtisodiyotda resurslardan to'la foydalanilganda yaratilishi mumkin bo'lgan mahsulot xajmiga
   b) Ishsizlikning tabiiy darajasi xolatida iqtisodiyotda yaratilishi mumkin bo'lmagan mahsulot xajmiga
   c) Ishsizlikning sun'iy darajasi xolatida iqtisodiyotda yaratilishi mumkin bo'lgan mahsulot xajmiga
   d) Ishlab chiqarish xajmining o'sishiga

107. Ishsizlar va ish bilan band bo'lganlar birgalikda...
   a) Ishchi kuchi hisoblanadi
   b) Band aholi hisoblanadi
   c) Ish bilan to'liq band hisoblanadi
   d) Iqtisodiy faol aholi hisoblanadi

108. Ishsizlik darajasi qanday aniqlanadi?
   a) Ishsizlarni ishchi kuchi soniga nisbatiga(% xisobida)
   b) Ishchi sonining ishsizlar soni nisbatiga(% xisobida)
   c) Ishsizlarning jami yig'indisiga
   d) Ishlamayotganlarning ishlamayotgani sababiga

109. Ishsizlik turlari to'liq ko'rsatilgan qatorni aniqlang.
   a) Friksion, davriy, strukturaviy

b) Davriy, friktsion,mavsumiy
c) Strukturaviy, davriy, o'zgarmas
d) Friksion, davriy, vaqtinchalik

110. Ishsizlik va inflyatsiya ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatuvchi chiziq nima deb ataladi?
a) Fillips egri chizig'i
b) Keyns egri chizig'i
c) Klassik chiziq
d) Talab egri chizig'i

111. ishsizlik va inflyatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi chiziq
a) Fillips egri chizig'i
b) Ellips egri chizig'i
c) Talab egri chizig'i
d) Taklif egri chizig'i

112. Ishsizlikning qanday turlari mavjud?
a) Friktsion, davriy va tarkibiy
b) Davriy va tarkibiy
c) Tarkibiy
d) Friksion va davriy

113. IS-LM egri chiziqlari kesishadigan nuqta shuni ifodalaydiki bunda...
a) Tovarlar va pul bozoridagi talab va taklif o'zaro teng bo'ladi
b) Tovarlar va pul bozoridagi talab taklifdan ortiq bo'ladi
c) Tovarlar va pul bozoridagi taklif talabdan ortiq bo'ladi
d) Tovarlar bozoridagi talab va taklif o'zaro teng bo'ladi

114. IS-LM modeli birinchi bor kim tomondan taklif qilingan
a) J.Xiks
b) D.Rikardo
c) A.Smit
d) Abba lerner

115. IS-LM modeli qanday bozorlardagi birgalikdagi muvozanat o'rnatilishi mexanizmini xarakterlaydi
a) Xam tovarlar xam pul bozoridagi
b) Tovarlar va xizmatlar bozoridagi
c) Pul bozoridagi
d) Kimmatli qogozlar bozoridagi

116. IS-LM modeli....
a) Tovarlar va pul bozoridagi foiz stavkasi bilan daromadlar darajasining muvozanatli darajasini belgilaydi

b) Tovarlar va xizmatlar bozoridagi foiz stavkasi bilan daromadlar darajasining
c) muvozanatli darajasini belgilaydi
d) Xarajatlar bilan daromadlar darajasining muvozanatli darajasini belgilaydi
e) Jama talab va jami taklif modeli

117. Iste'mol funksiyasining formulasi...
a) C=a+b Yd
b) C=a-b Yd
c) C=a+b Yd+1
d) C=a+b Yd-1

118. Iste'moldagi o'zgarishlarning shu o'zgarishni keltirib chiqargan ixtiyordagi daromad o'zgarishidagi ulushi qanday ataladi?
a) Iste'molga chegaralangan moyillik
b) Iste'molga o'rtacha moyillik
c) Jamg'armaga o'rtacha moyillik
d) Jamg'armaga chegaralangan moyillik

119. Iste'molga bo'lgan o'rtaca moyillik qanday aniqlanadi?
a) Iste'mol xarajatini ixtiyordagi daromadga nisbati ko'paytirilgan 100
b) Daromad o'zgarishi oqibatida iste'mol xarajatini ko'payishi
c) Jami iste'molni jami daromadga iste'moli
d) Ehtiyojlarning pul bilan qoplangan qismi

120. Iste'molga cheklangan moyillik deganda nima tushuniladi?
a) Iste'moldagi o'zgarishlarning ixtiyordagi daromad o'zgarishlaridagi ulushi
b) Iste'molning kamayishi
c) Iste'molga o'rtacha moyillikning kamayishi
d) Iste'mol qilishni cheklash

121. Iste'molga cheklangan moyillik formulasini ko'rsating
a) MPC=(dC/dDi)x100%
b) MPC=(CxDi)x100%
c) MPC=(C/dDi)x100%
d) MPC=(dC/Di)x100%

122. Iste'molga o'rtacha moyillik deganda...
a) Tasarrufdagi daromaddagi iste'mol xarajatlarining ulushi tushuniladi
b) Umumiy daromaddagi iste'mol xarajatlarining ulushi tushuniladi
c) Milliy daromaddagi iste'mol xarajatlarining ulushi tushuniladi
d) Iste'molga ajratilgan xarajatlar tushuniladi

123. Iste'molga o'rtacha moyillik formulasini ko'rsating
a) APC=(C/Di)x100%
b) APC=(CD/Di)x100%

c) APC=(C/DDi)x100%
d) APC=(CxDi):100%

124. Ixtiyordagi daromad o'z navbatida qanday ko'rsatkichlarga bo'linadi?
a) Iste'mol va jamg`arishga
b) Iste'mol va xarajatlarga
c) Turli jamg`armalarga
d) Daromad va xarajatlarga

125. Ixtiyordagi daromad qanday hisoblanadi?
a) Shaxsiy daromad -(minus) individual soliqlar
b) YaIM - biznisga egri soliqlar
c) YaIM – amortizasiya
d) MD-transfertlar

126. Ixtiyordagi daromad quyidagicha topiladi
a) Shaxsiy daromad minus individual soliqlar
b) Shaxsiy daromad minus transfertlar
c) Shaxsiy daromad plyus transfertlar
d) Shaxsiy daromad plyus soliqlar

127. Ixtiyordagi daromadni berilgan darajasida jamg'arma va iste'molga me'yoriy moyillik miqdorlarning yig'indisi ...
a) 100 % ga teng
b) 10 %ga teng
c) 0 ga teng
d) 1000 ga teng

128. Jamg'arish funksiyasining formulasi...
a) S= -a+(1-b)Yd
b) S=ad+(1+b)Yd
c) S=-a+(1+b)Yd-2
d) S=-ab+(1-b)Yd

129. Jamg'arma turlari qaysilar?
a) Davlat, xususiy, boshqa mamlakatlar
b) Xususiy, davlat, ijtimoiy
c) Xususiy, boshqa mamlakatlar
d) Ijtimoiy, xususiy

130. Jamg'armaga chekli moyillik formulasini ko'rsating
a) MPS=(dS/dDi)x100%
b) MPS=SxDi
c) MPS= dDi /dS
d) MPS= Di - S

131. Jamg‘armaga o‘rtacha moyillik formulasini ko‘rsating
   a) APS=(S/Di)x100%
   b) APS=SxDi
   c) APS= dDi /dS
   d) APS= Di - S
132. Jami jamg‘armalar qanday turlarga bo‘linadi?
   a) Davlat, xususiy jamg‘armalar
   b) Umumiy jamg‘armalar
   c) Oraliq jamg‘armalar
   d) Iste’mol jamg‘armalari
133. Jami taklif chizig`i Keynschilar fikricha...
   a) Gorizontal chiziqdan iborat
   b) Oraliq chiziqdan iborat
   c) Vertikal chiziqdan iborat
   d) Vertikal va oraliq chiziqdan iborat
134. Jami taklif deganda nimani tushunasiz?
   a) Ma’lum narxlar darajasida ishlab chiqarilishi va taklif qilinishi mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlarning real xajmi
   b) Sotuvchilarning ma’lum vaqt birligida, ma’lum miqdordagi tovarlarni sotishi
   c) Iste’molchilarning ma’lum vaqt birligida, ma’lum miqdordagi iste’mol qilingan tovarlar miqdori
   d) Ehtiyojlarning pul bilan qondirilgan qismi
135. Jami talabning Keyns kesmasida iqtisodiyotning nisbatan qanday muddatda amal qilishi tavsiflanadi?
   a) Qisqa
   b) Uzoq
   c) O‘rta
   d) Yaqin
136. Jami talabning Klassik kesmasida iqtisodiyotning nisbatan qanday muddatda amal qilishi tavsiflanadi?
   a) Uzoq
   b) Qisqa
   c) O‘rta
   d) Yaqin
137. Jami talabning narx omillarini ko‘rsating.
   a) Foiz stavkasi samarasi, boylik samarasi, import xaridlar samarasi
   b) Boylik samarasi, resurslarning narxini o‘zgarishi, narxni o‘zgarishi
   c) Foiz stavkasi samarasi, davlat xarajatlari, import xaridlari samarasi

d) Import xaridlar samarasi, iste'molchi daromadini o'zgarishi

138. Jami talabning narxga bog'liq bo'lmagan omillari ta'sirida AD chizig`i...
   a) o'ngga yoki chapga suriladi
   b) o'ngga yoki chapga surilmaydi
   c) pastga yoki chapga suriladi
   d) o'ngga yoki uqoriga suriladi

139. Jami talabning narxga bog'liq bo'lmagan omillarini ko'rsating.
   a) iste'mol, davlat va investitsiya xarajatlaridagi, sof eksportdagi o'zgarish
   b) import haridlari samarasi
   c) foiz stavkasi samarasi
   d) boylik samarasi

140. Keltirilgan jumlalarning qaysi biri to'g'ri?
   a) Potensial xajmdagi YaIM haqiqiy YaIM dan katta
   b) Potensial xajmdagi YaIM haqiqiy YaIM dan kichik
   c) Potensial xajmdagi YaIM haqiqiy YaIM ga doimo teng bo'ladi
   d) Potensial xajmdagi YaIM haqiqiy YaIM ga qarab aniqlanadi

141. Keltirilgan savdo to'siqlarining qaysilari erkin savdoni sezilarli darajada cheklovchi hisoblanadi?
   a) Import boji
   b) Erkin narx
   c) Transfertlar
   d) Keltirilganlarning hech biri

142. Kembrij tenglamasini ko'rsating
   a) M=k x PY
   b) M= PY x Lk
   c) MxV=YxP
   d) M=k-PY

143. Keynscha nazariya pulga talabni nimaga bog'liq deb xisoblaydi
   a) real daromad hajmi
   b) foiz stavkasiga
   c) pulning aylanish tezligi
   d) pulning taklifiga

144. Keynschilar nazariyasi bo'yicha jamg'armalar va investitsiyalar miqdorini aniqlaydigan asosiy omil...
   a) Aholining ixtiyordagi daromadi
   b) Foiz stavkasi
   c) Aholi jamg'armalari
   d) Iste'mol xajmi

145. LM modeli nimani ifodalaydi?
   a) Pul bozoridagi foiz stavkasi bilan daromadlar o'rtasidagi bog'liqlikni
   b) Tovar va xizmatlar bozoridagi foiz stavkasi bilan daromadlar o'rtasidagi bog'liqlikni
   c) Pul bozoridagi xarajatlar stavkasi bilan daromadlar o'rtasidagi bog'liqlikni
   d) Pul bozoridagi foiz stavkasi bilan investitsiya o'rtasidagi bog'liqlikni
146. LM modeli qanday makroiqtisodiy kategoriyalardan iborat?
   a) Pul
   b) Daromad
   c) Investitsiya
   d) Qarz
147. LM modeli qaysi model yordamida shakllangan?
   a) Pul
   b) Iste'mol, keyns xochi
   c) Keyns xochi, pul
   d) Investitsiya
148. Makroiqtisodiy agentlar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
   a) uy xo'jaliklari,firmalar, davlat ,xorijiy soha
   b) uy xo'jaliklari, yer, capital
   c) capital, yer, tadbirkorlik qobiliyati
   d) tadbirkorlik qobiliyati, davlat
149. Makroiqtisodiy muvozanat – bu...
   a) Tovar va xizmatlar bozoridagi, pul bozoridagi hamda sarmoya va mehnat bozoridagi muvozanat
   b) Pul bozoridagi muvozanat
   c) Sarmoya va mehnat bozoridagi muvozanat
   d) Tovar va xizmatlar bozoridagi muvozanat
150. Makroiqtisodiy siyosatning asosiy shakllari –bu...
   a) Monetar, fiskal va ijtimoiy siyosat
   b) Fiskal siyosat
   c) Faqat monetar va ijtimoiy siyosat
   d) Monetar siyosat
151. Makroiqtisodiy siyosatning muhim vazifalari nimalardan iborat?
   a) Makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini ta'minlash
   b) Iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini oshirish
   c) Makroiqtisodiy barqarorlik
   d) Aholi farovonligini ta'minlash

152. Makroiqtisodiyot nima?
   a) Bu mamlakat miqyosida moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy sohalarini bir butun qilib birlashtirgan milliy xo'jalik darajasidagi iqtisodiyot
   b) Milliy iqtisodiyot bir bo'lagi
   c) Jahon miqyosida ishlab chiqarish sohasining ko'rsatkichlarini ifodalovchi iqtisodiyot
   d) Jahon miqyosida o'rganiladigan iqtisodiyot
153. Makroiqtisodiyotda aholiga to'lanadigan nafaqalar, stipendiyalar qanday atama bilan nomlanadi?
   a) Transfertlar
   b) Subsidiyalar
   c) Bojlar
   d) Yordam
154. makroiqtisodiyotda Inflyatsiyaning qanday ko'rinishlari muhim hisoblanadi?
   a) Talab va taklif inflyatsiyasi
   b) Sudraluvchi va sakrovchi
   c) Boshqariladigan va boshqarilmaydigan
   d) Davriy va friktsion
155. Makroiqtisodiyotning miqdor ko'rsatkichlarini aniqlang.
   a) YaIM, MD, SIM, ID, YaMD
   b) Ishsizlik va inflyatsiya darajasi
   c) Ishsizlik, SHD, SMD
   d) Inflyatsiya darajasi va YaIM
156. Makroiqtisodiyotning sifat ko'rsatkichlari –bu...
   a) Ishsizlik va inflatsiya darajasi
   b) Ishsizlik va ixtiyordagi daromad
   c) Ixtiyordagi daromad va YaIM
   d) Inflyatsiya darajasi va YaIM
157. Makroiqtisodiyotning subyektlarini ko'rsating
   a) Uy xo'jaliklari, firmalar, davlat va tashqi dunyo
   b) Eksport
   c) Eksport subsidiyalari
   d) Demping va eksport subsidiyalari
158. Mamlakat iqtisodiyotida tovar va xizmatlar taklifining kamayishi natijasida tovar va xizmatlar baholarining oshishidan paydo bo'ladi.
   a) Taklif inflyatsiyasi
   b) O'rmalovchi inflyatsiya
   c) Talab inflyatsiyasi

d) Giperinflyatsiya

159. mamlakat rezidentlari tomonidan ma'lum muddat davomida ishlab chiqarilgan pirovard tovarlar va xizmatlar bozor baholarininng umumiy yig'indisi nima deb ataladi.

a) Yalpi ichki mahsulot
b) Yalpi milliy daromad
c) Sof ichki mahsulot
d) Milliy daromad

160. Mahsulotlarning potensial va haqiqiy ishlab chiqarilishi o'rtasidagi farq nima deb ataladi?

a) Uzilishi yoki orqada qolishi
b) Nisbati
c) Farqi
d) yetishmovchilik

161. Maxsus bojlarni undirish tartibi qanday?

a) Import qilinayotgan tovarlar birligiga nisbatan
b) Import qilinayotgan tovarlar rangiga nisbatan
c) Import qilinayotgan tovarlar egasiga nisbatan
d) Import qilinayotgan tovarlar foydaliligiga nisbatan

162. Mikroiqtisodiyotdan farqli ravishda makroiqtisodiyot

a) Ustun ravishda umumlashtirilgan tushunchalar bilan ishlaydi
b) Tavakkal fikrlarni qo'llamaydi
c) Uy xo'jaliklari hulq – atvorini o'rganadi
d) Iqtisodiy muvozanat tushunchasidan foydalanadi

163. Milliy daromad tarkibiga nimalar kiradi?

a) Ijara haqi, ish haqi, kapitalga foiz, mulkdan olingan daromad va korporatsiya foydasi
b) Investitsiyalar – jamg'armalar
c) Uzoq muddat foydalaniladigan buyumlar va xizmatlar qiymati
d) Uy xo'jaliklari+investitsiya+davlat xarajatlari – transfert to'lovlari + bilvosita soliqlar

164. Milliy daromad va biznesga egri soliqlar yig'indisi -bu

a) Sof ichki mahsulot
b) Shaxsiy daromad
c) Yalpi ichki mahsulot
d) Ixtiyordagi daromad

165. Milliy iqtisodiyot holatini xarakterlovchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar – bu…

a) Yalpi milliy daromad, yalpi ichki mahsulot, sof milliy mahsulot, milliy daromad, ishchi kuchi bandligi, ishsizlik, inflyatsiya
b) Yalpi milliy daromad, yalpi ichki mahsulot, korxona balansi, yalpi hududiy mahsulot, ishchi kuchi bandligi, ishsizlik, inflyatsiya
c) Yalpi milliy daromad, to'lov balansi, sof milliy mahsulot, milliy daromad, ishchi kuchi bandligi, ishsizlik, inflyatsiya
d) Yalpi milliy daromad, ichki milliy mahsulot, sof milliy mahsulot, milliy daromad, ishchi kuchi bandligi, valyuta birligi

166. Monetaristlar iqtisodiyotni barqarorlashtirishning eng maqbul vositasi deb nimani hisoblaydilar?
a) Pul massasi o'zgarishini
b) Soliqlar o'zgarishini
c) Davlat xaridlari o'zgarishini
d) Davlat xarajatlari o'zgarishini

167. Mutlaoq ustunlik nazariyasi qaysi olimga tegishli?
a) A.Smit
b) D.Rikardo
c) E.Xeksher
d) B.Olin

168. Narx omillaridan boylik samarasi nimani bildiradi?
a) Narxlar darajasining oshishi jamg'arilgan moliyaviy aktivlar real xarid qobiliyatini pasaytirib yuboradi
b) Narxlar darajasining oshishi jamg'arilgan moliyaviy aktivlar real xarid qobiliyatini yo'qotib yuboradi
c) Narxlar darajasining oshishi jamg'arilgan moliyaviy aktivlarni sarf qilinishiga olib keladi
d) Narxlar darajasining oshishi talabni kamaytirib yuboradi

169. Narx omillaridan foiz stavkasi samarasi nimani bildiradi?
a) Tovarlar baxosi darajalarining yuqoriligi pulga bo'lgan talabni oshiradi
b) Tovarlar baxosi darajalarining yuqoriligi tovarlarga bo'lgan talabni oshiradi
c) Tovarlar baxosi darajalarining yuqoriligi pulga bo'lgan talabni kamaytiradi
d) Tovarlar baxosi darajalarining pasayishi pulga bo'lgan talabni oshiradi

170. Narx omillaridan import xaridlar samarasi nimani bildiradi
a) Tovar va xizmatlarning ichki narxlari tashqi narxlardan oshib borsa, import mahsulotlariga talab oshadi
b) Tovar va xizmatlarning narxlari oshib borsa, mahsulotlariga talab oshadi
c) Tovar va xizmatlarning narxlari oshib borsa, mahsulotlariga talab kamayadi
d) Tovar va xizmatlarning narxlari oshib borsa, mahsulotlariga talab ko'payadi

171. Narxlar indeksi qanday farqni baholash uchun ishlatiladi?
   a) turli davrdagi "iste'mol savati"ning bozor qiymatidagi farqini
   b) ikki turli mamlakat narx darajalaridagi farqni baholash uchun
   c) bazis yildagi ishlab chiqarish tarkibidagi farqini baholash uchun
   d) ulgurji va chakana narx darajalari o'rtasidagi farqni
172. Narxlar indeksi qanday farqni baholash uchun ishlatiladi?
   a) Turli davrdagi "iste'mol savati"ning bozor qiymatidagi farqini baholash uchun
   b) Bazis yildagi ishlab chiqarish tarkibidagi farqini baholash uchun
   c) Ikki turli mamlakat narx darajalaridagi farqni baholash uchun
   d) Ulgurji va chakana narx darajalari o'rtasidagi farqni baholash uchun
173. Nima uchun oraliq va pirovard mahsulotlarni farqlay bilishimiz kerak
   a) Bir mahsulotni ikki marta hisoblamaslik uchun
   b) Bir mahsulotni ikki joyda hisoblash uchun
   c) Bir mahsulotni ikki joyda iste'mol qilish uchun
   d) Ikki mahsulotni iste'mol qilish uchun
174. Nisbiy ustunlik nazariyasi kimga tegishli?
   a) D.Rikardo
   b) Abba Lerner
   c) J.Keyns
   d) J.Xiks
175. Noishlab chiqarish bitimlariga nimalar kiradi
   a) Sof moliyaviy bitimlar va ishlatilgan tovarlarni sotish
   b) Mahsulotlarni sotish
   c) Ishlatilgan tovarlarni sotish
   d) Bozordagi tovarlarni sotish

GLOSSARIY

ASOSIY KAPITALGA QO'YILMALAR – asosiy fondlarni qayta tiklash, rivojlantirish va yangilashga yo'naltirilgan moddiy xarajatlar.

AHOLI DAROMADLARI – bu alohida shaxs yoki oila (uy xo'jaligi) tomonidan turli manbalardan ma'lum davr mobaynida olinadigan va iste'mol, jamg'arma, turli yig'in va soliqlarga sarflanadigan pul va natural tushumlar majmuidir.

AHOLINI IJTIMOIY MUHOFAZA QILISh – bu davlat tomonidan munosib turmushni, ya'ni jamiyat rivojining zamonaviy bosqichidagi standartlarga mos moddiy ta'minotni va insonning yerkin rivojlanishini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan kafolatlanadigan va amalga oshiriladigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy tavsifdagi chora-tadbirlar majmuasidir.

AHOLINING NATURAL DAROMADLARI – qishloq xo'jaligi mahsulotlarining barcha tushumlari: dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik mahsulotlari, bog'dorchilik, sabzavot-poliz ekinlari, shaxsiy tomorqa, tabiat in'omlaridan shaxsiy, oilaviy ehtiyojlar uchun tayyorlanadigan mahsulotlar kabi tushumlar.

AHOLINING PUL DAROMADLARI – bu aholining barcha pul mablag'lari tushumi: pensiya, stipendiya, nafaqa; mulkdan foiz, dividend, renta, aksiya, qimmatbaho qog'ozlar, ko'chmas mulk, chorva mollari, tomorqa mahsulotlari, turli buyumlar va boshqa tovarlarni sotishdan tushadigan, turli xizmatlar ko'rsatishdan keladigan pul tushumlaridir.

AHOLINING REAL DAROMADLARI – narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori, ya'ni, aholi ixtiyorida bo'lgan daromadning xarid quvvati.

AHOLINING TURMUSH DARAJASI – bu aholi farovonligi, ne'matlar va xizmatlar iste'molining darajasi, insonlarning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish me'yorini tavsiflovchi sharoitlar va ko'rsatkichlar majmuidir.

BANDLIK – mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan va qonunga zid kelmaydigan, mehnat daromadi byeradigan faoliyati.

BANK LIKVIDLILIGI – banklar majburiyatlarini o'z vaqtida qaytara olish qobiliyati yoki passivlardagi majburiyatlarni qaytarish uchun aktivlarni pulga aylanish qobiliyatidir.

BANK NAZORATI BO'YICHA BAZEL QO'MITASI TALABLARI – bank tizimining barqaror amal qilishi hamda o'z majburiyatlarini bajara olishini ta'minlash uchun o'rnatilgan xalqaro me'yorlar majmui bo'lib, u kapitalning yetarlilik darajasini, banklarni nazorat qilish jarayoniga hamda bozor intizomiga qo'yilgan talablarni ifodalaydi.

BANK TIZIMI – bu mamlakat hududida tarixan shakllangan va qonun bilan mustahkamlangan kredit tashkilotlarining faoliyat ko'rsatish shakli

BANKLAR KAPITALINING YETARLILIK DARAJASI – bu jami kapitalning riskka tortilgan aktivlarga nisbati bo'lib, u xalqaro Bazel kelishuviga ko'ra kamida 8% ni tashkil etishi kerak.

BARQAROR IQTISODIY O'SISH – bu iqtisodiyotning uzoq vaqt davomida yuqori sur'atlar bilan o'sib borishidir.

BARQAROR RIVOJLANISH – bu shunday rivojlanishki u aholini hozirgi ehtiyojlarini qondiradi va kelajak avlodning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini xavf ostiga qo'ymaydi.

BEVOSITA INVESTISIYA – kapital qo'yilmalarning investor tomonidan to'g'ridan to'g'ri investitsion obyektlarga yo'naltirilishi nazarda tutiladi.

BILVOSITA INVESTITSIYA – vositachi moliyaviy tashkilotlar orqali investorlar tomonidan kapital qo'yilmalarning qo'yilishi tarzida ifodalanadi.

BOZOR IQTISODIYOTI – yerkin tovar-pul munosabatlariga asoslangan, iqtisodiy monopolizmni inkor etuvchi, aholini ijtimoiy himoya qilishga yo'naltirilgan va boshqariladigan iqtisodiy tizim.

BYUDJET PROFITSITI – muayyan davrda byudjet daromadlarining byudjet xarajatlaridan ortiq bo'lgan miqdori.

BYUDJET TAQCHILLIGI – muayyan davrda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan ortiq bo'lgan summasi.

GLOBAL MOLIYAVIY-IQTISODIY INQIROZ – jahonning deyarli barcha mamlakatlarida moliyaviy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi mutanosiblik va nisbatlarning keskin izdan chiqishi natijasidagi beqarorlik va chuqur tanglik holatlarining vujudga kelishi.

DAVLAT BYUDJETI – davlatning daromad va xarajatlari hamda ularni moliyaviy ta'minlash manbalarining tartiblashtirilgan rejasi.

DAVLAT BYUDJETI PROFISITI – davlat byudjeti daromadlarining xarajatlarga nisbatan ko'proq bo'lishi.

DAVLAT BYUDJETI TAQCHILLIGI – byudjet xarajatlarining byudjet daromadlariga nisbatan oshib ketishi natijasida moliyaviy resurslar etishmovchiligining vujudga kelishi.

DAVLAT IJTIMOIY YORDAMI – mehnatga layoqatligining yo'qligi, ishsizligi, daromad manbai mavjud bo'lmaganligi sababli mustaqil ravishda o'zini moddiy ta'minlay olmagan shaxslarga davlat tomonidan beriladigan yordam.

DAVLAT INVESTITSIYASI – davlat byudjeti va byudjetdan tashqari davlat fondlari hamda davlat korxonalari tomonidan kapitallar qo'yilishini ifodalaydi.

DAVLAT ICHKI QARZLARI – davlat tomonidan ichki mablag'ni jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi.

DAVLAT TASARRUFDAN CHIQARISH - davlat korxonalarini va tashkilotlarini xo'jalik shirkatlari va jamiyatlariga, davlatga qarashli mulk bo'lmaydigan boshqa korxonalar tashkilotlarga aylantirishdir.

DAVLAT TASHQI QARZI – davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi.

DAVLAT QARZLARI – davlatning mamlakatda qimmatli qog'ozlarni chiqarish shaklidagi, turli byudjetdan tashqari fondlardan (ichki qarz) hamda xorijiy davlatlardan, ulardagi jismoniy va yuridik shaxslardan, shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan (tashqi qarz) olgan qarzlari.

DAROMAD – bu ishlab chiqarilgan mahsulot narxining uni ishlab chiqarish sarf-harajatlaridan oshishi, shuningdek, har bir sinf, ijtimoiy guruh yoki alohida shaxsning yangi yaratilgan qiymatda mavjud bo'lgan va ular tomonidan o'zlashtirilgan ulushi.

DEPOZIT – lotincha so'zdan olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosi-saqlash uchun topshirilgan buyum ma'nosini bildiradiBank depozitlari – jismoniy va yuridik shaxslarning bank muassasalariga ma'lum muddatga va muddatsiz omonat shaklida qo'yilgan bo'sh pul mablag'lari.

DEFITSIT – biror narsaning etishmasligi, kamchiligi, jumladan, tovarlar etishmasligi, byudjet mablag'ining etishmasligi.

DIVERSIFIKATSIYA – yuqori qo'shilgan qiymat o'sish dinamikasini ta'minlovchi ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlar assortimentining oshishi va kengayishi jarayonidir. Divyersifikatsiya jarayoni iqtisodiyot tarmoqlarida olib borilayotgan modyernizatsiya va tarkibiy o'zgarishlar bilan bevosita uyg'unlashgan.

JAHON MOLIYA-VALYUTA TIZIMI – xalqaro valyuta va moliyaviy munosabatlarning davlatlararo bitimlarda kelishilgan holda amal qiladigan shakli, xalqaro miqyosda xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.

JAHON BANKI – 1944 yilda Xalqaro valyuta jamg'armasi bilan bir vaqtda tuzilgan birinchi davlatlararo investitsiya instituti bo'lib, o'z faoliyatini 1946 yil 25 iyunda boshlagan.

JAHON ZAXIRA VALYuTALARI – umumjahon miqyosida tan olinib, markaziy banklar tomonidan valyuta zaxiralari sifatida jamg'ariluvchi valyutalar. Ular investitsion aktiv vazifasini bajarib, valyuta paritetini belgilash vositasi bo'lib xizmat qiladi, zarur hollarda valyuta intyerventsiyasini, shuningdek, markaziy banklar tomonidan xalqaro hisoblashuvlarni amalga oshirish vositasi sifatida foydalaniladi.

JAHON MOLIYA INSTITUTLARI – jahon moliyaviy va iqtisodiy tizimi barqarorligini ta'minlash maqsadida ushbu jarayonlarni tartibga solish, muvofiqlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiquvchi, turli vosita va yo'llar bilan qo'llab-quvvatlovchi va tavsiyalar byeruvchi xalqaro va milliy moliyaviy tashkilotlar.

IJTIMOIY SOHA – aholining munosib turmush sharoiti va farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlar majmuasi. Bular qatoriga uy-joy fondlari, sog'liqni saqlash, ta'lim, sport, madaniyat muassasalari va boshqa tuzilmalarni kiritish mumkin.

IJTIMOIY FAOL INSON – tafakkurida aql va antiaql, ma'no va ma'nosizlik, mo'ljal va tasodif, ong va ongsizlik, insonparvarlik va antigumanizm yaxlit holda mujassamlashgan inson. Noaniqlik, bemulohazalik va yolg'on-yashiqlar maydonidagi jangchi.

IJTIMOIY FAOLLIK – odamlar tomonidan amalga oshiriluvchi faoliyat turi sifatida namoyon bo'ladi. Ayni vaqtda ijtimoiy faollik muayyan odamning u yoki bu tarzda amalga oshirilgan faoliyatining jamiyat manfaatiga yo'naltirilganida namoyon bo'ladi.

INVESTITSION KREDITLAR – ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modyernizatsiyalash va rekonstruksiya qilish,

yangi bino va inshootlarni qurish uchun zarur bo'lgan vositalar hamda qimmatli qog'ozlarni sotib olish maqsadida olingan uzoq muddatli kreditlar.

INVESTITSIYA – bu iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga yerishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara byeradigan boshqa har qanday boyliklardir. Investitsiyalar – foyda olish hamda ijobiy ijtimoiy samaraga yerishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo'yiladigan pul mablag'lari.

INVESTITSIYA DASTURI – respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga yerishishga, tabiiy, minyeral-xomashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo'li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o'zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan bir-biri bilan o'zaro bog'langan chora-tadbirlar kompleksi.

INVESTITSIYA LOYIHASI – deganda byerilgan vaqt mobaynida aniq maqsad bilan belgilangan vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan o'zaro bir-biriga bog'liq tadbirlar majmui tushuniladi.

INVESTITSIYA MUHITI – bu mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmui.

INVESTITSIYA NORMASI – investitsiyalar hajmining yalpi ichki mahsulotga bo'lgan nisbati.

INVESTITSIYA SIYOSATI – investitsiya faoliyatini jonlantirish, iqtisodiyotni yuksaltirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ijtimoiy muammolarni hal qilish maqsadida iqtisodiy subyektlar uchun qulay xo'jalik yuritish sharoitlarini yaratishga qaratilgan maqsadli tadbirlar majmui.

INVESTITSIYAVIY FAOLLIK – turli iqtisodiy subyektlar (davlat, korxona va tashkilotlar, jamg'armalar va h.k.)ning daromad olish maqsadida milliy yoki xorijiy iqtisodiyotlarga investitsiya resurslarini kiritishga intilishi.

INVESTITSIYAVIY HAMKORLIK – xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bir ko'rinishi bo'lib, resurslarni ratsional taqsimlash, xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish natijasidagi ustunliklaridan foydalanish orqali davlat tomonidan iqtisodiyotda nisbatan yuqori natijalarga yerishish, texnologik ishlab chiqarish tuzilmasini yangilash kabi natijalarni maqsad qilgan.

INVESTITSIYALASH – bu asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish xamda kelgusida foyda olish maqsadida iqtisodiy resurslarni uzoq muddatga kiritish degan ta'rifdan kelib chiqsak, tabiiyki, resurlarni kiritishning asosiy jixati xususiy mablag'lar va investorlarning qarz mablag'larini yangi qiymatni xosil qiladigan ishlab chiqarish aktivlariga aylantirishdan iborat.

INVESTOR – xususiy va qarzga olingan mulkiy va intellektual qiymatlarni sarflash haqida qaror qabul qiluvchi investitsiya faoliyati subyekti. Investorlar – xususiy va qarzga olingan mulkiy va intellektual qiymatlarni sarflash haqida qaror qabul qiluvchi investitsiya faoliyati subyektlari. Investorlar obyektlar va investitsiya natijalariga egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish huquqiga ega bo'ladi. Investorlar kreditor va xaridor rolini bajarishlari, shuningdek, investitsiya faoliyatining boshqa ishtirokchilari funksiyalarini bajarishi mumkin. Odatda investorlar kapital qo'yilmalar sarflanadigan sohalarni aniqlaydi, shartnoma shartlarini ishlab chiqadi va investitsiya aktining boshqa subyektlari bilan - kontraktor, hukumat organlari, yakuniy mahsulot ishlab chiqaruvchilar va shu mahsulotning iste'molchilari bilan hisob-kitoblarni amalga oshiradi.

INNOVATSIYA LOYIHALARI – bunday loyixalarning asosiy maqsadi yangi texnologiyalar, nou-xau va korxonalarning rivojlanishini ta'minlab byeruvchi boshqa yangiliklarni ishlab chiqish va qo'llashdan iborat.

INFLYATSIYA – pul muomalasi qonuniyatlarining buzilishi bilan bog'liq holda qog'oz pullarning qadrsizlanishi va buning oqibatida narx-navoning o'sishi.

ICHKI INVESTITSIYA – mamlakat ichida turli shakldagi kapitallar qo'yilishi.

ISH BILAN BANDLIK – bu iqtisodiy faol aholining qonun hujjatlariga muvofiq, daromad keltiradigan faoliyatga ega bo'lishidir.

ISH BILAN SAMARALI BANDLIK – bu aholining ish bilan bandlikka ehtiyojining mavjud ish o'rinlariga muvofiq kelishining sifat xususiyati bo'lib, iqtisodiy nuqtai nazardan mehnat resurslaridan eng oqilona foydalanishni, ijtimoiy jihatdan mehnat faoliyatining inson manfaatlariga eng muvofiq kelishini bildiradi.

ISH BILAN TA'MINLASH – fuqarolarning qonun xujatlariga zid kelmaydigan, o'z shaxsiy va ijtimoiy extiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi yoki daromad keltiradigan faoliyat.

ISH O'RNI – tegishli ravishda jihozlangan va ish qurollari bilan ta'minlangan, miqdor va sifat tavsiflariga ega bo'lgan, belgilangan mehnat me'yoriga ko'ra ishlab chiqarish topshirig'i yoki funksiyasini bajaruvchi xodimning yoki yagona ishlab chiqarish topshirig'ini yoxud texnologiya jihatdan ajralmas funksiyani bajaruvchi xodimlar guruhining mehnat faoliyati amalga oshadigan makon tushuniladi.

IQTISODIYOTNING OCHIQLILIGI – mamlakat iqtisodiyotining xalqaro mehnat taqsimotiga integratsiyalashish darajasidir.

IQTISODIYOTNING REAL SEKTORI – iqtisodiyotning bevosita moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq sohasi bo'lib, u o'z ichiga sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa tarmoqlarini oladi.

IQTISODIY FAOL AHOLI – mehnat bilan band bo'lgan fuqarolar va ishsizlar.

IQTISODIY FAOL BO'LMAGAN AHOLI – ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan hamda ish haqiga yoki mehnat daromadiga ega bo'lmagan o'quvchilar va talabalar; ishlamayotgan uchinchi guruh nogironlari; uy bekalari hamda bolalarni parvarish qilish bilan band bo'lgan ishlamayotgan ayollar; ko'char

va ko'chmas mulkdan daromad olayotgan ishlamayotgan shaxslar; ixtiyoriy ravishda mehnat bilan band bo'lmagan shaxslar.

IQTISODIY O'sish – real yalpi ichki mahsulot umumiy hajmining yoki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real yalpi ichki mahsulotning o'sishi.

IQTISODIY O'SISHNING SAMARADORLIGI – —ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligil tushunchasining hamma tarkibiy qismlarini, shu jumladan tovar va xizmatlarning sifatini yaxshilanishi, ularning raqobatbardorshigini oshishi, yangi tovarlarni ishlab chiqarishni o'zlashtirish, yangi texnologiyani o'zlashtirish, foydalaniladigan resurslarni qaytimini o'sishi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamayishi.

KREDIT – bu vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini ma'lum muddatga, haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir.

MAJBURIY ZAXIRA TALABI – tijorat banklari jalb qilgan mablag'laridan ma'lum bir qismini Markaziy bankning zaxira fondiga o'tkazilishidir.

MAKROIQTISODIY KO'RSATKIChLAR – mamlakat iqtisodiyotidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va hodisalarni o'lchash va baholash imkoniyatini byeradigan ko'rsatkichlar. Masalan, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, iqtisodiy o'sish, ishsizlik, inflyatsiya darajasi va boshqalar.

MAMLAKAT PUL OBOROTI – ma'lum bir davr mobaynida korxonalar, tashkilotlar va aholi tomonidan naqd pul va naqd pulsiz shaklda amalga oshirilgan to'lovlar majmuasidir.

MAHALLA – O'zbekistonning muayyan tarixiy sharoitlarida, asrlar davomida shakllanib, faoliyat ko'rsatayotgan, aholi yashaydigan ma'muriy-hududiy birlik, uyushma.

MAHALLIYLASHTIRISH – import qilinadigan tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va matyeriallarni mamlakatda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali unga bo'lgan ichki talabni qondirish va eksportini yo'lga qo'yish.

MEHNAT BOZORI – bu mehnatga qobiliyatli aholining faol (ish bilan band va mehnatga muhtoj aholi) qismlari va ish byeruvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi, «mehnat qobiliyati» ni sotish-sotib olishni amalga oshiruvchi hamda ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi nisbatlarni bevosita barqarorlashtiruvchi ko'p omilli, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tizimidir.

MEHNAT KOOPYERATSIYASI – bu mehnat faoliyati jarayonidagi alohida ixtisoslashtirilgan ijrochilar o'rtasidagi aloqalarning o'rnatilishi va mehnat faoliyatining tashkil etilishidagi eng muhim elementlardan biridir.

MEHNAT RESURSLARI – mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi hamda mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi ishlayotgan shaxslar.

MIKROKREDIT – xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va boshlang'ich sarmoyani shakllantirishga beriladigan kreditlar. Mikrokreditlar: a) yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati uchun – eng kam ish haqining 50 barobarigacha; b) mikrofirma va dehqon xo'jaliklariga eng kam ish haqining 100 barobarigacha; v) fyermyer xo'jaligiga eng kam ish haqining 200 barobarigacha beriladi.

MIKROMOLIYALASH – mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarning qonun hujjatlarida belgilangan miqdordan oshmaydigan summada mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing berish, shuningdek mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa xizmatlar ko'rsatish borasidagi faoliyatidir.

MINIMAL ISTE'MOL BYUDJETI – shaxsning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ma'naviy ehtiyojlar iste'molining ijtimoiy asoslangan minimal darajasini ta'minlaydigan iste'mol tovarlari va xizmatlari turlarining qiymati.

MOLIYAVIY INVESTITSIYA – daromad olish maqsadida investitsiyalarni turli qimmatli qog'ozlarga (aksiyalar, obligatsiyalar, banklarning depozit syertifikatlari va boshqalar) qo'yilishi nazarda tutiladi.

PUL BOZORI – bu shunday bozorki, u yerda pulga talab va taklif ta'siri ostida foiz stavkasi darajasi va pul «bahosi» shakllanadi. Pul bozorida pul tovarga o'xshab «sotilmaydi» va «sotib olinmaydi». Aynan shu xususiyati bilan pul bozori boshqa bozorlardan tubdan farq qiladi. Pul bozorida pul nominal foiz normasi birligiga ega bo'lgan muqobil likvid vosita bilan almashinadi.

PUL MASSASI – har qanday mamlakat iqtisodiyotida tovarlar va xizmatlar aylanishini ta'minlaydigan, xususiy shaxslar, institutsional mulkdorlar(korxonalar, birlamalar, tashkilotlar va b.) va davlat egalik qiladigan naqd va naqd pulsiz xarid hamda to'lov vositalari majmuidir.

PUL TAKLIFI – bu muomalaga chiqarilgan ma'lum turdagi pul miqdoridir.

PULGA TALAB – bu pul muomalasi, ya'ni xo'jalik oboroti uchun kyerak bo'lgan pulga ehtiyojdir.

RAQOBAT – har qanday bozor mexanizmini tashkil etuvchi ajralmas qism bo'lib, u ko'p miqdordagi yerkin xaridorlar (ish byeruchilar) va ish kuchini «sotuvchi»larning mavjudligi hamda ular uchun mehnat bozoriga yerkin kirish va uni tark etish imkoniyatini anglatadi.

RAQOBATBARDOShLIK – tovar ishlab chiqaruvchilarning minimal rentabellikni ta'minlovchi narxda tashqi bozorda sotish uchun ishlab chiqarishga bo'lgan qobiliyatidir.

SOLIQLAR – yuridik va jismoniy shaxslardan aniq muddat va stavkalar asosida majburiy tartibda undiriladigan, ekvivalentsiz xususiyatga ega bo'lgan va faqat davlat byudjetiga yo'naltiriladigan majburiy to'lovlar.

SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI – tibbiy yordamni tashkil etish, kasalliklarning oldini olish, aholi salomatlik darajasini yaxshilashga qaratilagan va ijtimoiy - iqtisodiy xaraktyerga ega bo'lgan davlat va jamiyat chora - tadbirlari yig'indisi.

TADBIRKORLIK FAOLIYATI (TADBIRKORLIK) - tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan,

tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat.

TASHQI SAVDO AYLANMASI – mamlakat, mamlakatlar guruhi tashqi savdo faoliyati hajmining pul ko'rinishidagi ifodasi bo'lib, muayyan vaqt oralig'idagi (masalan, yil davomidagi) eksport va import hajmining yig'indisiga teng bo'ladi.

TASHQI SAVDO – bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdosi.

TASHQI SAVDO BALANSI SALDOSI – mamlakat eksporti va importi hajmi o'rtasidagi farq, tafovut.

TIBBIY YoRDAM – oliy va o'rta maxsus tibbiy bilimga ega bo'lgan shaxslar tomonidan tug'ruqda, kasallanish, shikastlanish va zaharlanishda amalga oshiriladigan davolash profilaktik chora - tadbirlar yig'indisi.

TURMUSH DARAJASI – aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda xizmatlar bilan ta'minlanish hamda ularni iste'mol qilish darajasi.

TO'G'RIDAN TO'G'RI INVESTITSIYALAR – bevosita mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil etish yoki yanada kengaytirish maqsadida xorijiy shyeriklar tomonidan uzoq muddatli kapital qo'yilmalar kiritish. To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar investorlarga mazkur ishlab chiqarish jarayonlari ustidan nazorat qilish imkonini byeradi.

TO'LOV BALANSI – muayyan muddat davomida mamlakatning chet ellarga to'lagan va xuddi shu davr mobaynida mamlakatga chet eldan tushgan to'lovlar miqdori o'rtasidagi nisbatni bildiradi. To'lov turkumiga tashqi qarz, uning foizi, chetdan olingan tovar va xizmatlar haqi, xorijiy investitsiyalar, xorijda diplomatik ishlarni, iqtisodiy aloqalarni yuritish xarajatlari, fuqarolar va qo'shma korxonalarning chet elga pul o'tkazmalari va boshqalar kiradi.

XALQARO VALYUTA JAMG'ARMASI – xalqaro savdo va valyuta hamkorligini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatish maqsadida 1944 yilda tashkil etilgan xalqaro valyuta-moliya tashkiloti. Xalqaro valyuta jamg'aramasi – a'zo davlatlar o'rtasida valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solib turish va ularga to'lov

balansining kamomadi bilan bog'liq valyutaviy qiyinchiliklar paytida chet el valyutasida qisqa va uzoq muddatli kreditlar berish yo'li bilan moliyaviy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan hukumatlararo tashkilot. XVJ o'z amaliy faoliyatini 1947 yil 1 martdan boshlagan.

XUSUSIY TADBIRKORLIK – bu fuqarolar (alohida fuqarolar) tomonidan o'zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo'jalik faoliyatidir.

EKSPORT – tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish.

EKSPORT SALOHIYATI – milliy iqtisodiyotning jahon bozorlarida raqobatdosh bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ularni jahon narxlari bo'yicha yetarli hajmlarda eksport qilish qobiliyati.

ERKIN INDUSTRIAL-IQTISODIY ZONA – mamlakat hududining xorijiy mamlakatlar tomonidan turli shakllardagi hamkorlikdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun ruxsat etilgan qismi. Mazkur zonalarda maxsus imtiyozli shart-sharoitlar, jumladan, imtiyozli soliqlar, bojxona to'lovlari, ijara, viza olish, valyuta ayirboshlash, mehnatga yollashning qulay tartiblari belgilangan bo'ladi.

YAGONA YER SOLIG'I – miqdori yer uchastkasining ball bonitetlardan ifodalangan sifati, qanday joydaligi va suv bilan qanday ta'minlanganligiga qarab belgilanadigan qishloq xo'jaligi korxonalari to'laydigan soliq turi.

YaKKA TARTIBDAGI TADBIRKOR – yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxs.

YALPI INVESTITSIYA – ma'lum davr ichida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni vujudga keltirish uchun sarflanadigan investitsion kapitalning umumiy hajmi.

YALPI ICHKI MAHSULOT – mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan jami pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor qiymati.

O‘RTACHA UMR – chaqaloq tug‘ilgan yili mavjud bo‘lgan o‘lim darajasi, sababi va tarkibi uning butun umri mobaynida o‘zgarmas xolda saqlanib qolganda chaqalokning o‘rtacha yashash yillari.

O‘SISH SUR’ATLARI – iqtisodiy hodisa va jarayonlarning miqdor va sifat jihatidan o‘zgarish darajasi.

ILOVALAR

Pul-kredit siyosatini rivojlantirish va amalga oshirish konsepsiyasi[7]

2017 yilda boshlangan iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlari rolini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi o'rta muddatli istiqbolda bank tizimi va pul-kredit siyosatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.

Ushbu yo'nalishdagi muhim qarorlardan biri milliy valyuta almashuv kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanish tamoyillarini joriy etish orqali ichki valyuta bozorini bosqichma-bosqich liberallashtirilishi bilan bog'liq amaliy qadamlar bo'ldi.

Valyuta kursi shakllanishida tamomila yangi yondashuvdan foydalanilishi, o'z navbatida, Markaziy bankning asosiy e'tiborini ichki bozordagi narxlar barqarorligiga qaratish asnosida pul-kredit siyosatini takomillashtirish imkoniyatini beradi.

Ayni vaqtda valyuta bozorini liberallashtirish borasidagi islohotlarning muvafaqqiyatli amalga oshirilishi ko'p jihatdan pul-kredit siyosatini takomillashtirish, tijorat banklari faoliyatini mustahkamlash hamda bank tizimini rivojlantirish choralari samaradorligi bilan chambarchas bog'liq.

Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Valyuta bozorini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilinishidan ko'p o'tmay O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pul-kredit siyosatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi va Pul-kredit siyosatini 2017-2021 yillarda rivojlantirish va inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlar Kompleksi tasdiqlandi.

[7] www.cbi.uz

Bu boradagi keyingi muhim qadamlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonining qabul qilinishi bo'ldi.

Mazkur farmonda narxlar barqarorligini ta'minlash vazifasi Markaziy bankning bosh maqsadi etib belgilanib, Markaziy bankning mustaqilligi va institutsional rivojlanishini ta'minlash bo'yicha tegishli choralar nazarda tutilgan.

Qayd etish lozimki, iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yondashuvlarining qayta ko'rib chiqilishi davrida shakllanayotgan yangi voqeliklarda pul-kredit sohasidagi o'zgarishlarning aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan to'g'ri qabul qilinishi va qo'llab-quvvatlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining o'rta muddatli istiqbolda pul-kredit siyosatini rivojlantirish va amalga oshirish Konsepsiyasi kommunikatsiyalar kanalining jamoatchilik fikrini shakllantirish hamda inflyatsion targetlash rejimini amaliyotga joriy etishdagi yetakchi roli inobatga olingan holda ishlab chiqilgan.

Ushbu Konsepsiyaning maqsadi inflyatsion targetlashga o'tishning konseptual asoslarini hamda ushbu pul-kredit siyosati rejimini amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etish uchun zaruriy sharoitlar yaratish bo'yicha o'rta muddatli rejalarni keng jamoatchilikka yetkazish va batafsil tushuntirishga qaratilgan.

II. Makroiqtisodiy barqarorlik va rivojlanishni ta'minlashda pul-kredit siyosatining o'rni

Mamlakatda ichki narxlar barqarorligi ta'minlanishi makroiqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning kafolati bo'lib, iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish va rivojlantirish dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda zaruriy sharoit hisoblanadi.

Bunda inflyatsiyaning past va barqaror ko'rsatkichlari muvozanatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishlab chiqarish raqobatbardoshligi va aholini yashash darajasini oshirishning muhim omili sanaladi. Shu nuqtai nazardan, narxlar o'sish

sur'atlarining pasayishi va barqarorlashishi davlat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi kerak.

Inflyatsiyaning past va barqaror darajasi aholi hamda yuridik shaxslar omonatlarini uzoq muddatli investitsiyalarga aylanishi uchun kerakli sharoit yaratadi hamda ichki bozordagi narxlar nomutanosibligini kamaytirib mavjud iqtisodiy resurslarning samarali taqsimlanishiga xizmat qiladi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning markaziy banklari tajribalari hamda xalqaro moliya institutlari izlanishlari natijalari pul-kredit siyosatini amalga oshirishda narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadining shak-shubhasiz ustuvorligini ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, pul-kredit siyosatini amalga oshirish tartibi va ketma-ketligi turli mamlakatlarda iqtisodiyotning xususiyatlari hamda tarkibiy tuzilishiga qarab farqlanadi.

Amaldagi O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyuta barqarorligini ta'minlash hisoblanadi. Bunda "milliy valyuta barqarorligi" tushunchasini ikki xil, ya'ni almashuv kursining xorijiy valyutalarga nisbatan barqarorligi yoki uning ichki xarid qobiliyati barqarorligi deb talqin qilish mumkin.

Almashuv kursining erkin shakllanishi sharoitida milliy valyutaning barqarorligi uning ichki harid qobiliyatini saqlash orqali erishiladi.
Bunda, erkin suzib yuruvchi almashuv kursi iqtisodiyotni ichki barqarorlashtiruvchi funksiyasini bajaradi. Boshqacha qilib aytganda, to'lov balansi bilan bog'liq tashqi shok va qiyinchiliklar kuzatilganda almashuv kursining mos ravishda o'zgarishi ekportyorlar va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Ayni paytda Markaziy bank pul-kredit siyosatining asosiy maqsadini ikki xil tushunilishini oldini olish va uning faoliyati asosiy yo'nalishini aniq belgilab olish maqsadida qonunchilikka tegishli o'zgartirishlar kiritilishi ko'zda tutilgan.

Ta'kidlash lozimki, narxlar barqarorligi deyilganda nol darajadagi yoki salbiy inflyatsiya ko'rsatkichlari nazarda tutilmaydi. Narxlar barqarorligi deyilganda narxlarning turg'un holatda turishi emas, balki ularning past darajada o'sishi tushuniladi. Bir qarashda narxlarning turg'un turishi maqbul ko'rinsa-da, narxlarning past va barqaror o'zgarishi iqtisodiyotning samarali faoliyati uchun eng qulay sharoit hisoblanadi.

III. Pul-kredit siyosatini amalga oshirishning usul va mexanizmlari

(inflyatsion targetlash rejimiga o'tishning ahamiyati)

Ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash vazifasi pul-kredit siyosatini amalga oshirishning aniq strategiyasi va batafsil rejasi bo'lishini hamda maqsadli ko'rsatkichlarga erishish uchun samarali instrumentlar va mexanizmlarni talab etadi.

Pul-kredit siyosati rejimlaridan foydalanishning xalqaro tajribasi

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar markaziy banklari tomonidan keng qo'llanilayotgan usullar inflyatsion targetlash, monetar targetlash, valyuta kursini targetlash va nominal yakorsiz rejimlarni o'z ichiga oladi.

Inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichlariga erishish vazifasi aksariyat markaziy banklar uchun bosh maqsad hisoblansa-da, yuqorida qayd etilgan uslublar asosan tezkor va oraliq mo'ljallarga qarab farqlanadi.

Monetar targetlash rejimi

Pul-kredit siyosatini amalga oshirishning ushbu usulida narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadida pul agregatlari, rezerv pullar va pul massasi hajmlari o'zgarishini nazorat qilish nazarda tutiladi.

Ushbu strategiyaning samarali qo'llanilishi inflyatsiya ko'rsatkichlari va pul agregatlari o'rtasidagi mustahkam doimiy bog'liqlik bo'lishini talab etadi. Bunda

inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichlariga pul agregatlari hajmini maqbul darajada ushlab turish vositasida erishiladi.

Monetar targetlash rejimi 1970-chi va 1980-chi yillarda AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveytsariya va boshqa rivojlangan davlatlarda faol qo'llanilgan.

Shu bilan birga, so'nggi yillarda moliya bozorlarining rivojlanishi va yangi moliyaviy instrumentlarning amaliyotga joriy etilishi hisobiga pulga nisbatan talabning nobarqaror darajada bo'lishi mazkur usul samaradorligining pasayishiga olib keldi.

Natijada markaziy banklar pul massasidagi o'zgarishlarga samaralari ta'sir ko'rsatish va inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichlarini ta'minlash imkoniyati cheklanishi kuzatildi.

Pul agregatlari va inflyatsiya darajasi o'rtasidagi bog'liqlikning kuchsizlanishi tufayli ko'pchilik markaziy banklar tomonidan pul agregatlarini targetlash amaliyotidan voz kechilib, inflyatsion targetlash rejimini joriy qilinishiga sabab bo'ldi.

Monetar targetlash rejimi pul taklifi va talabining keskin o'zgarishlari kuzatilgan rivojlanayotgan va o'tish davridagi mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanishning dastlabki yillarida samarali strategiya sifatida keng ko'llanilgan. Bunda inflyatsiya bo'yicha tegishli ko'rsatkichlarni belgilashda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadlaridan kelib chiqilgan.

1994 yildan boshlab [1] O'zbekistonda amalga oshirilgan pul-kredit siyosati ham pul massasining keskin o'sib ketishini oldini olish orqali milliy valyuta barqarorligini ta'minlash maqsadlariga qaratildi. Bunda rezerv pullar va pul massasining o'zgarishi operatsion hamda oraliq mo'ljallar sifatida qo'llanildi.

Mazkur rejim rasman monetar targetlash deb tasniflansa-da, amaliyotda milliy valyutaning almashuv kursini dollarga bog'lash orqali bosqichma-bosqich devalvatsiya qilib borilganligi tufayli ba'zi xalqaro institutlar va mutaxassislar tomonidan ushbu rejim aralash turga kiritilgan.

Bir vaqtning o'zida ikki maqsadga yo'naltirilgan almashuv kursi siyosati tashqi shoklar vujudga kelgan sharoitlarda samarasiz ekanligini ko'rsatdi. Bunda bir tomondan oltin-valyuta zaxiralarini oshirish vazifasi qo'yilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan so'mning almashuv kursini ma'lum bir darajada ushlab turish maqsadi ko'zlangan. O'z navbatida, mazkur almashuv kursi to'lov balansi holati va tashqi iqtisodiy sharoitlarni o'zida aks ettirmagan.

Bunday siyosat, o'z navbatida, ichki valyuta bozorida muammolarni yuzaga keltirib, samarali pul-kredit siyosatini yuritish imkoniyatlarini pasaytirdi. Bundan tashqari, pul-kredit instrumentlaridan foydalanishning passiv rejimi monetar targetlashni samarali qo'llashda qo'shimcha qiyinchiliklar tug'dirdi.

Pul massasi o'zgarishini omillar asosida tahlili, pul massasi o'sishi turli davrlarda oltin-valyuta zaxiralarining oshishi hamda iqtisodiyotni kreditlash hajmlarining kengaytirish hisobiga ta'minlanganligini ko'rsatmoqda.

O'z navbatida, Davlat byudjetining muvozanatli ijrosi va hukumat hisobraqamlarida mablag'lar yig'ilishi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobraqamlarida mablag'larning jamlanib borilishi pul massasi o'sishini maqbullashtiruv chi omillardan bo'lgan.

Ayni paytda iqtisodiyotni kreditlashning asosiy manbalari markazlashgan mablag'lar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan moliyalashtirilganligi hamda ushbu mablag'lar asosan ishlab chiqarish texnologiyalari va xomashyo materiallarini import qilish maqsadida foydalanilganligi tufayli iqtisodiyotda pul massasi o'sishiga va mos ravishda inflyatsiya darajasiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatmagan.

Umuman olganda, ushbu omillar ta'sirida pul massasi tez sur'atlarda oshishining oldi olingan.



1-rasm. **Inflyatsiya va pul agregatlari o'zgarishi dinamikasi**

(oldingi yilning mos choragiga nisbatan, foizda)

Shu bilan birga, amalga oshirilgan tahlillar natijasida inflyatsiya darajasi, YaIM deflyatori va pul massasi o'zgarishi o'rtasida aniq va barqaror o'zaro bog'liqliklar aniqlanmadi.

Pul aylanish tezligi va pul multiplikatori ko'rsatkichlari o'zgarishi ham ushbu ko'rsatkichlar dinamikasining o'zgaruvchan xarakterga ega ekanligini, pul-kredit ko'rsatkichlarining maqsadli parametrlarini ishlab chiqishda xatoliklarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi.



2-rasm. **Inflyatsiya va pul agregatlari o'zgarishi dinamikasi**

Umuman olganda, pul massasining YalM nominal hajmiga nisbatan mo'tadil darajada o'sishi inflyatsiya bosimining sezilarli kuchayishini oldini olishga xizmat qildi. Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkichlar o'rtasida aniq bog'liqlikning mavjud emasligi rezerv pullar va pul massasi aniq darajasini hisoblash imkoniyatini bermaydi.



3-rasm. **Pul multiplikatori dinamikasi**

Masalaning yana bir muhim jihati, Markaziy bankning pul agregatlarini samarali boshqara olishi qobiliyati bilan bog'liq. Odatda, markaziy banklar rezerv pullar darajasini samarali boshqara oladilar, ammo pul massasini nazorat qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar.

Ushbu jarayon asosan dollarizatsiya darajasi yuqori bo'lgan hamda moliya bozorlari rivojlanish bosqichida turgan mamlakatlarda ko'p kuzatiladi, binobarin, bunday mamlakatlarda kredit va depozitlarga bo'lgan talab keskin o'zgarib turishi mumkin.

Pulga bo'lgan talabning o'zgaruvchanligi, keng ma'nodagi pul massasining tarkibi, dollarizatsiya darajasining yuqoriligi kabi omillar pulga bo'lgan talabni aniqlash imkoniyatini pasaytiradi.

Bunday holatda, pulga bo'lgan talab va foiz stavkalari o'rtasidagi bog'liqlik sust bo'lganligi sababli Markaziy bank uchun pul massasining maqsadli darajasini saqlab turish vazifasi murakkablashadi.

Yuqorida qayd etilgan muammolar natijasida keng ma'nodagi pullar hajmining oraliq mo'ljallardan chetlashishi Markaziy bankning pul-kredit siyosatiga bo'lgan ishonchni pasaytiradi.

Valyuta kursini targetlash rejimi

Valyuta kursini targetlash rejimi milliy valyuta ayirboshlash kursini past va barqaror inflyatsiya darajasiga ega rivojlangan davlatlar valyutasiga bog'lashni nazarda tutadi.

Shuningdek, valyuta kursini targetlashning milliy valyuta ayirboshlash kursi tebranishi mumkin bo'lgan gorizontal va shartli koridorlarni o'rnatish hamda real ayirboshlash kursini asosiy savdo hamkor davlatlar valyutalari savatchasiga nisbatan targetlash kabi turlari ham mavjud.

Valyuta kursini targetlash rejimi iqtisodiyoti eksport, ayniqsa, xom-ashyo tovarlari eksportiga bog'liq bo'lgan, shuningdek, iste'mol savatida import tovarlari yuqori ulushni tashkil qilgan mamlakatlarda faol qo'llaniladi.

Mazkur rejim iqtisodiy inqiroz kuzatilgan davrlarda inflyatsiya darajasini tez va samarali pasaytirish imkonini beradi. Bunda pul-kredit siyosati faqatgina ayirboshlash kursining maqsadli darajasini ta'minlashga yo'naltiriladi. Jumladan, valyuta kursi qadrsizlanganda qat'iy pul-kredit siyosati, valyutaning qadri maqsadli darajadan ko'proq oshganda yumshoq pul-kredit siyosati yuritiladi.

Valyuta kursini targetlash rejimi aniqligi va oddiyligi sababli aholi, xo'jalik yurituvchi subyektlari va bozorning boshqa ishtirokchilari tomonidan oson tushuniladi.

Mazkur rejimning yana bir ijobiy tomoni moliyaviy institutlar yaxshi rivojlanmagan sharoitlarda ham u o'zining samaradorligini saqlab qoladi. Bunday

vaziyatda valyuta kursiga pul-kredit siyosati choralari va valyuta intervensiyalari orqali ta'sir ko'rsatiladi.

Shu bilan birga, kapital oqimlari kuchli bo'lgan davrlarda ushbu rejimni samarali qo'llash imkoniyati cheklanadi va iqtisodiy inqiroz davrida markaziy bankning valyuta kursini barqarorlashtirish borasidagi vazifasini qiyinlashtiradi. Valyuta kursini targetlash rejimini qo'llanishi quyidagi shart sharoitlar bilan chambarchas bog'liq:

- valyuta kursining maqsadli ko'rsatkich doirasida bo'lishini ta'minlashda markaziy banklarning imkoniyati oltin-valyuta zaxiralarining hajmiga bog'liq bo'ladi. Zaxiralarning yetarlicha bo'lmasligi valyuta kursining kadrsizlanishiga olib keladi, bu esa keyingi davrlarda ham devalvatsion va inflyatsion kutilmalarni oshiradi. Bu, o'z navbatida, import narxlarining oshishiga hamda ichki valyuta bozorida cheklovlarning o'rnatilishi natijasida iqtisodiyotda xufyona valyuta bozori va turli ayirboshlash kurslarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi;

- milliy valyuta ayirboshlash kursining bir necha marta rejali devalvatsiyasi amalga oshirilganda, devalvatsion va inflyatsion kutilmalarning kuchayishi oqibatida inflyatsiya darajasi oshishi xatari yuzaga keladi;

- nominal ayirboshlash kursi qat'iy belgilanadigan sharoitda real ayirboshlash kursining oshishi to'lov balansining yomonlashishiga va iqtisodiyotda devalvatsion xatarlarning ortishiga olib keladi;

- narxlar darajasi va ayirboshlash kursiga bo'lgan bosimning kuchayishi markaziy banklarning moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi imkoniyatiga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Mazkur sharoitda barqarorlikni ta'minlashga foiz stavkalarining oshirilishi orqali erishiladi. Bu esa o'z navbatida, iqtisodiyotning real sektori rivojlanishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Xorijiy mamlakatlar, shu jumladan, mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlari tajribasi ayirboshlash kursini targetlash oltin-valyuta zaxiralarining sezilarli darajada kamayishi, kursning sun'iy ravishda ushlab turish oqibatida mahalliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligining pasayishi, eksport sektori

rivojlanishining sekinlashishi va iqtisodiyotning tashqi omillarga ta'sirchanligining oshishi kabi qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Nominal yakorga ega bo'lmagan rejim

Pul-kredit siyosatining nominal mo'ljalsiz rejimida markaziy banklar tomonidan aniq bir maqsadli nominal ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha majburiyat olinmaydi. Bunda uzoq muddatli maqsadlar sifatida iqtisodiy o'sish sur'ati, yuqori bandlik va inflyatsiyaning past darajasi kabi maqsadlar belgilanib, oraliq mo'ljallar esa keng jamoatchilikka oshkor etilmaydi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning maqsadli parametrlariga erishishda markaziy banklar tomonidan pul-kredit siyosatining turli miqdoriy mo'ljallaridan foydalaniladi.

Inflyatsiya darajasi past va kam o'zgaruvchan xarakterga ega bo'lgan hamda pul-kredit siyosati choralarining natijasi uzoq muddat talab qiladigan mamlakatlarda mazkur rejimdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Inflyatsion targetlash rejimi

Pul-kredit siyosatining inflyatsion targetlash rejimida markaziy bank tomonidan inflyatsiyaning o'rta muddatli maqsadli darajasi e'lon qilinadi va pul-kredit instrumentlari ushbu inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichiga erishishga yo'naltiriladi.

Pul-kredit siyosatini amalga oshirishning mazkur usuli ko'pgina rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda keng qo'llanilib kelinmoqda. Inflyatsion targetlash rejimi inflyatsiya darajasining o'zgaruvchanligi va inersion davomiyligini kamaytirishning samarali usuli hisoblanib, o'rta muddatli istiqbolda barqaror va muvozanatli iqtisodiy o'sishga erishish uchun kulay sharoitlarni yaratadi.

Inflyatsion targetlash rejimi dastlab 1989 yilda Yangi Zelandiyada amaliyotga joriy qilingan. Bugungi kunga kelib dunyoning 30 dan ortiq davlatlari, jumladan,

Avstraliya, Argentina, Braziliya, Buyuk Britaniya, Gruziya, Isroil, Hindiston, Kanada, Polsha, Turkiya, Shvetsiya, Yaponiya, Chexiya kabi davlatlar pul-kredit siyosatining mazkur rejimidan foydalaniladilar.

MDH mamlakatlari orasida Armaniston va Rossiyada inflyatsion targetlash rejimi qo'llanmoqda. Qozog'iston va Belarus Respublikasi markaziy banklari tomonidan o'rta muddatli istiqbolda inflyatsion targetlash rejimiga o'tish rejasi va dasturlari e'lon qilingan.

Pul-kredit siyosatini yuritishda inflyatsion targetlash rejimining tanlanilishi ushbu rejimning afzalliklari bilan bir qatorda valyuta kursi yoki pul agregatlarini targetlash rejimlarida kuzatilgan qator muammolar bilan izohlanadi.

Markaziy bankning pul-kredit siyosatining maqsadlari va asosiy yo'nalishlari, shuningdek inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichlariga erishish bo'yicha majburiyatlarining aniq belgilanishi jamiyatda ijobiy iqtisodiy kutilmalarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Inflyatsion targetlash rejimida inflyatsiya bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarga erishishda markaziy bankning yuqori darajadagi mustaqilligi talab qilinadi. Bunda makroiqtisodiy sharoitlarning o'zgarishlariga tezkor moslashuvchanlik imkoniyatining mavjudligi markaziy bankka iqtisodiyotdagi ichki muammolarga e'tibor qaratishiga imkoniyat yaratadi.

Mazkur rejimda markaziy bank faoliyati shaffofligining oshishi aholining inflyatsiya kutilmalarini pasayishiga hamda markaziy bankka bo'lgan ishonchi mustahkamlanishiga olib keladi.

Shu bilan birga, ushbu rejimga o'tish va uni samarali amalga oshirish mamlakatda muhim tashkiliy-huquqiy va makroiqtisodiy sharoitlar majmuini talab qiladi.

Xususan, past va barqaror inflyatsiya darajasiga erishish vazifasi markaziy bankning pul-kredit siyosatini amalga oshirishdagi nafaqat rasman balki amalda ham bosh maqsadi bo'lishi kerak.

Markaziy bank oraliq mo'ljal sifatida xizmat qiluvchi narxlar dinamikasidagi o'zgarishlar prognozi asosida inflyatsiya bo'yicha maqsadli ko'rsatkichga erishish

yuzasidan majburiyat oladi. Boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlar (iqtisodiy o'sish, pul massasi, ayirboshlash kursi va boshqalar) bo'yicha maqsadli mo'ljallar rasmiy ravishda qabul qilinmaydi.

Bunda markaziy bank amaldagi inflyatsiya darajasi va kutilayotgan narxlar dinamikasiga baho berishda ishonchli tahliliy va prognozlashtirish bazasiga ega bo'lishi talab etiladi. Tahlillarning sifatli bo'lishi ko'p jihatdan, ichki bozordagi narxlarning real dinamikasini o'zida aks ettiruvchi ishonchli va batafsil statistik ma'lumotlarning mavjudligini talab etadi.

Inflyatsion targetlash rejimining samaradorligi ko'p jihatdan, markaziy bankning inflyatsiya bo'yicha miqdoriy mo'ljallarni belgilash va pul-kredit instrumentlarini tanlashdagi mustaqilligi darajasi bilan bog'liq.

Shuningdek, bu rejimni qo'llashda fiskal siyosatning pul-kredit siyosatidan ustunlik qilmasligi, ya'ni pul-kredit siyosatining soliq-byudjet sohasidagi maqsadlarga qaratilmasligi talab etiladi.

Inflyatsion targetlash rejimida inflyatsiya bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarga erishishda aholi va biznes vakillarining inflyatsion kutilmalari muhim ahamiyat kasb etishi tufayli olib borilayotgan pul-kredit siyosatiga jamiyatning ishonchini mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bunda markaziy bank faoliyatining shaffofligi hamda aholi bilan muloqot tizimining kuchaytirilishi yuqoridagi vazifalar ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi. Xususan, markaziy bank doimiy ravishda statistik ma'lumotlarni chop etib, maqsadli ko'rsatkichlarga erishish yuzasidan ko'rilayotgan choralar to'g'risida jamiyat va iqtisodiyotning real sektori ishtirokchilarini xabardor qilib boradi.

Inflyatsion targetlash rejimida markaziy bankning foiz stavkasi pul-kredit siyosatining asosiy instrumenti bo'lganligi uchun mazkur rejimning natijadorligi mamlakatdagi moliya institutlari va bozorlarining rivojlanganlik darajasiga bog'liq hisoblanadi.

Bunda, markaziy bank pul bozoridagi foiz stavkalari darajasi va dinamikasiga likvidlikni taqdim etish yoki likvidlikni qaytarib olish operatsiyalari orqali ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur holatda, markaziy bank tomonidan belgilanadigan inflyatsiya o'zgarishining oraliq intervali amal qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy bank tomonidan asosiy e'tibor maqsadli ko'rsatkichlarning mazkur interval doirasida bo'lishini ta'minlashga qaratiladi.

Ushbu parametrlar bajarilmagan holatlarda markaziy bank tomonidan tafovutlarning sabablariga tushuntirish berilishi va keyingi davrda amalga oshirilishi lozim bo'lgan choralar xususida aniq pozitsiya shakllantirilishi lozim.
Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlar tajribasida inflyatsion targetlash rejimi qo'llanilishining tahlili mazkur rejimni amaliyotga joriy etish jarayonida qator muammoli holatlar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Xususan, rivojlanayotgan va MDH mamlakatlarida inflyatsiyaga ta'sir qiluvchi asosiy omillar nomonetar xususiyatga egaligi hamda ularning markaziy bank nazorati doirasidan tashqarida ekanligi pul-kredit siyosati instrumentlarini qo'llash samaradorligini sezilarli darajada cheklaydi.
Shuningdek, maqsadli ko'rsatkich sifatida haqiqiy vaziyatni o'zida aks ettiruvchi narxlar indeksining tanlanishi ham inflyatsion targetlash rejimini qo'llashning yana bir muhim talablaridan hisoblanadi.

Ayrim mamlakatlarda iste'mol baholari indeksi (IBI) o'rniga jahon bozorlaridagi narxlar o'zgarishi, ma'muriy o'rnatiladigan narxlar, mavsumiylik kabi qator omillarni istisno etuvchi indekslardan foydalaniladi. O'zgartirilgan ko'rsatkichlarning qo'llanilishi rasmiy IBI yoki YaIM deflyatori bilan tafovutlarning kelib chiqishi xatarlarini oshiradi.

Inflyatsion targetlash rejimining amaliyotga joriy qilish xususiyatlari turli mamlakatlarda bir-biridan farqlansa-da, umuman olganda, erishilgan natijalar mazkur usulning rivojlangan mamlakatlar, shuningdek, o'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlarida samarali bo'lganligidan dalolat beradi.

Inflyatsion targetlash rejimining joriy qilinishi iqtisodiy siyosatni keng ko'lamda takomillashtirishni talab etadi.

Misol uchun, Lotin Amerikasida inflyatsion targetlashning qo'llanilishi soliq-byudjet siyosatining ham qayta ko'rib chiqilishini taqozo qilgan.

Shuningdek, inflyatsion targetlash rejimini amaliyotga joriy qilgan mamlakatlarda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar sifatining yaxshilanishi, markaziy bankning texnik hamda tahliliy-prognozlashtirish imkoniyatlarining oshishi kuzatiladi.

Inflyatsion targetlashning natijadorligi ko'p jihatdan pul-kredit siyosati foiz kanali samaradorligiga bog'liqligini inobatga olib, xorijiy mamlakatlarda asosiy e'tibor moliya tizimini rivojlantirish va barqarorligini ta'minlashga qaratilmoqda.

IV. O'zbekistonda inflyatsion targetlash rejimini joriy etish istiqbollari

Barqaror iqtisodiy rivojlanish va makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish usullarining bozor instrumentlaridan foydalanish asosida tubdan qayta ko'rib chiqilishi munosabati bilan ichki bozordagi narxlar barqarorligini ta'minlash pul-kredit siyosatining bosh maqsadi sifatida belgilandi.

Bunda inflyatsiya sur'atini pasaytirish va uni past darajada saqlab turish o'rta muddatli istiqbolda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda asosiy shart sifatida qaraladi.

Ichki valyuta bozorining liberallashtirilishi pul-kredit siyosatining tamoyil va usullarini bosqichma-bosqich inflyatsion targetlashga qaratish uchun zarur bo'lgan asosni yaratadi. O'rta va uzoq muddatli istiqbolda narxlar barqarorligini ta'minlashda inflyatsion targetlash samarali usul hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida inflyatsion targetlash rejimining tanlanishi qator sabablar bilan izohlanadi. Birinchidan, bugungi kunda inflyatsion targetlash pul-kredit siyosatining ta'sirchan rejimi sifatida o'zini namoyon qilib, o'rta muddatli istiqbolda narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadiga eng muvofiq keluvchi rejim hisoblanadi.

Ikkinchidan, monetar agregatlar yoki valyuta almashuv kursini targetlash kabi rejimlarning amaliyotga qo'llanilishi tajribasi ularning O'zbekiston sharoiti va zamonaviy talablarga mos kelmasligini ko'rsatmoqda.

Xususan, valyuta almashuv kursini targetlash rejimida kursning doimiy tarzda maqsadli darajada saqlab turilishi xalqaro rezervlarni sezilarli darajada kamaytirib, valyuta inqirozining kelib chiqish xatarini oshiradi.

Valyuta almashuv kursini targetlash rejimida valyuta kursini mos ravishda o'zgartirish orqali tashqi salbiy ta'sirlarni mo'tadillashtirish imkoniyati cheklanadi. Bundan tashqari, mazkur rejimda Markaziy bankning asosiy e'tibori faqatgina valyuta almashuv kursining maqsadli darajasini ta'minlashga qaratilishi tufayli ichki maqsadlarga qaratilgan mustaqil pul-kredit siyosatini amalga oshirish imkoniyati cheklanadi.

Boshqa tomondan, iqtisodiyotni liberallashtirish va tarkibiy o'zgartirish, shuningdek, xufyona iqtisodiyotning sezilarli darajada mavjud bo'lishi sharoitlarida pul agregatlarining keskin o'zgarishi kuzatilishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, monetar targetlash rejimi doirasida maqsadli ko'rsatkichlarni o'rnatish va unga erishish vazifasini murakkablashtiradi.

Shu bilan birga, pul agregatlari va inflyatsiya orasidagi barqaror bog'liqlikning pasayishi monetar targetlash rejimi samaradorligini kamaytiradi. Mamlakatimizda valyuta siyosatini liberallashtirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar hamda narxlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha aniq maqsadlarning belgilanishi inflyatsion targetlashga o'tish uchun tayanch shart-sharoitlar yaratadi.

Xalqaro tajribaga asosan, inflyatsion targetlash rejimiga o'tish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha makroiqtisodiy sharoitlar mavjudligini va kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishini talab qiladi:

- pul-kredit siyosatini yuritish, ya'ni transmission mexanizm samaradorligini oshirish;

- valyuta bozori faoliyatini yanada liberallashtirish va takomillashtirish;

- pul-kredit siyosatining mavjud instrumentlarini takomillashtirish va yangi zamonaviy bozor instrumentlarini joriy etish;

- banklararo pul bozori faoliyatining shaffofligini oshirish va rivojlantirish;

- makroiqtisodiy prognozlash va tahlil qilish salohiyatini mustahkamlash;

- pul-kredit siyosatining pirovard maqsadi va qo'llaniladigan instrumentlar to'g'risida keng jamoatchilikni xabardor qilish maqsadida pul-kredit siyosatining aniqligi va shaffofligini oshirish;

- kommunikatsion siyosatni takomillashtirish;

- Markaziy bankning institutsional bazasini rivojlantirish;

- moliya bozorini, shu jumladan, davlat qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish;

- makroiqtisodiy siyosatni samarali muvofiqlashtirish;

- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tarkibiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish.

Umuman olganda, inflyatsion targetlashga o'tish pul-kredit siyosatining barcha asosiy yo'nalishlarini tubdan qayta ko'rib chiqish va takomillashtirishni talab qiladi. Ushbu konsepsiyada nazarda tutilgan tadbirlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi bozor mexanizmlari va instrumentlari asosida pul-kredit siyosati samaradorligini oshirish bo'yicha strategik vazifalar bajarilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Pul-kredit siyosatini amalga oshirish va rivojlantirish bo'yicha ushbu Konsepsiya o'z ichiga 2018-2021 yillar uchun mo'ljallangan chora-tadbirlar "yo'l xaritasi"ni qamrab oladi.

Mazkur yo'l xaritasini ishlab chiqishda asosiy e'tibor inflyatsion targetlashning mexanizm va tamoyillarini o'rta muddatli istiqbolda samarali joriy qilish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha choralarni amalga oshirishga qaratildi.

Pul-kredit siyosatining transmission (o'tkazish) mexanizmi

Iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlashda pul-kredit siyosati choralarining yalpi talab va inflyatsiya darajasiga samarali ta'sir mexanizmining mavjudligi xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Inflyatsion targetlash rejimida Markaziy bank inflyatsiya bo'yicha qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib, foiz stavkalarini o'zgartiradi va o'rnatadi.

Iqtisodiyotda inflyatsion xatarlar kuchayganda, Markaziy bank an'anaviy tarzda foiz stavkalarini oshirish orqali pul-kredit qat'iylashtiradi.

Ushbu choralarning iqtisodiyotning real sektoriga ta'sir qilish darajasi va muddatlari pul-kredit siyosati transmission mexanizmlarining samaradorligi bilan belgilanadi.

Pul-kredit siyosatining transmission mexanizmi o'zida Markaziy bank foiz stavkalari o'zgarishining iqtisodiy faollikka va pirovardida inflyatsiya darajasiga ta'sir o'tkazish jarayonini aks ettiradi.

Pul-kredit siyosatining iqtisodiyotga ta'siri alohida transmission kanallar orqali amalga oshiriladi. Asosiy kanallar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- foiz kanali;
- kredit kanali;
- valyuta kursi kanali;
- inflyatsion kutilmalar kanali;
- aktivlar bahosi kanali.

Foiz kanali pul-kredit siyosatining iqtisodiyotga ta'sir etuvchi an'anaviy kanali hisoblanadi. Markaziy bank foiz stavkasining o'zgarishi iqtisodiyotdagi umumiy foiz stavkalari darajasiga ta'sir ko'rsatib, investitsiya/jamg'arma darajasini o'zgartirish orqali iqtisodiyotdagi yalpi talabning o'zgarishiga olib keladi. Yalpi talabning o'zgarishi, o'z navbatida, inflyatsiya darajasiga ta'sir etadi.

Markaziy bankning asosiy foiz stavkasi va yalpi talab orasida to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'lmasada, foiz stavkasi o'zgarishining ta'siri boshqa kanallar orqali ham amalga oshadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalash stavkasining iqtisodiyotdagi foiz stavkalariga ta’siri bo‘yicha tahlillar ular orasida barqaror bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Ayni vaqtda transmission mexanizm foiz kanalining ta’sirini O‘zbekiston sharoitida cheklangangini banklararo pul bozorining shaffof emasligi va yetarlicha rivojlanmaganligi bilan izohlash mumkin.

Xususan, banklararo pul bozorida tijorat banklari faolliyatining sustligi va operatsiyalar hajmlarining kichikligi foiz kanalining samaradorligini pasaytiradi.

2017 yilning ikkinchi yarmidan Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga qisqa muddatli likvidlikni taqdim qilish operatsiyalari faollashtirildi. Lekin bunda yagona banklararo pul bozorining mavjud emasligi hamda pul-kredit instrumentlari ta’sirining cheklanganligi amalga oshirilayotgan choralar samarasini pasaytirmoqda.

Yuzaga kelgan holatdan kelib chiqib hamda pul-kredit siyosati transmission mexanizmining foiz kanalini kuchaytirish va pul bozorini samarali tartibga solish maqsadida 2018 yilning birinchi yarim yilligida qisqa muddatli pul resurslarini jalb qilish va joylashtirish bo‘yicha banklararo pul bozorining yagona elektron platformasini yaratish ko‘zda tutilgan.

Shu bilan birga, pul-kredit siyosatining transmission mexanizmining foiz kanalini mustahkamlashda zaruriyat tug‘ilganda Markaziy bank tomonidan bank tizimidagi ortiqcha likvidlikni jalb qilish bo‘yicha operatsiyalar amalga oshiriladi.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, pul-kredit siyosatining transmission mexanizmi samaradorligini ta’minlash va foiz instrumentlarini optimallashtirish maqsadida Markaziy bankning pul-kredit siyosatining asosiy ko‘rsatkichi sifatida asosiy stavka va foiz koridorini 2019 yildan amaliyotga joriy qilish ko‘zda tutilgan.

Likvidlik taqdim etish va jalb qilish bo‘yicha pul-kredit siyosati instrumentlari turlarining kengaytirilishi Markaziy bankning asosiy operatsiyalari bo‘yicha foiz koridorini shakllantirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish va unda bozor mexanizmlari ta'sirining oshib borishi bilan bir qatorda faol pul-kredit siyosatining amalga oshirilishi transmission mexanizmning foiz kanalini sezilarli darajada mustahkamlab boradi.

Kredit kanali pul-kredit siyosatining asosiy ta'sir kanallaridan biri bo'lib, ushbu kanal orqali foiz stavkasi iqtisodiyotning real sektoridagi jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mazkur kanalning samaradorligi ko'p jihatdan kredit resurslariga bo'lgan talab va taklifning Markaziy bank foiz stavkalarining o'zgarishiga nisbatan ta'sirchanligiga bog'liq hisoblanadi.

Bugungi kunda iqtisodiyotdagi pul massasi oshishining asosiy qismi kredit kanali hissasiga to'g'ri kelganligi bois, uning o'zgarishi ichki bozordagi narxlar darajasiga o'zining salmoqli ta'sir ko'rsatadi.

Xususan, 2017 yil birinchi yarim yilligida tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektorini kreditlash hajmlarining sezilarli darajada oshirilishi pul massasi o'sish sur'atining tezlashishi va iqtisodiyotdagi inflyatsion bosimning kuchayishiga olib keldi.

Iqtisodiyotni kreditlash darajasini barqarorlashtirish maqsadida 2017 yilning ikkinchi yarmidan Markaziy bank tomonidan qayta moliyalash stavkasi 14 foizgacha oshirilib, pul-kredit siyosati qat'iylashtirildi. Bu esa, o'z navbatida, kredit resurslari foiz stavkalarining oshishiga olib keldi.

Shuningdek, umumiy depozit va kreditlar tarkibida xorijiy valyutadagi depozit va kreditlar ulushining yuqoriligi hamda xufyona iqtisodiyotning mavjudligi kabi omillar iqtisodiyotni kreditlash hajmiga ta'sir ko'rsatishga asoslangan pul-kredit siyosatining samaradorligini sezilarli darajada pasaytirmoqda.

O'z navbatida, tijorat banklari tomonidan kreditlarni bozor shartlari asosida berilmasligi, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlari doirasida imtiyozli va maqsadli kreditlar berilishi kredit kanali samaradorligining pasayishiga sabab bo'lmoqda.

Bunday holatlarda Markaziy bank tijorat banklariga nisbatan prudensial nazorat talablarini kuchaytirish va pul-kredit siyosatining instrumentlaridan

oqilona foydalanish asosida milliy valyutadagi kredit va depozitlarning jozibadorligini oshirish siyosatini faol ravishda olib borishni ko'zda tutmoqda.

Markaziy bankning foiz siyosatini amalga oshirishda kredit resurslarini moliyalashtirish manbalari xususiyatlari inobatga olinib, bozor mexanizmlariga asoslanmagan kreditlar ta'sirini kamaytirish bo'yicha choralar kuchaytiriladi.

Valyuta kursi kanali. Mazkur kanal ta'siri pul-kredit siyosati shartlarining o'zgarishi natijasida almashuv kursining ichki hamda tashqi tovar va xizmatlarga bo'lgan nisbiy talabning o'zgarishi orqali namoyon bo'ladi.

Boshqa tomondan, Markaziy bank foiz stavkasining o'zgarishi milliy valyutadagi moliyaviy aktivlar daromadlilik darajasining mos ravishda o'zgarishiga olib kelib, almashuv kursiga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

Ichki valyuta bozorining liberallashtirilishi jarayonida milliy valyuta almashuv kursining devalvatsiyasi aholining inflyatsion kutilmalarini oshirib, valyuta kanalining inflyatsion kutilmalar kanali bilan aloqasini kuchaytirdi.

Bunda, inflyatsion targetlashga o'tish almashuv kursining erkin bozor sharoitida shakllanishi talab qilinishini inobatga olib, valyuta kursi kanali va aholining inflyatsion kutilmalari darajasi orasidagi aloqadorlikning muntazam ravishda kamaytirib borilishi o'rta muddatli davrdagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. *(valyuta siyosati qismida batafsil yoritilgan)*

Inflyatsion kutilmalar kanali pul-kredit siyosatining inflyatsion targetlash rejimi doirasida amalga oshirilishida inobatga olinishi lozim bo'lgan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy jarayonlar ishtirokchilari qarorlar qabul qilishlarida nafaqat real bozor sharoitlarini, balki ularning kelajakdagi o'zgarish ehtimolini ham inobatga olishlarida inflyatsion kutilmalar kanali asosiy ahamiyat kasb etadi. Xususan, korxona va tadbirkorlar narxlarni o'rnatishlari va kelajakda ish haqi o'zgarishini baholashlari uchun inflyatsion kutilmalar muhim hisoblanadi.

Shu o'rinda, mazkur kanalning asosiy xususiyati korxona va tashkilotlar tomonidan mahsulot va xizmatlar narxlarini shakllantirilishida namoyon bo'ladi.

Bunda, kelajakda inflyatsiya darajasining oshishini kutayotgan korxona va tashkilotlar narxlarni oshiradi, bu esa joriy inflyatsiya darajasining o'sishiga olib keladi.

Shuni ta'kidlash joizki, kutilmalar kanali yuqorida keltirilgan to'rtta kanallarning barchasi bilan o'zaro bog'liqdir. Masalan, pul bozoridagi foiz stavkalari dinamikasining shakllanishi ko'p jihatdan kelajakda kutilayotgan stavkalar darajasiga bog'liqdir.

Iqtisodiyotda inflyatsion kutilmalarning markaziy bank maqsadli ko'rsatkichlariga nisbatan yuqori darajada bo'lishi jamiyatda inflyatsiyani markaziy bank tomonidan to'la nazoratga olish borasidagi shubhalarni keltirib chiqaradi. Mazkur vaziyat foiz stavkasini keskin oshirish zaruriyatini tug'dirishi mumkin.

O'zbekiston sharoitida iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish va erkinlashtirish jarayonlari amalga oshirilayotgan davrda inflyatsion kutilmalar oshishi va kelajakda ma'lum muddat davomida saqlanib qolishi mumkin.

Inflyatsion targetlash rejimiga o'tish Markaziy bankning kelajakda amalga oshirilishi kutilayotgan siyosatiga jamoatchilik ishonchini oshirish va shu asnoda ijobiy inflyatsion kutilmalar shakllanishiga erishishni talab etadi.

Aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning kelajakda narxlar o'zgarishi yuzasidan kutilmalarini baholash va monitoring qilish, shuningdek, mazkur kutilmalarning xususiyatlari hamda unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni atroflicha o'rganish maqsadida 2018 yildan boshlab Markaziy bank tomonidan iste'mol narxlari dinamikasi va inflyatsion kutilmalarni o'rganish yuzasidan kuzatuvlar va so'rovlar olib borish amaliyoti joriy qilindi.

Bunda, Markaziy bank tomonidan inflyatsion kutilmalar shakllanish jarayonini o'rganish, tahlil qilish va ularni modellashtirish salohiyatini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Aktivlar narxlari kanalining inflyatsiya darajasiga ta'siri pul-kredit siyosatining o'zgarishi natijasida aktivlar narxlarining o'zgarishi tufayli kuzatiladi.

Xususan, mazkur kanal samarali amal qilgan sharoitda pul-kredit shartlarining yengillashtirilishi hisobiga davlat qarz majburiyatlari bo'yicha foiz stavkasining pasayishi moliyaviy resurslarning daromadliligi yuqoriroq bo'lgan muqobil aktivlarga qayta yo'naltirilishiga olib keladi. Natijada muqobil aktivlarning narxi va bunga mos ravishda inflyatsiya darajasining oshishi kuzatiladi.

Ta'kidlash joizki, davlat obligatsiyalari, kapital va ko'chmas mulk bozorlarining rivojlanganlik darajasi va samarali faoliyati, o'z navbatida, mazkur kanal ta'sirchanligini belgilaydigan asosiy omillardan hisoblanadi.
Bunda markaziy bank pul-kredit siyosati instrumentlarining samaradorlik darajasi mazkur siyosatdagi o'zgarishlarning (qisqa muddatli foiz stavkalari, rezerv pullar) boshqa soha va tarmoqlarga ta'siri xususiyati, tezligi va intensivligi orqali belgilanadi.

Umuman olganda, o'tkazish kanallarining amal qilishi bank va moliya sohasidagi raqobat muhiti, muqobil moliyalashtirish manbalarining mavjudligi, moliyaviy bozorlarning rivojlanganlik darajasi va samaradorligi, moliyaviy vositachilik xizmatlarining sifati va qamrovi, valyuta kursi rejimi, kapitallar harakati, investitsiya uchun xafsiz moliyaviy instrumentlarning mavjudligi kabi bir qator omillarga bog'liq.

Ichki valyuta bozorini yanada liberallashtirish va kurs siyosatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar

Inflyatsion targetlash rejimiga o'tish bozor mexanizmlari asosida erkin shakllanadigan suzib yuruvchi valyuta kursining amal qilishini talab etadi.

Bunda, Markaziy bankning valyuta siyosati va intervensiya strategiyasining aniq belgilab olinishi, shaffoflikning ta'minlanishi hamda qabul qilinayotgan qarorlarni valyuta bozori ishtirokchilari tomonidan to'liq tushunilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu munosabat bilan, ichki valyuta bozorini erkinlashtirishda milliy valyuta ayirboshlash kursining shakllanishida bozor sharoitlarini ta'minlashga qaratilgan

chora-tadbirlarning davom ettirilishi Markaziy bankning mazkur yo'nalishdagi ustuvor vazifasi bo'lib qoladi.

Ushbu maqsadda Markaziy bankning valyuta kurslari shakllanish jarayoniga aralashuvini kamaytirib borish, valyuta intervensiyasi strategiyasini erkin suzib yuruvchi valyuta kursi tamoyillari asosida takomillashtirish hamda iqtisodiyot subyektlari va valyuta bozori ishtirokchilarini yangi sharoitlarda ishlashga tayyorlab borish ko'zda tutilmoqda.

O'rta muddatli davrda Markaziy bank intervensiyalarining valyuta kursi shakllanishiga yuqori darajada ta'sir ko'rsatishining oldini olish maqsadida keyingi davrlarda amalga oshiriladigan intervensiyalar neytral xususiyatga ega bo'ladi.
Xalqaro amaliyotda valyuta bozorida almashuv kursining erkin o'rnatilishida markaziy bankning minimal ishtiroki talab etiladi. Bunda faqatgina inqirozli vaziyatlar yuzaga kelgandagina valyuta kursining keskin tebranishlarini oldini olish va valyuta bozorini barqarorlashtirish maqsadida Markaziy bank intervensiyani amalga oshiradi.

Biroq O'zbekiston sharoitida Markaziy bankning valyuta bozorida muntazam ishtirok etish zaruriyati Markaziy bank tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalardan monetar oltin va boshqa qimmatbaho metallarni bevosita sotib olinishi bilan izohlanadi.

Qimmatbaho metallarning bevosita Markaziy bank tomonidan sotib olinishi milliy valyutadagi mablag'larning to'g'ridan to'g'ri iqtisodiyotga tushishiga va inflyatsion xatarlar oshishiga olib keladi. Ayni vaqtda qimmatbaho metallarni sotishdan tushadigan valyuta mablag'lari esa ichki valyuta bozoriga tushmaydi.
Markaziy bank tomonidan qimmatbaho metallarning to'g'ridan to'g'ri xarid qilishining salbiy ta'sirini oldini olish va valyuta bozori muvozanatliligini ta'minlash maqsadida Markaziy bank valyuta bozorida tegishli miqdorlarda xorijiy valyutaning muntazam sotuvini amalga oshirib boradi.

Xalqaro amaliyotda ishlab chiqaruvchilardan qimmatbaho metallarni xarid qilish va valyuta tushumlarini ichki valyuta bozorida sotish borasidagi to'laqonli

va samarali vositachilik funksiyasini Markaziy bank tomonidan bajarilishi to'g'ridan to'g'ri intervensiya hisoblanmaydi.

Bunda Markaziy bank tomonidan xorijiy valyutaning sotilishi faqatgina vositachilik xususiyatiga ega bo'lib, Markaziy bankning valyuta bozoridagi faol ishtiroki almashuv kursini boshqarish maqsadini ko'zlamaydi hamda klassik ma'nodagi intervensiya deb hisoblanmaydi.

Bugungi kunda aholining inflyatsion kutilmalari ko'p jihatdan valyuta bozoridagi almashuv kursining dinamikasi bilan bog'liqligini inobatga olgan holda, qisqa muddatli davrda milliy valyuta kursining barqarorligini ta'minlash pul-kredit siyosatining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bunda, almashuv kursi barqarorligini ta'minlash vazifasi bevosita markaziy bankning to'g'ridan to'g'ri intervensiyalari hisobiga emas, balki quyidagi choralarni bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirish orqali ta'minlanadi:

- qisqa muddatli davrda valyuta kursi o'zgarishi tebranishlari kengligini bosqichma-bosqich oshirish yo'li bilan valyuta bozoridagi talab va taklif muvozanatiga erishish hamda valyuta bozorini ta'minlanganlik darajasini oshirish;
- pul-kredit siyosatining foiz va boshqa instrumentlarini ustuvor ravishda qo'llash hamda bank tizimida tegishli hajmdagi likvidlikni saqlab turish orqali valyutaga bo'lgan talabga ta'sir ko'rsatish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun Markaziy bank "xalqaro valyuta zaxiralarining neytralligi" tamoyiliga amal qiladi, ya'ni ishlab chiqaruvchilardan qimmatbaho metallarni xarid qilish natijasida bank tizimiga tushgan milliy valyutadagi mablag'larning sterilizatsiyasini amalga oshiradi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotda mavjud yuqori inflyatsion bosimning milliy valyuta kursi barqarorligiga salbiy ta'sirini inobatga olib, kelajakda valyuta kursining barqarorligini ta'minlash ko'p jihatdan inflyatsiya darajasini pasaytirishga bog'liq bo'ladi.

Real almashuv kursining muvozanatli darajasini ta'minlash uchun valyuta kursining dinamikasi ichki bozordagi hamda asosiy savdo hamkor mamlakatlardagi narxlar darajasining o'zgarishini o'zida aks ettirishi kerak.

Ushbu jihatlar hamda valyuta bozorining joriy rivojlanganlik darajasini inobatga olgan holda, Markaziy bank intervensiya siyosatida dastlabki bosqichlarda asosiy e'tibor fundamental omillar emas, balki qisqa muddatli davrda valyuta bozorida talab va taklifning nomuvofiqligi natijasida yuzaga keladigan valyuta kursidagi keskin tebranishlarning oldini olishga qaratiladi.

O'rta muddatli istiqbolda ichki valyuta bozorini rivojlantirish vazifasiga valyutani tartibga solish va valyuta kursi shakllanishini liberallashtirish, jumladan, almashuv kursi tebranishi chegaralarini oshirish vositasida erishiladi.

Bu, o'z navbatida, valyuta bozorining rivojlanish va ta'minlanganlik darajasini oshirishga hamda valyutaga bo'lgan talab va taklifning muvozanatiga erishish uchun bozor mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Valyuta svopi, valyuta opsionlari, fyucherslar va shu kabi instrumentlarni amaliyotga joriy qilinishi valyuta bozorini rivojlantirish va valyuta almashuv kursi barqarorligini ta'minlash uchun qo'shimcha imkoniyatlarni yaratadi.

Amaldagi pul-kredit siyosati instrumentlarini takomillashtirish va zamonaviy bozor insturmentlarini joriy etish

Inflyatsion targetlash rejimiga o'tish jarayonida samarali pul-kredit siyosatini amalga oshirish, o'z navbatida, pul-kredit siyosati instrumentlari ta'sirini cheklovchi omillarni aniqlash va bartaraf qilishni talab etadi.

Iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlash vazifasi pul-kredit siyosati instrumentlari samaradorligiga hamda uning transmission mexanizmini ko'rilayotgan choralarni iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga o'z vaqtida va to'liq o'tkazish imkoniyatiga bog'liq.

Pul-kredit siyosatini rivojlantirishning hozirgi bosqichida zamonaviy pul-kredit instrumentlarini joriy etish, amaldagilarini takomillashtirish va ularning ta'sir mexanizmini mustahkamlash, shuningdek ichki iqtisodiy cheklovlarni

bartaraf etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishga ustuvor ravishda e'tibor qaratiladi.

Majburiy zaxira talablari

Yangi iqtisodiy voqelikda pul-kredit instrumentlaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari kompleksida majburiy zaxira talablarini takomillashtirish ham ko'zda tutilgan. Bunda, amaldagi majburiy zaxiralash tartibi banklarning likvidligiga qo'yilgan prudensial talablarni hisobga olgan holda zaxiralash me'yorlari, valyutasi va hisoblash bazalarini optimallashtirish orqali takomillashtiriladi.

Majburiy zaxiralashning amaldagi tartibiga muvofiq, zaxiralash valyutasi tijorat banklari tomonidan mustaqil tanlanadi. Mazkur amaliyot banklarga valyuta aktivlarini majburiy zaxiraga yo'naltirish orqali saqlash va buning natijasida bo'shaydigan milliy valyutadagi mablag'lardan foydalanish imkoniyatini yaratmoqda.

Bugungi kunda tijorat banklarining Markaziy bankdagi majburiy zaxiralari tarkibida xorijiy valyutaning ulushi umumiy summaning 90 foizidan ziyodini tashkil etayotganligi ushbu instrumentning so'm likvidligini tartibga solish samaradorligini pasaytirmoqda.

Natijada tijorat banklari milliy valyutadagi qo'shimcha moliyaviy resurslarga ega bo'lishi pul-kredit siyosati instrumentlari ta'sirchanligining kamayishiga hamda bank tizimi likvidligini boshqarishdagi majburiy zaxiralash instrumenti samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda.

Xalqaro tajribani o'rganish natijalari mazkur instrument samaradorligini oshirish va qo'llanilayotgan me'yorlarning bank tizimi likvidligiga ta'sirini aniq baholash maqsadlarida tijorat banklari tomonidan zaxiralash valyutasini erkin tanlash imkoniyatini chegaralash maqsadga muvofiqligini ko'rsatmoqda.

Majburiy zaxiralar shakllantiriladigan majburiyatlar ro'yxatini qayta ko'rib chiqilishi, jumladan, ro'yxatga jismoniy shaxslar depozitlari va boshqa moliyaviy

resurs manbalarining kiritilishi zaxiralash tartibidagi mavjud tafovut va nomutanosibliklarni kamaytirish imkonini beradi.

Depozit va kreditlarlarning umumiy hajmida xorijiy valyutadagi depozit va kreditlar ulushining yuqoriligi pul-kredit siyosati instrumentlarining samaradorligini cheklovchi yana bir omil hisoblanib, amaldagi majburiy zaxiralash tartibining takomillashtirilishini taqozo qiladi.

Shu bilan birga, Bazel III qoidalarida ko'zda tutilgan talablardan tashqari banklar likvidligiga qo'shimcha prudensial talablarning o'rnatilishi majburiy zaxiralash me'yorlarining aniq ta'siriga baho berishni qiyinlashtiradi.
Bu borada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan takrorlanishlarning oldini olish maqsadida zaxiralash talablariga tegishli tuzatishlar kiritilishi talab etiladi.
Majburiy zaxiralash tartibini takomillashtirish va talablarning maqsadli darajalarini belgilashda bank tizimidagi likvidlik hajmi va tijorat banklarining moliyaviy holati hisobga olinadi.

Shuningdek, iqtisodiyotdagi inflyatsion xatarlarning pasayib borishini va bank tizimidagi mavjud vaziyatni hisobga olgan holda majburiy zaxira talablarini o'rtachalash tartibini joriy etish masalasi ko'rib chiqiladi. Bu esa, o'z navbatida, banklarning moliyaviy holatini mustahkamlashga va moliyaviy resurslarning qiymatini maqbullashtirishga xizmat qiladi.

Pul-kredit siyosatining foiz instrumentlari

Inflyatsion targetlash rejimida pul-kredit siyosatining foiz instrumentlaridan foydalanishda asosiy e'tibor tijorat banklarining likvidligini boshqarish maqsadlariga qaratiladi. Bunda bozor instrumentlarini qo'llashni faollashtirish vazifalaridan kelib chiqib, Markaziy bank foiz instrumentlarining samaradorligi oshirib boriladi.

Xususan, ularning ta'sirini oshirish maqsadida likvidlik taqdim etish va tijorat banklarining mablag'larini Markaziy bank depozitlariga jalb qilish operatsiyalarining turlari va hajmlarini kengaytirish nazarda tutilgan.

Pul-kredit siyosatining asosiy mo'ljali sifatida monetar operatsiyalar bo'yicha asosiy stavka va foiz koridori joriy qilinishi Markaziy bankning foiz instrumentlari ta'sirchanligini oshirish imkonini yaratadi.

Bundan tashqari, xalqaro tajribani hisobga olgan holda, pul-kredit siyosatining operatsion parametrlari qaytadan ko'rib chiqiladi.

Kelajakda Markaziy bankning garov asosida kreditlash operatsiyalari muddatlari qayta ko'rib chiqilib, ularning turlari optimallashtirilib umumlashtiriladi. Shu bilan birga, tijorat banklariga milliy valyutadagi ortiqcha zaxiralarni joylashtirish imkonini beruvchi depozit sxemalari joriy qilinib, bu foiz koridorining pastki chegarasini saqlab qolinishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, tijorat banklari likvidligini qo'llab-quvvatlash maqsadida garov ta'minoti turlari va tartibini kengaytirish orqali likvidlik berish mexanizmini takomillashtirish ko'zda tutilmoqda.

Bank tizimidagi qisqa muddatli likvidlikni sifatli prognozlash masalasi pul-kredit siyosatining foiz instrumentlaridan samarali foydalanishda katta ahamiyat ega. Mazkur yo'nalishda Markaziy bankning prognoz-tahlil imkoniyatlarini kuchaytiriladi, bu borada Moliya vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik va axborot almashinuvi yanada mustahkamlanadi.

Ochiq bozor operatsiyalari

Markaziy bank tomonidan bank tizimidagi likvidlikni tartibga solishning asosiy bozor instrumentlaridan biri ochiq bozor operatsiyalari hisoblanadi.

Pul-kredit siyosatining faol bosqichga o'tish sharoitida bank tizimidagi likvidlikning maqsadli operatsion ko'rsatkichlarga mosligini ta'minlashda ochiq bozor operatsiyalarini doimiy ravishda o'tkazib borish ko'zda tutilmoqda. Ochiq bozor operatsiyalari strategiyasini ishlab chiqishda quyidagilarga ustuvor ravishda e'tibor qaratiladi:

- operatsion maqsadlarga erishish;
- likvidlik oqimlarining keskin tebranishlarini qisqartirish;

- pul bozoridagi foiz stavkalarini Markaziy bank foiz stavkasiga yaqin darajada shakllanishini ta'minlash;

- instrumentlarning harajat va foydaliligining maqbul nisbatiga erishish;

- bozorni yanada rivojlantirish va boshqalar.

Bunda, ochiq bozor operatsiyalarida foydalaniladigan instrument turlarini Markaziy bank tomonidan bosqichma-bosqich ko'paytirilib boriladi.

Xususan, Markaziy bank iqtisodiyotdagi va bank tizimidagi holatdan kelib chiqib, ochiq bozor operatsiyalari turlari va hajmlarini belgilaydi, ular qatoriga:

- o'zgarmas va o'zgaruvchan stavkada cheklangan hajmdagi kimoshdi savdolari;

- garov ta'minoti asosida milliy valyutada kreditlar berish;

- davlat qarz majburiyatlari chiqarilishi bilan ular bo'yicha RYePO operatsiyalari;

- milliy valyutadagi muddatli depozitlar va boshqalar kiradi.

Ochiq bozor operatsiyalarini o'tkazishda asosiy e'tibor o'tkaziladigan operatsiya muddatlarining likvidlik maqsadli darajasi bilan muvofiqlashtirish, bozorni yanada rivojlantirish, operatsiyalarni amalga oshirish jarayonlarining ishonchliligi va shaffofligini ta'minlash qabi vazifalarga qaratiladi.

Qayd etish lozimki, respublikamizda 1996 yildan 2011 yilgacha davlat qimmatli qog'ozlari muomalaga chiqarilib ular tijorat banklari o'rtasida joylashtirilgan. 2012 yilga kelib davlat qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarilishi to'xtatilgan.

Davlat qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish, joylashtirish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha barcha imkoniyatlar mavjud bo'lib, bu borada yetarlicha tajriba shakllangan.

Xalqaro amaliyotda davlat qimmatli qog'ozlarining doimiy muomalada bo'lishi nafaqat davlat byudjeti defitsitini moliyalashtirishning maqbul yo'li, balki mamlakat moliya bozorini rivojlantirishning muhim instrumenti bo'lib hisoblanadi.

O‘z navbatida, Markaziy bank ochiq bozor operatsiyalarini faollashtirish maqsadida 2018 yilda davlat qimmatli qog‘ozlarini muomalaga chiqarish borasida Moliya vazirligi bilan tegishli tadbirlarni amalga oshiradi.

Shu bilan birga, Markaziy bank operatsiyalarini takomillashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish ishlari davom ettiriladi.

Ta’sirchan foiz siyosatini amalga oshirishda banklararo pul bozorining samarali ishlashi muhimligini inobatga olib, Markaziy bank ushbu bozorning har tomonlama rivojlanishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratishga alohida e’tibor qaratadi.

Xususan, 2018 yilda qisqa muddatli likvidlik berish jarayonini takomillashtirish maqsadida banklararo pul bozorining yagona elektron platformasini ishga tushirish ko‘zda tutilmoqda.

Ushbu tadbirning amalga oshirilishi tijorat banklarining bo‘sh pul mablag‘lari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yagona platformaga jamlash va bozor ishtirokchilari uchun foiz stavkalari dinamikasini kuzatish imkonini yaratadi hamda foiz stavkalarining bozor mexanizmlari asosida shakllanishiga xizmat qiladi.

Ayni vaqtda yagona elektron platforma Markaziy bankning bozor operatsiyalari orqali qisqa muddatli foiz stavkalariga tezkor ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytiradi va pul-kredit siyosati uzatish mexanizmining foiz kanali ta’sirini kuchaytiradi.

Shaffoflikni oshirish va komunikatsion kanalni takomillashtirish

Inflyatsion targetlash rejimida pul-kredit sohasida amalga oshiriladigan choralar shaffofligini oshirishga va asossiz inflyatsion kutilmalarning oldini olishga qaratilgan kommunikatsion kanalining amal qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shundan kelib chiqqan holda, Markaziy bank qabul qilinayotgan qarorlar sabablari hamda mohiyatini elektron va bosma ommaviy axborot vositalari orqali aholi va biznes hamjamiyatiga tushuntirish bo'yicha faol ish olib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Xalqaro valyuta jamg'armasining ma'lumotlarni tarqatish umumiy tizimiga (MTUT) qo'shilishi hamda Markaziy bankning alohida mavzularga bag'ishlangan nashrlari sonining ko'paytirilishi shaffoflikni oshirish va komunikatsion kanalni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Pul-kredit siyosati sohasida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar va kutilayotgan natijalarni keng jamoatchilikka yetkazish va ular tomonidan ma'lumotlarni to'g'ri qabul qilinishini ta'minlash maqsadida e'lon qilinadigan axborotlarda soha mutaxassisi bo'lmaganlar uchun tushunarli bo'lgan til va atamalardan foydalaniladi.

Shu bilan birga, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish borasida olib borilayotgan ishlar ko'lami kengaytirib boriladi.

Tahlil va prognozlash salohiyatini mustahkamlash

O'rta muddatli istiqbolda inflyatsion targetlashga o'tish Markaziy bankning tahliliy va prognozlash salohiyatini mustahkamlashni hamda bosqichma-bosqich takomillashtirib borishni talab qiladi.

Pul-kredit siyosatini amalga oshirishning aniq strategiyasini ishlab chiqish va uning instrumentlaridan samarali foydalanish vazifasi ko'p jihatdan Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan tahlil va prognozlar sifatiga bog'liq.

Puxta ishlab chiqilgan makroiqtisodiy prognozlarga asoslangan pul-kredit siyosati ichki moliya bozorlaridagi noaniqliklarni kamaytiradi, qabul qilinayotgan qarorlar mohiyatini tushuntirishni yengillashtiradi va uning yo'nalishlarini oldindan aniqlash imkonini yaratadi.

Bugungi kunda Markaziy bank xalqaro amaliyotlar asosida prognozlash ishlarini tashkil etishning boshlang'ich bosqichida turibdi. Bunda inflyatsiya

darajasini prognozlashning dastlabki modellarini tuzish borasida ilk qadamlar tashlangan.

Xususan, ARIMA (avtoregressiya – suzuvchi o'rtachaning integrallashgan modeli) modelida iste'mol narxlarining guruhlashtirilgan indeksini qo'llash va sinovdan o'tkazish boshlandi.

Shu bilan birga, OLS (eng kichkina kvadratlar usuli) i VAR (vektorli avtoregressiya) modellari ham qo'llanmoqda.

Ushbu modellarni qo'llash o'tgan davrdagi ma'lumotlarga asoslanganligi bois oldingi yillardagi statistik ma'lumotlarning sifati ishonchli prognozlarni ishlab chiqishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, prognozlashning zamonaviy tizimini shakllantirish bilan bir vaqtda statistik ma'lumotlarning ishonchli bazasini yaratish bo'yicha ish olib borilmoqda.

2018-2021 yillarda inflyatsiya va bank tizimidagi likvidlilikni omillar bo'yicha tahlil qilish, to'lov balansi statistikasini zamonaviy usullar asosida tuzish, asosiy makroiqtisodiy hamda pul-kredit ko'rsatkichlarini prognozlash va modellashtirish instrumentlarini takomillashtirish bo'yicha ishlar yanada kuchaytiriladi.

Zaruriy ma'lumotlar bazasini shakllantirish bilan bir qatorda yarimtarkibiy va tarkibiy modellar asosida qo'llaniladigan modellar ro'yxatini kengaytirish ko'zda tutilmoqda.

Shu bilan birga, Markaziy bank tomonidan 2018 yildan boshlab iqtisodiyotdagi inflyatsion kutilmalarni aniqlash borasida o'tkazilayotgan so'rovlar va kuzatuvlar inflyatsion xatarlarni chuqur o'rganish, pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va samarali amalga oshirishda ko'mak beradi.

Narxlarning shakllanish jarayonini har tomonlama o'rganish, shuningdek, nomonetar omillar ta'sirida vujudga kelishi mumkin bo'lgan inflyatsion xatarlarni oldindan aniqlash va ularning ichki narxlar barqarorligiga ta'sirini pasaytirish

maqsadida Hukumat va tegishli vazirliklar bilan hamkorlik munosabatlari takomillashtirib boriladi.

Markaziy bank xalqaro moliya institutlari va xorijiy mamlakatlar markaziy banklari bilan ham hamkorlikni sifat jihatdan yangi darajada davom ettiradi.

Pul-kredit siyosatini takomillashtirish va uning instrumentlari rolini kuchaytirish, bank tizimi likvidligini tahlil qilish va prognozlash hamda pul bozoridagi operatsiyalar samaradorligini oshirish maqsadida 2018-2021 yillarda Xalqaro valyuta jamg'armasining maxsus texnik missiyalarini jalb qilish, xorijiy mamlakatlar markaziy banklari ilg'or tajribasini o'rganish va o'zaro tajriba almashish amaliyotini kengaytirish ko'zda tutilmoqda.

Prudensial nazorat choralari

Bank tizimining moliyaviy mustahkamligi va barqarorligini ta'minlashga qaratilgan bank nazorati choralarining samarali qo'llanilishi, pul-kredit siyosati ta'sirini oshirishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi.

Bank nazoratini xalqaro amaliyot va andozalarga muvofiq holda takomillashtirilishi, bank tizimida raqobat muhitining kuchayishi hamda tijorat banklarining kredit siyosatida bozor mexanizmlarini keng qo'llashni davom ettirilishi, o'z navbatida, bank tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlayda va pul-kredit siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

V. Pul-kredit siyosatining oraliq rejimi

Xorijiy mamlakatlarning inflyatsion targetlashga o'tish tajribasi ushbu rejimga o'tishga tayyorgarlik ko'rish bosqichining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

Inflyatsion targetlash rejimiga o'tish tadbirlarini yakunlash uchun talab etiladigan uzoq muddatni inobatga olib oraliq davrda amalga oshiriladigan pul-

kredit siyosati narxlar barqarorligini ta'minlash va zaruriy makroiqtisodiy sharoitlarni yaratish chora-tadbirlarini qamrab oladi.

Inflyatsion targetlashga o'tish davrida asosiy e'tibor 2017-2021 yillarda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish va inflyatsion targetlash tizimiga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlar Kompleksida ko'zda tutilgan rejalarni to'laqonli bajarilishini ta'minlashga, iqtisodiy islohotlar davrida inflyatsion bosim va risklarning oldini olishga hamda iqtisodiy-huquqiy bazani mustahkamlashga qaratiladi.

Xususan, qonunchilik asoslarini mustahkamlash borasidagi tadbirlar "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi va "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunlarga, shuningdek boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni o'z ichiga oladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarga kiritiladigan o'zgartirishlar asosan quyidagilarni nazarda tutadi:

- Markaziy bank operatsion faoliyati mustaqilligini mustahkamlash va narxlar barqarorligini ta'minlash vazifasini Markaziy bankka yuklash;

- valyutani tartibga solishning ustuvor yo'nalishlarini va aniq me'yorlarini o'rnatish, shuningdek valyuta bozorini rivojlantirish hamda uning bir maromda faoliyat yuritishi uchun zaruriy sharoitlar yaratish;

- bank faoliyatini tartibga solishning bozor mexanizmlari va tamoyillarini qo'llashni kengaytirish, shuningdek sohada raqobat muhitini kuchaytirishning kafolatlari hamda sharoitlarini ta'minlash va boshqalar.

Oraliq davrda amalga oshiriladigan asosiy vazifalardan biri Markaziy bankning valyuta bozorida market-meykerlik rolini pasaytirgan holda, valyuta bozorini rivojlantirish hamda almashuv kursi barqarorligini ta'minlashning bozor mexanizmlariga o'tish hisoblanadi.

Bozor mexanizmlari ta'sirida almashuv kursining moslashuvchanligini oshirish, o'z navbatida, ichki valyuta bozorining kengayishi va rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu maqsadlarda oltin-valyuta rezervlarini maqsadli darajada saqlash bilan bir qatorda valyuta bozorida qimmatbaho metallarni sotishdan tushgan xorijiy valyutadagi daromadlarni muntazam ravishda sotish dasturini ishlab chiqish va joriy etish ko'zda tutilmoqda.

Inflyatsion targetlash rejimiga o'tish uchun tayyorgarlik davrida Markaziy bankning ustuvor vazifasi samarali antiinflyatsion siyosat olib borish hisoblanadi. Ushbu maqsadga Markaziy bank instrumentlaridan moslashuvchanlik bilan foydalanish orqali qat'iy pul-kredit sharoitlarini saqlab turish orqali erishiladi.

Pul-kredit sharoitlari hamda inflyatsiya darajasini tahlil qilish, baholash va prognozlash ishlari ko'rsatkichlarning keng to'plamlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bunda, narxlarni barqarorlashtirish siyosatini olib borishda asosiy ta'sir kanallarini aniqlash vazifasiga alohida e'tibor qaratiladi.

Shu bilan birga, pul-kredit siyosatining bozor instrumentlari turlarining kengayib borishi bilan bir qatorda maqsadli parametrlarga erishishga yo'naltirilgan monetar operatsiyalar faollashtirilib, hajmlari mutanosib ravishda oshirilib boriladi. 2017-2021 yillarda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish hamda inflyatsion targetlash tizimiga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlar Kompleksida keltirilgan vazifalarning amalga oshirilishi, o'z navbatida, moliya bozorlari rivojlanishiga xizmat qilib, pul-kredit siyosatining ta'sir kanallarini mustahkamlashga yordam beradi.

Shuningdek, ushbu davrda inflyatsiyani modellashtirish va prognozlash ishlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi hamda shu asnoda pul-kredit siyosati instrumentlarini takomillashtirish borasidagi qarorlar qabul qilish jarayonining sinovi amalga oshirib boriladi. Modellar takomillashtirilishi bilan inflyatsiyaning maqsadli miqdoriy ko'rsatkichlari belgilanadi.

Umuman olganda, pul-kredit siyosatining oraliq rejimi inflyatsion targetlash rejimiga o'tishga tayyorgarlik ko'rish maqsadida pul-kredit siyosatining barcha jarayonlari va uning instrumentlarini qayta ko'rib chiqish hamda takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar majmuini qamrab oladi.

VI. Inflyatsion targetlash rejimini joriy qilish bo'yicha mavjud muammolar, xatarlar va cheklovlar

Inflyatsion targetlashga o'tishning huquqiy asoslari yaratilganligi hamda pul-kredit siyosatining tamoyil va mexanizmlarini amaliy jihatdan qayta ko'rib chiqish jarayonining boshlanganligiga qaramasdan, ushbu rejimga to'laqonli o'tish qator xatar va cheklovlar hisobiga qiyinlashadi.

Xususan, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlar inflyatsion kutilmalarining barqaror yuqori darajada saqlanib qolayotganligi inflyatsion targetlashga muvaffaqiyatli o'tish jarayonidagi asosiy cheklovlardan biri hisoblanadi. Bunda iqtisodiyotning barcha sektorlarini erkinlashtirish davrida inflyatsion bosimning oshishi inflyatsion xatarlar saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Inflyatsion kutilmalarning o'tgan yillardagi narxlar dinamikasi asosida shakllanishini hisobga olganda, iqtisodiyotdagi inflyatsion kutilmalarni pasaytirish va barqarorlashtirish o'tish davridagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Inflyatsiyaga nomonetar omillar ta'sirining yuqori bo'lganligi sababli ushbu vazifalarni amalga oshirish yanada qiyinlashadi va inflyatsion targetlashga muvaffaqiyatli o'tishda qator to'siqlarni vujudga keltiradi.

Bunday omillar qatoriga ayrim tovarlar bo'yicha ma'muriy tartibga solinadigan narxlarning saqlanib qolishi, mahalliy bozorlarning mono-pollashganligi, xomashyo narxlarining yuqoriligi, jahon iqtisodiyotining tiklanayotganligi munosabati bilan inflyatsiyaning import qilinishi, ishlab chiqarish samaradorligining pastligi va energiya sarfining yuqoriligi, infratuzilmaning yaxshi rivojlanmaganligi va boshqalar kiradi.

Mazkur sharoitlarda inflyatsion targetlash rejimining samaradorligi Markaziy bank kommunikatson siyosatining ta'sirchanligi hamda aholining amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosatiga nisbatan ishonchiga bog'liq bo'ladi. Bunda narxlar o'sishining sabablari va narxlar barqarorligini ta'minlash borasida ko'riladigan choralarni aholiga tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, valyuta bozorining shakllanishi sharoitida valyuta siyosati va tashqi iqtisodiy faoliyatning liberallashtirilishi jarayonlarining davom ettirilishi bilan bog'liq xatarlar ham kuzatiladi.

Bunda erkin suzib yuruvchi valyuta kursiga o'tishda valyuta kursining qisqa muddatli keskin tebranishlarini yumshatish va valyutani xedjirlash instrumentlarini rivojlantirish orqali salbiy oqibatlarni kamaytirish muhim hisoblanadi.

Ushbu maqsadlarga erishish, pul-kredit siyosati instrumentlarining ta'sirchanligi hamda samaradorligini kamaytiruvchi sabablarni bartaraf etish bilan uzviy bog'liq.

Moliya sektorining institutsional jihatdan sust rivojlanganligi va yashirin iqtisodiyotda katta hajmdagi naqd pul mablag'lari aylanmasining mavjudligi Markaziy bank pul-kredit siyosatining samaradorligini pasaytiruvchi omillardan hisoblanadi.

Davlat qarz majburiyatlarining muomalada mavjud emasligi Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalarini amalga oshirish hamda bank sektorining ushbu qarz instrumentlaridan garov ta'minoti sifatida foydalanib, qisqa muddatli likvidlikni jalb qilish imkoniyatlarini cheklaydi.

So'nggi yillarda Davlat byudjeti balanslashgan holda ijro etilishi sharoitida davlat qarz majburiyatlarini chiqarishning obyektiv sabablari mavjud emasligiga qaramasdan, investitsion, shu jumladan, hududiy va tarmoqlar rivojlanish dasturlarini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash va maqbullashtirishda qarz qimmatli qog'ozlarining afzalligi ularni yaqin istiqbolda muomalaga chiqarish uchun asos bo'lishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy xatarlar ko'p jihatdan eksport tarkibi va iqtisodiyotga valyuta tushumlari dinamikasi bilan bog'liq hisoblanadi. Bunday holatlarda, qimmatbaho metallar bozoridagi narxlar o'zgarishi hisobiga hamda qo'shni mamlakatlar va asosiy savdo hamkor davlatlardagi iqtisodiy muammolar natijasida yuzaga keluvchi xatarlarni minimallashtirish talab etiladi.

VII. Yakuniy qism

Milliy iqtisodiyot xususiyatlarini inobatga olgan holda, pul-kredit siyosati rejimlarining o'ziga xos jihatlari va ta'sirchanligi tahlili o'rta muddatli istiqbolda Markaziy bankning ustuvor maqsadi sifatida narxlar barqarorligiga erishish vazifasiga inflyatsion targetlash rejimi juda mos kelishini ko'rsatmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, pul-kredit siyosatini amalga oshirishning tamoyil va usullarining inflyatsion targetlashga bosqichma-bosqich yo'naltirish uchun zaruriy huquqiy asoslar va tayanch iqtisodiy sharoitlar yaratildi.

Xususan, valyuta siyosatining liberallashtirilishi va bozor sharoitlarida almashuv kursining shakllanishini ta'minlash bo'yicha choralar, Markaziy bankning ustuvor maqsadlari va amaliy mustaqilligini aniq belgilanishi, pul-kredit siyosatini amalga oshirishning faol bosqichiga o'tilishi, inflyatsiyani hisoblash va baholash usullarini takomillashtirilishi, shuningdek shaffoflikning oshirilishi va kommunikatsion siyosatning kuchaytirilishi kabi amaliy choralar inflyatsion targetlashga o'tish uchun asosiy sharoitlarni yaratadi.

Shu bilan birga, mavjud xatarlar va to'siqlar inflyatsion targetlash rejimini joriy etish vazifasining bajarilishini qiyinlashtiradi. O'z navbatida, Markaziy bank asosiy e'tiborni prognozlash va tahliliy bazani mustahkamlashga, pul-kredit siyosati instrumentlarini takomillashtirish va ularning ta'sir kanallarini kuchaytirishga, komunikatsion siyosatni rivojlantirish va aholining ishonchini oshirish kabi vazifalarga qaratadi.

Markaziy bank ushbu rejimga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda tegishli vazirlik va idoralar bilan sa'y-harakatlarni birlashtiradi va hamkorlikda faoliyat yuritadi.

Umuman olganda, inflyatsion targetlashga o'tish pul-kredit siyosati sohasining barcha jihatlarini tubdan qayta ko'rib chiqish va takomillashtirishni talab etadi. Bu esa, o'z navbatida, uzoq muddatli istiqbolda barqaror iqtisodiy o'sishning asosi bo'lgan makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda sifat jihatdan yangi bosqichga o'tilishini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to'g'risida"gi Qonuni, 1995yil. 21 dekabr / O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami.T.: O'zbekiston, 2003. 7-29 b.

2. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni,. 1996 yil. 25 aprel. / O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonun hujjatlari to'plami.T.: O'zbekiston, 2003., 30-48 b.b.

3. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonuni.// Xalq so'zi. 2000 14-dekabr

4. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari

1. . Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 104 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 48 b. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi – T.: Ózbekiston, 2014. – 46 b.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2010 yil 26 fevral, PF-4191-son // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami – 9 son – 2010, 9 mart.

V. Darsliklar va O'quv qo'llanmalari

25. Абел Е., Бернанке Б. Макроэкономика. СПб.: Питер, 2008. – 768 с.

26. Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика: Учебник. Под общ. Ред. А.В.Сидоровича. М.: МГУ им. Ломоносова, Издательство «Дело и Сервис», 2015. – 455 с.

25.Axmedov D.Q., Ishmuxamedov A.E., Jumaev Q.X., Djumaev Z.A. Makroiqtisodiyot. - T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining Adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004 - 240 b.

26. Вечканов Г.С., Вечканова Г.Р. Макроэкономика; Учебник для вузов, Питер, 2009.- 350 с.

27. Mankiw N.Gregori. Macroeconomics. Harvard University. NY.: Worth Publuthers, 2018. -602 b.

28.Мариганова Е.А., Шапиро С.А. Макроекономика. Експресс курс.: учебное пособие- М.: КНОРУС, 2010.-302 с.

29. Менкю Н.Г. Принципи макроекономики: 4-е изд./ Пер.с анг. – СПб.: Питер, 2009. - 544 с.

30. Самуелсон, Пол Е., Нордхаус, Вилям Д. Макроекономика,18-е изд.: М.: И.Д. Вилямс, 2009.-592 с.

Макроэкономика. Теория и российская практика: Учебник / под ред. А.Г.Грязневой и Н.Н. Думной. М.: КНОРУС, 2008.- 688 с.

31. Тарсевич Л.С., Гребников П.И., Лусский А.И. Макроекономика:Учебник. М.: Высшее образование, 2006, 654 с.

32. Ивашковский С.Н. Макроэкономика: Учебник. - 2-е издание. М.: Дело, 2002.,- 472 с.

33. Ishmuhamedov A.E., Djumayev Z.A, Jumayev Q. X. Makroiqtisodiyot. (O'quv qo'llanma).-T.: O'zbekiston Yozubchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. -192 b.

VII. Statistik ma'lumotlar to'plamlari

46.O'zbekiston iqtisodiyoti. 2016 yil uchun axborot tahliliy byulleten, T.,avgust 2017 y.- 90 b.

47. Статистическое обозрение Узбекистана за 2017 г., Т.: ГКС Республики Узбекистан. 2018., 42 с.

48. "O'zbekiston Iqtisodiyoti". Axborot va tahliliy sharh 2016 yil. T.: 2017 y. Avgust, 128 b.

49. Узбекистан в цифрах. Статистическое обозрение Республики Узбекистан за 2016 г. , Т., ГКРУ по статистике ., 2017., 192 с.

VIII. Internet saytlar

51. http:// www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti.

52. http://www.mineconomi.uz

53. http://www.mf.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi veb portali.

54. http://www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi veb sayti.

55. http://www. soliq.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi veb sayti.

56. www.wordbank.org. -Jahon Banki ma'lumotlari.

57. www.ebrd.org. -"Evropa tiklanish va taraqqiyot banki" ma'lumotlari.

58. www.imf.org «Xalqaro valyuta fondi» ma'lumotlari.

MUNDARIJA

KIRISH 3

I-BOB. "MAKROIQTISODIYOT" FANIGA KIRISH 4

1.1. "Makroiqtisodiyot" fanining shakllanishi tarix, predmeti va obyekti 4

1.2. Makroiqtisodiyot fanining tadqiqot usullari 8

1.3. "Resurslar- tovarlar va xizmatlar" hamda "daromadlar –xarajatlar"ning doiraviy oqimi modeli 10

II-BOB. MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR 13

2.1. Milliy iqtisodiyotni tahlil qilishda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar 13

2.2. Yalpi ichki mahsulot tushunchasi va uni hisoblashning asosiy shartlari 14

2.3. YaIMni ishlab chiqarish usulida aniqlash 15

2.4. YaIMni xarajatlar bo'yicha hisoblash 16

2.5. YaIMni daromadlar (taqsimot usuli) bo'yicha hisoblash 17

2.6. Milliy hisobchilik tizimidagi boshqa ko'rsatkichlar va ular o'rtasidagi nisbat 19

2.7. Nominal va real YaIM 20

III-BOB. BIZNES SIKLLAR VA IQTISODIY TEBRANISHLAR 24

3.1. Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning o'lchanishi 24

3.2. Iqtisodiy davrlarning xususiyati va ko'rinishi 26

3.3. Davlatning iqtisodiy o'sishga ta'sir etish imkoniyatlari 28

3.4. Iqtisodiyotning siklik rivojlanishi 29

IV-BOB. ISHCHI KUCHI VA ISHSIZLIK 32

4.1. Mehnat bozori va undagi raqobat 32

4.2. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari. A.Ouken qonuni. 34

4.3. O'zbekistonda mehnat bozorini tashkil etish va tartibga solish 36

V-BOB. INFLYATSIYA VA AKSILINFLYATSIYA SIYOSATI 38

5.1. Inflyatsiyaning mohiyati va hisoblanish usullari 38

5.2. Inflyatsiyaning turlari. Talab va taklif inflyatsiyasi 40

5.3. Inflyatsiya va ishsizlik o'rtasidagi bog'liklik. 42

Fillips egri chizig'i 42

5.4. Aksilinflyatsiya siyosati 44

VI-BOB. YALPI TALAB-YALPI TAKLIF MODELI 47

6.1. Yalpi talab - yalpi taklif modeliga umumiy tavsif 47

6.2. Yalpi talabning baho va bahodan boshqa omillari. 49

6.3. Yalpi taklif grafigi va omillari 51

6.4. AD-AS modelida makroiqtisodiy muvozanat 53

VII-BOB. ISTE'MOL VA JAMG'ARISH 57

7.1. Iste'mol va jamg'arish, ularning grafiklari va funksiyalari 57

7.2. Iste'mol va jamg'arishga o'rtacha hamda chegaralangan moyillik 61

VIII BOB. INVESTITSIYA 64

8.1. Investitsiyalarning mohiyati, grafigi va funksiyasi 64

8.2. Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi foiz stavkasidan boshqa omillar. Akselerator modeli 68

8.3. Asosiy fondlarga investitsiyalar 71

8.4. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan investitsion siyosat..... 82

IX BOB. PUL TAKLIFI, PULGA TALAB VA BANK TIZIMI 91

9.1. Pul tushunchasi va uning funksiyalari. Pul agregatlari 91

9.2. Pul taklifi. Bank multiplikatori 92

9.3. Pul taklifining kengaytirilgan modeli, pul multiplikatori 94

9.4. Pulga talabning klassik va keynscha nazariyalari 95

9.5. Pul bozorida muvozanat 98

9.6. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi 100

X BOB. BYUDJET TAQCHILLIGI VA DAVLAT QARZI 111

10.1. Davlat byudjetining mohiyati, funksiyalari va ahamiyati 111

10.2. Davlat byudjetining daromadlari 116

10.3. Davlat byudjetining xarajatlari 121

10.4. Davlat xarajatlari, soliq va balanslashgan byudjet multiplikatorlari..... 124

10.5. Diskret va nodiskret fiskal siyosat. Byudjet taqchilligi va ortiqchaligi ... 128

XI BOB. IS-LM MODELI VA UNING QO'LLANILISHI 134

11.1. IS - LM modelining mohiyati va AD-AS modeli bilan bog'liqligi 134

11.2. IS-LM modelining asosiy tenglamalari 136

11.3. IS - egri chizig'i va uning tenglamasi 140

11.4. LM - egri chizig'i va uning tenglamasi 143

11.5. IS-LM modelida makroiqtisodiy muvozanat 145

XII BOB. IQTISODIY O'SISHNING NEOKEYNSCHA MODELLARI ... 149

12.1. Iqtisodiy o'sishning umumiy tavsifi 149

12.2. Iqtisodiy o'sish omillari va tiplari 152

12.3. Iqtisodiy o'sishning keynscha modellarining umumiy tavsifi. E.Domar modeli 153

12.4. Iqtisodiy o'sishning R. Xarrod modeli. 156

XIII. IQTISODIY O'SISHNING NEOKLASSIK MODELLARI 158

13.1. R. Solouning neoklassik modeli asoslari 158

13.2. R. Solou modelida kapitalning chiqib ketishi aholi soni o'sishing barqaror muvozanat va iqtisodiy o'sishga ta'siri 162

13.3. Texnologik taraqqiyotning iqtisodiy o'sishga ta'siri. Felpsning «oltin qoidasi» 167

13.4. Iqtisodiy o'sishning J.Mid va A. Lyuis modellari 171

XIV BOB. OCHIQ IQTISODIYOT: MANDELL–FLEMING MODELI VA VALYUTA KURSI TIZIMI 176

14.1.Ochiq iqtisodiyot tushunchasi va uning ko'rinishlari 176

14.2. Ichki muvozanat va tashqi muvozanat 178

14.3. Mandell-Fleming modeli 182

14.4. Valyuta kursi. Erkin suzib yuruvchi valyuta kurslari bo'yicha kichik ochiq iqtisodiyot 186

14.5. Qayd etilgan valyuta kurslari ostidagi kichik ochiq iqtisodiyot 192

XV BOB. XALQARO SAVDO NAZARIYASI 196

15.1. Xalqaro savdoning zaruriyati, rivojlanish bosqichlari va asosiy ko'rinishlari 196

15.2. Merkantilizm 199

15.3. A.Smitning mutlaq ustunlik nazariyasi 201

15.4. D.Rikardoning nisbiy ustunlik nazariyasi 203

XVI BOB. TASHQI SAVDO SIYOSATI 207

16.1. Tashqi savdo siyosatining mohiyati va vositalari 207

16.2. Importga ta'riflar va ularning ishlab chiqaruvchilarga hamda iste'molchilarga ta'siri 209

16.3. Ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalar va importni kvotalar orqali tartibga solish 214

16.4. Eksport subsidiyalari. Eksport bojlari va eksportni ixtiyoriy cheklash 218

16.5. O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo statistikasi 220

XVII BOB. VALYUTA KURSI 231

17.1. Valyuta va jahon valyuta tizimi tushunchasi 231

17.2. Valyuta bozorini davlat tomonidan tartibga solish usullari 233

17.3. Valyuta kursi va uni belgilovchi omillar 235

17.4. Nominal va real valyuta kurslari 239

17.5. Makroiqtisodiy siyosatning nominal va real valyuta kurslariga ta'siri..... 242

XVIII BOB. BARQARORLASHTIRISH SIYOSATI 246

18.1. Barqarorlashtirish siyosati tushunchasi va xususiyatlari..... 246

18.2. Siyosatni amalga oshirish va uning oqibatlarida vaqt oraliqlari 248

18.3. Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari 252

GLOSSARIY 285

ILOVALAR 299

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI..... 339

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

**E.I. Ergashev, N.S. Kasimova, U.K. Muxtorova,
G.X. Nazarova, M.E. Jabbarov**

MAKROIQTISODIYOT

O'quv qo'llanma

Muharrir **Z. Bozorova**
Badiiy muharrir **K. Boyxo'jayev**
Kompyuterda sahifalovchi **Z. Ulug'bekova**

Nashr lits. AI[1] 305. Bosishga ruxsat etildi 26.12.2018.
Qog'oz bichimi 60x84 1/16. Shartli bosma tabog'i, 20,3.
Hisob-nashr tabog'i 21,0. Adadi 180.
20-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100000, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 60[a].

«DAVR MATBUOT SAVDO» bosmaxonasida chop etildi.
100198, Toshkent, Qo'yliq, 4-mavze, 46.